



ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2018-yil, 6-son (112) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Sotsiologiya, Filologiya, Pedagogika, Psixologiya, Iqtisodiyot, Huquqshunoslik

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI:

R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor
H. A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M. X. ASHUROV	- O‘zFA akademigi	A. A. ABULQOSIMOV	- geogr.f.d., professor
T. M. MO‘MINOV	- O‘zFA akademigi	J. D. ELTAZAROV	- fil.f.d., professor
SH.A.ALIMOV	- O‘zFA akademigi	D. I. SALOHIY	- fil.f.d., professor
S.N. LAKAYEV	- O‘zFA akademigi	S. A. KARIMOV	- fil.f.d., professor
T.RASHIDOV	- O‘zFA akademigi	T. SH. SHIRINOV	- tar.f.d., professor
S. S. G‘ULOMOV	- O‘zFA akademigi	M.D.DJURAKULOV	- tar.f.d., professor
N. N. NIZAMOV	- f.-m.f.d., professor	I. M. SAIDOV	- tar.f.d., professor
A. S. SOLEEV	- f.-m.f.d., professor	B. O. TO‘RAYEV	- fals.f.d., professor
I. A. IKROMOV	- f.-m.f.d., professor	O.M. G‘AYBULLAYEV	- fals.f.d., professor
B. X. XO‘JAYAROV	- f.-m.f.d., professor	J.YA.YAXSHILIKOV	- fals.f.d., professor
I. I. JUMANOV	- f.-m.f.d., professor	M. Q. QURONOV	- ped.f.d., professor
E. A. ABDURAXMONOV	- k.f.d., professor	X. I. IBRAGIMOV	- ped.f.d., professor
N. K. MUXAMADIYEV	- k.f.d., professor	N. SH. SHODIYEV	- ped.f.d., professor
J. X. XO‘JAYEV	- b.f.d., professor	E. G‘. G‘OZIYEV	- psixol.f.d., professor
Z. I. IZZATULLAYEV	- b.f.d., professor	SH. R. BARATOV	- psixol.f.d., professor
Z. F. ISMAILOV	- b.f.d., professor	B. Q. QODIROV	- psixol.f.d., professor
S. B. ABBOSOV	- geogr.f.d., professor	R. A. SEYTMURATOV	- i.f.d., professor
L. A. ALIBEKOV	- geogr.f.d., professor	B. X. TO‘RAYEV	- i.f.d., professor

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENTS

TARIX/HISTORY		
Narmanov F.A.	XX asrning 20-30-yillarda Samarcanda teatrlar faoliyati (Samarqand viloyat davlat arxivi manbalari asosida)	5
Ungalov A.	O'zbekistonda qurolli kuchlarni rivojlantirish sohasidagi islohotlar	8
Muqimov Z.	Xorazmshohlar davlatining inqirozi va uning sabablari (1097-1231)	11
Xudaybergenov H.	O'rta asrlarda Xorazmning an'anaviy kulolchiligi – arxeologik manbalar asosida	15
Daminov N.A.	Mustaqillik yillarda samarcand viloyatida sog'liqni saqlash sohasini rivojlanishi hamda istiqbollarining tarixiy ahamiyati	18
FALSAFA/PHILOSOPHY		
Muminova Z.O.	Tafakkur – o'z-o'zini tashkillashtirishning asosi sifatida	23
Nadirova Z.P.	Ijtimoiy taraqqiyotda intuitsianing o'rni	25
Tursunova O.F., Ziyavuddinov D.	Milliy qadriyatlarda bola manfaatlarini himoya qilish masalalari	29
Zoirov E.X.	Maxdumi A'zamning "Risolai vujudiya" asarida inson muammosi	32
Замилова Р.	«Философ – мыслитель как творец и героическая личность»	35
To'xtaev H.M.	O'zbekston qishloqlarida farovon hayot barpo etishning moddiy va ma'naviy omillari	38
Samadov A.R., Qodirova G.M.	Yoshlarda badiiy madaniyat va estetik immunitetni shakllantirish masalalari	41
SOTSILOGIYA/SOCIOLOGY		
Muydinov D.N.	Yevropada migratsiya siyosiy vosita sifatida	45
Гонашвили А.С.	Эвристическое понимание ценностных ориентаций в социологической науке	47
Qurbanov T.	Madaniy merosning tiklanish negizida milliy mentalitet o'zgarishi	52
FILOLOGIYA/PHILOLOGY		
Omonturdiyeva SH.	O'zbekcha diniy matn: funksional-stilistik tadqiq muammolari	55
Rahimova G.	Poetik obraz yaratish: an'ana va mahorat	58
Малиновский Е.А., Юнусова Н	Некоторые замечания о фразеологии в новом академическом «словаре современного русского литературного языка» (в 20-ти томах)	60
Davronova M.I.	Abduvali Qutbiddin she'riyatida tasavvufiy dunyoqarash	64
Рузиева С.А.	Анализ значений концепта «семья» в английском и узбекском языках	68
Suvankulov B.M.	Latifalarda badiiy – tasviriy vositalar	70
Xonxo'jayeva A.	Samarqand tojiklari etnografik leksikasiga oid ba'zi mulohazalar	75
Rahimov M.	Von predlogining leksik, semantik xususiyatiga ko'ra mazmun mohiyatining yoritilishi	79
Khalikova M.R., Norqobilov D.	The traditional instruction of the classical languages	83
Сафарова У.А.	Синтаксическая конструкция контаминации во французском предложении	85
Рисаева О. М.	Аспектуальные ситуации с сочетаниями с предельным функциональным глаголом geraten в современном немецком языке	89
Li Didi	The application of output hypothesis in fl teaching	92
Умирова Г.Х.	Н.Некрасов и А.С.Пушкин в переводах Зульфии	96
G'ayullaeva N.I.	Kasbiy muloqotda evfemizmlarning xususiyatlari	100
Xolmurodova O.A	Ertak janrida kumulyativ struktura – rus, ingliz xalq ertaklari misolida	106

Ким С.Ф., Хасанова П.Р.	Структурно-семантические особенности употребления приложений в прозаических и поэтических произведениях А. С. Пушкина	112
Уразова Р., Османова Т.	Воспитательный процесс в развитии патриотизма у студентов, посредством культурно-досуговой работы на педагогическом факультете СамГУ	114
Norov O.	O'roz Haydar lirikasida makon va zamon muammosi	116
Yakubov F.U., Norqo'zieva I.F.	Y.V.Gyotening "g'arbu sharq devoni" o'zbek adabiyotshunoslari talqinida	119
PEDAGOGIKA/PEDAGOGICS		
Mambetova I.J.	Chet tilini o'qitishda multimediyaviy o'quv manbalaridan foydalananishning samaradorligi	123
Haydarov B.T., Ibroimova G.X	Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish	126
Tursunova Ch.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasblar olami bilan tanishtirish mavzusining ilmiy pedagogik asoslari	129
Азизова Г.Г.	Проектирование современной технологии обучения на занятиях английского языка	133
Qosimova R.A., Boltaev Z.B.	Sportda yuqori mahoratga erishish uchun eng ma'qul yoshning ahamiyati	138
Abdullayeva N.I., Murtazayeva U.I.	Ta'llimning kredit tizimida kompyuter texnologiyalarini qo'llash talabalar kompetentligini oshirish vositasi sifatida	141
Murtazayev E.M., Boymuratov F.X.	Qishloq xo'jalik mashinalari fanini o'qitish tyexnologiyalari	146
Egamov M. X.	Sferik trigonometyrik masalalarni MAPLE dasturi yordamida o'qitish metodikasi	149
Otamurodov G'.R.	Oliy ta'lim tizimi pedagoglarini mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari	152
Нуритдинов Э.Н., Раупов О.К., Курбанов А.А., Бердикулова Н.	Динамика формирования двигательных навыков у спортсменов	159
Gulyamov K.M.	Bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlash tizimini takomillashtirishda kompetensiyaviy yondashuvning ilmiy tahlili	163
Mattiiev I. B.	Talabalarda salomatlikni asrashga yo'naltirilgan "health care" tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiyalar samaradorligi	167
Temirova N.K.	Improving the quality of development and providing competitive personnel	170
Mannabov J.T.	O'qituvchilarning internet-texnologiyalari sohasidagi kasbiy texnologik kompetentligini shakllanish darajalari	172
Сайфуллаева Н.З.	Развитие экономического мышления у студентов на основе инновационных технологий обучения	175
Fayziyev M., Madatov I.	Oliy ta'lim muassasasida blended learning konsepsiyasidan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etish mexanizmlari	177
PSIXOLOGIYA/PSYCHOLOGY		
Мухамедова Д.Г., Мусинова Р.Ю.	Значение креативности в саморегуляции личности	182
Otajanov K.O.	Temiryo'l transporti menejeri samarali boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-psixologik modeli	187
Zaitov E.X.	Institutsional muassasa bitiruvchisi fenomenini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar	190

IQTISODIYOT/ECONOMICS		
Peng Xinge., Nasimov D.	A survey of the problems in the internationalization of china's small and medium-sized enterprises and its implications for the future internationalization of enterprises in Uzbekistan	195
Shao Junling., Nasimov D.	Talking about the Economic and Financial Effects of the "One Belt, One Road" Strategy on China	200
Arabov N.U., Alibekova S.L., Meliyev X.T.	Oliy ta'lim tizimida yosh mutaxassislarni tayyorlashning sifat ko'rsatkichlari	204
Mualliflarga		

UDK: 902.1(575.141)

**XX ASRNING 20-30-YILLARIDA SAMARQANDDA TEATRLAR FAOLIYATI
(SAMARQAND VILOYAT DAVLAT ARXIVI MANBALARI ASOSIDA)**

F.A.Narmanov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand hududida shakllangan teatrlar tarixiga oid bo‘lgan ma’lumotlar arxiv manbalari asosida tahlil etiladi. Samarqandda faoliyat olib borgan teatrlarning XX asrning 20-30-yillaridagi ahvoli, dastlabki truppalarining shakllanishi, ularning aholi madaniy hayotiga ko‘rsatgan ta’siri, teatrlarning o‘z davri siyosiy va madaniy jarayonlardagi ishtiroki yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: teatr, truppa, madaniyat, ma’naviyat, repertuar, “musulmon truppasi”, targ‘ibot, tashviqot, dramto‘garak, klub, maorif, hofiz, “maktab studiyasi”, aktyor, sahna asari.

**Деятельность театров в Самарканде в период 20-30 годов XX века
(на основе государственных архивных источников Самаркандской области)**

Аннотация. В данной статье на основе архивных материалов анализирована история театров Самаркандского региона. Рассмотрено формирование театров в этот период, а также их влияние на культурно-духовную жизнь населения.

Ключевые слова: театр, труппы, культура, репертуар, «Мусульманская труппа», пропаганда, драмкружок, клуб, просвещение, певец, “Студия школа”, актёр, произведение сцены.

Activities of theaters in Samarkand in the 20-30 years of 20 century (based of archive sources of Samarkand regional state archives)

Abstract. In the article the history of theatres which formed in the Samarkand region is studied. Also described position of theatres, their formation, developing the first troupes, position, influence of theatres on cultural-spiritual life of the population, participation political and cultural actions 20-years of the XXth century is showed.

Keywords: theatre, troupes, culture, repertoire, «Muslim troupe», propagation, club, education, the singer, “Studio school”, the actor, scene product.

Samarqand yurtimizda dastlabki teatr shakllangan hududlardan biridir. O‘zbek teatri tarixida Samarqandda tuzilgan teatr jamoalarining faoliyati salmoqli o‘rin tutadi. Bugungi kunda viloyatda uchta asosiy teatr faoliyat olib borayotgan bo‘lib, hozirgi ko‘rinishga kelguniga qadar bu teatrlar ancha mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tgan. Hozirda viloyat bosh arxiv boshqarmasining qator fondlarida Samarqand teatr jamoalari tarixiga oid bo‘lgan bir qancha qimmatli ma’lumotlar saqlanmoqda. Bu yerdagi 104, 142, 152, 230-fondlarning manbalarida Samarqand teatrlari tarixi, ularning shakllanishi bilan bog‘liq ma’lumotlar o‘rin olgan. Arxiv ma’lumotlari asosida Samarqand teatrlarining XX asrning 20-30-yillardagi tarixini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu manbalar bizga yuqorida keltirib o‘tganimiz mavzu yuzasidan kerakli hujjatlar bilan tanishish barobarida mazkur davr teatrlarining ahvoli, unda qo‘yilgan sahna asarlarining mazmun-mohiyati, teatrlarning madaniy-ma’rifiy muassasa sifatida o‘z davri kishilar ma’naviy-madaniy hayotiga ko‘rsatgan ta’siri haqida bugungi kun ruhi bilan baho berishga yordam beradi. Viloyatdagi dastlabki teatr truppasiga barchamizga yaxshi ma’lum bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning safdoshlari tomonidan 1914-yilning yanvar oyida asos solinganligini ko‘ramiz[1.13]. Mahalliy havaskor aktyorlar jamoasidan iborat bo‘lgan bu teatr 1918-yilga qadar “Samarqand musulmon truppasi” deb ataldi[2.20]. Bu truppaning tashkil etilishi viloyatning boshqa hududlarida ham havaskorlik truppalarining shakllanishiga turtki bo‘ldi. Samarqand shahrining o‘zida o‘nga yaqin, Jizzax, Kattaqo‘rg‘onda uchta mahalliy havaskorlik truppalari faoliyat olib bordi[3.24]. Shuningdek, Samarqand dastlabki rus teatri tashkil topgan hududlardan biri sanaladi. Bu yerda A.Yurenev-Limontov rahbarligida ilk rus teatri tuziladi[4.16]. Ammo joylardagi ilk havaskorlik teatr jamoalari iqtisodiy sharoitning yetishmasligi natijasida o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘ldi. Ayrim truppalar bir-biriga yaqin hududdagi truppalar bilan qo‘sib yuborildi. Natijada viloyatda asosan uchta teatr Samarqand shahridagi markaziy teatr, shahardagi rus teatri va Kattaqo‘rg‘on teatrlari saqlanib qoldi. Joylardagi teatr ishlariga rahbarlik qilish 1921-yilga kelib madaniy-oqartuv boshqarmasining badiiy bo‘limiga yuklatildi. Aynan

shu davrdan boshlab madaniy-ma'rifiy muassasa sifatida teatrlar qattiq nazorat ostiga oliga boshladi. Viloyat asosiy teatrining nomi 1922-yildan "Samarqand o'zbek teatri" deb qayta nomlandi[5.28]. Boshqarmaning nazorati ostida teatrlearning faoliyati, qo'yiladigan sahna asarlari mafkuraviy tuzumga bo'ysundirilib, uning o'ziga xos targ'ibot quroliga aylantirildi. Teatrlearning asosiy yo'nalishi va vazifasi qilib o'zining jamoasi bilan qishloqlarda, ishchilar tumanlari, mahalliy aholining xotin-qizlar va bolalar qismiga xizmat qilish orqali aholi orasida sovet davrini targ'ib qilish belgilandi[6.68].

XX asrning 20-yillarida teatrlarga ajratilgan tomosha ko'rsatish binosining yo'qligi bu davr teatrlarining asosiy muammolaridan biri bo'lib qoldi. Tomosha uchun ajratilgan joy esa teatrlarning qanday sharoit va ko'rinishda faoliyat olib borganligidan dalolat beradi. Samarqand shahrida teatr faoliyati uchun ajratilgan binoning mavjud emasligi natijasida shaharning musulmonlar yashovchi qismida savdogarlar Mulla Qandov va Qalandarovlarning saroyidan tomoshaxona sifatida foydalaniqan, Kattaqo'rg'on shahrida esa mahalliy teatr truppasi shahar klubi va bolalar bog'chasining yozgi qismida tomoshalar qo'yib kelgan[7.498]. Shuningdek, Abdulla Badriyning teatr ahvoli haqidagi "kostyum va dekoratsiyalar mutlaqo yaroqsiz. Shahar xalq maorifidagi o'rtoqlar faqat tomoshadan tushgan aqchalarini sanash bilan band, shunday bo'lsada truppamiz 10 dan ziyod spektakllarni o'ynadi"[8.59] deya aytgan so'zları ushbu davr teatrlarning og'ir sharoiti haqida ma'lumot beradi.

XX asrning 20-30-yillarida teatrlar faoliyatidagi dolzarb masalalardan biri teatr repertuarlari va uning mavzulari masalasi bo'lib qoldi. Teatrlarning nazorat ostiga olinishi sahnada qo'yiladigan asarlarning mavzu va g'oyalari mahalliy aholining xohishi bilan emas, balki davr nuqtayi nazaridan o'zgartirildi. Tariximizdan yaxshi ma'lumki, mahalliy teatr truppalarini tomonidan jamiyatdagi ma'lum bir illat sahnaga olib chiqilib qoralangan. Shuning barobarida jamiyatdagi turli illat va nuqsonlar bartaraf etilgan. Bu davrga kelib repertuar mavzulari va uning yo'nalishi sovet hukumatining madaniyat bo'limlari tomonidan belgilab berildi. Sahna asarlari mahalliy aholining madaniy va ma'naviy hayotiga bog'liq bo'lmagan paxta muammosi, mahalliy aholi ma'naviy hayotiga ta'sir va sotsialistik musobaqa, xotin-qizlar savodsizligi, madaniy qurilish, dinga qarshi qaratilgan targ'ibot kabi yo'nalishlar o'rin oldi[9.68]. 20-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab joylarda tashkil etilgan klublar qoshida dramto'garaklar faoliyat ko'rsata boshladi. Arxiv ma'lumotlarining guvohlik berishicha, mazkur davrda mahalliy yozuvchilarning asarlari sahnaga olib chiqilmadi. Dramto'garaklar har bir klub qoshida tashkil etilgan bo'lib, asosan, mahalliy teatr jamoalariga sahna asari va uning ijrochilarini ta'minlash bilan mashg'ul bo'lgan[9.69].

Teatrlarda qo'yiladigan sahna asarlari maxsus komissiya tavsiya etgan mavzular asosida teatr bo'limlari dramaturglar bilan shartnomalar tuzishlari va shu asosda dramalar yozish belgilab qo'yildi. Mahalliy aholining qaysi yo'nalishda qanday tomoshani ko'rish borasidagi xohish va istagi inobatga olinmadi. Teatrlar faoliyati va repertuarini nazorat qilish natijasida har bir spektakl boshlanishidan avval 2-3 joy biringchi qatordan nazoratchilar uchun saqlanishi lozim edi.

XX asrning 20-30-yillarida teatrlar faoliyatining muhim jihatlaridan yana biri unda faoliyat olib boruvchi aktyorlar masalasi edi. Teatrda faoliyat olib boruvchi aktyorlar tarkibi va ularning mahorati uning faoliyat mezonini belgilovchi omillardan biridir. O'z davrida teatrlarni mahoratlgi aktyorlar bilan to'ldirish dolzarb masala bo'lib qoladi. Mahalliy truppalarda dastlab obraz va rollar faqat erkak kishilar tomonidan ijro etilar edi. Bu yillar davomida teatrlarga aktyorlar yetishmasligi bois tomoshalar aksariyat hollarda konsertlar ko'rinishida davom ettirilib, hududlardagi hofizlar bu ishda bosh-qosh bo'lar edi. Barcha madaniy-ma'rifiy muassasalarning maorif tizimi tarkibiga o'tkazilishi natijasida ayrim vaqtarda maktab o'qituvchilari teatrga aktyor sifatida jalb etilardi. Bunday sharoitda truppa a'zolari tarkibi o'quvchi va o'qituvchilar hisobiga tez-tez o'zgarib turar, bu holat doim ham katta sahna asarlari namoyish etishga imkon bermas edi. 30-yillarga kelgan davrda ham teatrlardagi kadrlar masalasi yechimini topmagan edi. Viloyatning Xatirchi, Payariq, Urgut tumanlarida tashkil etilgan kolxoz-sovxozi kichik teatrlarida ham aktyorlar yetishmagani bois asosiy rolni markaziy teatrlardan chaqirilgan aktyorlar o'ynashgan. O'zbek teatri tarixida o'chmas iz qoldirgan A.Hidoyatov, E.Bobojonov, M.Miroqilov, Z.Hidoyatova, S.Ishonto'rayeva, T.Sultonova, S. Tabibullayev va boshqa ko'plab yirik san'at arboblarining 1925-1930-yillarda Samarqand teatrinda olib borgan faoliyati viloyatdan ham malakali sahna ustalari yetishib chiqishiga o'zining samarali ta'sirini o'tkazdi[10.109.110]. Bu o'z navbatida ushbu yillar davomida viloyatdan P.Raximov, X.Narziqulov, X.Zafarova, K.Umarov, B.Ismoilova, Yu.Astanov, Sh.Ma'rufiy, Z.Fayziyeva, B.Tojiyev, Yu. Kamolov, M.Mahmudov, M.Muhiddinov kabi ko'plab mahoratlgi mahalliy aktyor va aktrisalar yetishib chiqdi[11.15]. Xo'sh, bu davr teatrlarining asosiy tomoshabinlar qatlami kimlar edi? 1930-yilga qadar

o‘lkaning boshqa hududlarida bo‘lgani kabi Samarcand viloyatidagi teatrлarda ham yoshlар uchun alohida tomoshalar namoyish etilgan emas. Teatrning asosiy tomoshabinlari tuman ishchilari, qishloq joylaridagi mahalliy dehqon aholi vakillarini qamrab oлган. Ammo bu tomoshabinlarga ko‘rsatilgan sahna asarlari tomoshabin talabi asosida emas, ko‘proq zamon targ‘iboti maqsadini ko‘zlagan spektakllardan iborat bo‘ldi. Tomoshalar boshlanishidan avval tashkil etilgan spektakl haqida afisha, savol-javoblar kitobi, tomoshabinlar uchun ekskursiya va devoriy gazetalarda ham keng miqyosida sovet hokimiyati targ‘ibotiga bag‘ishlangan ma’lumotlar berib borilgan[12.69]. 30-yillardan keyin shahar teatrлари qoshida bolalar uchun tomoshalar ko‘rsatuvchi bo‘limlar tashkil etildi. Teatrлar qoshida “maktab studiya”si tashkil etilib, unga aktyorlar sifatida o‘quvchilarga ma’nан yaqin bo‘lgan maktab muallimlari va o‘qituvchilar tayyorlov kursi talabalarini keng jalb qilinadi[13.73].

Madaniy-ma’rifiy muassasa sifatida teatrлar yillik tasdiqlangan rejasidan tashqari maorif komissarligi tasarrufidagi boshqa muassasalar qatori bahorgi dala ishlariga ham keng jalb qilingan[14.35]. Samarcanddagi teatr truppalari o‘zi joylashgan hudud aholisiga madaniy xizmat ko‘rsatish bilan birga yillik tasdiqlangan rejalarini asosida joylarda ham keng miqyosida targ‘ibot yo‘nalishidagi tadbirlarining o‘tkazilishiga jalb qilingan. 1929-yilgi yozgi mavsumning asosiy qismini Samarcand teatr jamoasi Farg‘ona vodiysi shaharlarida o‘tkazadi. 5-iyuldan 31-iyulgacha Farg‘onada 15 ta spektakl namoyish etiladi, 1-avgustdan 19-avgustgacha Andijonda 9 ta, 22-avgustdan 7-sentabrgacha Qo‘qonda 11 ta spektakllar qo‘yilgan. 8-sentabrdan Toshkentga safar qilgan truppa 30-oktabrga qadar bu yerda faoliyat olib borib, bir oy davomida (15-sentabrdan 15-oktabr) qishki mavsum uchun tayyorgarlik ishlarini olib boradi[16.95]. Bundan tashqari teatr jamoasi targ‘ibot ishlar maqsadida viloyatning asosiy tumanlariga butun yil davomida badiiy chiqishlarni amalga oshirishga yo‘naltirilib ba‘zi yillarda yilning o‘n bir oyini qishloq aholisiga o‘z san’atini namoyish etgan paytlar ham bo‘lganligi arxiv ma’lumotlarida saqlanib qolgan[17.35].

Xulosa qilib aytganda, XX asrning 20 – 30-yillari Samarcand teatrлar faoliyatidagi og‘ir davrlardan biri bo‘ldi. Bir tomondan iqtisodiy sharoitning og‘irligi teatrлarning doimiy faoliyat olib borishiga imkon bermagan bo‘lsa, ikkinchi tomondan teatrлarning ijodiy erkinligi hukmron jamiyatning turli nazorat organlari tomonidan cheklab qo‘yildi. Sahna asarlari aholining talab va istaklarini inobatga olmagan holda, uning qanday ruhdagi sahna asarlarga qiziqishi borligiga qaramasdan oldindan belgilangan mahalliy aholining ma’naviy hayotiga bog‘liq bo‘lmagan sahna asarlari qo‘yildi. Mahalliy yozuvchilarining yirik tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan asarlari g‘oyaviy va badiiy jihatdan bo‘sh hisoblanib sahnaga olib chiqilmadi. Bu esa o‘z navbatida milliy teatr san’atining bo‘g‘ib qo‘yilishiga olib keldi.

Adabiyotlar

1. Samarcand viloyat davlat arxivi.104-fond, ro‘yxat-1. 3-ish. 13-varaq.
2. Samarcand viloyat davlat arxivi. 230-fond, ro‘yxat-1. 1-ish. 20-varaq.
3. Samarcand viloyat davlat arxivi.230-fond, ro‘yxat-1. 1-ish. 24-varaq.
4. Samarcand viloyat davlat arxivi. 104-fond, ro‘yxat-1. 3-ish. 16-varaq.
5. Samarcand viloyat davlat arxivi. 230-fond, ro‘yxat-1. 1-ish. 28-varaq.
6. Samarcand viloyat davlat arxivi. 230-fond, ro‘yxat-1. 15-ish. 68-varaq.
7. Культурное строительство в Туркестанской АССР. (1917-1924 гг). Сборник документов. Ташкент. “Узбекистан”. 1973. Том-1. Ст-498.
8. Samarcand viloyat davlat arxivi. 152-fond, ro‘yxat-1. 94-ish. 59-varaq.
9. Samarcand viloyat davlat arxivi. 230-fond, ro‘yxat-1. 15-ish. 68-69 varaq.
- 10.Samarcand viloyat davlat arxivi. 230-fond, ro‘yxat-1. 12-ish. 109-110-varaq.
- 11.Samarcand viloyat davlat arxivi. 230-fond, ro‘yxat-1.17-ish. 15-varaq.
- 12.Samarcand viloyat davlat arxivi.230-fond, ro‘yxat-1. 15-ish.69-varaq.
- 13.Samarcand viloyat davlat arxivi.142-fond, ro‘yxat-1. 7-ish. 73-varaq.
- 14.Samarcand viloyat davlat arxivi. 230-fond, ro‘yxat-1. 22-ish. 35-varaq.
- 15.Samarcand viloyat davlat arxivi. 230-fond, ro‘yxat-1. 9-ish. 95-varaq.
- 16.Samarcand viloyat davlat arxivi. 230-fond, ro‘yxat-1. 22-ish. 35-varaq.

UDK: 94(575.1)

**O'ZBEKİSTONDA QUROLLI KUCHLARNI RIVOJLANTIRISH SOHASIDAGI
ISLOHOTLAR**

A.Ungalov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqola keying yillarda O'zbekistonda Qurolli Kuchlar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahliliga bag'ishlangan. O'zbekistonda harbiy soha huquqiy bazasining yaratilishi, sohada olib borilgan o'zgarishlar, harbiy xizmatchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mexanizmining yaratilishi, shuningdek, O'zbekiston armiyasining jahon jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilishi va O'zbekistonni 2017-2021-yillarda rivojlantirishga qaratilgan Harakatlar strategiyasi doirasida kelgusida harbiy sohada bajarilishi lozim bo'lgan ishlar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: qurolli kuchlar, millatlararo xavfsizlik, harbiy islohatlar, harakatlar strategiyasi, harbiy bilim yurtlari, muddatli harbiy xizmat, zamонавија армија

**Реформы, направленные на развитие вооруженных сил
в Узбекистане**

Аннотация. В статье освещены реформы, осуществляемые в сфере вооруженных сил в Узбекистане в годы Независимости. В ней нашли отражение создание правовой базы военной сферы в Узбекистане, создание механизма всестороннего поощрения военнослужащих и внедрение в жизнь, а также, признание узбекской армии мировым сообществом и задачи, которые должны быть выполнены в будущем в военной сфере в рамках Стратегии Действий, направленной на развитие Узбекистана в 2017-2021 годах.

Ключевые слова: вооруженные силы, международная безопасность, военные реформы, стратегия действий, военные учебные заведения, срочная военная служба, система аутсорсинга, современная армия.

Reforms in the sphere of the development of armed forces in Uzbekistan

Abstract. The article is devoted to the reforms held in Uzbekistan in the sphere of armed forces in the years of independence. It reflects the creation of lawful basis of military sphere in Uzbekistan, changes in the sphere, creating of the mechanism of encouraging those who is involved in military service and its implementation to life, also recognition of Uzbek army by the world community and tasks to be fulfilled in the future in military system in the frame of Strategy of Actions directed to the development of Uzbekistan in 2017 – 2021.

Keywords: armed forces, international security, military reforms, strategies of actions, military educational institutions, term military service, system of outsourcing, modern army.

O'zbekistonda musataqillik yillarida boshqa sohalarda bo'lgani kabi Qurolli Kuchlar sohasida ham qator islohatlar o'tkazildi. Yurtimiz va Markaziy Osiyodagi mavjud siyosiy, harbiy, geosiyosiy vaziyatidan kelib chiqqan holda hozirgi davrda Qurolli Kuchlar tizimini bosqichma-bosqich isloh qilish eng muhim davlat ahamiyatidagi siyosat hisoblanadi. Shu bois bu boradagi islohotlarning tub mohiyati mamlakat tinchligi va osoyishtaligini ishonchli va samarali himoya qilishga qodir bo'lgan, tezkor, yaxshi moddiy-texnik bazaga ega Qurolli Kuchlarni shakllantirishdan iborat bo'ldi. Qurolli kuchlar sohasidagi harbiy islohotlar, ya'ni Qurolli Kuchlar, chegara va ichki qo'shnlarni yagona davlat siyosati negizida bosqichma-bosqich isloh qilish ishlari boshlandi. Mazkur masala xususida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi I chaqiriq Oliy Majlisning XI sessiyasida so'zlagan nutqida xalq deputatlari e'tiborini harbiy xizmat masalasiga qaratib shunday deydi: "Biz shunga erishmog'imiz kerakki, harbiy xizmat so'zda emas, balki amalda farzandlarimizning, yoshlarimizning nufuzli ishi, shon-sharaf ishi bo'lmog'i lozim" [1]. Birinchi Prezident I.Karimovning aniq va ravshan pozitsiyasi yangi armiyani shakllantirish ishida prinsipial ahamiyatga ega bo'ldi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O'zbekiston hududidagi SSSR harbiy-texnikasining olib chiqib ketilishiga yo'l qo'yilmadi. Chunki, O'zbekiston bunga to'la manoda haqli ham edi. 1992-yil 14-yanvaridan 1995-yil boshlarigacha bo'lgan davr Qurolli Kuchlarimizning tashkiliy va qayta tuzilishi davri bo'ldi. I.Karimov mustaqil O'zbekiston Qurolli Kuchlar tizimini yangidan shakllantirar ekan: "Biz o'z armiyamizni tuzamiz. Bu yildan boshlab harbiy xizmatga

chaqirilgan yigitlar mamlakat ichkarisidagi qo'shinlarning asosiy qismini tashkil etadi. Bu Armiya O'zbekiston xalqini, O'zbekiston mustaqilligini muhofaza etish qudratiga ega bo'ladi. Xalqimizning eng sara o'g'lonlaridan iborat eng sara milliy gvardiya tuziladi”[2] – dedi va bunga sidqidildan kirishdi. Ayni shu davrda ularning tashkiliy-shtat tuzilmasi qayta qurildi. Qurolli Kuchlarimiz hayotiy faoliyati va yuqori jangovar qobiliyatiga aloqador bo'lgan ushbu muhim muammolarni hal etish maqsadida mamlakatimizda qisqa muddatlar ichida milliy harbiy kadrlar tayyorlashning izchil tizimi barpo etildi. Toshkent oliv umumqo'shin, Chirchiq oliv tank, Samarcand oliv harbiy avtomobil va 1994-yil iyunida tashkil etilgan Jizzax oliv harbiy aviatsiya bilim yurtlari, shuningdek, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, 1995-yilning 2-sentabrida Toshkentda mintaqamizdagи birinchi Qurolli Kuchlar Akademiyasining ochilishi ulkan siyosiy ahamiyatga molik voqeа bo'ldi[3]. O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga[4] va O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»[5] gi qonuniga asosan respublika hududida istiqomat qiluvchi barcha fuqarolarning vazifasi va muqaddas burchidir deb qonunchiligmizda belgilab qo'yildi. Qurolli Kuchlar to'la shakllanib bo'lgach, navbatdagi vazifa uni davr talabi asosida isloh qilishdan iborat edi. Qurolli kuchlarni tubdan isloh qilish davrlarni shartli ravishda bosqichlarga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich 1998–2000 yillarda o'tkazildi. mazkur davr mobaynida O'zbekiston Respublikasi Harbiy doktorinasi qayta ko'rib chiqildi va mamlakat milliy xavfsizligini ta'minlovchi Mudofaa Doktorinasi qabul qilindi. Islohatlar davrida O'zbekiston Qurolli kuchlari tizimida qo'shinlarda tezkor boshqaruvni amalga oshirish, jangavorlik salohiyatini yuksaltirish maqsadida mamlakat hududida beshta harbiy okrug tashkil etildi.[6] 1999-yilgacha chegara qo'shinlari Milliy xavfsizlik xizmati tarkibida bo'lgan bo'lsa, 1999-yil 13-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mita tashkil etildi [7]. 2000-yil 29-yanvarda Prezident farmoni asosida Qurolli Kuchlar Birlashgan shtabi tashkil etildi [8]. Bir so'z bilan aytganda islohotlarning ushbu davrida zamonaviy armiya uchun dastlabki siljishlar bo'ldi. Islohotlarning ikkinchi bosqichi 2000-2002-yillarni o'z ichiga olib O'zbekiston Mudofaa Doktorinasiga muvofiq Mudofaa vazirligi va Chegara qo'shinlari bo'linmalar, Ichki ishlar vazirligi va Milliy xizmatning maxsus qisimlari, shuningdek, boshqa idoralarning harbiy tuzilmalarini o'z ichiga olgan Qurolli Kuchlar tizimi yaratildi. Shu bilan birga Qurolli Kuchlarning yagona markazlashgan boshqaruvini tashkil etish maqsadida yana bir qator ijobjiy ishlar amalga oshirildi. O'zbekistonda 2001-yil 26-yanvarida professional harbiy xizmatchilarni tayyorlashga ixtisoslashtirilgan serjantlar tayyorlash maktablariga asos solinishi bilan professional armiya tuzishga zamin yaratildi va shu bilan birga serjantlar tarkibi o'zgartirildi. Qurolli kuchlar tizimida Serjantlar korpusining yaratilishi O'zbekiston milliy armiyasini mavqeyini yana bir bor kuchaytirdi[9]. 2001-yil davomida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida bosqichma-bosqich to'rtta serjantlar tayyorlash maktabi tashkil etildi. Harbiy okrug serjantlar tayyorlash maktablari Markaziy va Toshkent harbiy okruglarida Janubiy-G'arbiy maxsus va Sharqiy harbiy okruglarida tashkil etildi[10]. Professional armiyani yaratishda Islohotlarning uchinchi bosqichi 2002-2005-yillarni o'z ichiga oldi va 2002-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq XII sessiyasida qayta ishlangan “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida”gi Qonuni qabul qilindi. Qabul qilingan qonunga asosan muddatli harbiy xizmat oddiy askarlar va serjantlar uchun o'n ikki oy, oliv o'quv yurtlarini harbiy kafedrasida ta'lim olmagan yoshlar uchun to'qqiz oy qilib belgilandi[11]. Ushbu davrdan boshlab Qurolli Kuchlarning sifat bosqichi bosqichi boshlandi. Endi harbiy xizmatda faoliyat olib borayotgan va harbiy xizmat faoliyatini o'tab nafaqaga chiqqanlar, yohud muddatli harbiy xizmatni o'taganlar uchun ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tadbirlari yanada jadallashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2007-yil 24-maydagi “Ishga joylashtirishga muhtoj, mehnat bilan band bo'lmagan aholini hisobga olish metodikasini takomillashtirish to'g'risidagi” hamda 2009-yil 14-yanvardagi “Fuqorolarni muddatli harbiy xizmatga yig'ish va jo'natish, ularni harbiy qismlarda qabul qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezeriviga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni yashash sharoitlariga qaytarishni tashkil etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi”[12] qarorlarini ijrosini ta'minlash maqsadida mahalliy davlat organlarining Qurolli Kuchlarda muddatli harbiy xizmatni o'tagan fuqorolarni ish bilan ta'minlash bo'yicha bir qator vazifalar belgilandi. 2008-yil 20-noyabrdagi Prezident Farmoni asosida 2009-yildan boshlab fuqarolarni Qurolli Kuchlarda muddatli harbiy xizmatga yiliga bir marta – fevral-mart oylarida chaqirish hamda belgilangan harbiy xizmatni o'tab bo'lgan fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari zaxirasiga mart-aprel oylarida

bo'shatish yo'lga qo'yildi [13]. Bu borada Respublikasi Mehnat vazirligining bandlikka ko'maklashish makazi ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, armiyadan qaytgan yoshlarni ishga joylashtirish borasida yo'lga qo'yilgan tizim natijasida 2015-yil davomida Qurolli kuchlar safidan rezeriviga bo'shatilgan 18 mingdan ortiq fuqaroning 16,5 mingdan ziyodi ish bilan taminlandi[14]. Qurolli Kuchlar tizimida olib borilayotgan ta'lim tizimi ham demokratlashtirildi. Mustaqillik ruhiga mos yangi fanlarni o'qitish joriy etildi. Harbiyalarimiz mamlakat doirasidagi va xalqaro miqyosdagi musobaqlarda faol qatnashib O'zbekiston harbiy qudratini namoyish eta oldilar. Islohotlarning samarası o'laroq O'zbekiston Qurolli Kuchlarining salohiyati jahon jamoatchiligi tomonidan yuqori baholandi. 2015-yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Qurolli kuchlari "Globalfirepower.com" saytida e'lon qilingan dunyoning eng qudratli qurolli kuchlari reytingida 54-o'rinni egalladi, bu haqida UzDaily ma'lum qilgan. Reytingga dunyoning 126 davlati kirgan [15]. 2016-yilda esa, O'zbekiston armiyasi dunyoning eng qudratli qurolli kuchlari reytingida 54 o'rindan 48 o'ringa ko'tarildi. Reytingga dunyoning 126 davlati kirgan. Bu haqda "Globalfirepower.com" saytiga tayanib, UzDaily ma'lum qilgan [16]. 2018-yilda O'zbekiston dunyoning eng kuchli armiyalari reytingida yuqorilab, 136 mamlakat orasida 39-o'rinni egalladi [17]. Birinchi Prezidentimiz o'sha og'ir yillarda: "O'zining buyuk tarixi va ajodolariga munosib voris bo'lgan xalqimiz mamlakat xavfsizligini ta'minlashga qodir armiyani yarata oladi", deb katta ishonch bilan aytgan edilar. Bugungi kunda ana shu ulkan ishonchga har tomonlama loyiq bo'lgan Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganini barchamiz ko'rib turibmiz" [18]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining majlisida nutq so'zlab: "Biz ayni shu asosda mamlakatimiz mudofaa salohiyatini mustahkamlashni O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'naliishlaridan biri sifatida belgilab oldik. Strategiyaga binoan 2017-yilda boshqa sohalar qatorida harbiy qurilish borasida ham keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirildi. Qisqa muddatda dastlabki aniq natijalarga erishdik va yangilanayotgan Qurolli Kuchlarimiz bo'yicha strategik yondashuvni ishlab chiqdik"[19]. O'zbekistonni 2017 – 2021-yillarda rivojlantirishga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida harbiy sohani modernizatsiya qilish masalasi belgilab olindi. Prezident Sh.Mirziyoyevning mamlakatdagi harbiy-dala mashq qismlari va harbiy bilim yurtlariga tashriflari davomida harbiy sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab olindi. Qisqa davr ichida harbiy sohada ko'plab ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, bu islohotlarga quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

1. Mudofaa Doktrinasi sifat jihatidan yangilandi;
2. Mudofaa sanoati bo'yicha davlat qo'mitasi tashkil qilindi;
3. "Milliy armiyamiz – bizning iftixorimiz va g'ururimiz" tamoyili asosida harbiy-ma'muriy sektorlar tashkil etildi;
4. O'rta maktabdan boshlab oliy o'quv yurtlarigacha qamrab oladigan uzlusiz harbiy ta'lim va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha o'ziga xos noyob va yaxlit tizim yaratilib "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylari tashkil etildi;
5. Qurolli Kuchlar tizimida O'zbekiston yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkilotlari tashkil etildi;
6. 13 ta amaliy harakatlar rejasi yoki "yo'l xaritasi" amalga oshirilishi belgilandi;
7. Harbiy xizmatchilarni, ularning oila a'zolari va faxriylarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi;
8. Fuqarolik jamiyati va joylardagi davlat hokimiyati organlarining rolini oshirish va faollashtirish ishlari jadallashtirildi;
9. Harbiy okruglar qo'shinlarining jangovar tarkibini yanada takomillashtirildi;
10. Qurolli Kuchlarni rejalashtirish va ularni qo'llashning me'yoriy-huquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqildi;
11. Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy ta'minot tizimini yanada takomillashtirildi va shu kabi ustuvor vazifalar belgilab olindi.[20]

Bugungi kunda mintaqamizda va dunyoda hukm surayotgan, oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan murakkab sharoitda mamlakatimiz xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va fuqaro tinchligini ta'minlash, jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash katta ahamiyatga molik usturvor masala bo'lib qolmoqda. O'tgan davr mobaynida erishgan yutuqlarimiz va yo'l qo'ygan kamchiliklarimiz to'planib qolgan muammolarni chuqr tahvil qilishni, hayotning o'zi ilgari surayotgan talablarni hisobga olishni talab qildi va Qurolli Kuchlar tizimini bosqichma-bosqich isloq qilishni

taqozo etdi. O‘zbekiston davlatining bu sohadagi olib borgan siyosati zamonaviy armiyani shakllantirilishiga asos bo‘ldi.

Adabiyotlar

1. I. Karimov. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. – 47-bet
2. I.Karimov. O‘zbekiston: milliy Istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996, – 6-bet
3. Azizov A. Ikki muhim tarixiy sana //Vatanparvar. 2012-yil 7-dekabr. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. XI bob. 52-modda.
4. O‘zbekiston Reapublikasi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonun. - T., 2002.
5. Amirov U.B. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar professional armiyasining asosi. // Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2010-yil 22-aprel. –B. 56
6. Jo‘rayev N. O‘zbekiston tarixi. - T.: Sharq, 2011. – B. – 343.
7. Ziyayeva D.X. O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan. – T.: Sharq, 2012. – B. 232.
8. Amirov U.B. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar professional armiyasining asosi. // Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2010-yil 22-aprel. – B. 56
9. Ziyayeva D.X. O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan. – T.: Sharq, 2012. – B. 245.
- 10.O‘zbekiston Reapublikasi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonun. - T., 2002.
- 11.Rejadagi ishlар ko‘lами / 2016-y. 4-mart
- 12.H. Sodiqov, B. Yo‘ldoshev, I. Inoyatov. O‘zbekiston Qurolli Kuchlari (o‘tmishda va hozirda). – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2014. – 220-b.
- 13.Rejadagi ishlар ko‘lами / Vatanparvar. 2016-y. 4-mart
- 14.<https://daryo.uz/2015/05/13/ozbekiston-armiyasi-dunyoning-eng-qudratli-qurolli-kuchlari-reytingida-54>
- 15.<https://daryo.uz/2016/04/04/ozbekiston-armiyasi-dunyoning-eng-qudratli-qurolli-kuchlari-reytingida-48>
- 16.<https://kun.uz/news/2018/06/19/reyting-2018-dunyoning-eng-qudratli-armiyalari>
- 17.Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25-yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrige. <http://uza.uz>
- 18.<https://daryo.uz/2018/01/11/shavkat-mirziyoyev-qurolli-kuchlarimiz-mamlakat-barqarorligi-va-taraqqiyotining-mustahkam-kafolatiga-aylanmoqda-toliq-nutq/>
- 19.Gazeta.uz Prezident Sh. Mirziyoyev O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining majlisida nutq 2018-yil 10-yanvar.

UDK: 94(575.171)

XORAZMSHOHLAR DAVLATINING INQIROZI VA UNING SABABLARI

(1097-1231)

Z.Muqimov

Samarqand davlat universiteti

Annotasiya. Maqolada Buyuk Xorazmshohlar davlatining inqirozi sabablari, Xalifalik va Xorazmshohlar o‘rtasidagi munosabat, Bag‘dod yurishi, mamlakatni to‘rt mulkka bo‘lish, mudofaa borasidagi xatolar – birinchi manbalarga tayangan holda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Sulton Tekesh, Alovuddin Muhammad, qo‘sishlarni bo‘lib tashlash, Jaloliddin, Parvon jangi, Iroq, Sulton Qutuz, Ayn -jjolut.

Кризис государство Хорезмшахов и её причины (1097-1231)

Аннотация. В статье на основе исследование первоисточников освещается кризис Великого государство Хорезмшахов и её причины, отношение между Арабским Халифатом и Хорезмшахов, поход в Багдад, монгольские нашествие, военно-тактические ошибки, разделение государства на четыре наибство.

Ключевые слова: Султан Текеш, Аловуддин Мухамед, Монгольские нашествия, Джалаитдин, Парванская битва, Ирак, Султан Кутуз, Айн -Джолут.

The crisis of the state of Khorezmshahs and its causes (1097-1231)

Abstract. The article is basid on a study of primary sources covering the crisis of the Great state of Khorezm Shahs, its causes, the relationship between the Arab Caliphate and Khorezmshahs, the Mongol invasion of military tactical errors in Baghdad the division of the state into four naibsts.

Keywords: Sultan, Tekesh, Alovuddin Muxammed, Mongol invasions, Laladdin Parvan battle, Iraq Sulton Kutuz, Ain - Zholut.

O‘zbekiston davlati va huquqi tarixida Xorazmshohlar davlati ham muhim o‘rinni egallaydi. X-XIII asrlar Xorazmnning buyuk davlatga aylanishi, yuksalishi va mo‘g‘ul bosqinlari tufayli inqirozga yuz tutishi davridir. Garchi mustaqillik yillarda bu borada bir necha manbalar tarjima qilinib nashr etilgan bo‘lsada [1], huquqshunoslar tomonidan kam tadqiq qilingan davrlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Z.Xidirovning ishi huquqshunoslik fani nuqtayi nazaridan olganda birinchi manbalarga tayangan tadqiqotlardan bo‘lib, ammo hozirgacha bu borada bajarilgan ilk ishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Unda Xorazmshoh Anushteginiyolar davlatining tashkil topishi, ma‘naviy, siyosiy-huquqiy ta’limotlar, davlat tuzulishi va ijtimoiy-siyosiy tuzum, “Xorazm fiqh maktabi” huquq tartibot masalalari tahlil qilingan[2]. Ammo so‘nggi Xorazmshohlar faoliyati hamda shunday ulkan davlatning inqirozga uchrash jarayonlari yetarlicha tadqiq qilingan, deb bo‘lmaydi.

Bu davlat o‘z taraqqiyotida bir necha davrlarni boshidan kechirgan bo‘lsada, uning eng gullab-yashnagan davri Xorazmshoh Anushteginiyolar davriga to‘g‘ri keladi. Agar Sulton Tekesh[3] davrida (1172-1200 hukm.yil) ko‘pchiligi, yollanma askarlardan iborat qo‘singa tayangan Xorazm Qoraxitoylar va Saljuqiyolar bilan bo‘lgan kurashlarda g‘olib kelib, O‘rta Osiyo va O‘rta Sharqda kuchli davlatga aylangan bo‘lsa, Sulton Alovuddin Muhammad davrida (1200-1220) katta imperiya davlatiga aylandi. Xorazm-Movarounnahr, Xuroson, Iroq, Mozandaron, Arron, Ozarboyjon, G‘o‘r, G‘azna, Bomiyon, Sijistondan tortib Hindistongacha bo‘lgan 33 davlatni bosib olib, ularni birlashtirdi. Bu davlatlar tarkibiga o‘sha davrning 400dan oshiq katta shaharlari kirgan edi. Bu qudratli davlat musulmon olamidagi boshqa davatlardan o‘zining ulug‘vorligi bilan ajralib turar edi.

Ammo Xorazmshohlar davlati birqancha sabab va tarixiy jaroyonlar tufayli inqirozga yuz tutadi, bularga quyidagi sabablarni ko‘rsatish mumkin.

I. Abbosiylar xalifaligi bilan Xorazmshohlar davlati o‘rtasidagi munosabatlarning buzilishi.

a) Sultonning bir paytlari Saljuqiyalarga berilgani singari, Bog‘dodga hukmronlik qilish huquqini talab qila boshlashi; b) Bag‘doddagi juma nomozida o‘z nomini xutbaga qo‘sib o‘qilishini talab qilishi; v) Iroqda Sulton Muhammad nomini xutbaga qo‘sib o‘qilishining to‘xtatilishi; g) G‘aznani qo‘lga kiritilishi vaqtida Xalifa an Nosirning (1180-1225) G‘urlar sultoniga yozgan xatini topib olinishi va bu xatda G‘ur sultonini Xorazmshohga qarshi kurashga undashlari asosiy sabablardan bo‘lib ularga javoban Xorazmshoh quyidagilarni amalga oshirdi:

1) xalifalikni Abbosiylar sulolasidan olib Ali ibn Abu Tolib va uning o‘g‘li Husayn sulolasiga berishga fatvo tayyorladi;

2) Xorazmshoh mulkalarida Xalifa an Nosir nomini xutbaga qo‘sib o‘qish to‘xtatildi;

3) xalifalikka Husayn sulolasidan **Ali al-mulk at-Termiziyy** tayinlanganini e’lon qiladi[4].

II. Sulton Xorazmshoh Iroqni o‘ziga tamomila bo‘ysundirgach esa 400 ming qo‘sish to‘plab, 1217-yilining kuzida Bog‘dodga yurish boshladи. Ammo Xulvon yaqinidagi Asadobod dovoni orqali bo‘lgan bu yurish, uch kecha-yu, uch kunduz tinmay yoqqan qor va sovuq natijasida ko‘plab askarlar qor ostida qolib halok bo‘lishlari, ot-ulov, hayvonlarning qirilib ketishi, orqaga qaytayotgan askarlarni esa ko‘chmanchi banu Parcham va banu Hakkar qabilalarining taloniga uchrashlari natijasida ulkan talofatlar bilan mag‘lubiyatga uchradi.

Xorazm qo‘sishlarining Xulvon yaqinidagi halokati o‘sha davr musulmon olamida Abbosiylarga ziyon yetkazishga uringanlarga berilgan ilohiy jazodir deb baholanadi.

III. Bulardan tashqari mumtoz manbalarning ko‘pchiligidagi Xorazmshohlar davlatining yemirilishida Xalifa an-Nosir Sulton Muhammadga qarshi mo‘g‘ullardan foydalanganligi to‘g‘risida ham ma‘lumotlar keltiriladi. Jumladan An-Nosirning Chingizzonga maktubi to‘g‘risida Ibn Vosil shunday deb yozgan:”**Xorazmshoh Bag‘dodga yurish qilganida xalifa tatarlar hukmdori Chingizzonga Sulton mamlakatiga hujum qilishga undab maktub yozdi**” – deb xabar beradi[5].

Ushbu sabablar asosiylari bo'lib, akademik V.V.Bartold ham "Xalifa an-Nosir va Xorazmshoh Muhammad o'rtaqidagi dushmanlik Abbosiylar va Xorazmshohlar saltanatining inqirozga yuz tutishiga sababchi bo'ldi,"— deb ta'kidlab o'tadi[6].

IV. Xorazmshoh mo'g'ullar bosqinidan oldin davlat boshqaruvi borasida qilgan tadbirlaridan biri shunday, ulkan imperiyani to'rt o'g'liga taqsimlab berib, ularning har qaysisini mamlakatlarga hukmdor qilib qo'ydi:

- 1) Xorazm, Xuroson, Mozandaronni boshqarish huquqini Qutbiddin Uzloqshoh (1221-yil halok bo'lgan)ga berdi hamda akalaridan oldin uni taxt vorisi etib tayinladi;
- 2) G'azna, Bomiyon, al-G'ur, Bust, Takinabod, Zamindovar va Hindiston bilan chegaradosh bo'lgan viloyatlar hokimligini Jaloliddin Manguberdiga(1199-1231) qo'li ostiga o'tdi;
- 3) Kirmon, Kesh, Makronni o'g'li G'iyyosiddin Pirshoh(1220-1229) qo'li ostiga o'tdi;
- 4) Iroq hukmdorligini Sulton o'g'li Rukniddin G'ursanjtiyga(1222-y. halok bo'lgan) ishonib topshirdi[7].

V. Bu davlatning tanazzulga uchraganining sabablaridan yana biri Xorazmshohning Sulton Jaloliddindan boshqa o'g'illari ham ozmi-ko'pmi mo'g'ullarga qarshi kurashlarda qatnashdilar, ammolar o'zlarining tor manfaatlari, fikr-xayollari, rejalariga o'ralishib qolib, Sulton Jaloliddin atrofida asosiy maqsad – Vatanni, ota-bobolari tuzgan buyuk Xorazmshohlar davlatining mustaqilligini saqlash uchun birlashmadilar. Mamlakatda siyosiy parokandalik avj olib, turli viloyatlarning hokimlari, noib va vazirlari, Raislar va vazirlari ham vujudga kelgan vaziyatda tor doirada o'z mustaqilliklarini mulklarini himoya qilishga intilib goh Sulton Jaloliddingga yordam bersalar, gohida unga xoinlik qilar edilar.

Ana shunday bir sharoitda Habushon viloyatining Ustuva degan joyidagi Vasht qishlog'ida qurshovga tushib qolgan Sulton Muhammadning ikki o'g'li Uzloqshoh va Oqshoh mo'g'ullar tomonidan o'ldiriladi. Xurosnonning Ustuvand qal'asida bo'lgan janglarda esa Ruknuddin G'ursanjtiy uchinchini o'g'li ham mo'g'ullar tomonidan asr olinib qatl etiladi.

VI. Yuqoridagilar bilan birga inqirozning asosiy harbiy sababi shunda ediki, dushman Xorazmga qarab yurish qilib kelayotganligini bilgan Sulton harbiy kengash chaqiradi. Unda tajribali sarkardalar, davlat, jamoat arboblari bergen maslahatlarga jumladan, **Mashhur Shof'i faqiji va Muftiy Shixobiddin Abu Sa'd ibn Imron al Xivakiy, Jaloliddin Manguberdilar 400 minga yaqin bo'lgan qo'shinni Sirdaryo bo'yiga olib chiqib yurishdan horib kelayotgan dushmani kutub olishini va hal qiluvchi jang o'tkazishini maslahat berishlariga qaramasdan qo'shinlarni mamlakatning shaharlariga bo'lib yuborish taktikasini qo'llashga qaror qiladi.** Bu shunday sharoitda xato uslub edi. Shuning uchun ham u mo'g'ullarga juda qo'l kelib, shaharlar birin-ketin qo'lga kiritilib davlatning inqirozi ta'minladi. Buyuk Xorazm davlati qonga botirilib bosib olindi. Davlatning asosiy qismi Chingizxon tomonidan o'g'illari Jo'ji va Chig'atoya ulus sifatida taqsimlab berildi. Bosqinchilarga qarshi ozodlik urushini kech bo'lsa-da, Sultonlik kamarini beliga taqqan Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi umidsizlikka tushmasdan shiddat bilan mardlarcha kurash olib bordi.

Tarixiy manbalarda ko'rsatilganidek, Jaloliddin Manguberdi parokanda bo'lgan davlatda mug'ullarga qarshi kurashni tashkil qilib, uyushtirib unga o'zi qumondonlik qildi. U 11 yil davomida 14 marta mo'g'ul bosqinchilari bilan og'ir va dahshatli janglar o'tkazib barchasida g'alaba qildi. Ayniqsa, Parvon yaqinidagi janglar mo'g'ul qo'shinlari yengilmasligi haqidagi fikrlarni puchga chiqardi. Bundan tashqari yana, hokimiyat talashish va siyosiy tarqoqlik bilan bog'liq o'zar urushlarga barham berish maqsadida o'n olti marta og'ir janglarga kirishib, deyarli barchasida g'alabaga erishdi.

Ammo teng bo'Imagan janglarning birida xoinlik tufayli yengilib 1231-yilda Buyuk Xorazmshohlar davlatining 35-shohi Jaloliddin Manguberdi Moyfaraqin yonida kurdalar qishlog'ida o'ldirildi. Yaqin Sharqqa mo'g'ullar bosqini ovj oldi. Bu voqealardan 30 yillar o'tib mamluklardan chiqib[8], Misr Sulton bo'lgan Sulton Sayfiddin Qutuz[9] davom ettirib ular ustidan g'alaba qozondi.

Shuni ta'kidlash lozimki Xorazmshoh Mavarounnahrni bosib olganda, Samarqand shahrining Qoraxoniylardan bo'lgan hokimi Usmon ibn Ibrohim IV olib Xorazmga qaytadi, uni o'zining qizi Xonsultonga uylantirib[10] bir yildan keyin o'z shihnasi bilan o'z yurtiga qaytarib yuboradi. Ammo mena xorazmliklar yomon munosabatda bo'lishdi deb xoinlik yo'liga kiradi. Xorazmshoh esa juda darg'azab holda 1211-yilda ikkinchi marta shaharni bosib olib Sulton Usmon va "... U bilan birga Qoraxoniylar avlodidan bo'lgan barcha qarindoshlarini qoldirmasdan qirib tashlaydi. Samarqandda esa o'z noibini tayinlaydi, shu bilan G'arbiy Qoraxoniylar sulolasi ham tugatiladi [11].

Endi Qutuzga yana qaytsak, u mamluk sifatida tarbiyalanib harbiy ishga o'rgatilgan, arab tili hamda, fiqhni o'rgangan. Xizmati va salohiyati bilan u Sulton Oybek davrida Misr noibligi mansabiga, uning yosh o'g'li Ali Nurutddin Ali ibn Oybek al Mansurga (1257-1259) Otabe - Regent, keyinchalik Bahriy[12] mamluklar qo'shinlari qo'mondoni, amalda Misrning hukmdoriga aylanadi.

1258-yilda Eronda mo'g'ullarning hukmdori Elxoniy Xulaguxon Misrni bo'ysundirib taslim bo'lishini talab qiladi. Sulton al Mansurning yoshligi tufayli mo'g'ullarga zarba bera olmasligini tushunib etgan Otabeq Qutuz 1259-yilning 12-noyabrida davlat to'ntarishini o'tkazib hokimiyatni o'z qo'liga oladi va sultonlik taxtiga o'tiradi. Al Malik al-Muzaffar Sayf ad-din deb atala boshlanadi. [13]

Mamlakatda islohotlar o'tkazib armiyani mo'g'ullarga qarshi urushga tayyorlash maqsadida harbiy soliq ta'sis etadi. Natijada armiya qayta quronanadi va hozirgi Isroilning Ayn-Jolut degan joyida 1260-yilning 3-sentyabrida Misr tomonidon Sulton Qutuz va Beybars[14] mo'g'ullar tomonidan Kitbuqo qumondonligida juda katta jang bo'lib mo'g'ullar ustidan uzil-kesil g'alaba qozonadi. Ularning musulmon davlatlariga hujumi to'xtatildi. Ammo mamluk qo'shinlarining qumondon va amirlari harbiy o'lja noto'g'ri taqsimlandi deb norozi bo'lib fitna uyuştiradilar. Natijada Sulton Qutuz 1260-yil 24-oktabrda ov paytida ushbu fitnachilar tomonidan xiyonotkorona o'ldiriladi. Sayfiddin Qutuz Misr Sultoni sifatida bor-yo'g'i 11 oy u 17 kun hukm surgan bo'lsada, mo'g'ullarga oxirgi zarba bergen sarkarda, hukmdor sifatida tarix zarvaraqlarida qoldi.[15] Ha "oqqan daryo oqaveradi" deganlaridek tog'asi Sulton Jaloliddin boshlagan ishini davom ettirib, mo'g'ullarni tor-mor keltirdi.

Bu g'alaba mo'g'ul qo'shinlarining yengilmasligi haqidagi fikrlarni uzil-kesil puchga chiqardi, hamda uning Yaqin Sharqqa yurishini to'xtatdi.

Xorazmshohlar davlati ulkan imperiya davlatiga aylanib, turli din va mazhablarga e'tiqod qilgan, o'nlab xalqlardan iborat 33 davlatni o'z tarkibida birlashtirgan ilk o'rta asr musulmon davlati edi. Uning ta'sischilari turkiylar bo'lsada davlat ishlari asosan arab, fors, turkiy tillarda olib borilgan. Hukmron tabaqalar hokimiyat egalari turkiylar bo'lib, ular o'nlab urug' va qabilalar: o'g'uzlar, saljuqiylar, turkmanlar, qang'li, qipchoq, bijanak, xalaj, qarluq, o'zgan va boshqalardan iborat edi. Sobiq Sovetlar davlati yemirilgach, Markaziy Osiyoning aholisi turkiylardan iborat respublikalari, bobolari o'tmishda bir ildizdan kelib chiqib, yagona tarixlarini yaratgan bo'lsalar-da, ular mustaqillikni qo'llariga kiritgach, shu muqaddas kechmishtalaridan o'z ulushlarini ajratib olishga kirishib ketdilar. Bu davlatlar va zafarlarni o'z xalqlariga tegishli ekanliklarini ayta boshladilar. Lekin bunday fikrlarga qo'shilib bo'lmaydi. Albatta, biz barcha turkiy va boshqa xalqlarning buyuk o'tmishi va tarixini tan olib qadrlaymiz. O'tmishdagi davlat arboblarining shaharlarga qo'yilgan ulug'ver haykallarni ma'qullaymiz va ular xotirasini hurmat, faxr-iftixon bilan esga olamiz. Turkiy xalqlar davlatchiligi an'analari buyuk tarixga egaligini his qilamiz. **Shu bilan birga Ona Turkistondan chiqib butun dunyoga tarqalgan va asrlar mobaynida bir-biri bilan aralashib ketgan Saljuqiylar, O'g'uzlar boshqa ko'plab turkiy urug' va qabilalarni hamda ularning tarixiy merosini umum turkiy ota meros deb bilamiz.**

Adabiyotlar

- Ибн ал-Асир.** Ал Комил фи-т таърих. Полный свод истории//Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г.Булгакова. Дополнения к переводу, примечаниям Ш.С.Камолиддина. –Ташкент: Узбекистан, 2006. – 560стр.; **Shixobiddin Muhammad an Nasaviy.** Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. –Toshkent:O'zbekiston, 1999. - 432b.; **Bunyodov Ziyo.** Anushtegin – Xorazmshohlar davlati (1097-1231). – Toshkent:Adabiyot va san'at, 1998. -157 b. va boshqalar;
- O'zbek davlatchiligi tarixi.** II – kitob //Prof. H.B.Boboyevning umumiy tahriri ostida. - Toshkent, 2009. -31-154 b.
- Tekesh-yoshi to'lmagan taka; turk. - zat. Jasyl to'lmag'an teke, kishkene teke-shu ma'nolarni anglatadi.**
- Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy.** Sulton Jaloliddin Manguberdi/Rus tilidan Kamol Matyoqubov tarjimasi. -T:Yozuvchi, 1999-40-41 betlar.
- Shixobiddin an-Nasaviy.** Ko'rsatilgan asar..., 54 bet.
- Shixobiddin an-Nasaviy.** O'sha asar..., 39 bet.
- Shixobiddin an-Nasaviy.** Ko'rsatilgan asar..., 369, 328, 334, 335 b.b

8. **Mamluk** (arab.-qul, oq qul). - 1. XII asrda Misr Sultonı Saloh Najmuddin Ayub qul jalloblaridan Turkistondan keltirilgan yosh yigitlarni sotib olib, o'ziga quriqchi qilib ola boshlashi bilan mamluklar tarixi boshlandi. 2. Maxsus harbiy kasb bilan shug'ullanishga o'rgatilgan qul. 3. Turkiy qipchoqlardan cherkeslar hamda gruzinlardan tuzilgan qushin turi.
9. **Qutuz** asli turkiy-o'zbekcha 1. “**Qut-uz**” qut baraka baxtiyor, saodatl, ma'nolarini anglatadi. Ammo bu so'z yana turli tillarda turli ma'nolarni anglatib, lug'atlarda sharxlangan. 2. **Qutuz** - podushka na kotoroy pletut krujeva - katakli to'r to'qiladigan yostiq. 3. “**Qutuzik**”- er kishi va hokazo (Макс Фасмер. “Этимологический словарь русского языка.)
10. **Xon Sulton** 1201-yilda Samarqand hukmdori Usmon ibn Ibrohim IVga turmushga chiqqan. 1211-yilda Samarqand Xorazmshoh tomonidan qayta bosib olinib Usmon qatl etilgach mo'g'ullar davrida (bo'lsa kerak - Z.M.) Juvayniyning ko'rsatishicha (an Nasaviy ko'rsatilgan asar..., 90 bet, 8-izoh) U o'rta asr shahri bo'lган Emilda bir yashovchi bo'yoqchiga erga berib yuborilib, bo'yoqchi umrining oxirigacha u bilan yshagan.
11. **Ibn al-Asir.** Ukaz. Sochinenie..., 333-335st.
12. **Bahriy (Baxrit)lar.** Nil daryosi arab tilida “El Bahr” deb atalib, mamluklar alohida joy ana shu daryo o'rtasidagi Roda orolida yashab harbiy mashqlar qilganlari uchun shunday atalganlar.
13. **Al-Malik al-Muzaffar Sayfiddin Qutuz.** (<https://ru.wikipedia.org/wiki>).
14. **Al-Malik va az-Zohir Rukuniddin dunyo va din Beybars al-Bundukdori as-Solih.** (<https://ru.wikipedia.org/wiki>).
15. **Qutuz** dastlab al - Quserda, keyinchalik, u yerdan ko'chirilib, Qohiradagi qabristonga dafn etilgan.

UDK: 902.1(575.171)

O'RTA ASRLARDA XORAZMNING AN'ANAVIY KULOCHILIGI – ARXEOLOGIK MANBALAR ASOSIDA

H.Xudaybergenov

Toshkent tibbyoyt akademiyasi Urganch filiali

Annotatsiya. Xorazm vohasining o'rta asrlardagi an'anaviy kulolchilik tarixi nafaqat o'zbek olimlari tomonidan, balki chet el olimlari tomonidan ham tadqiq etilgan va fanga ma'lum qilingan. Ota-bobolarimiz tomonidan o'rta asrlardagi yaratilgan kulolchilikning namunalari bo'lmish, loydan yasalgan bodiya, ko'za, tovoq va boshqa kulolchilik buyumlari o'zining qadimiyligi, serjiloligi va betakrorligi bilan dunyo ahlini lol qoldirib kelgan. Albatta, biz uchun arxeologlar tomonidan topilgan moddiy manbalar juda boy va qimmatlidir.

Kalit so'zlar: ustaxona, ulolchilik, etnik, Turkiston, koshin, qadimiy, Urganch, xumbuz, nizom.

В средневековом Хорезме традиционный керамики основан на археологических источниках

Аннотация. Не только материальная и духовная культура Хорезмского оазиса восходит к векам, но его история, этнический состав, традиции и обычаи разнообразны и оригинальны. Традиционная керамическая промышленность искусства Хорезма исторически глубока и древняя. Традиции, ритуалы, традиции и керамика особенно впечатляют своей историей и наукой.

Ключевые слова: мастерское, керамика, этнические, орнамент, древние, Ургенч, печь, устав.

Traditional ceramics of medieval Khorezm based on archaeological sources

Abstract. Not only the material and spiritual culture of the Khorezm oasis dates back to centuries, but its history, ethnic composition, traditions and customs are varied and original. The traditional ceramic art industry of Khorezm is historically deep and ancient. Traditions, rituals, traditions and ceramics are especially impressive with their history and science.

Keywords: workshop, ceramics Ethnic, ornament, Urgench, bake, ancient, charter.

Bizga ma'lumki, Xorazmning kulolchilik tarixi, uning tarixi kabi ko'hna va boqiydir. Xususan, bu soha bo'yicha voha bilimdoni, N.N.Vakturskayaning (1914 - 1995) ilmiy tahlillari va arxeologik tadqiqot natijalari, Xorazmning o'rta asrlardagi (IX-XVII) kulolchilik tarixiga bag'ishlanadi. U arxeologik qazishmalari natijasida, ilmiy jihatdan Xorazmning o'rta asrlardagi tarixini hamda kulolchilik sohasini chuqur o'rgangan. To'plangan materiallar asosida tadqiqotchi, 1959-yilda "O'rta asrlardagi Xorazm keramikasi" (M, 1959 Trudi XAEE, t. IV) nomli yirik monografiyasini chop ettiradi. Muallifning ushbu ilmiy mahsuloti, Xorazmning o'rta asrlardagi an'anaviy kulolchilik tarixini tadqiq qilishda hamda o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy materiallar olimaning Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi[1] asosida to'plagan materiallari, Xorazm keramikasi uchun xizmat qiladi, uning arxeologik tekshiruvlari, o'sha davrdagi Xorazm shaharlari va uning aholisiga taalluqlidir.

O'rta asrlar Xorazm yodgorliklariga oid Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi, 1928-1929-yillarda arxeolog olim, professor A.Yu.Yakubovskiy rahbarligida, Xorazmshohlarning o'sha paytdagi poytaxti hisoblangan Urganch [2] (shahar qoldiqlari hozirgi Ko'hna-Urganch, Turkmaniston Respublikasi Toshhovuz viloyatida joylashgan) hamda o'rta asr boshlaridagi Mizdakxon shahar qoldiqlari – hozir bu shahar Gyaur-Qal'a nomi bilan tarixga kirgan (hozirgi Ho'jayli yaqinida) [3], shuningdek 1934-yilda olim M.V.Voyevodskiy o'rta asr tarixiga oid tadqiqotlari Zamaxshar shahar qoldiqlarida (hozirgi Toshhovuz viloyatida joylashgan) [4] tarixiy-ilmiy tadqiqotlarni olib boradi.

Arxeolog, A.Yu.Yakubovskiy rahbarligida olib borilgan ekspeditsiya, avvalo Ko'hna-Urganchning topografik kuzatuvini va qadimdan saqlanib qolgan eski binolar suratini olishadi, shuningdek shahar xarobalarida hunarmandchilik ishlab chiqarish joylarini, xususan kulolchilik [5] sohasi bo'yicha asosiy sxematik planini ishlab chiqadilar. Shuningdek, 1929-yilda Yakubovskiy tomonidan, qazishma ishlari paytida shaharning janubiy qismida uncha katta bo'limgan chuqurcha borligi aniqlanadi, natijada uning pastki qatlamidan sirlangan kulol buyumlari topiladi, bu buyumlar o'z navbatida Afrosiyob (mo'g'ullar yurishidan oldingi Samarqand) kulolchilik ishlab chiqarish texnologiyasiga mos kelishi tahlil qilinadi. XII-XIII asr o'ttalarida mo'g'ullar bosqini davrida,[6] Marvdagi Guyu-Qal'ani hamda Sulton-qal'aning buzib tashlanishi natijasida aholi bu yerlarni tashlab ketganligi arxeologik tadqiqotlar davomida aniqlanadi. Ko'hna-Urganchdagi Afrosiyobga o'xshash sirlangan kulol buyumlarining topilishi, A.Yu.Yakubovskiyning xulosasiga ko'ra, ko'p rangli Afrosiyob kulolchiligi ular o'ylaganidan juda ajoyib ediki, kulolchilik buyumlari bir vaqtning o'zida O'rta Osiyoning boshqa viloyatlariga yuborilganligi, bundan tashqari olimning ilmiy-taxmini, arxeologik izlanishlar natijasida to'lagichka o'z tasdig'ini topadi.

Shaharda topilgan kulolchilik idishlari orasida badiiy bezatilmagan, sirlanmagan buyumlar ham bor edi, shu jumladan idishlarning oq rangli foniga-moviy va qora rang surtilgan, sirlangan qaymoq rangli idishga, qora rasm surtilgan, kulrang rangdagi fonli idishga esa, oq rangli yengil naqshlar solingen, shuningdek qora mayda nuqtalar bilan bezatilganini o'rganishdi.[7] Xususan, 1928-1929-yillardagi tadqiqot natijalari asosida, olim Yakubovskiy tomonidan bir qator maqolalar nashrdan chiqarildi. [8]

1952-yilga kelib ekspeditsiya, Toshqal'a shahrida qazishma ishlarini boshlab yuborishadi. Bu shaharda o'rta asrlarga oid qoldiq xaroba ochiq holatdagi minoralar, minora plitalari (hozirgi kunda Toshkent muzeyida saqlanmoqda,) shuningdek shaharda hunarmandchilik-savdo kvartali mavjud ekanligi, bundan tashqari XVI-XVII asr tarixiga oid tangalar ham topib o'rganiladi. Arxeologik topilmalar asosini ko'proq kulolchilik mahsulotlari tashkil qiladi. Sirlanmagan kulolchilik idishlari shahar hayotining oxirlariga to'g'ri kelganligi, idishlarning asosan sifati nisbatan pastroq ekanligi aniqlanadi. Sirlangan idishlar orasida rangsiz kaliy siridan yasalgan oq rangli angob idishga moviy rang yoki ikki rang, moviy-kulrang qora rasm solingen, ba'zi sirlangan buyumlarning devorlari sifatsiz qo'shilishi natijasida bir cheti uchganligi, olimlar tomonidan ilmiy-tahlildan o'tkaziladi.

Ko'hna-Urganchda tadqiqot vaqtida esa, Yakubovskiy boshchiligidagi ekspeditsiya, Toshqal'adan 24-25 km uzoqlikda va 7-8 km Ho'jayli shahridan uzoqda joylashgan Guyir-qal'ani va Mazlumxonlarni aylanib chiqadilar. Ular Guyir-qal'ada sirlangan kulol mahsulotlarini hamda xrom moddasi (qizil, jigarrang va yashil rang) bilan yarqiroq fonga naqshli rasm tushirilgan idishlarni aniqlaydilar. A.Yu.Yakubovskiyning fikricha, bu kulolchilik idishlari Afrosiyob kulolchiligi bilan juda yaqinligini hamda IX-XI asrdagi Urganch kulolchiligining sirlangan idishlari ekanligi ilmiy-jihatdan o'rganiladi. [9]

Shu yillarda ekspeditsiya a'zosi, arxeolog olim L.N.Sokolov, o'rta asr shahri hisoblangan Zamaxshar, Bo'ldimsoz, Shirvan-qal'a va Dev-ketgan, degan joylarni borib tekshiradi[10], afsuski bu tekshirish natijalari bironta nashriyotda e'lon qilinmaydi, lekin 1934-yilda, uning tadqiqot manbai bo'lgan Zamaxshar shahar xarobalarida GAIMK arxeologiya ekspeditsiyasi qazish ishlarini, olim M.V.Voyevodskiy [11] tomonidan davom ettiriladi. Xususan, o'rta asr kulolchilik tarixiga tegishli Zamaxshar qoldiqlariga oid ma'lumotlar bиринчи bo'lib, X asr oxirlarida arab geografi al-Makdisi tomonidan tilga olinadi. Geograf al-Makdisi [12] ta'kidlashicha, Zamaxshar kichik shahar bo'lgan, u Xorazmning chekka g'arbiy chegarasida, taxminan Toshhovuz viloyatidan 30 km g'arbda joylashgan. Tarixchi As-Samaniyning aytishicha, ushbu shahar XII asrning bиринчи yarmida katta aholiga ega shahar bo'lgan[13], M.V.Voyevodskiy ma'lumotlarida esa, Zamaxshar shahri, Xorazm feodal davrida[14] odatiy savdo-hunarmandchiligi markazi bo'lgan degan ilmiy-xulosani ilgari suradi.

Ekspeditsianing shaharga kelgan vaqtida, uning himoya devorlari sezilarli darajada buzilganligi, shahardagi binolar tepalikka aylanib bo'lganligi, shaharning har joyida kuygan g'isht siniqlari, kulolchilik qismi, tosh-shisha buyumlari borligi aniqlanadi, shuningdek, juda ko'p temirlar, kulolchilik buyumlari, shisha va boshqa kimyoiy qotishmalar, yaroqsiz ishlab chiqarilgan buyumlar va ishlab chiqarlishi tugallanmay qolgan kulolchilik mahsulotlar hamda qoliplar, shu bilan birga qayta ishlanmagan metall parchalari (mis, temir va h.k) tadqiqotlar natijasida shuni ko'rsatadiki, qachonlardir farovon shaharda hunarmandchilikning, temirchilik, xususan kulolchilikda – otabobolarimiz, misni qayta ishlab, yuqori haroratda misdan rangli bo'yoq olish usulini, shuningdek shishani maydalab tuyib, undan sircha tayyorlash texnologiyasini bilishgani ma'lum bo'ldi.

Zamaxsharda tayyorlangan kulolchilik buyumlarini tahlil qilib, bu yerda qachonlardir yuqori darajadagi hunarmandchilikning kulolchilik texnikasi va texnologiyasi rivojlangani, shuningdek, shaharda mahsulot tayyorlash uchun bir nechta xumbuzlarning ichi kulolchilik idishlari bilan to'ldirilgani aniqlanadi. Aksariyat sirlangan kulolchilik buyumlari tepaliklardan topildi, topilgan idishlar oddiy kulolchilik loyidan, rangsiz oq sir bilan qoplangan edi. Idishlarning katta qismi qizil va jigar rang xrom elementi bilan rasmlar solib bezatilgan, ba'zi-bir idishlarda qo'shimcha nafis naqshlar ingichka qilib o'yilgan edi. Boshqa sirlangan kulolchilik idishlarga o'yib ishlangan naqshlar, ko'k, sariq-jigarrang ranglardagi bir-birini takrorlamas noaniq rasmlar, kulollar tomonidan o'ziga xos texnologiya asosida ishlangangini, bu yerga kelgan bir guruh olimlar tomonidan o'rganiladi. Bundan tashqari, o'yib ishlangan idishlardi bezatilgan naqshli rasmlar, alohida ma'no kasb etgan. Xususan, idishlardagi rasmlar, ko'proq bugungi kundagi Xorazm kulolchilik an'anasisiga mos keladi, kulolchilik idishlaridagi geometrik shakldagi bejirim, nafis gulli naqshlar aks etgan manzaralar, (masalan; to'g'ri, doira va egrilari chiziqlar) – xullas xorazmlik kulollar o'sha davrlarda kufiy yozuvlardan ham ustalik bilan foydalanilgani tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari buyumlarda faqat hayvonlardan qushning tasviri aks etgan rasmlar ham kuzatildi.

Arxeologik qazish ishlarini vaqtida kulolchilik kvartalidan sirlanmagan idishlar siniqlarining ikki tipga oid kulolchilik buyumlari, qizg'ish va kulrang rangda tayyorlangan idishlar topildi. Idishlar orasida qizg'ish rangda tayyorlangan idishlarning pastki qismi yassi dumaloq, tuxumsimon, buyinsiz xumlar bor edi, shu bilan birga idishlarning foni sirli yorqin angob solinib yaltiratib, bezatilgan va to'lqinsimon naqsh bilan chizilgan, xumlarda tekis-oval dastak-ushlagich bo'lganligi aniqlandi, bulardan tashqari, tor bo'yinli idishlar, kesik konusli kostryulkalar, keng bo'yinli gul-tuvaklar, yernarni sug'orishda ishlatiladigan aylana suv inshootlari uchun chigir yoki digir idishlarini, shuningdek, idishlar bilan birga tepalikda loydan yasalgan bolalar o'yinchoqlari hamda hayvon shaklini beradigan kulolchilik mahsulotlari, eramizning XI asrda Xorazm kulollar tomonidan o'ziga xos an'naviy texnologiya asosida ishlab chiqarilgani, bir guruh ekspeditsiya olimlar tomonidan ilm-fanga ma'lum qilindi.

Shundan keyin, 1937-yildan boshlab, Xorazm ekspeditsiyasi, Xorazm hududida uning o'rta asrlar tarixiga oid, o'nlab yodgorliklarda arxeologik ilmiy-izlanishlarni olib bordi.

Xorazm arxeologik ilmiy-izlanishlarning oxirgi yillar asnosida ilmiy ishlanma uchun juda ko'p va bir-biridan qiziqarli va qimmatli Xorazm kulolchiligidagi oid ma'lumotlari qo'lga kiritildi. Bu ma'lumotlar, hozirgi kunda Etnografiya instituti SSSR FA ga qarashli Xorazm ekspeditsiyasi fondida va Moskva davlat tarix muzeyida, shuningdek Sankt-Peterburgdagi Antropologiya va Etnografiya muzeyida saqlanib kelinmoqda.

Xulosa o'rnida, ekspeditsiya tomonidan Xorazm hududida arxeologik qazilma ishlarining keng ko'lamda olib borilishi va bu sohadagi katta miqdordagi tarixiy-arxeologik[15] topilmalar

hisoblangan moddiy va yozma materiallarning yig‘ilishi, Xorazm an’anaviy kulolchilik tarixini ilmiy jihatdan tadqiq qilishga zamin yaratdi.

Adabiyotlar

1. С.П. Толстов. Итоги двадцать лет работы Хорезмской археолог-этнографической экспедиции (1937-1956). СЭ, №4, 1957. – стр 31-59.
2. А.Ю. Якубовский. Развалины Ургенча. ИГАИМК, т. VI, вып. 2, 1930
3. Его же. Городище Миздакхон. “Записки Коллегии востоковедов” т. v, 1930
4. М.В. Воеводский. Summary Report of a Khwarizm Expedition. ВАПАА, 1938, №3
5. А.Ю. Якубовский. Развалины Ургенча, стр. 5, 23, 24.
6. Архив ЛОИИМК, 1929, № 119, л 103
7. А.Ю. Якубовский. К Вопросу о происхождении ремесленной промышленности Сарай-Берк. ИГАИМК, т. VIII, вып. 2-3, 1937
8. А.Ю. Якубовский. Развалины Ургенча
9. А.Ю. Якубовский. Городище Миздакхон. Стр. 564, 565
10. С.А. Ершов. Археология Туркм.ССР за 20 лет. “Изв.Туркм. ФАН СССР” 1944, №2-3, стр 29
11. М.В. Воеводовский . Отчёт о работах на Замахшаре в 1934 г. Архив ИИМК
12. Ал-Мақдиси. МИТТ, т. стр. 188
13. Ал-Мақдиси. МИТТ, т. стр. 188
14. Описание городище Замахшар приводится ниже по отчёту М.В. Воеводского, хранящемуся в архив ИИМК.
15. С.П. Толстов. Древний Хорезм, стр 32-34.
16. В.Л. Вяткин. Афрасиаб – городище былого Самарканда. – Тошкент, 1927. – стр. 30-51.
18. М.В. Воеводовский. Отчёт о работах на Змахшаре в 1934 г. Архив ИИМК.
19. С.П. Толстов. Древний Хорезм. -стр. 33.34

UDK: 37:61(575.141)

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASINI RIVOJLANISHI HAMDA ISTIQBOLLARINING TARIXIY AHAMIYATI

N.A.Daminov

Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif Samarqand viloyatda tibbiyat sohasidagi yutuqlarni mustaqillikni ilk qo`lga kiritgan paytdan boshlab, aholisining sog`ligiga berilgan e`tobor hamda, shifokor olimlar tomonidan qilingan ilmiy ishlarni jahonda tan olinishi , Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 -2021-yillarda tibbiyat sohasidagi amalga oshirishi kerak bo`lgan loyihalarning tarixiy jarayonlari haqida fikr yurtildi.

Kalit so`zlar: Samarqand, tibbiyat, simens, anestesiologiya, Neyroxiurgiya, urologiya, marfaologik, tibbiy parzitologiya, sog`lom avlod, tez yordam.

Достижение в области медицине в Самаркандском области в годы независимости и дальнейшие развития

Аннотация. В данной статье автор размышляет о достижениях в области медицины в Самаркандском вилояте с первых дней приобретения независимости страны, о заботе здоровья населения, о признании трудов современных ученых медиков в мировом масштабе, о проектах в здравоохранении на 2017 – 2021- годы принятые Президентом Шавкатом Мирзияевым.

Ключевые слова: Самарканд, медицина, сименс, анестезиология, нейрохирургия, урология, марфаолгик, парзитология, паразитология в медицине, здоровое поколение, скорая помощь.

Historical value of in healthcare development and perspectives during the independence on Samarkand region

Abstract. In this article author concerns about accomplishments in medicine of Samarkand region from first days of Independence of the country, about healthcare of the population, worldwide scientific medical workers works and about projects in healthcare sphere, which have been established in 2017-2021 by president Shavkat Mirzaiyayev.

Keywords: Samarkand, Siemens, anesthesiology, neurosurgery, urology, parasitology, medicine, healthy generation, first aid.

Ma`lumki, har qanday davlat, har qanday jamiyat ham o`z boyliklari bilan qudratli hisoblanadi. Har bir xalq mamlakatning tabiiy zamini, yer osti va yer usti zaxiralari , tog`lari va o`rmonlari, daryo-yu dengizlari, ulkan shaharlari, go`zal inshootlari bilan o`z kuch-qudaratini namoyon etishga harakat qiladi.

Lekin , ko`p asrlik tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, jamiyatning haqiqiy boyligi shu davlatda istiqomat qilayotgan sog`lom fuqarolardir. Kishlik jamiyat el-yurtiga , vataniga sadoqatli, iymon-e`tiqodi butun, mard va jasur , malakasi yetuk, ma`naviyati yuksak insonlar bilan haqli ravishda faxrlanadi. Bu ulug`vor, betimsol boylik har qaysi davlatning qudratli salohiyati hisoblanadi. Ana shunday noyob fazilatlarga ega avlodni tarbiyalab voyaga yetkazayotgan xalq kelajakka ochiq ko`z , katta ishonch bilan qarashi mumkin.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida tilimizni, dilimiz va dinimizni, o`zbeklar o`zligini har tomonlama asrab-avaylab, barkamol avlodlarni voyaga yetkazdilar. Bunday fazilatlar asl e`tiborga ko`ra bizning zahmatkash xalqimizga munosibdir va bu bilan har qancha g`ururlansak bo`ladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2016-yil noyabr oyida Samarqand viloyatida saylovchilar bilan uchrashuvda quyidagilarni ta`kidlangan edi, jumladan: “Ko`hna Samarqand zamini Ollohnning nazari tushgan ilohiy bir yurt sifatida azal-azaldan yetti iqlimda ma`lum –u mashhur bo`lib keladi. Bu haqida gapirganda bu tabarruk diyor ilm-fan va madaniyati rivojida beqiyos o`rin tutadigan Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Qozizoda Rumiy , Ali Qushchi , Xo`ja Ahror Valiy, Abdurahmon Jamiy , Alisher Navoiy, Abulays Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy kabi ko`plab aziz-avliyolar, shoir va allomalar uchun kamolat beshigi bo`lib xizmat qilgani barchamizga g`urur bag`ishlaydi”[1].

Samarqand viloyati o`zining tibbiyot sohasidagi olimlari va matuaxassislari bilan respublikamizda yuqori o`rinlaridan birini egallaydi. 1993-yilda Samarqand sahrida “Tibbiyot” bo`yicha butujahon konferensiyasi o`tkazilgan. Sohasining nufoli olimlari , mutaxassislari tibbiyot bobida to`plagan tajaribalarini o`zaro o`rtoqlashganlar. Mashhur firma va korxonalarining zamonaviy asbob-uskunalarini namoyish qilindi. Viloyat hokimiyyati “Simens” (GFR) firmasining 200 ming AQSH dollarlik uskunalarini sotib olinishi viloyat tibbiyot sohasidagi katta yutug`laridan biri bo`ldi. **Samarqand shahirida tibbiyot instituti respublikamizga yuqori sifatli kadrlarni yetkazib kelmoqda.** **Samarqand tibbiyot Institutı (SamTI),** Samarqand davlat tibbiyot instituti — tibbiyot olyi o`quv yurti 1930-yilda tashkil etilgan. 1933-yilda O`zbekiston universitet filialiga aylantirilgan, 1935-yilda mustaqil institut bo`lib ajralib chiqdi va usha yili uning ixtiyoriga Samarqand klinik kasalxonasi o`tkazildi. SamTI da 3 fakultet (davolash, pediatriya va vrachlar malakasini oshirish), 2 bo`lim (olyi malakali hamshira, tibbiy pedagogika), 56 kafedra, klinika, shuningdek, anesteziologiya, neyroxiurgiya, urologiya va boshqa sohalar bo`yicha mustaqil kurslar hamda markaziy ilmiy tadqiqot laboratoriyasi bor . Laboratoriyada morfologik, immunologik tadqiqot bo`limlari mavjud. Institutda 490 dan ortiq o`qituvchilar faoliyat ko`rsatadi, shulardan 68 ta o`qituvchi fan doktori , 49 ta professor, 172 nafari fan nomzodi, 119 nafari dotsent, 5 ta xodim xizmat ko`rsatgan fan arbobi va 6 ta o`qituvchi O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan sog`likni saqlash xodimi unvoniga ega. SamTI da ulka patologiyasi, jumladan, issik iqlim sharoitida me`da-ichak, yurak-tomir kasalliklari va boshqa mavzularda tadqiqot ishlari olib boriladi. Instituti hozirgacha 28742 vrach va 27 ta olyi ma`lumotli hamshira tayyorladi, shuningdek, 20210 vrach o`z malakasini oshirdi va qayta tayyorlandi. Samarqanddagı L.M.Isayev nomidagi tibbiy parazitologiya ilmiy-tekshirish institutida (7 nafar) ilmiy xodim bo`lib, ulardan 1 nafari fan doktori , 6 nafari fan nomzodlarlardir. Institut oxirgi yillarda Toshkent va Samarqand Davlat tibbiyot institutlarini 17 nafar mutaassislar ilmiy ishga jalb etilgan. Institut ilmiy ishlari xulosalari muntazam ravishda tibbiyot amaliyatiga tadbiq etib kelinmoqda. O`zbekistonda bezgak bo`yicha epidemiologik vaziyat o`rganilgan va hashorot bezgakka qarshi chora-tadbirlar takomillashtirilgan. Respublikada zoonozli teri yuzi o`choqlarining epidemiologik xususiyatlari o`rganilgan va kasallikni oldini olishning “spetsifik” usullari ishlab chiqilgan. Aralash parazitar invaziyalarning davolashi takomillashtirilgan. Oxirgi 5 yilda (2004- 2009-yilar) 9 ta uslubiy tavsiyonomalar va o`quv qo`llanmalar chop etilgan. Har yili viloyatda parazitolog – vrachlar , entomologlar va laborantlarning malakasini oshirish bo`yicha viloyat Davlat sanitariya-epidemologiya nazorat markazlari bilan hamkorlik asosida “Tibbiy parzitologiya “ sikli bo`yicha sayyor o`quv kurslari o`tkazilib kelinmoqda.

Mutafakkirlar aytishganki, katta shaharni 5 narsa chiroyli qilib ko`rsatadi va tanitadi. Bular: 1) Shahar hokimining ulug` bo`lishi; 2) Qozisiningadolatli bo`lishi; 3) Tabibining mashhur va bilimdon bo`lishi; 4) bozorining fayzu-barakasi va orasta tartiboti; 5) Shahar o`rtasidan daryoning oqib o`tishi.

Tarixda mashhur o`tgan podshoh Qobusning o`g`li Kaykovusshohga yozib qoldirgan “Qobusnoma”sida ham tib ilmini o`rganish, kasblar ichida **tabiblik eng ulug` ekanligi ta`kidlab o`tilgan**. Biz yashab turgan bu zaminda tibbiyatga bo`lgan yuksak munosabatni tasdiqllovchi ulug` ibratlardan biri tib ilmi daholaridan, tibbiyotning 4 asoschilaridan biri **Ibn Sinoday** buyuk hakimning yetishib chiqqanligidir. Tarixdan ma`lumki Smarqandda shifoxonalar bo`lib aholining davolanishiga e`tibor bergenliklarini ko`rish mumkin. 1019-yilda Samarqandning “So`zangaron” mahallasida qurilgan birinchi shifoxona bu o`lkada tibbiy ilmning naqadar chuqur ildizi borligidan dalolat beradi. Binobarin, viloyatda tibbiy xizmatini jahon darajasiga ko`tarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ma`lumotlardan har bir fuqaro ko`z olidiga Samarqand viloyatida haqiqatdan ham tibbiyot sohasida ijobjiy xislatlar paydo bo`ladi. Ushbu ma`lumotlarda haqiqatga yaqinmi arxiv hujjatlaridan foylanib nazar tashlaymiz. O`zbekiston xalqi tom ma`noda binyodkordir, bu tarixdan ma`lum davlatchligimizda o`zining munosib hissasini qo`shgan buyuk sarkarda va daholar Amir Temur, Ulug`bek, Alisher Navoiy, Bobur mirzo, Abdullaxon II, Yalangto`shbiy, Amir Shohmurod bunday shaxslarni ko`plab keltirishmiz mumkin. Bu insonlar o`zlarining hisobidan Madrasa, Masjid, Sardoba, Shifoxonalar qurib xalqning ko`nglidan joy olganlar. Hozirgacha bizlarning qonimizda saqlanib qolgan, bunday ijobjiy xislatlarni quydagilarda ko`rish mukin: “Ximiya zavodi (O. Qilichov), o`z hisobidan zamonaviy poliklinika, Zarmitan oltin koni boshqarmasi (T. Nazarov) shifoxona, Tayloq tumanidagi “Sohibkor” FQYdan (Yu. Muxtorov) va “Olmazor” FQY dan (N. Rahmatova), Nurobob tumanidagi R. Jahongirov nomli FQY dan (R. Sanaev) o`z mablag`lari evaziga zamonaviy uchastka shifoxonlarini qurib, foydalanishga topshirganlar” [2]. **Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning farmonlari Samarqand viloyat tibbiyot muassasalarining xodimlariga katta imtiyozlar berilgan.** 2 mingdan ortiq tibbiyot xodimari turar-joyini bepul shaxsiy mulk qilib olganlar. Prezidentimizning farmonlariga ko`ra, “Sog`lom avlod uchun “ordenining ta`sis etilishi katta siyosiy-ijtimoiy ahamiyatga molik voqeа bo`lgan. Bu yuksak mukofatning joriy qilinishi tibbiyot muassasalari oldiga yangi vazifalarni qo`yadi.

1993-yilning 27-fevralida viloyatda sog`liqni saqlash ishlarining samaradorligini oshirish hamda tibbiy yordam sifatini yaxshilash haqida “ viloyat hokimining qarori chiqarilgan. Shu qarorda quydagilar belgilangan **birinchidan**, biz miqdor ortidan quvmasdan tibbiy xizmatning pirovard natijasiga qarab harakat qilishimiz kerak. **Ikkinchidan**, ambulatoriya poliklinika muassasalarining moddiy texnikaviy zaminini mustahkamlab, malakali mutaxassis kadr bilan yetrali darajada ta`minlab, ularning nufuzini oshirish. **Uchinchidan**, aholi salomatligini yanada mustahkamlash va kasalliklarga chalinishining oldini olish maqsadida dispanserizatsiya sifatini har taraflama yaxshilash lozim. **To`rtinchidan**, aholi o`rtasida sog`lom turmush tarzini qaror toptirish maqsadida barcha mutasaddi idoralarning, eng avvalo, sog`liqni saqlash tashkilotlari va muassasalari xodimlarning ko`magida tadbirlar tizmini ishlab chiqib, viloyat hokimiyatining tasdig`iga kiritish talab etiladi. **Beshinchidan**, mutaxassis kadrlarni tayyorlashda yaqin kelajakda ularning jahon andozlari talablariga javob bera oladigan bo`lishiga erishish zarur.

O`sha paytda ya`ni 1996-yil Samarqand viloyat hokim lovozimida ishlagan Alisher Mardihev viloyat sog`liqni saqlash tizimi faoliyatining bugungi ahvoli va uni yaxshilash chora-tadbirlari masalalariga doir faollar yig`ilishda quydagi ma`lumotni keltirgan; “ Hozirda ham Samarqand olimlarining jahon meditsinasi minbariga chiqib ketganligini bilamizmi? Rahim Musaevich Hayitov Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi, Nyu-York Fanlar akademiyasi a`zosi. Akademik Islom Zohidovich Zokirov jahonga mashhur olim. Tibbiyot parazitologiyasi ilmiy – tadqiqot instituti xodimi Rohatoy Nosirova 1995-yil Amerikada kishisi deb tan olindi. Nyu-York Fanlar akademiyasi a`zosi samarqandlik Azamat Shamsiyev hisobiga yana bittaga ortgani biz uchun faxr” [3].

Viloyatda 1998-yilda sog`liqni saqlashda yuqori ko`rsatkichlarga erishilgan. Bu biz quydagi ma`lumotlarda ko`ramiz : “Umumiy quvvati 60 o`ringa ega shifoxona va 1050 qatnovga mo`ljallangan poliklinika ishga tushirilgan. Kompyuterli tomograf, “SIMENS” roentgen apparati olib kelingan. Onkologiya shifoxonasiga 8 mln so`mlik, qishloq vrachlik punkitlari va davolash profilaktika muassasalarini jihozlash uchun 63 mln. so`m tibbiy asbob-uskunalar va yumshoq jihozlar markazlashgan holda olingan. “Tez yordam” xizmatiga 100 dan ziyod “Damas” mashinalari berilgan.

Viloyat ko`p tarmoqli bolalar shifoxonasiga va viloyat onalik va bolalikni muhofaza qilish markaziga Yaponiya “Grant” tarmog`i orqali 4,0 mln. AQSh dollari qiymatiga teng 142 turdag'i tibbiy asbob uskunalar keltirilgan. Viloyatda tashkil etilgan “Ona va bola” skrining markaziga 16 mln. so`mlik “Delfiya” diagnostika laboratoriya uskunalari va texnika jihozlari, 15 mln so`mlik ultratovush apparati va Samarqand shahar 1-son birlashgan shifoxonasiga 130 ming AQSh dollari qiymatida endoskop jarrohlik apparati olib kelingan” [4]. Yuqoridagi bu raqamlar Samarqand viloyatida aholi sog`lig`ini saqlashning tarixiy ahamiyati katta. Bular shunchaki oddiy raqamlar emas, bu viloyatning yutug`i, bu raqamlarda aks etgan o`sish – o`zgarishlar xalqimiz salomatligini saqlashda eng yaxshi natijalar aks etganligini ko`rishimiz mumkin. Albatta, bu raqamlar ma`lum samaralarni bergan. Masalan, 1998-yil respublika viloyatlari o`rtasida bolalar o`limini kamaytirish bo`yicha 2 o`rin, onalar o`limni kamaytirish bo`yicha 4 o`rinda bo`lgan, 24 yuqumli kasalliklardan 6 turi uchramagan, 15 turi bo`yicha kamayish kuzatilgan.

O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov 2000-yilini “Sog`lom avlod yili” deb e`lon qilingan. “Sog`lom avlod yili” dasturini amalga osirish maqsadida O`zbekiston Vazirlar mahkamasi 2000-yil 15-fevralda 46-sonli qarori qabul qilingan. Viloyatda shu qarorni ayotga joriy etish maqsadida viloyat hokimining 2000-yil 17- martdag'i 86- Q . qarori qabul qilingan. Ishlab chiqilgan qarorda jumladan shunday deyilgan: “Sog`lom avlod” dasturi topshiriqlarini belgilangan muddatlarda amlaga oshirish uchun mavjud barcha imkoniyatlarni ishga solish va o`zlariga bog`liq hamma choralarни ko`rish boshqarmalar, birlashmalar , uyushmalar, hokimliklar, davlat tashkilotlari va jamoat birlashmalarini rahbarlarining muhim insoniy burchi deb hisoblansin” [5]. Samarqand viloyatida har doim aholi salomatligini ta`minlash dolzarb masala bo`lib kelgan.

“2002-yil viloyat sog`liqni saqlash tizimi harajatlari uchun jami 1497.2 million so`m mablag` ajratilgan. Shundan , sohani moddiy- texnik bazasini mustahkamlashga 399.3 million so`m , jumladan tubdan ta`miralsh ishlari uchun viloyat shoshilinch tibbiy yordam markaziga 77,0 million so`m , viloyat onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish markaziga 59.8 million so`m, qishloq tumnlaridagi shifoxonalarni ta`mirlashga 83.7 million so`m hamda aholiga birinchi tibbiy yordam ko`rsatishni tezlikda amalga oshirish uchun viloyat shoshilinch tibbiy yordam markaziga 3 dona va Paxtachi tumani markaziy shifoxonasiga 1 dona tez tibbiy yordam “ Damas” avtomashinalari sotib olib berilgan” [6] . Samarqand viloyati ijtimoiy majmua masalalari bo`yicha o`ribbosari kotibiyat mudri **X.U.Muxammadiyev xalq deputatlari viloyat kengashining o`n ikkinchi sessiyasida “sog`liqni saqlash” tizimini isloh qilish masalasiga bag`lishlangan ma`ruzasida quyidagilarni ta`kidlagan.** “Viloyat hokimligi tomonidan O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1998-yil 10-noyabrdagi “O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to`g`rsidagi Farmoni va viloyat hokimining 1998-yil 10-noyabrdagi 232 – Q sonli qarorining shahar va tumanlarda ijrosini oshirish maqsadida 12 kishidan iborat viloyat kengashi deputatlari va mutaxassislari guruhlari tuzilib , 2002-yil 14-noyabrdan 19-dekabrgacha viloyat aholisiga tibbiy yordam qaratilishning ahvoli bilan tanishib chiqanlar. Samarqand viloyatda 2002-yilda hammasi bo`lib “502 ta davolash proflaktika muassasi faoliyat ko`rsatgan. Shulardan 98 ta shifoxona, shu jumladan 2 ta shahar va 14 ta tuman markaziy shifoxonasi, 20 ta viloyat shifoxonalari 398 ta ambulatoriya poliklinkia muassasalari, 245 ta qishloq vrachlik punkti, 53 ta qishloq vrachlik ambulatoriyalari, 22 ta qishloq uchastka shifoxonalari va 495 ta feldsherlik akusherlik punktlari faoliyat ko`rsatib kelgan. O`tgan davr mobaynida viloyat yurak kasalliklari dispnsneri hududda 120 o`rinli yangi davolash korpusi , viloyat silga qarshi ko`rashish dispanserida 90 o`rinli yangi davolash korpusi , kattaqo`rg`on shahrida 150 katnovga mo`ljallangan poliklinika , Tayloq , Narpay va Payariq tumanlarida 40 o`ringa mo`ljallangan shoshilinch tez tibbiy yordam bo`lim binosi va 76 ta yangi qishloq vrachlik punkti binolari qurlib , ishga tushirilgan. Viloyatda Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish markazida 130 o`rinli tug`ruqxona kompleksi rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirilgan.” [7].ligini ta`kidlab o`tgan.

“Inson sog`lig`i oltindan qimmatdir” degan gap bor xalqimizda insonlarga tez yordam ko`rsatish dardiga malham bo`lishda tibbiy tez yordamning o`zga xos o`rni bor. Samarqand viloyat tez yordam xizmati uchun 2009-yilda yangi 30 ta “Damas” rusumli va Samarqand shahar tez yordam xizmati uchun Koreya Respublikasi grant mablag`lari hisobiga 7 ta “Xunday” rusmli avtomobillar Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Samarqand filialiga berilgan . Viloyat aholisiga O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2009-yil 21-maydag'i PQ -1114- sonli qaroriga

asosan 220 ta sanitar avtomashinasi normative hisoblanib, 2009-yilda 165 ta sanitar avtomashinasi bilan ta`minlangan.

Samarqand viloyatida 111 ta kasalxona (14,7 ming o`rin), 579 ta poliklinika , ambulatoriya va boshlanig`ich tibbiy muassasalar bir seminada 36,0 ming kishini qabul qilish quvvatiga ega, 208 ta ayollar konsultatsiyasi, 187 ta bolalar poliklinikasi va ambulatoriyasi , 311 ta qishloq vrachlik punkti, 444 feldsher akusherlik punkti, 21 qishloq uchastka kasalxonasi va ambulatoriyada ixtisoslashtirilgan davolash markazlari tashkil etilgan. Ushbu tibbiy muassasalarda 4,4 ming vrach , 17 ming o`rta tibbiy xodim faoliyat yurtib kelmoqda. Samarqand viloyat shoshilinch tibbiy yordam markazi Respublikada birinchi bo`lib ishga tushirilgan va asbobuskunalar, qattiq va yumshoq jihozlar hamda kadrlar bilan ta`minlangan. Markazning tumanlardagi filiallaridan 14 tasi ishga tushirilgan va faoliyat ko`rsatmoqda. 2003-yilda 39 qishloq varachlik punkitlari ishga tushirigan bo`lib aholiga beminat xizmat qilib kelmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2016-yil noyabr oyida Samarqand viloyatida saylovchilar bilan uchrashuvda, 2017-2021-yillarda tibbiyot sohasidagi quydagi dasturlari bilan o`rtoqlashadi: “Ayni shu maqsadga qaratilgan dasturda kelgusi ikki yilda ayollar va bolalarga maxsus va yuqori texnologiyalar asosida tibbiyi yordam ko`rsatishni yaxshilash, jumladan, ularga xizmat ko`rsatadigan davolash – proflaktika tashkilotlarning moddiy-texnik bazasini va kadrlar tarkibini yanada mustahkamlash bo`yicha muhim chora-tadbirlar nazarda tutiladi. Xususan, kelgusi besh yilda Samarqand viloyatining Bulung`ur, Oqdaryo va Kattaqo`rg`on tumanlari tibbiyot birlashmalarning tug`uruqxona bo`limlari hamda Samarqand shahridagi uchta tug`ruqxona kompleksi rekonstruksiya qilinadi. Viloyatda farmatsevtika sanoati rivojlantirish bo`yicha 24 milliard so`mdan ortiq mablag` ajratilib, 22 ta yangi loyiha ishga tushiriladi. Natijada yoshlar uchun 500 yaqin yangi ish o`rni yaratiladi. Jumladan , Pastdarg`om tumanida “Pastdarg`om Farm” korxonasi tomonidan yiliga 50 million dona dori vositalari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo`lgan 3 milliard so`mlik loyiha hayotga joriy etiladi” [8]. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 4-apreldagi “2017-2021-yillarda O`zbekiston Respublikasida onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish va aholiga onkologik yordam ko`rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qaroriga ko`ra, Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hamda hududlarda uning filiallari tashkil etildi. Xalqimizga yuqori sifatlari, zamon talablariga to`la javob beradigan tibbiy xizmat ko`rsatish maqsadida markazning yetuk mutaxassislari viloyatlardagi muassasalarga rahbar etib tayinlandi.

Ta`kidlandiki, viloyatda onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish va aholiga onkologik yordam ko`rsatishni takomillashtirish borasida bir qator yo`nalishlarda ish olib borilmoqda. Avvalo, filial mutaxassislaridan iborat ishchi guruhlar tashkil etilib, o`sma kasalliklari profilaktikasi va xastalikni barvaqt aniqlash maqsadida barcha shahar va tumanlardagi bemorlar ko`rikdan o`tkazildi. Mahallalarda sog`lom turmush tarzi, tibbiy madaniyat, saraton oldi kasalliklari va saratonning ilk bosqichlari belgilari to`g`risida tushuntirish-targ`ibot ishlari olib borildi. Viloyatning 9 tumani tibbiyot birlashmasida onkolog xizmati yuklatilgan nomutaxassis xodimlar o`rniga filialning malakali onkologlari ishga joylashtirildi. O`tgan davr mobaynida filialning 5 nafar yosh xodimi Hindistondagi BLK klinikasida onkologiyaning dolzarb yo`nalishlari bo`yicha malaka oshirib keldi.

Adabiyotlar

- Shavkat Mirziyoyev . Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.; “O`zbekiston” 2016 , 173- bet.
- Samarqand viloyat arxiv. Fond 1. Delo 179. Varaq – 208. 89- bet. 1993 yil 15- may.
- Samarqand viloyat arxiv. Fond 6. Delo 878 66 varaq . 29 bet. 1996 yil 5 mart.
- Samarqand viloyat hokimlik arxiv. Fond opis 1. Delo 1399. 41 varaq. 4- 5 bet. 1999 yil 6 fevral.
- Samarqand viloyat arxiv. Fond 1. Delo 1456. 107 varaq. 21- bet. 2000 yil 27 iyul.
- Samarqand viloyat arxiv. Fond 1. Delo 1652. 158 varaq. 56 – bet. 2002 yil 29 dekabr.
- Samarqand viloyat arxiv. Fond 1. Delo 1652 . 158 varaq. 89- bet. 2002 yil 29 dekabr.
- Shavkat Mirziyoyev . Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.; “O`zbekiston” 2016 , 197- 198- betlar.

UDK: 1.101.8(575.1)

TAFAKKUR – O‘Z-O‘ZINI TASHKILLASHTIRISHNING ASOSI SIFATIDA**Z.O.Muminova***Samarqand davlat universiteti*E-mail: muminova.2013@inbox.ru

Annotatsiya. Maqlolada inson ma’naviy borlig‘ining ajralmas xossasi tafakkur va uning sinergetik mohiyati ochib berilgan. Tafakkur jarayonining mexanizmi, insonning o‘z-o‘zinini boshqarish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini anglash jarayonida tafakkurning o‘rni va mohiyati, inson ma’naviy borlig‘ining atributiv xossalari bo‘lgan ijodkorlik va erkinlikning tafakkur bilan aloqadorligi masalalari sinergetik tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tafakkur, ong, inson ma’naviy borlig‘i, ijodkorlik, erkinlik.

Сознание как основа самоорганизации

Аннотация. В статье рассматривается одно из неотемлимых свойств духовного бытия человека, сознание и его синергетическая суть. Механизмы процесса сознания, роль сознания в процессе самоорганизации, саморегулировании и самосознания а также взаимосвязь сознания с другими атрибутивными свойствами как творчество и свобода.

Ключевые слова: сознание, мышление, духовное бытие человека, творчество, свобода.

Consciousness as a basis of self organization

Abstract. In article is philosophical analysed one of the attributive properties of mankind’s spiritual world thinking and this synergetic approach. Mechanisms of the process of consciousness shaping self-organization and self-verification of humans as base self-regulations. As well as analyzed interconnection of consciousness with other attributive properties of humans spiritual world with freedom and creative.

Keywords: consciousness, thinking, spiritual world of human, creative, freedom.

Bugungi kunda insoniyat o‘z kelajagining muhim, burilish pallasini boshdan kechirmoqda. Insoniyat kelajagini pissimistik bashorat qilish tobora avj olib bormoqda. Insoniyat kelajagini shubha ostiga qo‘yayotgan global ekologik muammolar, demografik inqirozlar, ijtimoiy siyosiy ziddiyatlar, terrorizm, ma’naviy axloqiy tanazzul xususidagi qarashlar ham ilmiy hamjamiyat ham ommaviy axborot vositalarining asosiy mavzusiga aylanib qoldi. Zero, “ommaviy madaniyat ko‘rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm va missionerlik kabi balo qazolardan yoshlارимизни asrash” [6.89], eng muhim vazifadir. Bunday vaziyat jamiyatda, insonlar orasida tushkunlik, kelajakka nisbatan ishonchsizlik, umidsizlik, pissimistik kayfiyatning kuchayib borishi tabiiyidir. Inson o‘zini, mavjud muammolar qurshovida ojiz, himoyasiz sezaga boshladi. Lekin, inson har qanday vaziyatda ham insonligicha qoladi. U har qanday vaziyatda muammoning yechimi topa olish, ziddiyatlarni bartaraf etish qobiliyatiga egadir. Uning ana shunday qobiliyati, ongli mavjudot ekanligi, tafakkur sohibi bo‘lganligi bilan bog‘liqdir. Insoniyat tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, jamiyatdagi paydo bo‘lgan ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy inqirozlarning yechimini topishi, insonning tafakkur tarzini o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Ya’ni, inson jamiyatdagi mavjud holatni o‘zgarishi, uning tafakkur tarzini o‘zgarishi bilan bevosita bog‘liqdir. “Insonni sinergetik nuqtayi nazardan o‘rganish, uni falsafiy anglash, oldin klassik fan e’tibor bermagan narsalarni tadqiq qilib, yangi kategoriya va yondashuvlarni kiritishga ularni o‘zgacha interpretatsiya qilishga imkon beradi” [1. 29].

Demakki, tafakkur, insoniyatning yagona xaloskori, barcha muammolarining yechimi, kalitidir. “Tafakkur – inson ongli faoliyatining bir shakli bo‘lib, “voqelikning vositali tarzda inson miyasida aks etishidir. Obyektiv borliq inson tafakkurida tushuncha, hukm, xulosa, nazariyalar tarzida aks etib, ma’lum bir vazifalarni bajarishga yo‘naltiriladi”[3.101].

Biz insonlar tabiatdagi eng takomillashgan mavjudot ekanligimizdan, atrofimizda ro‘y berayotgan hodisalarni anglay olishimiz, mushohada qilishimiz, boshqalarga ham bu haqda xabar bera olishimiz, farzandlarimizni tarbiyalay olishimiz, bilganlarimizni boshqalarga ham o‘rgata olishimiz, dunyoda mustaqil faoliyat yurita olishimiz, mehnat qilishimiz, o‘zimizni va o‘zgalarni qadrLAY olishimiz, o‘z fikriga ega bo‘lib, bu fikrni boshqalarga ham uzata olishimiz, tabiatda ilgari bo‘lmagan narsalarni kashf qilib, ijodiy faoliyat olib borish va turli sohalarda san’atkor bo‘lish kabi

imkoniyatlarga ega mavjudot ekanligimiz uchun ham taqdirdan minnatdor bo‘lishimiz lozim.” [2.29] Darhaqiqat, insonning oliv mavjudot ekanligini belgilab beruvchi asosiy jihat bu tafakkurdir. Tafakkur vositasida inson borliqni o‘zlashtiradi, o‘zgartiradi. Tafakkur vositasida inson borliqqa faol ta’sir o‘tkazadi, borliqning aktiv bo‘lagiga aylanadi. Inson tafakkur sohibi ekan, u borliq evolyutsiyasining bir elementi sifatidan, evolyutsiyaning harakatlantiruvchisi sifatiga ko‘tariladi. “Tafakkur – inson bilimlarining manbaidir. Inson bilishining maqsadi esa, o‘z-o‘zini bilishdir. O‘zligingni bil va shu orqali olamni anglaysan”[4.13].

Ma’naviy dunyosining qay darajada boyligidan qat’iy nazar, har bir inson tafakkur yuritish qobiliyatiga egadir. Tafakkur yuritish natijasida inson moddiy va ma’naviy qadriyatlarni bonyod etadi. Barcha ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar, fan va texnika yutuqlari, inson tafakkurining mahsuli hisoblanadi. Shu bilan birga inson tafakkuri, inson ma’naviy olamini oziqlantirib, boyitib boruvchi badiiy, estetik, axloqiy, diniy qadriyatlarning ham yaratuvchisi sanaladi. Jamiyatni boshqarib, tartibga solib turgan qonun-qoidalar ham, inson tafakkuri mahsulidir.

Insoniyat ulkan tarixiy taraqqiyot jarayonida ibtidoiy to‘dadan, bugungi kun taraqqiyot darajasiga erishdi. Ushbu ulkan davrni, insoniyat tafakkuri taraqqiyoti bilan bog‘lasak, xato bo‘lmaydi. Chunki, insoniyatning rivoji, yaratuvchanlik faoliyati, kashfiyot va ixtirolari – albatta inson tafakkuri mahsulidir. “Falsafa tarixi bu inson tafakkuri taraqqiyoti tarixidir. Aslida inson tafakkuri azaldan falsafiy tahlil va umumlashtirishga ehtiyoj sezgan va inson tafakkuri taraqqiyoti falsafiy fikrlar taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlangan. Shu nuqtayi nazardan falsafiy fikrlar insonning o‘zligini anglash davridan, ya’ni juda qadim zamonlardan boshlangan”[5.228]. Tafakkur faoliyatjisiz, inson mavjudligi o‘zining insonlik sifatini yo‘qotadi. Chunki, insonni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi jihat – bu uning tafakkuridir. Shu sababdan ham, tafakkurni, inson ma’naviy borlig‘ining asosiy atributiv jihat, ajralmas qismi, sifatida baholaymiz.

Tafakkur – ongning faoliyat ko‘rsatish jarayonidir. Inson fikr yurituvchi, fikrini uzatuvchi, fikrini saqlay oluvchi, fikri bilan olamni o‘zgartira oluvchi mavjudotdir. Ong inson miyasining faoliyatidir. Ong imkoniyat bo‘lsa, tafakkur shu imkoniyatning voqelikka aylanishi, ongning faoliyatidir. Tafakkur fikrlash jarayonidir, ya’ni u ongning namoyon bo‘lishi, ongning faoliyat ko‘rsatishi. Ong mohiyat bo‘lsa, tafakkur esa hodisadir. Ong inson miyasining fikrlash jarayonida namoyon bo‘luvchi ma’naviy hodisadir. Ong inson bilan birgalikda shakllanadi, takomillashadi, rivojlanadi. Ong fikrni hosil qiladi. Ong voqelikning ma’naviy ko‘rinishi. U fikrning vujudga kelishidagi ma’naviy asos. Demak, ongga ega bo‘lmagan mavjudot fikrlay olmaydi. “Ong modda emas, narsa ham emas. U ma’naviy hodisa, harakatning bir shakli. Ong – insonning o‘zgarib borayotgan dunyoga moslashuviga yordam beruvchi eng kuchli qurolidir”.[3.102]

Ong – obyektiv voqelikni in’ikos ettirishning faqat insongagina xos bo‘lgan oliy shakli, insonning dunyoga va o‘z-o‘ziga faol munosabati usuli. Ong – voqelikning inson ongida maqsadga muvofiq, faol, mazmunli in’ikos etishidir. Bunday munosabat usuli kishilarning butun ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mobaynida egallab kelgan tarixiy tajribasi mobaynida takomillashib kelgan. Ong – inson miyasi faoliyatining mahsuli. Ong – insonning ruhiy holati. Inson miyasi insoniyatning butun tarixiy taraqqiyoti mobaynida takomillashib borgan. Inson tirikchilagini ta’minalash uchun mehnat qilishga, ongli faoliyat yuritishga majbur bo‘lgan. Demakki, ong va tafakkur insonning ijtimoiylashuvining asosiy sabablaridan biridir. Ongning muhim elementlari xotira, o‘zlikni anglash, mehnat faoliyati, baholash, refleksiya. Ya’ni, inson tafakkurining sinergetik xossalardan biri shundaki, tafakkur insonga o‘z xatti-harakatini kuzatish, nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘ziga baho berish, o‘z-o‘zini refleksiv tahlil qilish, o‘z-o‘zini tashkillashtirish imkoniyatini beradi. Inson voqelikda uchratgan obyektlarni va ularning xususiyatlarini eslab qoladi. Buning uchun unda xotira bo‘lishi lozim. Inson o‘zini tashqi olamga qarama-qarshi qo‘yadi va o‘zining manfaatlariga mos keluvchi maqsad sari intiladi, Buning uchun inson o‘zini o‘zi anglashi va o‘zining imoniyatlarini to‘g‘ri chamalay olishi zarur. Buning uchun inson o‘zini o‘zi to‘g‘ri anglay bilishi muhim. Inson o‘zining ongli faoliyati bilan o‘ziga va o‘zinikilarga foyda keliruvchi mashg‘ulot bilan shug‘ullanadi. Bu maqsadga muvofiq va foyda keltiruvchi mashg‘ulot – mehnatdir. Inson mehnat jarayonida o‘zini takomillashtirib boradi va o‘zining faoliyatiga, boshqalarning faoliyatiga baho beradi. Atrofdagi o‘zi uchun va boshqalar uchun kerakli buyumlarni, ularning qadr-qimmatiga mos ravishda, baholaydi. Shu asosda yaxshi va yomonni farqlaydi. Shunday qilib ong – borliqning ma’naviy shaklidir.

Ongning yana bir elementi o‘z-o‘zini anglashdir. O‘zligini anglash kishining ongli faoliyati bo‘lib, inson o‘zining imkoniyatlarini ongli ravishda baholashida, o‘zining xatti-harakatlarini ongli

ravishda boshqarishida namoyon bo‘ladi. O‘z faoliyatini tanqidiy baholash jarayoni o‘z-o‘zini refleksiya qilish deyiladi. Inson o‘zining kelgusi xatti-harakatlarini to‘g‘ri boshqarishi uchun o‘zining ilgarigi xatti-harakatlarini tanqidiy baholay olishi zarur bo‘ladi. Bu esa uning kelajakda ayrim xatolarni takrorlamasligiga zamin bo‘lib keladi. O‘z hayotiy faoliyatini takomillashtirish, yangi sifatiy darajaga ko‘tarila olish imkoniyatini beradi. Inson ma’naviy borlig‘ini shakllanishi, rivojlanishi, ijodkorligi, tafakkursiz amalga oshmaydi. Tafakkur, inson ma’naviy borlig‘ini tartibsizlikdan xaosdan tartibot tomon borishini belgilab beradi. Ya’ni, bilimsizlikni, bilmaslikni tartibsizlik deb hisoblasak, inson tafakkur vositasida bilish jarayonida borliqni anglab, bilish jarayoni, bilim shakllanadi. Bilim esa, inson ma’naviy borlig‘iga tartibot bag‘ishlaydi. Tafakkur jarayonining bevosita mahsuli bo‘lgan ijodkorlik inson ma’naviy borlig‘ida barqarorlik va beqarorlik dialektikasini keltirib chiqaradi. Ijodkorlik, mazmun mohiyatiga ko‘ra inson ma’naviy borlig‘ida muvozanatsizlik, tizimning bir nuqtada turmasligi, o‘z holatini tinimsiz o‘zgartirib turishi hisoblanadi.

Inson erkinligi, inson ma’naviy borlig‘ida nochiziqli jarayonlarni keltirib chiqaradi. Shu jumladan nochiziqli tafakkurlash qobiliyatini shakllanishi ham insonning erkin mohiyati orqali amalgalashiriladi. Nochiziqli tafakkur tarzining o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, unda insonning kelajakni bashorat qilish imkoniyatlari nihoyatda cheklanadi. Bundan tashqari nochiziqli tafakkur tarzi doimo yangiliklarga tayyorligi bilan ham ajralib turadi. Agar chiziqlilik doimiylilik, muvozanat holati, qat’iy algoritmik ketma-ketlik va muqobil variantlarni inkor etish bilan xarakterlansa, nochiziqlilik, o‘zgaruvchanlik, xilma-xillik, beqarorlik, muvozanat holatidan uzoqlashish, tasodif va bifurkatsion holatlar bilan xarakterlanadi. Erkinlik inson tafakkurida bifurkatsion holatlarni keltirib chiqaradi. Insonning ongli faoliyati, tafakkur sohibi ekanligi unda doim tanlov imkoniyatini keltirib chiqaradi. Tanlov esa mazmuniga ko‘ra bifurkatsion holatdir.

Demak, inson tafakkuri sinergetik mazmunga egadir. Inson tafakkuri insonning o‘z-o‘zini boshqarishi, o‘z-o‘zini anglashi, o‘z-o‘zini tashkillashtirishining asosidir.

Inson tafakkuri inson ma’naviy borlig‘ida xaosdan tartibot tomon harakatlanishni ta’minlaydi.

Inson tafakkuri inson ma’naviy borlig‘ida nochiziqlilikni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, tafakkur inson ma’naviy borlig‘ida bifurkatsion holatlarni keltirib chiqaradi.

Adabiyotlar

- Абдуллаева М.Н, Синергетика – Новые возможности познания и действия. // Синергетиканинг табиий-илмий ва фалсафий муаммолари: илмий-назарий семинар. (илмий мақолалар тўплами). – Наманган: НамДУ, 2009.
- Бердяев.Н.А. Смысл творчества. – Москва, 1993.
- Тураев Б. Борлик мөхияти, шакллари, хусусияти. -Т.: Фалсафа ва хукуқ институти. 2011.
- Тураев Б.О. Фалсафа тарихининг қисқача баёни. //Ином ал-Бухорий сабоқлари. 2010. 2-сон.
- Философский словарь. Под редакцией Фролова. И.Т. - Москва: Политиздат, 1980.
- Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

UDK: 1:155.6

IJTIMOIY TARAQQIYOTDA INTUTSIYANING O‘RNI

Z.P.Nadirova

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy taraqqiyot va uning mezonlari, bashorat, harakatlar strategiyasining besh asosiy yo‘nalishlari, ijtimoiy bashorat va intuitsyaning bu jarayondagi o‘rni xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy bashorat, intuitsiya.*

Место интуиции в социальном прогрессе

Аннотация. В этой статье рассматриваются общество, гражданское общество, социальные прогресс и его критерии, предвидение, пять основных направлений стратегии действий, социальное предвидение и место интуиции в этом процессе.

Ключевые слова: социальный прогресс, социальное предвидение, интуиция

The place intuition in social progress

Abstract. This article discusses society, civil society, social progress and its criteria, prophecy, the five main areas of action strategy, social prophecy and its place of intuition in this progress.

Keywords: social progress, social prophecy, intuition

Bizga ma'lumki, bugungi jadal axborot rivojlanayotgan jamiyatda fan va texnika taraqqiyoti jamiyat rivojlanishi, shu jumladan uning moddiy-iqtisodiy negizi, ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishini belgilovchi asosiy omilga aylandi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar qisqa vaqt ichida inson jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarda ijtimoiy barqarorlik, adolatparvarlik, qonuniylik va farovonlik kasb etmoqda. Respublika Prezidenti Sh.A.Mirziyoyev 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Xalq bilan uzlksiz muloqot va inson manfaatlari uchun xizmat qilish, barcha darajadagi rahbarlar uchun nafaqat majburiyat, balki hayotiy tamoyilga aylanishi shart." – deb qat'iy ta'kidladilar.

Bundan tashqari davlatimiz mustaqilligining asoschisi Respublikamiz birinchi Prezidenti Islom Karimovning «O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarlarida fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'llari va bu borada mamlakatimiz oldida turgan vazifalar ilmiy jihatdan asoslab berilgan edi. Bugunga kelib, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda huquqiy ong va madaniyat, ijtimoiy ongning barcha turlari, o'z-o'zini boshqarish konsepsiyalari orqali kishilar ongida jamiyat haqida yangicha fikrlar shakllandi. Eng avvalo ijtimoiy rivojlanishning negizida iqtisodiy omillarning barqarorligini ta'minlash zarurligi haqida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Har bir oila – tadbirdor", "Yoshlar – kelajagimiz" kabi dasturlar doirasida 2 trillion so'mga yaqin mablag' ajratilib, joylarda 2 ming 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi.

Bu yildan boshlab, soliqlarning prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan hududlarda 5,5 trillion so'm qo'shimcha mablag' qoldirildi. Bu, o'tgan yilga nisbatan 6 barobar, 2016-yilga nisbatan esa – shunga e'tibor berishingizni so'rayman – 32 barobar ko'pdir. " – dedilar. Yuqorida ma'lumotlardan kelib chiqib, ijtimoiy bilishni bashorat, intuitsiya so'zları bilan bog'laymiz. Ma'lumki, fan ma'naviy madaniyatning o'ziga xos shakli hisoblanadi. Undagi aksariyat kashfiyotlarni intuitsiya mahsuli deb hisoblash mumkin. O'rta Osiyoning mashhur olimlari ilm-fanning yangi tarmoqlarini yaratdilar va yangi qonunlarni kashf etdilar. Muhammad al-Xorazmiy tenglamalar haqidagi fan sifatida algebra va ilk algoritmlarni yaratdi .Ahmad Farg'oniy astronomiyani tartib va tizimga soldi. Ahmad Marvaziy trigonometriyani boyitdi. Hamid Xo'jandi kub tenglamalar nazariyasini chuqurlashtirdi. Abu Rayhon Beruniy geodeziya, mineralogiya, farmakognoziyaga asos soldi. Abu Ali ibn Sino tabobatning ilmiy zaminini shakllantirdi.

Aytish mumkinki, «intuitsiya» tushunchasi kashfiyot va bashorat tushunchalari bilan bevosita bog'liq. Bashorat (arabcha – xushxabar) ilmiy bilishning bir shakli, hali fanga to'la ma'lum bo'lmagan, imkoniyat tariqasidagi hodisalar, turli jarayonlar to'g'risida oldindan fikr aytish. «Bashorat – u yoki bu voqealarni oldindan aytish, mavjud bo'lgan, lekin hali tajribada qayd etilmagan voqeа yoki hodisalar haqidagi ilmdir». Bashorat inson ma'naviy faoliyatining ko'rinishi va mahsulidir. U o'rganilayotgan obyektning barcha xususiyatlarini, ichki zaruriy aloqa va munosabatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Shu asosda obyektning keyingi, kelajakdag'i namoyon bo'lish shakllari haqida bilim shakllanadi.

Bashorat, jumladan ilmiy bashorat olimlarni qadimdan qiziqtirgan muammolardan biri. Qadimgi Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo, Yunonistonda shakllangan falsafiy qarashlarda bashorat muammosiga daxldor fikrlar ko'plab uchraydi. Qadimgi Hind falsafasida oldindan ko'rish amaliy faoliyatga bog'liq ekanligi, tajribadan kelib chiqqan holda o'tmish, hozir va kelajakda sodir bo'ladigan voqeа-hodisalarni bashorat qilish mumkinligi haqida fikr yuritilan. Qadimgi Xitoy manbalarida bashorat sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisa haqida oldindan hosil qilingan «bilim» tarzida tushunilgan. Qadimgi yunon faylasufi Falesning Quyosh utilishi haqidagi bashorati bunga misol bo'la oladi. Fales bashorat qilganidek, Quyosh utilishi Ioniyada 585-yil 25-may kuni sodir bo'lgani haqida tarixchilarining ma'lumoti bor .

Bashorat ilmiy bilish shakli sifatida o'ziga xos tarkibga ega bo'lib, bashorat obyekti va bashorat subyektidan iborat. Bashorat obyekti – bilish yo'naltirilgan narsa, hodisa, jarayon. Bashorat subyekti esa biluvchi inson va uning obyektga munosabatidir. Inson olamni faol tarzda, ya'ni manfaat-

maqsadlariga ko‘ra aks ettiradi. Bunda ijodiy tasavvur muhim o‘rin tutadi. «Bashorat qilish uchun voqelikni mukammal bilishgina emas, balki uni paydo qiluvchi qonuniyatlarni ham o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Ilmiy qonuniyatlarning o‘rni to‘g‘ri belgilanganda bashorat natijali bo‘ladi». Aytish mumkinki, ilmiy qonuniyatlar asosida ilmiy bashorat yuzaga keladi. Shu bois «ilmiy bashorat tabiat va jamiyat qonunlari va dalillariga asoslangan, kelajakda nimadir bo‘lishi va qanday kashfiyotlar qilinishi haqidagi bilimlar yig‘indisidir. U intuitiv asosda, insonning oldindan sezishi tarzida tushuniladi.

Shuningdek, bashorat turli shakkarda, masalan, tirik organizmlarga xos bo‘lgan oldindan payqash, inson intellektual faoliyatida o‘z tajribalariga asoslangan holda kelajak haqida fikrlash tarzida yuzaga keladi. Ilmiy bashoratning falsafiy masalalari bashorat mantig‘i, bashorat gnoseologiyasi va bashorat farazining o‘zaro munosabati, voqelikni inson ongida oldindan aks ettirishda ifodalanadi. Shularga asoslangan ilmiy bilish insondan ilmiy izlanishni talab etadi. Manbalarda keltirishicha, «hozirgi davr jamiyat hayoti barcha jabhalarining keyingi rivojini ilmiy mulohazalarsiz va uning asosida kelajakni ilmiy bashorat qilish, oldindan ko‘ra bilishsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi».

Aytish mumkinki, voqealar davomiyligini oldindan ko‘ra bilish, ularni ilmiy mulohaza etish, hodisalarning o‘zaro aloqadorligini ochish fan mavjudligining zaruriyati bo‘lib, ular amaliy faoliyat uchun xizmat qiladi. Shuningdek, har qanday fan ilmiy bilimlarsiz o‘z ma’nosini yo‘qotadi va ayni paytda har qanday nazariyaning qimmati uning ilmiy bashorat qilish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Fanning evristik ma’nosini «Bashorat qilish uchun bilish, bilish uchun bashorat qilish» deb ta’riflash mumkin. “Agar rahbarlarning- deb ta’kidlaydi Respublika birinchi Prezidenti Islom Karimov, oddiy vazifada ishlayotgan kishilardan nima farqi bor, deb so‘rasa, men avvalambor, rahbar odam boshqalardan ko‘ra uzoqni ko‘rishi va chuqurroq o‘ylab ish olib borishi kerak, deb aytgan bo‘lardim. Ya’ni rahbar ertangi kunimizni bir qadam emas, ikki qadam uzoqroq ko‘rishi lozim.”

Bizning nazarimizda, ilmiy bilish va ijod kelajakni nafaqat bashorat qilish, balki ongli ravishda boshqarish imkonini ham beradi. Bashorat borasida hozirgi zamon postpozitivistik falsafasidagi tanqidiy ratsionalizm yo‘nalishining taniqli vakillaridan biri Karl Popper: «Kelajak bizga qay darajada bog‘liq bo‘lsa, uni shu darajada bashorat qilish mumkin», – degan edi. Shunday ekan, ilmiy va ijtimoiy bashoratning jamiyat taraqqiyoti uchun nechog‘lik ahamiyatga ega ekanligi va unda intuitsiya muammosining o‘rni masalasiga e’tiborni qaratamiz.

Avvalo aytish mumkinki, u yoki bu hodisaning vujudga kelishi va taraqqiyotining qonuniyatlari ma’lum bo‘lsa, uning kelgusidagi taraqqiyot istiqbolini ham oldindan ko‘rish mumkin. Bunda ilmiy tadqiqotda izchillikka rioya qilinadi. Agar fikr yuritilayotgan hodisalarning qonuniyatlari nomalum bo‘lsa, hodisalar alohida o‘rganiladi. Hodisalardagi alohidalikni bilib olish mohiyat va umumiyligi bilishga olib keladi, hodisalarning umumiyligi yoki mohiyati aniqlangach, bular asosida yangi ilmiy bashoratlar qilish imkoniyati yaratiladi.

Ilmiy bilish o‘z qonunlari doirasida ilmiy bashoratni amalgalashadi. «Ilmiy oldindan ko‘rish deb ilm fan tomonidan hozircha ochilmagan, biroq ochilishi mumkin bo‘lgan biror hodisa yoki voqeanning yuzaga chiqish imkoniyati bor ekanligini yoki zarur ekanligini obyektiv qonunlarga suyangan holda bashorat qilishga aytildi. Ilmiy oldindan ko‘rish hodisalarning ro‘yobga chiqishi mumkin yoki zarur ekanligini ilmiy faraz qilishdir».

Ilmiy bilish nafaqat ilmiy taraqqiyot va ilmiy bashoratni, balki ijtimoiy taraqqiyot istiqbollarini bashorat qilishda ham alohida ahamiyatga ega. Shu asosda ilmiy bilish ijtimoiy bilishni yuzaga keltiradi. Ijtimoiy bilish esa kishilar faoliyatining mohiyatini anglash, jamiyat haqida chin bilimlar hosil qilish imkonini beradi. Ayni paytda ijtimoiy bilish ijtimoiy ehtiyoj va manfaatlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘ladi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, ijtimoiy manfaatlarda tarixiy zaruriyat o‘z ifodasini topadi. Tarixiy zaruriyat jamiyatdagi o‘zgarishlarning mohiyatini anglash asosida yuzaga keladi. Aynan mazkur o‘zgarishlarning mohiyatni anglash, ijtimoiy ehtiyoj va manfaatlarni o‘rganish asosida ijtimoiy bashorat shakllanadi. Ijtimoiy bilimning mazmunida jamiyat hayoti to‘laligicha, barcha aloqa va munosabatlarda, yaxlit, bir butun tarzda aks etadi.

Xullas, ijtimoiy bilish jamiyat hayotini to‘g‘ri anglash va shu asosda ongli faoliyat ko‘rsatish imkonini beradi. Jamiyatni bilish uni oqilona boshqarish va kelajak taraqqiyoti istiqbollarini aniqlashda alohida ahamiyatga ega. «Ayni vaqtida shuni unutmasligimiz kerakki, mavjud barcha islohotlarning muvaffaqiyati, avvalambor mamlakatimizni yanada demokratlashtirish va liberallashtirish yo‘lidagi sa'y-harakatlarimiz sur’atiga, fuqarolarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligiga, ularning siyosiy-huquqiy madaniyatining yuksakligiga va o‘z-o‘zidan ayonki, siyosiy partiyalarning

etuklik darajasiga, ularning O‘zbekistonimiz taqdiri va kelajagiga daxldor bunday ulkan mas’uliyatli vakolatlarni o‘z zimmasiga olishga qay darajada tayyor ekaniga bevosita bog‘liqidir».

Ijtimoiy taraqqiyot muammosiga turlicha qarash va yondashuvlar mavjud. Ular orasida ijtimoiy taraqqiyotga formatsion, sivilizatsion va sistemali yondashuv alohida ahamiyatga ega. Aslida, ijtimoiy taraqqiyotga bo‘lgan yondashuvlarning mohiyati tizimli, sistemali yondashuvga borib taqaladi. Sistemali yondashuv yaxlit jamiyatning barcha sohalarini qamrab oladi va qonunlar asosida taraqqiy etib boradi. O‘z-o‘zidan ma'lumki, hozirgi zamon fani jamiyatda yuz berayotgan barcha ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy hodisa va jarayonlar muayyan qonunlar asosida vujudga keladi, rivojlanadi hamda qat‘iy qonuniyatlargacha bo‘ysunadi. Bu qonunlar jamiyat qonunlari bo‘lib, ular ijtimoiy manfaatlarda o‘z ifodasini topgan. Jamiyat taraqqiyotini uning qonunlari asosida ilmiy tasavvur etish – inson ongida «ijtimoiy bashorat» tushunchasini shakllantirish imkonini beradi.

Shu asosda aytish mumkinki, «ilmiy va ijtimoiy taraqqiyot», «ilmiy qonun», «ilmiy bashorat» tushunchalarining uyg‘unligi intuitiv tafakkurda o‘z ifodasini topadi. Intuitsiya ilmiy va ijtimoiy bilish tushunchalari, inson ongi, tafakkuri, ruhiyatiga oid bo‘lgan holatlar, xususiyatlarni qamrab olgan holda, jamiyat hayotini ilmiy oldindan ko‘ra bilish imkoniyatini yaratadi. Bunda ilmiy bashorat olamni, undagi narsa va hodisalarini o‘rganish asosida bashorat qilsa, ijtimoiy bashorat olamning bir qismi bo‘lgan jamiyat va unda kechadigan voqe-a-hodisalarini o‘rganish asosida uning taraqqiyotini ilmiy asosda bashorat qiladi. Mazkur fikrlarni asoslagan holda, aytishimiz mumkinki, ilmiy va ijtimoiy bashorat uzviy dialektik aloqadorlikka ega bo‘lgan yaxlit bilish jarayoni bo‘lib, unda olamdag‘i narsa va hodisalar, munosabatlar uyg‘un holda aks etadi.

Tabiat va jamiyat hodisalarini ilmiy bashorat qilish mustaqil O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan hozirgi sharoitda davlat va xalqning kelgusida mamlakat hayotida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan hodisa va voqealarni har tomonlama o‘rganish imkonini beradi. Ilmiy bashorat yoki ilmiy oldindan ko‘ra bilish fan yutuqlariga, real voqelik qonunlariga suyanadi. Ilmiy bashorat hech qanday mo‘jizalarga asoslanmaydi. U bilimimiz qaratilgan obyektni chuqur va har taraflama o‘rganishga, mayjud qonunlarga suyanish, hissiyot va tafakkurning ijodiy kuchiga tayanadi.

Hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirishga doir islohatlarni faollashtirish, shu asosda inson, uning huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat va boylik sifatida jamiyatimiz hayotida asosiyo o‘ringa qo‘yish asosida “inson manfaati har narsadan ulug‘”, degan shiorni amalda ro‘yobga chiqarish zarur. Ijtimoiy sohada – oila, o‘zini-o‘zi boshqarish tashkilotlari, siyosiy partiyalar, turli harakatlari kiradi. Ijtimoiy soha obyektlarini barpo etish, pirovard natijada aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qilishi haqida so‘z boradi. 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan harakatlar strategiyasida ilmiy-ijtimoiy-intuitiv tafakkur o‘z ifodasini topgan. Ijtimoiy munosabatlarda qonun ustuvorligining hayotbaxshligi ijtimoiy strategiyani amalga oshirishda yaqqol namoyon bo‘ldi. Hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirishga doir islohatlarni faollashtirish, shu asosda inson, uning huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat va boylik sifatida jamiyatimiz hayotida asosiyo o‘ringa qo‘yish asosida “inson manfaati har narsadan ulug‘”, degan shiorni amalda ro‘yobga chiqarish zarur. Ijtimoiy sohada – oila, o‘zini-o‘zi boshqarish tashkilotlari, siyosiy partiyalar, turli harakatlari kiradi. Ijtimoiy soha obyektlarini barpo etish, pirovard natijada aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qilishi haqida so‘z boradi. 2017– 2021-yillarga mo‘ljallangan harakatlar strategiyasida ilmiy-ijtimoiy-intuitiv tafakkur o‘z ifodasini topgan. Ijtimoiy munosabatlarda qonun ustuvorligining hayotbaxshligi ijtimoiy strategiyani amalga oshirishda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Karimov I. A. Ona yurtimiz baxt-u iqobi va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy soadatdir. – T.: “O‘ZBEKISTON” NMIU, 201. 208-b.
2. Karimov I. A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. – T.: O‘zbekiston, 2010. – B. 15.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati davlat rahbarining 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi
4. Кабулов В.К. Ал-Хорезми, алгоритм и алгоритмизация / В.К. Кабулов, О.Ф. Файзуллаев, Ш.А. Назиров. – Т.: Фан, 2006. – С. 60.
5. Davronov Z. Ilmiy ijod metodologiyasi. – B. 112.

6. Швецова О.В. Предвидение как способность // Студенческая наука экономике России: Материалы II межрегиональной конференции. Часть вторая. – Ставрополь: Сев. Кав. ГТУ, 2001. – С. 161–162.
7. Лукьянов А.В. Философия. Предвидение. Духовность. – Уфа, 1993. – С. 87
8. Асмус В.Ф. Античная философия. – С. 21.
9. Туленова К. Предвидение и реальность. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, – Т., 1998. – С. 42.
10. Davronov Z. Ilmiy ijod metodologiyasi. – B. 113.
11. Saifnazarov I. Ilmiy ijod metodologiyasi / I. Saifnazarov, Г. Никитченко, В. Qosimov. – T.: Yangi asr avlod, 2004. – B. 69.
12. Поппер К. Р. Логика научного исследования / Под общ.ред. В. Н. Садовского. – М.: Республика, 2005. – С. 366.
13. Гришунин С.И. Возможна ли современная наука без интуиции: Модели творческой интуиции в контексте науки, философии и прогнозирования. Изд. 2-е, испр. – М.: ЛКИ, 2008. – С. 98.

UDK:347.63

MILLIY QADRIYATLARDA BOLA MANFAATLARINI HIMOYA QILISH MASALALARI**O.F.Tursunova, D.Ziyavuddinov***Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya. Maqolada inson manfaatlarini ta'minlashda bola huquqlari to‘g‘risidagi hujjatlar yoritilgan. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va normativ-huquqiy hujjatlar bilan Hadisi Sharif me’yorlari qiyosiy taqqoslanadi.

Kalit so‘zlar: bola huquqlari, oilaviy munosabatlar, hadis, Konstitutsiya, qonun, normativ-huquqiy hujjat, qiyosiy tahlil.

Вопросы защиты интересов ребенка в национальных ценностях

Аннотация. В статье освещены нормы прав ребенка в обеспечении интересов человека. Также даётся сравнительный анализ Конституции Республики Узбекистан и статей нормативно-правовых документов с нормами хадисов.

Ключевые слова: права ребенка, семейные отношения, хадис, Конституция, закон, нормативно-правовой документ, сравнительный анализ.

The main criterion of to defence child interest

Abstract. In the articles the norms of child’s rights are revealed in providing the human interests. As well the comparative analysis of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the articles of normative-legislative documents with hadis norms is given.

Keywords: child’s rights, family relationships, hadis, Constitution, law, normative-legal documents, comparative analysis

Mamlakatimiz taraqqiyoti, uning jahon hamjamiyatida munosib o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, ravnaqi, albatta, bugun kamol topayotgan yoshlarning aql-zakovati, bilimi, qobiliyati va g‘ayratiga bog‘liq. Ma’lumki, mustaqillikning ilk yillardayoq, komil inson tarbiyasi, ularning huquq va manfaatlari yo‘lida bir qator ishlar amalga oshirilgani tahsinga loyiq. Bu borada Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlari barchamizga dasturulamal bo‘lishi lozim deb hisoblaymiz: «Barchamizga ayonki, yurtimizdagi har qaysi inson, har qaysi oilaning eng ezgu orzu-maqsadlari, hayotiy manfaatlari, avvalambor, uning farzandlari timsolida namoyon bo‘ladi, ro‘yobga chiqadi. Albatta, bu borada yurtimizda ulkan ishlar qilinmoqda va ular amalda o‘zining ijobiy natijasini bermoqda» [1].

Hozirgi kunda bolalarning huquq, erkinliklariga alohida e’tibor berilayotir, bu borada bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Albatta, bu hujjatlar xalqaro huquq normalari, davlatlarning qonunlari, urf-odatlari, an’analari asosida qabul qilinadi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, ushbu huquqiy hujjatlarning tamal toshi, metodologik asoslari aynan islom huquqining manbasi bo‘lmish Qur’oni Karim, Hadisi Shariflar bo‘lib hisoblanadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Jumladan, «Kichiklarga shafqat qilmaydigan, kattalarga hurmat ko'rsatmagan kishi bizdan emas» [2]. Islom axloqida kichiklarga mehr-shafqatlari bo'lish, kattalarga hurmat-izzat ko'rsatish asosiy qoidadir. Kichiklar e'tiborga, himoya va mehrga muhtojdir. Kichiklarga qattiqqo'l bo'lish, yoshiga nomunosisib harakatlarni talab qilib, ularni koyish bola ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi. Ushbu normalarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida ham ko'rish mumkin: «Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlanadir» [3].

Rasululloh (s.a.v) marhamat qildilar: «O'z yetimi yoki boshqaning yetimiga qaragan kishi bilan jannatda mana shunday yonma-yon bo'lamiz» [2: 60]. Ma'lumki, islomda yolg'iz, himoyasiz kishilarni, ayniqsa, yetimlarni o'z qaramog'iga olish katta savob, ezgu amaldir. Tarbiyaga olingan yetim yoki yolg'iz odam qarindosh bo'lishi shart emas. O'zbekiston Respublikasi «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonuniga ko'ra: «Yetim bolalarga va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ta'lim berish hamda ularni ta'minlash qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda to'liq davlat ta'minoti asosida amalga oshiriladi. Davlat organlari ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lgan har bir bolaga, bolalarning joylashtirilishi shaklidan qat'i nazar, moddiy va boshqa sharoitlarni ta'minlaydi» [4].

«Kimki oila a'zolarining ehtiyojlarini Allohdan savob olish umidida qondirib ta'minlasa, bu uning o'zi uchun sadaqa bo'ladi» [2]. Qaramog'idagi kishilarning holiga beparvo bo'lib, ularni ranjitishi kishilarga gunoh bo'lib yoziladi. Ushbu me'yorni mustaqil yurtimizning Oila kodeksida ham alohida qayd etilganini ko'rish mumkin. Kodeksning 96- hamda 110-moddalarida quyidagicha fikr yuritiladi: «Ota-onsa voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart. Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga asosan aliman undiriladi» [6]. Va: «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar o'z ota-onasiga ixtiyoriy ravishda moddiy yordam berishdan bo'yin tovlasalar, ta'minot miqdori bolalarning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olgan holda sudning hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi» [6].

Hadisi Shariflarimizda farzandlarni bir xil yaxshi ko'rish masalasiga ham alohida e'tibor berilgan. Jumladan, «Otasi No'mon bin Bashirga hadya hozirlagan va Alloh Rasulini shohid bo'lishga chaqirgan edi. Alloh Rasuli: «Yo Bashir, bundan boshqa farzandlaring bormi?» deb so'radilar. Bashir: «Ha, bor», deb javob bergach, yana so'radilar: «Ularning har biriga shunday sovg'a berdingmi?» «Yo'q», dedi Bashir. Allohnning Rasuli marhamat qildilar: «Unday bo'lsa, meni guvoh hisoblama. Chunki men zulmga guvohlik qilmayman». Keyin so'radilar: «Yaxshilik masalasida hamma bolalaringning teng bo'lishi seni quvontirmaydimi?» Bashir: «Quvontiradi», deb javob berdi. Rasululloh: «Unday bo'lsa, ulardan birini boshqalaridan afzal bilma, teng munosabatda bo'l», dedilar» [2]. Ushbu normalarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida ham ko'rish mumkin: «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar» [3]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonunining 4-moddasiga ko'ra: «Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: ... bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash; » [4] va 7-moddasiga ko'ra: «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi, ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq har bir bolaga inson hamda fuqaro huquqlari va erkinliklari tegishli bo'ladi hamda davlat tomonidan kafolatlanadi. Nikohda va nikohsiz tug'ilgan bolalar teng hamda har taraflama himoyadan foydalanadi» [4]. Oila Kodeksining «Farzandlikka olishning huquqiy oqibatlari» deb nomlangan 165-moddasida ham: «Farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining o'z bolalariga tenglashtiriladi» deb qayd etilganligi tahsinga loyiq [6].

Islom manbalarida yetimlik huquqi bola balog'atga yetgunchadir deb belgilanganligi, balog'atga yetgandan keyin, u ulg'aygan hisoblanishi, o'zini boshqalarning yordamisiz ham himoya qilishi yozilganligini quyidagi Hadisda ko'rish mumkin: «Hazrati Alidan (r.a.): Ulg'aygach (balog'atga etgach), etimlik yo'q» [2]. Ushbu normani O'zbekiston Respublikasi «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonunining 3-moddasi: «...bola (bolalar) — o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar); ... » [4] va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 22-moddasida ko'rish mumkin: «Fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga

ega bo‘lish va ularni amalga oshirish, o‘zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya’ni o‘n sakkiz yoshga to‘lgach to‘la hajmda vujudga keladi» [7].

Bolalarni hayotga tayyorlash, ularning ta’lim-tarbiyasiga e’tiborli bo‘lish ota-onasiga zimmasidagi burchdir. Farzandni yaxshi ko‘rish, uni kelajakda moddiy va ma’naviy huzur-halovatli bo‘lishini ta’minalash demakdir. Farzandlarimiz yashayotgan zamona ulardan qanday kuch-g‘ayrat, iste’dod talab qilsa, buni tushunishimiz va bolalarimizni shunga ko‘ra, hayotga tayyorlashimiz lozim. Bu boradagi qadriyatimizda shunday deyiladi: «Farzandlaringizga yaxshi qarang. Ularni yaxshilab tarbiyalang» [2]. Mustaqillik oila kodeksida esa: «Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o‘z ota-onasini bilish, ularning g‘amxo‘rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, bola manfaatlariga zid bo‘lgan holatlар bundan mustasnadir. Bola o‘z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, o‘z manfaatlari ta’milanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega» deb ta’kidlangan [6].

Milliy manbalarimizda otaning farzandining molidan foydalanishga haqqi borligi, farzandning otasiga moddiy qiyinchiliklarida yordam berishi lozimligi, qarzlarini to‘lashda qo‘lidan kelgancha yordamini ayamasligi ta’kidlangan, bu borada quyidagi hadislarni ham o‘qishimiz mumkin: «Amr ibn Shaaybning aytishicha, bir odam Payg‘ambarimiz (s.a.v)ning yonlariga kelib: Mening molim bor. Otam esa mening molimga muhtoj, - dedi. Shunda Rasuli Akram: - Sen va moling otangga tegishli. Shubhasiz, bolalaringiz daromadingizning eng yaxshisidir. Farzandlaringizning daromadidan yeishingiz mumkin, - deya marhamat qildilar» [2]. Ushbu normani oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi kodeksda ham ko‘rish mumkin: «Ota-onasi hayotligida bolalar ularning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo‘lish huquqiga ega emas. Ota-onasi ham voyaga yetmagan bolalarning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo‘lish huquqiga ega emas» [6] shuningdek: «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o‘z ota-onasiga ta’minot berishlari va ular to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishlari shart» [6].

Qadimda majburlab erga berish taqiqlanganidek, hozirgi kunda ham ushbu harakat uchun javobgarlik belgilab qo‘yliganini yaxshi bilamiz. Shu nuqtayi nazardan, quyidagi hadisda ham majburlab erga berish mumkin emasligi to‘g‘risida gapiriladi: «Yosh bir qiz, hazrati Oishanining yonlariga kirdi va: - Otam meni xohlamasam ham akasining o‘g‘liga berdi. Men orqali obro‘ ortirmoqchi, - dedi. – Rasululloh kelguncha kutib tur, dedilar oisha onamiz. Bir ozdan so‘ng Payg‘ambarimiz alayhissalom keldilar va qiz ul zotga bo‘lgan voqeani aytib berdi. Shunda Rasululloh qizning otasini chaqirtirdilar va turmush qurish xohishi qizda ekanligini aytdilar. Qiz: - Yo Rasululloh! Otamning qaroriga rozi edim. Men turmush qurishda otalarning qizlarini majburlashiga haqlari yo‘qligini ayollarga ko‘rsatmoqchi bo‘ldim, - dedi» [2]. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida esa: ayolni erga tegishga yoki nikohda yashashni davom ettirishga majbur qilish yoxud ayolning erkiga xilof ravishda u bilan nikohda bo‘lish uchun o‘g‘rilash, shuningdek, ayolning erga tegishiga to‘sinqinlik qilish uchun jazo belgilanadi [5].

O‘sha davrlarda Allohnning Rasuli urushlarda ham axloqni va huquqni birinchi navbatga qo‘yanlar, jangda urushayotgan askarlardan tashqari, oddiy xalq, ayniqsa, bolalar va ayollarning o‘ldirilishini qat’iyan taqiqlaganlar: «Ibni Umardan: «Rasululloh (s.a.v.) qatnashgan urushlardan birida o‘ldirilgan bir ayol jasadi topildi. Shunda Allohnning Rasuli ayollarni va bolalarni o‘ldirishni taqiqladilar»» [2]. Ushbu normani O‘zbekiston Respublikasi «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunining 8-moddasi: «Yashash huquqi har bir bolaning uzviy huquqidir. Bola hayotiga suiqasd qilish eng og ‘ir jinoyatdir» [4] yuqoridagi me’yorni takrorlaydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Azaldan bolaga yaxshi nom berish qadriyatlarimizdan biridir. Odamlar orasida kulguga sabab bo‘ladigan, egasiga kelajakda muammo tug‘diradigan ismlar qo‘yish hadislarda ham qat’iyan man qilingan: «bolangga Yasor (qulaylik, mo‘l-ko‘llik) deb ism qo‘yma. Chunki sen: «Yasor shu yerdami?» deb so‘raysan. Ismning egasi u yerda bo‘lmasa, kimdir mazax qilib «yo‘q» deb yuboradi» [2]. Mustaqillik qonunchiligidan ham yuqoridagi normalar mavjud: «Har bir bola tug‘ilgan paytdan e’tiboran familiya, ism, ota ismini olish, millati va fuqaroligiga ega bo‘lish huquqiga, shuningdek, ularni saqlab qolish huquqiga ega» [4].

Jamiyat hayotida oilaning o‘rni, ahamiyati katta. Er-xotin va farzandlar orasida sevgi, hurmat, shafqat, yaqinlik, xizmat va yordamga tayangan go‘zal rishtalar o‘rnatilgan bo‘lsa, eng muhim, oilada qo‘pollik va shiddat o‘rniga xushfe’llik bo‘lsa, u oila Alloh suygan, jamiyatga huzur beruvchi,

mukammal va baxtli bir oila bo‘ladi. Bu borada hadisi shariflarimizda ham uqtirilgan: «Alloh bir oilaning a’zolarini yaxshi ko‘rganida, ular orasiga muloyimlikni soladi» [2]. Bu haqda, oila kodeksining 1-moddasidayoq fikr yuritiladi: «Oila to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a’zolarining mas’ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsnинг oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaslikdan, oila a’zolari o‘z huquqlarini to‘sinqiniksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta’minalashdan iboratdir» [6], shuningdek farzandlarimizga oid bo‘lgan qonunchilikda ham: «Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o‘z ota-onasini bilih, ular bilan birga yashash va ularning g‘amxo‘rligidan foydalanish huquqiga ega, uning manfaatlariga zid bo‘lgan hollar bundan mustasno» [4].

Ta’kidlash joizki, bola huquqlariga doir normativ hujjatlarning eng asosiy xususiyati shundaki, ular birinchi navbatda bolalarga, etim bolalarga, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarga, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga, ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga, umuman, barcha voyaga yetmaganlarga siyosiy, huquqiy, ma’naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy yordam bermoqda. Zero, ushbu jarayonda respublikamiz olib borayotgan ichki va tashqi siyosat – davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash va xalqimiz turmushini yaxshilashning zarur sharti va g‘oyat muhim vositasidir.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. // Samarqand gazetasi, 10-dekabr, 2016 yil, № 99 (2038), 3-bet.
2. 1001 mavzuda 1001 hadis. Toshkent: Sharq, 2016. – 580-b.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 76- b.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonuni. Toshkent, 2008.
5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2013. – 320-b.
6. O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2014. – 190-b.
7. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2014. – 520- b.

UDK: 1 (575) (092)

MAHDUMI A’ZAMNING “RISOLAI VUJUDIYA” ASARIDA INSON MUAMMOSI

E.X.Zoirov

Buxoro muhandislik texnologiyasi instituti

Annotastiya. Mahdumi A’zamning avvalo Inson kim? Nega yaralgan? Uni yaratishdan maqsad nima? kabi masalalarni yoritib, keyin tana va ruh aloqadorligiga to‘xtalagan. Maxdumi A’zam inson tanasiga ikki xil ruh borligini aytadi. Birinchi hayvoniy ruh, ikkinchi ilohiy ruh. Mutasavvuf “Risolai vujudiya” asarida inson muammosini to‘g‘ri yechish, tana va ruhga me’yorda bo‘lish kabi ijobiy buniyodkor g‘oyani barkamol inson tarbiyasi uchun foydalanish zarurligini ta’kidlab o‘tgan.

Kalit so‘zlar: tana va ruh, hayvoniy ruh, ilohiy ruh, tuproq, vosita, vujud dehqoni, nafs, xon, ixvon, makon, zamon, adolat, haqiqat, shariat, tariqat, bag‘rikenglik.

Проблемы человека в произведении “Risolai vujudiya” Махдуми Азама.

Аннотация. Махдум Азам разъясняет проблему: «Во-первых, кто такой человек? Почему он создан? Какова стел этого создания?» тела и души. Махдум Азам говорит, что человеческое тело имеет два типа душ. Первый животный дух, второй божественный дух. В своей книге «Рисолай Вужудия» Махдум Азам подчеркивал необходимость конструктивного творчества, такого как способность решать человеческие проблемы и балансируют с телом и духом ради совершенствования человеческого понимания.

Ключевые слова: душа и организм, животный дух, таинственный дух, земля (почва), средство тело, страсть, титул, очаг, время, совесть, истина, закон, духовный путь, терпимость .

The problem of mankind in the work of Makhdoom Azam «Ricalai vuzhudia»

Abstract. Maxdum Azam clarifies the issue : "Firstly, who is the human being? Why is it created? What is the purpose of creating it?" the body and soul. Maxdum Azam says that the human body has two types of souls. The first animal spirit is the second divine spirit. In his book Risolai Vokhdiyya, Maxdum Azam emphasized the need for a constructive creator, such as the ability to solve human problems and to balance himself with the body and spirit, for the sake of the perfection of human comprehension.

Keywords: soul and organism, animal soul, mysterious soul, land,a means, the farmaring of an existans, passion, a title, hearth, time, conscience, the truth, law, a spiritual way, tolerance.

Inson barcha falsafiy ta'limotlarning markazida turgan tushunchadir. Inson nimadan iborat? Inson kamoloti uchun nima asosiy deb faylasuflar qadimgi davrdan bahs yuritadilar. Insonni, bir tomondan biologik mavjudot desalar, boshqa tomondan biosostial, uchinchi tomondan ruhiy, ilohiy mavjudot deb baho berganlar. Ba'zi faylasuflar inson kamoloti uchun asosiy tana, jismoni yujuddir deb, uni tarbiyalashga e'tibor beradilar. Boshqa tur faylasuflar tanani umuman inkor etib, inson kamoloti uchun yoki ijtimoiy muhitni yoki ruhni asosiy deb biladilar.

Tasavvuf ahlining ham shu masalada o'ziga xos qarashlari mavjud. Tasavvufda ham tanani inkor etib, chilla, uzlat o'girish, tarki dunyo qilishi tavsiya etgan ta'limotlar bor. Lekin tana va ruhga me'yorda munosabatni talab etganlar ham bor. Shulardan tana va ruh masalasini me'yorda turib hal qilgan ta'limot naqshbandiyadir. Chunki bu ta'limotdag'i "Dast ba kor" (Qo'l ishda) - talabi tananining zarurligini bildirsa "Dil ba Yor" (Qalb Yor) – talabi Olloh bilan ruhning muhimligini anglatadi. "Dast ba koru, dil ba Yor" tana va ruhni o'zaro aloqadorlikda ekanligini, tana kamoloti uchun ruh va ruh yuksalishi uchun tananining zarurligini ko'rsatadi. Demakki, inson kamoloti uchun faqat tana yoki faqat ruh emas ikkoviga ham maxsus e'tibor berish zarur.

Naqshbandiya ta'limotini rivojlantirgan va uni nazariy jihatdan ma'lum bir tizimga solgan, qator asarlar muallifi bo'lgan Mahdumi A'zam o'zining "Risolai vujudiya" asarida bu masalaga maxsus e'tibor bergen.

Mahdumi A'zam avvalo Inson kim? Nega yaralgan? Uni yaratishdan maqsad nima? kabi masalalarni yoritib, keyin tana va ruh aloqadorligiga to'xtalagan.

Mahdumi A'zam inson tanasiga ikki xil ruh borligini aytadi. Birinchi **hayvoniy ruh**, ikkinchi **ilohiy ruh**. Bu haqda manbada shunday yozilgan: "Dar dunyo base ruhi hayvoniro dar vaj odam xalq kard va o'ro markabi odam soxt. Odamro bar vay sarvar kard va firistodash bar ro'yi dunyo to mulohaza kunad dar dunyo. Bubinadki dunyo munosibi on ast, ki mahbubi haqiqi dar vay jilva kunad, ya'ni ba'ze joyhoya, ki nomunosib boshad, ya'ni baland – pasti doshta boshad munosib sozad" [1]. Mazmuni: "Haq taolo hayvoniy ruhni odam uchun yaratdi. Uni odamni markabi (ya'ni, minib yurish quroli) qildi. Odamni unga mindirdi va uni dunyoga tomon yubordi tokim, u mulohaza qilsinki, dunyo haqiqiy mahbub (Haq) jilva qilishga arziydimi, qayerlar nomunosib bo'lsa past - mi, baland – mi uni to'g'rilasin". Ya'ni inson bu dunyodagi ishlarni ilohiy sifatga moslashtirish uchun yaralagan. Bu ishlarni bajarish uchun unga markab, ya'ni minib yurib, undan foydalanish uchun vosita qilib hayvoniy ruh yaralagan.

Hayvoniy ruh markabdir va uning sifati yeyish, ichishdir. Chunki, markab birovni ko'tarib yurishi uchun nimanidir iste'mol qilishi lozim. Odam hayvoniy ruhga minib yaxshi ishlarni amalga oshirsa **ilohiy ruhni** tajalliy etadi va so'z aytadi.

Mahdumi A'zam yozadiki, "Kanzo maxfiyo" ham shu ma'nodaki, Haq aytadiki, men yashirin xazina edim. Istadmiki, boshqalar meni tanisinlar. Shuning uchun xalqni yaratdim, toki meni tanisinlar. Ma'lum bo'ladiki, Haqning xalqni yaratishdan maqsadi o'z jamol-u jalolining izhoridir. Risolada yoziladiki "Chun odamro firistodem" berun jamoli xesh ba sahro nihodem. Hamchunone, ki podshohoni majozni vakte, ki xohand, ki ba viloyate ravand, on shahrro biyoroyand va chahorbog'ho. Bad az in podsho biyoyad va xudro jilva dihad bar xalqi on shahru diyor. Hamchunin Haq subhona va taolo xost, ki xudro dar dunyo jilva dihad az **xok** tarkibi o'surate soxt va on suratro odam nom nihad" [2]. Mazmuni: "Odamni yuborib o'z jamolimizni sahroga chiqardik. Bu shunga o'xshaydiki, majoziy podshohlar biror viloyatga bormoqchi bo'lsalar shahar va bog'larga oroyish beradilar. Shundan keyin podshoh o'zini o'sha shahr-u diyorning xalqiga o'zini jilva etadi. Xuddi shuningdek, Haq subhona va taolo bu olamda o'zini tajalli etmoqchi bo'ldi. Shuning uchun **tuproqdan** surat yasadi va bu suratga

odam deb nom qo‘ydi.” Ya’ni, **odam asli ilohiy, tanasi tuproq va hayvon ruhidan iborat.** Shundan keyin quyidagi misralar manbada keltirilgan:

Sayyodi azal, ki dona bar dom nihod,
Sayde bigiriftu, odamash nom nihod.
Har nekiyu badie, ki meravad dar olam,
Xud mekunadu, bahona bar on nihad [3].

Mazmuni:

Azal ovchisi domga donni qo‘ydi,
Ovni ushladiyu, unga odam deb nom qo‘ydi.
Olamda nima yaxshilik va yomonlik bo‘lsa – gar,
O‘zi qiladiyu, uni bahona sifatida qo‘ydi.

Ya’ni, Haq taolo o‘z maqsad – murodiga yetish, o‘zini siru asrorini jilolash uchun insonga tuproqdan tana, tananing harakatlanishi va insonga markab bo‘lib xizmat qilishi uchun hayvoniyluh va olamni ilohiylikka uyg‘un qilish uchun ilohiy ruhni kiritdi.

Inson qalbini Haq o‘z taxtgohi va imorati qilib yasadi. Haq shu taxtni – inson qalbiga o‘girdi. Hayvoniyluh uni markabi etdi va unga minib yurishni unga buyurib, dunyoga yubordi toki, o‘zini dunyoga jilva etsa. Demak, inson ilohiy xilqatdir va u ilohiy Amr bilan yaralib Ollohamon va jalolini namoyish etish va uni bilish uchun dunyoga kelgan.

Asarda yoziladiki, Haq taolo o‘z arzini izhor etganida, yer osmon va tog‘lar uni ko‘tarishga uyaldilar. Faqatgina inson Haqning bu omonatini saqlashga rozi bo‘ldi. Chunki, hayvoniyluh unga markabi qilib berilgan edi. Yeyish va uylashni bu markab sifati qilib, odamga topshirdilar, toki, u bu dunyoda uni tarbiyat etsin. Tokim u haqiqiy podshoh (Haq) suvorisiga munosib bo‘lsin. Dunyonining kishtgohi – ekinzoriga aylantiradi. Uning arpa va o‘ti kabi ovqatlari uchun oxur qilib odamni yaratdi. Biror boshqa mavjudotlar, odamdan tashqari bu sharif zotni ko‘tara olmadilar.

Mahdumi A’zam shuningdek, tanani inson kamoloti uchun vosita deb ham qaragan. Mutafakkir tanani – vujudi majoz, foni deb qaraydi, lekin uni u kerakli deb biladi bo‘lmasa inson yurmaydi, niyatini amalga oshira olmaydi. Darhaqiqat, ilm olish uchun maktab, oliygohga ham borish - kelish, birovga ezzulik qilib yaxshilik qilish, “Dast ba kor”ni amalga oshirish, “Xilvat dar anjuman” uchun ham tana **vosita** sifatida zarur.

Demak, tana, bir tomondan, vosita, boshqa tomondan markab, uchinchi tomondan hayvoniyluh kirib olgan maxluqot sifatida Mahdumi A’zam tomonidan baho berilmoqda. Tana ruh kamoloti uchun zarur deb, mutafakkir yozadi, majoziy podshohlar o‘z toychoqlariga yaxshi qarash uchun uni maxsus kishilarga topshirib, egulik – o‘t va arpani tayyorlab qo‘yanlari va ular uni podshohga tayyorlab qo‘yanlari kabi tana ham insonga shuning uchun beriladi.

Hayvoniyluh, hayvoniyluh nafshi vujudga keltiradi. Unga xos sifatlar – yeyish, ichish, yotish, shahvoniyluh istakdir. Insoniy nafsi – ilohiy ruh asosida vujudga keladi va unga ibodat, eshitish, ko‘rish kalom aytish kabilalar xosdir.

Mahdumi A’zam insoniy ruhni odam e’zozlashi va har bir damni qadrashi lozim deb, quyidagi misralarni yozgan:

Senga ikki olam uchun bir o‘git yetarlidir,
Xudosiz bo‘lgan har bir damni ham hayda, yo‘qot.
Agar hozir (ogoh) sen mo‘minsen,
G‘ofil bo‘lsang kofirsan
G‘ofil bo‘lmaki, zulmatda, abadiy qolasan[4].

Demak, Mahdumi A’zamning “Risolai vujudiya” asari falsafada inson muammosini to‘g‘ri yechish, tana va ruhga me’yorda munosabatda bo‘lish kabi ijobjiy bunyodkor g‘oyani barkamol inson tarbiyasi uchun foydalanishga zarur manbalardan biridir.

Adabiyotlar

1. Yuldashev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o‘rta asr G‘arbiy Yevropa falsafasi. – T.: Sharq, 2003. – 33 bet.
2. Abdulhakim Shar’iy Juzjoni. Tasavvuf va inson. – Toshkent: Adolat, 2001. – B.20.
3. Xojagiy Ahmad Kosoni. Risola - i vujudiya. Qo‘lyozma. Muallifning shaxsiy kutubxonasidan.

4. Xojagiy Ahmad Kosoniy. Risola - i fanoiyya. Qo'lyozma. Muallifning shaxsiy kutubxonasidan.

УДК: 111

«ФИЛОСОФ – МЫСЛИТЕЛЬ КАК ТВОРЕЦ И ГЕРОИЧЕСКАЯ ЛИЧНОСТЬ»

Р.Замилова

Наманганский государственный университет

Аннотация. В данной статье рассматривается личностное, социально-креативное, духовно-нравственное и героические качества человека-героя. Здесь также идет речь о мотивах и особенностях научного подвига философа-мыслителя, раскрываются его мировоззренческие и нравственные потенции в поиске истины.

Ключевые слова: герой, философ-мыслитель, самоотверженность, философ-герой, героизм, философия Востока, нравственный идеал.

Faylasuf shaxsning yaratuvchiligi va qahramonligi

Annotatsiya. Maqolada qahramon shaxsning sotsial-kreativ shaxsiy, ma'naviy-ma'rifiy va qahramonlik xususiyatlari tahlil etiladi. Shuningdek, alloma-faylasufning ilmiy jasoratini asoslari, xususiyatlari hamda uning haqiqatni izlash yo'lidagi imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: faylasuf, qahramon alloma, sodiqlik, faylasuf-qahramon, qahramonlik, Sharq falsafasi, ma'naviy ideal.

"The philosopher is a thinker as a creator and heroic person"

Abstract. In this article there outlined personality, socio-creative, spiritual and heroic qualities of a person as a hero. Here is explained about motives and peculiarities of philosopher-thinker's scientific courage, there described their world outlook and spiritual potential in search of reality.

Keywords: hero, philosopher-thinker, devotedness, philosopher-hero, heroism, philosophy of East, spiritual ideal.

Во все времена именно герои определяли ход развитии истории, объединяя народы и вдохновляя людей на свершение героических поступков, поскольку любое общество нуждается в примерах высокого служения долгу, проявления героям силы, ума и отваги, превосходящих обычную меру. Сегодня в Узбекистане идет научный поиск формирования национальной, узбекской философии, определяются научно-теоретические проблемы, исследуется наследие философов-мыслителей. На фоне этого целесообразно исследовать основные характерологические черты философа-мыслителя как художника-творца и как героя-патриота.

Герой всегда создает новые духовно-нравственные ценности, научные идеи, теоретические модели будущего и взаимоотношения людей к самоотверженному служению человечеству, своей Родине. Такой герой креативно относится к своей жизнедеятельности, обязанности, ищет нечто новое, неповторимое, и, таким образом, обогащает культурное наследие народа.

Стремление к познанию истины и смелость духа являются отличительными качествами героя-мыслителя, героя-ученого. Особое внимание уделяется изучению героических, духовно-нравственных качеств философов-мыслителей Востока. По их мнению, наиболее выпукло проявляется самоотверженность, справедливость, бескомпромиссность борьбы с ортодоксией и тиранией, самозабвенный поиск истины, верное служение науке, философии.

В научно-теоретической и философской литературе чаще всего обращаются к научному взгляду, наследию философа-мыслителя, чем к его образу, жизнедеятельности. Если исследователи изучают жизнедеятельность того или иного философа-мыслителя, то они это делают для того, чтобы раскрыть научное значение наследия этого мыслителя, а его образ остается за пределами их интересов.

Изучая наследие и жизнедеятельность философов Запада Б. Рассел, сделал очень верное замечание, которое полезно и для нас. «Философы, – пишет он, – являются одновременно и следствиями, и причинами социальных обстоятельств, политики и институтов того времени, к которому они принадлежат, и причинами (в случае, если те или иные философы удачливы)

убеждений, определяющих политику и институты последующих веков. В большинстве историй философии каждый мыслитель действует как бы в пустоте; его взгляды излагаются изолированно, исключая самое большее, связь их с воззрениями более ранних философов. Я же со своей стороны каждого философа пытаюсь рассмотреть (насколько это возможно сделать, не отходя от истины) в качестве продукта окружающей его среды, то есть как человека, в котором кристаллизовались и сконцентрировались мысли и чувства, свойственные обществу, частью которого он является» [1. С. 9 - 10].

При этом, по нашему мнению, не надо забывать, что философ-мыслитель иногда выступает против общественного установления, традиционного взгляда и догматического наследия. Именно в таком поступке он выступает как философ – мыслитель, как оригинальный, достойный подражанию, философ – герой.

Научная работа, особенно философские поиски интересны и захватывающи тем, что они покорно служат каждому, кто хочет познать секреты жизни и мироустройства. Поэтому К. Поппер утверждает, что «все люди – философы, но кто-то меньше философ, а кто-то больше» [2. С. 7-8]. Все-таки все люди – философы, так как каждый разумный человек интересуется и размышляет о жизни, о месте человека в бытии, о своем предназначении, о мироустройстве. «Концепции жизни и мира, - пишет Б. Рассел, - мы называем «философскими», являются продуктом двух факторов: один из них представляет собой унаследованные религиозные и этические концепции, другой – такого рода исследования, которые могут быть названы «научными», употребляя это слово в самом широком смысле. Отдельные философы сильно различаются между собой в зависимости от пропорции, в какой эти два фактора входили в их систему, но наличие обоих является в определенной степени тем, что характеризует философию» [1. С.11]. Для нас важно не то, к какой школе, направлению относится, принадлежит тот или иной философ, а их смелые идеи, поступки, изменившиеся мир мыслей, ход развития науки и мироустройства.

Колыбелью теоретического осмыслиения мира и место человека в бытии является Восток. Ближний Восток, Индия и Китай дали неповторимые образцы философствующего ума, самоактуализирующей личности. Известно, что ближневосточный мир и мифологическое сознание содержат предпосылки развития науки и философии. К сожалению, в этих мирах и мифологическом сознании нет места конкретной личности, философам-героям. В ближневосточной космогонии упоминается бог Мардук, который предотвращает нападение злой силы, Тиамата, но он не философ-герой, а художественный образ. В «Эпосе о Гильгамеше» содержатся философские мысли о мироздании и смысле жизни, но нет конкретного философа-героя. В ведической литературе Индии Индра (бог грозы и воитель), Агни (бог огня), Сурья (бог солнца), Сома (бог опьяняющего напитка), Ушас (богиня утренней зари) являются мифологическими образами, но лишь в середине I тысячелетия до.н.э. возникают философы-личности и философские школы с конкретной интеллектуальной традицией. Имя этого философа-мыслителя, философа-героя Махавира Вардхамана (жил в VI в. до.н.э.), основатель джайнизма. В возрасте 28 лет он покидает родной дом, чтобы путем самопознания найти смысл жизни. Он отказался от одежды и ходил голым, после двадцатилетнего самоистязания стал артханкаром (основатель пути) или пророком джайнизма [3. С. 241]. Джайнизм, отрицает существование какой-либо разумной первопричины, чтут обожествленных святых, имеют духовных лиц, соблюдающих безбрачие, и считают за грех лишение жизни живого существа, даже невидимых глазу микробов. Джайнисты восстали против жертвоприношения, авторитета вед, широко распространенные в Индии, они считали, что «все вещи, животные и насекомые, растения и листья наделены душой...Вардхамана настаивает на том, что мы ни в коем случае не должны причинять вред жизни ни в состязаниях, ни при жертвоприношениях» [3. С. 246]. Исходя из философской доктрины джайнизма, включающая в себя теорию познания (мати, шрути, авадхи, манах – парьяя и кевала), практическую этику, логику и метафизику известный английский философ Барт называет Вардхаману «великим героем» [3. С. 243].

Следующим великим индийским философом является Сиддхартха Гаутама – Будда, основатель первой мировой религии – буддизма. Центром этико-философской доктрины Будды является избавление людей от страданий, болезни, старости и найти пути духовно-нравственного самосовершенствования.

О буддизме написано много, существуют переводы пятаки («Корзина закона») на разные языки мира. Его теория спасения, четыре благородные истины (хинаяна), восьмеричные пути спасения (махаяна) и нирваны (духовно-нравственные пути самосовершенствования) до сих пор вызывают восхищение, их внимательно изучают и исповедуют около 1 миллиарда людей на земле. По мнению индийского философа С. Радхакришнана, «Будда очень сильно чувствовал недостатки, неизбежные для века критики и просвещения, когда древняя вера была подорвана. А богословские фантазии исчезали подобно причудливым образам, которые мы видим во сне. Души людей были полны беспокойства и опустошительного разлада; неспособные верить искали учения, которого они могли бы придерживаться. Будда вложил свой перст в сердца, стремящиеся к истине, добру и прекрасному» [3. С. 303].

Индия дала миру таких оригинальных и смелых по духу и мировоззрению философов как Чарвака, Патанджали, Канада, Акшанада Готама, Джаймини, Шанкары, Рамануджи, Вивекананда, Махараши, Шри Ауробиндо, Ошо – всех их можно назвать философами-героями. Сам Вивекананда писал: «В Индии были люди, сердца которых были полны симпатией и которые понимали, что мы должны идти вглубь, искать причины. Это были великие святые. Эти великие учителя мира заявляли, что они пришли не разрушать, а дополнять... Они смотрели на всех людей как на своих детей, были действительными отцами, действительными богами, полными бесконечной симпатии и терпения к каждому, действительно готовы были терпеть и переносить. Они знали, сколько еще нужно расти обществу, и терпеливо, медленно, уверенно шли вперед, применяя свои лекарства, не преследуя и не пугая людей, но осторожно и ласково ведя их за собою, шаг за шагом» [4. С. 77]. «Они, эти великие философы-мыслители присыпались сюда, на землю, как бы на поле битвы, чтобы сражаться» [4. С.79].

«Книга перемен», «Книга гор и морей», «Книга песен», «Книга порядка» китайской философской мысли, созданные до нашей эры, являются шедеврами Восточной мысли и интеллекта. Очень мало сведений об их авторах, мы почти ничего не знаем об их жизнедеятельности. Но первыми известными философами были Лао-Цзы и Конфуций (Кун Цю). О жизнедеятельности «первого великого даосиста» Лао-Цзы (Лао Дань) мы знаем очень много. О нем рассказывают много легенд. Как утверждают специалисты Лао-Цзы, оказавшись лицом к лицу с происходившими огромными социальными изменениями, с отвращением отвергал господствовавший в прежнем рабовладельческом обществе принцип «управления на основе правил поведения» и горестно советовал: «Правила поведения – они подрывают преданность и доверие, кладут начало смутам. В то же время его не удовлетворял проводившийся в жизнь вновь возникшими феодальными силами принцип «управление на основе закона», и он с тревогой воскликнул: «Когда растут законы и приказы, увеличивается число воров и разбойников» [5. С. 47]. Видимо мыслитель не был сторонником и традиционного уклада жизни новых порядков наступающего феодального строя. Он «отвергал старое, но в то же время таил обиду на новое, другими словами, потеряв доверие к старому рабовладельческому строю, выступал против рождения, вновь возникавшего феодального строя, причем к тому же не находил реального выхода из создавшегося положения» [5. С. 47]. Парадоксальные мысли и толкования событий Лао-Цзы сделали его одним из великих людей Востока. Бхагаван Шри Раджниш, изучив жизнедеятельность и даосизма, восхищался: «Я наслаждаюсь Лао-Цзы, он одно из совершеннейших выражений невыразимого... Он говорит словами Бога, но не говорит о Боге» [5. С. 10-11]. «Христианство, индуизм, ислам: никакого риска, вы просто идете вместе с толпою. В Дао приходится идти одному, но не в обществе. Дао уважает свободу, но не конформизм. «Истина возможна только для того, кто абсолютно свободен, кто свободен при любых условиях» [5. С.13]. Такие оригинальные, смелые мысли можно встретить только у Лао-Цзы, Дао. Самое главное философ-мудрец смело и доходчиво объясняет свое видение мира, не взирая на авторитет, лица проявляет свою мудрость, находчивость. Нестандартные, смелые мысли философа-мудреца иногда пугают даже современных искателей истины, не говоря о его современниках. Наверное, поэтому Лао-Цзы был вынужден покинуть свой родной город и скрыться.

Китайская философия в основном сосредоточена на решении социальных проблем, так как взаимодействие личности и общества, государства, человека и природы, космоса, традиции и новации, поиска пути нравственного совершенства, воспитания «благородного мужа». Этико-философское учение Конфуция, идеалистическая концепция Мэн – цзы, релятивизм и

субъективизм Чжуан – цзы, теория государственного управления Хань Фэйя, метафизика ДуньЧекунша, трансцендентальные идеи Чжу Си, Ван Шоужэня, Хун Сюцюаня оказали огромное влияние на формирование философии Китая и в целом Востока. Судьба этих героев мыслителей не всегда складывалась благополучно, порою, судьба идей и философской мысли приводила к смене культурно-исторических парадигм целой эпохи и династий. Однако мысли, идеи философа-мудреца всегда притягивали к себе людей и правителей, давали толчок дальнейшему усовершенствованию управления государством и обществом.

Литература

1. Рассел Б. История Западной философии. В трех книгах. – Новосибирск. гос. ун-т., 1999.
2. Поппер К. Все люди – философы. – Москва: Логос, 2009.
3. Радхакришнан С. Индийская философия. Т.1. – Москва: Изд. иностр. лит-ры, 1956.
4. Вивекананда С. Джнана – йога. – Riga, N. gudkova izdevnicieba, 1935.
5. Бхагаван Шри Раджнин. Дао путь без пути. Т.1. – Москва: Либрис, 1992.

UDK: 94(575.1)

O'ZBEKSTON QISHLOQLARIDA FAROVON HAYOT BARPO ETISHNING MODDIY VA MA'NAVIY OMILLARI

H.M.To'xtaev

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ilmiy maqolada O'zbekistonda mavjud bo'lgan qishloqlar, u yerda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanayotgan aholining turmush darajasi, unda bo'layotgan miqdoriy va sifatiy o'zgarishlar, farovon hayotni barpo etish uchun moddiy va ma'naviy omillardan to'liq foydalanish uchun olib borilayotgan islohotlarning asosiy yo'naliishlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *qishloq, qishloq xo'jaligi, aholi, turmush darajasi, farovon hayot, moddiy va ma'naviy omil, islohot, moddiy va ma'naviy boylik.*

Материальные и духовные факторы обеспечения благополучной жизни в селах Узбекистана

Аннотация. В научной статье утверждается, что в Узбекистане существуют села, в которых уровень жизни населения, занятого сельскохозяйственным производством, количественные и качественные изменения в нем, материальные и духовные, основные направления проводимых реформ для полного использования фактов.

Ключевые слова: сельское хозяйство, население, уровень жизни, благосостояние, материальные и духовные факторы, реформа, материальное и духовное богатство.

Financial and spiritual factors of ensuring a prosperous life in the villages of Uzbekistan

Abstract. The scientific article states that there are villages in Uzbekistan, where the living standards of the population engaged in agricultural production, the quantitative and qualitative changes in it, the material and spiritual the main directions of the reforms being implemented for the full utilization of the facts.

Keywords: agriculture, population, living standards, prosperity, material and spiritual factors, reform, material and spiritual wealth.

Jahonda uch yarim milliarddan ortiq kishi qishloqlarda yashaydi va asosan yer yuzi aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, mamlakatlar yengil va oziq-ovqat sanoatinining esa xomashyoga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish ishlari bilan shug'ullanadilar. Demak, qishloq – qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholining yashash manzilgohi bo'lib, har qanday mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining asosiy atributlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham globallashuv sharoitida qishloqlarni odamlar yashaydigan o'ziga xos ijtimoiy makon sifatida tadqiq qilish va shu asosda uning kelgusidagi istiqbollarini belgilash hozirgi kundagi eng dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

Jahon aholisining bir milliarddan ortiq iqtisodiy faol qismi qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qiladi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligining istiqboli hamma vaqt yaroqli va yaroqsiz yerlar va ulardan

foydalanim usullariga bog'liq bo'lib kelgan. Bugungi kunda jahondagi qishloq joylariga tegishli yaroqli yerlar maydoni 4 milliard 480 ming gektarga teng bo'lsa, yaroqsiz yerlar esa 4 milliard 400 ming gektarni tashkil qiladi. Shundan qishloq joylariga tegishli yerlarining kattagina qismi har yili shaharlar maydonini kengaytirish, sanoat qurilishi, transport yo'llarini qurish va boshqa maqsadlar uchun qishloq joylariga tegishli yerlar tassarufidan chiqib ketmoqda. Bu esa o'z navbatida qishloq joylarining qisqarib borishi oqibatida qishloq va shaharlar o'rtasidagi mutanosiblikning buzilishiga, ekologik holatning yomonlashuviga, inson salomatligi darajasining pasayib ketishi kabilarga sabab bo'lmoqda. Natijada, jahonda 124 million nafar inson ochlikdan aziyat chekmoqda.[4] Demak, ayni vaqtida ana shu muammoning ilmiy-amaliy yechimini topish hayotiy zaruriyat darajasiga ko'tarilgan dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni 33254,1 ming kishini shundan, shahar aholisi soni 16805,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 50,5%), qishloq aholisi soni 16449,1 ming kishini (49,5%) tashkil etadi. Bunda respublika doimiy aholi sonining 30,3% mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 59,5% mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,2% mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri keladi (2019-yil 01.01. holati bo'yicha). Aholining joylashuvi bo'yicha 1 kv.km.ga mamlakat bo'yicha 74,1 kishini, shundan Andijon viloyatida 713,2., Farg'ona viloyatida 544,8., Namangan viloyatida 370,0., Navoiy viloyatida 8,8. va Qoraqalpog'iston Respublikasida 11,2 kishini tashkil etadi.[5]

Bugungi kunda O'zbekistonda 10500 – 11000 gacha qishloq punktlari mavjud bo'lib, ularda 16 millionga yaqin aholi istiqomat qiladi.[3] Demak, qishloqlar qanchalik obod bo'lsa, unda yashayotgan aholi qanchalik farovon hayot kechirsa, mamlakatimizning barcha aholisi shunchalik yaxshi turmush kechirish baxtiga muyassar bo'ladi. Qishloqda yashab qishloq xo'jaligini harakatga keltiruvchi asosiy kuch – bu dehqon ahli hisoblanadi. Bu xususda, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: «Dehqon deganda, bepoyon dalalar, bog'-u rog'lar, dasturxonimizdagi turli noz-ne'matlar, to'y-tomoshalar, xursandchilik kunlarimiz, butun hayotimiz ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, dehqon bu – hayotning baquvvat ustuni, tiriklikning mustahkam tayanchi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi»,[2] – degan edi. Bu degan so'z, qishloq aholisi, uning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan dehqonlar farovon hayot kechirishga haqlidirlar. Shuning uchun ham qishloq aholisining farovon turmush kechirishini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalarini chuqur tahlil qilish, olingan ilmiy-amaliy xulosalar assosida qishloqda farovon hayot barpo etishning moddiy va ma'naviy omillarini uyg'unlashtirish bo'yicha eng muhim chora-tadbirlarni belgilab olish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Qishloqda farovon hayotni barpo etish qishloq aholisining turmush tarzini yaxshilab borishdan boshlanadi. Turmush tarzining qanchalik darajada oshib borishi esa ularning ana shu sohada qilayotgan malakali mehnatlari tufayli topayotgan real daromodlariga bog'liqidir. Real daromad esa qishloq aholisining farovon hayot kechirishining manbaidir. Uning ko'p yoki kamligi qishloqda mavjud bo'lgan moddiy va ma'naviy omillarning nisbatiga bog'liqidir.

Zero, shunday ekan qishloqning o'zi nima, degan savol tug'iladi? *Qishloq – bu qishloq xo'jaligi ishlari bilan shug'ullanuvchi aholining o'ziga xos tarzda mehnat qilish va turmush kechiradigan joyi, maskani, hududidir.* Olimlar asosan qishloq xo'jaligini birinchidan, ekstensiv faoliyat yuritishga asoslangan iste'molchi, ikkinchidan, intensiv faoliyatga asoslangan tovar ishlab chiqaruvchilar guruhiга ajratadilar.

O'zbekiston qishloqlari Sobiq Ittifoq davrida «paxta yakka hokimligi» kasalligiga mubtalo qilindi. Qishloq aholisining ustidan paxtadan ko'p hosil olamiz deb har xil zaharli ximikatlar sepildi. Natijada, suvlar va yerlar zaharli ximikatlar ta'sirida yaroqsiz ahvolga kelib qoldi. Qishloq aholisi ommaviy tarzda «sariq kasal»ga chalina boshladи. Ayollar kamqonlik kasalligiga mubtalo bo'ldi. Bolalar o'limi ko'payib ketdi. Qishloq aholisining genafondi izdan chiqqa boshladи. Bularning barchasi jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, ma'naviy-madaniy muammolarni keltirib chiqardi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng birinchi navbatda qishloqlarda aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondiradigan yangicha ishlab chiqarish va mental ma'naviy muhitni yuzaga keltirish, ularni izchillik bilan uyg'unlashtirib borish assosida qishloq aholisining farovon hayot kechirishini ta'minlash muammosini hal etish masalasi tarixiy zaruriyat sifatida o'zligini namoyon qila boshladи. Bu masalani amalda hal qiish uchun qishloq aholisiga shaxsiy tomorqa uchun yer ajratib berildi, fermer xo'jaliklari tuzildi, paxta maydonlari qisqartirilib g'alla, sabzavot, poliz ekinlari

ekiladigan joylar ko‘paytirildi, bog‘-rog‘lar yaratildi, odamlarning chorva-mollarining tuyog‘i ko‘paydi, qishloqda oilaviy tadbirkorlikka e‘tibor kuchaytirildi va boshqalar. Qishloq xo‘jaligi rivojlangan sari qishloqda yashovchi aholining farovon hayot kechirishga bo‘lgan umidi, ishonchi kuchaya bordi.

Bugungi kunda, qishloq aholisining farovon hayot kechirishining quyidagi moddiy manbalarini: «ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish; yangi intensiv bog‘ va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish: qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqr qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko‘rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish; suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish; global iqlim o‘zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo‘jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rish rivojlantirish strategik vazifalar qatoriga kiradi» [1]..

Bu vazifalarni bajarish o‘zining ijobiy natijalarini bera boshladi. Natijada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hajmi o‘tgan ikki (2017-2018-yy.) yil ichida 101,9 %, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 100,7%, chovachilik mahsulotlari – 104,2% tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 63,6% – dehqon(shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklar, 34,7 %– fermer xo‘jaliklari, 1,7 % – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keldi.[5] Bu esa qishloq aholisining moddiy jihatdan farovon hayot kechirishi uchun ishonchli zamin yaratmoqda.

Qishloqda farovon hayot barpo etishda *birinchidan*, tabiiy omillar – inson ixtiro qilgan vositalar orqali tuproq tarkibini yaxshilash, dehqonchilik sohasida seleksiya, chovachilikda esa genetikani rivojlantirish; *ikkinchidan*, ijtimoiy omillar – qishloq aholisining jismoniy, psixologik, intellektual qobiliyatlarini kuchaytirish, mehnatga va uning natijalariga bo‘lgan ijobiy munosabatlarni shakllantirish; *uchinchidan*, tashkiliy-xo‘jalik omillar – qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish, ixtisoslashtirish, ilg‘or tajribani, yangicha boshqaruv tizim va uslublari qo‘llashni tezlashtirish; *to‘rtinchidan*, texnologik-texnikaviy omillar – qishloq ho‘jaligi sohasini texnikalashtirish, avtomatlashtirish, fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi nanotexnologiyalarni rivojlantirish; *beshinchidan*, iqtisodiy omillar – qishloq xo‘jaligi rivojlantirishning istiqbollari dasturlarini, ”yo‘l xarita”larini ishlab chiqish, ularning bajarilishini tahlil qilib borish, ish haqi to‘lashning zamonaviy usullarini joriy etish; *oltinchidan*, axloqiy-ma’naviy-mafkuraviy omillar – bo‘g‘doyzorlarni non yetishtirishning birlamchi manbai sifatida ulug‘lash, ekologik toza mahsulotlarni yetishtirish, tuproq, suvga nisbatan qadriyat sifatida qarash, otababolardan meros bo‘lib kelayotgan an‘anaviy mahsulotlarni etishtirish(o‘rik, bodom, yong‘oq, qovun qoqi, tarvuz shinnisi va shu kabilalar)ni ko‘paytirish, dehqon va chovadorga mehnatkash yaratuvchi sifatida qarash, ularning halol mahnatlarini madh etishni kuchaytirish va kengaytirish kabilar o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Qishloqda farovon hayot barpo etishning moddiy va ma’naviy omillarini uyg‘unlashtirishda quyidagi: a) oddiy, sodda, an‘anaviy – ma’naviy jihatdan eskirgan ;b) intensiv – mehnat unumdarligi yuqori bo‘lgan; v) yuqori intensiv – raqobatbardoshlikni ta’minlaydigan texnologiyalardan foydalananishlar mavjudligi ko‘zga tashlanadi.

Qishloqda farovon hayot barpo etishning moddiy va ma’naviy omillarini uyg‘unlashtirishda quyidagilarga:

- 1) qishloq ho‘jaligini ekstensiv emas, balki intensiv tarzda rivojlantirishni yo‘lga qo‘yish [3];
- 2) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruchi korxonalarini har tomonlama (mavsumiyligini ham inobatga olgan holda) ixtisoslashtirib borish;
- 3) dehqon, fermer va shaxsiy tomorqa xo‘jaliklari ishlab chiqarishni mustaqil rivojlanishiga keng yo‘l ochib berish;
- 4) qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonidagi bir qator ishlarni davlat xizmatlari sohasi zimmasiga yuklash;

- 5) turli mulkchilik sharoitida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va ta'sir etishning xalqchil usullarini o'ylab topish;
- 6) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni yuqori malakali kadrlar bilan to'liq ta'minlash;
- 7) axborot kommunikatsiya texnologiyalari tezkor sur'atlar bilan rivojlanayotgan bir paytda, qishloq xo'jaligi infrastrukturasi to'liq dasturlash;
- 8) qishloq xo'jaligini rivojlantirish yuksak axloqiy-ma'naviy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni tarbiyalash bilan uzviy birlikda bo'lishini ta'minlash orqali amalga oirilsa, o'zining pirovard maqsadiga erishgan bo'ladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. – T.: Adolat, 2017. – B18-19.
2. Mirziyoyev SH.M. Rizq-ro'zimiz buniyodkori bo'lgan qishloq xo'jaligi xodimlari mehnatini ulug'lash, soha rivojini yangi bosqichiga ko'tarish – asosiy vazifamizdir // *Uning o'zi. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir.* – Toshkent:«O'zbekiston» NMIU,2018. – B.42.
3. Kursev I.V. Osnovnye napravleniya razvitiya innovatsionnoy sistemy APK Sibiri:metod.rekom. – Novosibirsk,2008. – S.61.
4. Stat.uz. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti. kun.uz/news/2018/03/24/bmt-dunedo-oclikdan-aziat-cekaetganlar-sonini-elon-kildi.
5. Stat.uz. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti. <https://kun.uz/55381466>.
6. Stat.uz. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti. <http://uztag.info/uz/news/zbekistonda-ar-t-rtinchi-ishlo-a-olisi-soni-1-001dan-2-ming-kishiga-teng>

UDK:

YOSHLARDA BADIY MADANIYAT VA ESTETIK IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

A.R.Samadov, G.M.Qodirova
Samarqand davlat universiteti

Annotasiya. Ushbu maqolada talaba yoshlarda mutolaa madaniyati, badiy madaniyat va estetik immunitetni shakllantirish masalalari milliy madaniyatimiz yutuqlari, xususan, davlatimiz rahbarining ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni samaradorligini oshirish bo'yicha ilgari surgan g'oyalari asosida tahlil qilib berilgan.

Klait so'zlar: yoshlar, estetika, madaniyat, immunitet, badiy.

Проблемы формирования искусственной культуры и эстетического иммунитета в молодёжах

Аннотация. В данной статье проведен анализ проблемы формирования культуры чтения, художественной культуры и эстетического иммунитета у студенческой молодёжи на основе национальной культуры, идей главы государства нашей страны, направленных на повышение эффективности в социальной, духовно - просветительской сфере.

Ключевые слова: молодёж, эстетика, культура, иммунитет, художественный.

Formation issues of artistic culture and aesthetic immunity in youth

Abstract. The formation problems of culture of reading, artistic culture and aesthetic immunity in student youth based on the national culture, the ideas of the head of state of our country, aimed at improving efficiency in the social, spiritual and educational sphere are analyzed in this article.

Keywords: youth, aesthetic, culture, immunity, art.

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohada jadal islohot olib borilar ekan, avvalo yoshlarni ma'naviy-mafkuraviy tarbiyasini kuchaytirish, g'oyaviy immunitetini shakllantirish,

yot g'oyalarga qarshi tura oladigan tarbiya tizimini shakllantirish dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu to'g'rida hukumatimiz qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqib, eng asosiysi yoshlarda mutolaa madaniyat va badiiy madaniyatni yanada mustahkamlash kabi targ'ibot, tashviqotlar ko'lami kengaymoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev joriy yilda yoshlar tarbiyasini har tomonlama rivojlantirish, ularni yot g'oyalalar tahdidan asrash, ma'naviy, estetik immunitetini shakllantirish, bo'sh vaqtlanini bilim olishga, sport bilan shug'llanishga sarflash maqsadida 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgani bejiz emas. Yana shuni ta'kidladiki, “....*hozirgi paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala, ya'ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqishi vazifasi turibdi*” [1].

Bu tashabbuslarning ichidan yoshlarni musiqa, rassomchilik, adabiyot va san'at, teatrga qiziqishlarini oshirish, jismoniy chiniqtirish, sport sohasidagi qobiliyatlarini namoyon qilish, kompyuter savodxonligini oshirish, kitobxonlikni targ'ib etish kabi muhim masalalar o'rinni olgan. Davlatimiz rahbarining ushbu tashabbuslarini keng jamoatchilik, ayniqsa, ta'lim sohasi xodimlari mammuniyat bilan qo'llab-quvvatladi.

Biz ushbu tadqiqotimizda davlatimiz rahbarining tashabbuslari doirasida yoshlarda badiiy madaniyatni va estetik immunitetni shakllantirish masalalarini tahlil qilish asosida ba'zi tavsiya va takliflarni o'rta ga tashlashni maqsad qilib qo'yidik.

Chunki, taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning “*Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir*” degan so'zlari bugungi kunda har doimdagidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Albatta, endi savol tug'iladi? Qanday qilib yoshlarni vatanparvar, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash mumkin!? Bu maqsadga erishish yo'li go'yoki oddiy - tirishqoqlik bilan bilim olish, saviyali kitoblarni o'qish va yaxshi ustozga ergashish kifoya. Lekin ko'rinishidan oddiy ko'ringan bu faoliyat nega samara bermay qoldi? Bu muammoni bir qator sabab va oqibatlari mavjud. Mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda iqtisodiyotni real sektorini rivojlantirish asosiy masalaga ko'tarilib, bu o'tish davrida aholini turmush darajasini ko'tarish, oilalarni saqlab qolish, ijtimoiy siyosat yurgizishga majbur bo'lindi. Albatta, bunday sharoitda oliy ta'lim olish, jamiyatni ma'naviy-ma'rifiy taraqqiy ettirish biroz sekinlashib, kitob mutolaasi, yoshlarda badiiy saviya odmilashib qolgan. Boshqa tomondan esa endigina oyoqqa turayotgan mamlakat va jamiyatga bilimli mutaxassislar tayyorlash va ularni ish bilan ta'minlash emas, qanday bo'lsa-da diplomli kadrlar tayyorlash masalasi birinchi o'ringa chiqdi. Ta'lim sohasidagi bir qator mutaxassislar yoki chetga ketdi, yoki oylik maoshi yuqori boshqa ishlarga o'tishdi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalari qisqardi va h.k. Xayriyatki, bugun iqtisodiyotimizdagi keskin o'zgarishlar, olib borilayotgan islohotlar vaziyatni ijobji tomoniga boshqarmoqda.

O'tgan asrning ikkinchi yarmida jamoatchilik transportida yoki joylarda yoshlar qo'lidan kitob, gazeta va jurnallar tushmagan, shuningdek, mahallalardagi mehmonxonalarda (qadimgi madrasa o'rniga paydo bo'lgan) ham keksa kishilarining kitobxonlik kechalariga (masalan, Navoiyxonlik, Bedilxonlik kechalariga) yig'ilishi aholi, ayniqsa yosh avlodning tarbiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, bugun globallahuv davrida bunday an'ana o'rnini yuksak texnologiyalar egallab oldi. Internet global tarmog'idagi ma'lumotlarni bitta kitob javoniga yoki maktab kutubxonasiga qiyoslash mumkin emas. Chunki bu virtual olamda insonni tarbiyasiga daxldor elektron kitoblar, kishi tarbiyasini, va umuman mafkuraviy olamini buzadigan manbalar, video materiallar ko'payib ketdi. Bunga to'siq qo'yish, turli mavzularga, ijtimoiy saytlarga ta'qiq qo'yish bilan biror narsaga erishib bo'lmaydi. Sababi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida, bir qator qabul qilingan qonunlarda va Inson huquqlarida so'z erkinligi mustahkamlab qo'yilgan. Demak, insonning erkinligi axborot olish va uzatishda e'tirof etilar ekan, unda ma'lumot, ya'ni axborot olish va tarqatishda, mutolaa qilishda madaniyat va estetik immunitetni shakllantirish zarurdir.

Kompyuter texnologiyalarini puxta o'zlashtirish zamon talabi va bu taraqqiyotning oldingi saflarida bo'lish degani. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, na internet, na telefon, na kino, na teleseriallar mutolaa zavqini berolmaydi. Chunki kitob mutolaasi insonning qalbiga, vujudi va shuuriga ta'sir etish bilan bir qatorda ma'naviy boyitadi, dunyoqarashini o'stiradi. Shu o'rinda Prezidentimizning “*Hozirgi kunda mamlakatimizda kitobxonlik saviyasini oshirish, mutolaa madaniyatini yuksaltirishga katta ahamiyat berilayotganligi sizlarga ma'lum. Lekin, ko'plab bolalarimiz kitobdan uzoqlashib, ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazayotgani – bu ham bor gap.*

Biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lган jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz”[2] degan so'zlari ziylolar qatlamini befarrq qoldirmasligi kerak.

Kitob – insoniyatning qadim tarix mobaynida yaratgan eng buyuk mo'jizasi, u insonni yuksak darajaga erishishiga, xotirasini abadiylashtirishga va ma'naviy kamolotiga yordam bergan. Shu o'rinda faylasuf Deni Didroning fikrini keltirish o'rinci albatta, “*Odamlar kitob o'qimay qo'ysalar – fikrlashdan to'xtaydilar*”. Ha, inson kitob mutolaa qilmasdan ham fikrlay oladi-ku deyishadi ko'pchilik. To'g'ri inson kundalik ong, tafakkur doirasida fikrlaydi, ammo nazariy ong, ilmiy-ommabop ma'naviyat, ruhoniyat darajasida fikrlay olmaydi. Kunlarning birida Albert Eynshteyndan bolalarini qanday qilib aqlliroy qilishimiz mumkinligi haqida so'rashibdi. Uning donishmandlarcha javobi juda jo'n bo'libdi. *Farzandlaringiz aqlli bo'lishini istasangiz, ularga ertak o'qib bering. Ular yanada aqlli bo'lishini istasangiz ularga yanada ko'proq ertak o'qib bering*, -debdii u. U mutolaa va o'ylashning ahamiyatini juda yaxshi bilardi. O'smir yoshdag'i bolalarda fantaziyalı dunyoqarash, obrazli tafakkur va mantiqiy fikr yuritishni aynan ertak rivoyatlar, kitobxonlik shaklantiradi. Kitob mutolaasida bola ertak qahramoni, romandagi obrazlarga o'zini qo'yib ko'rib, ilk muhabbat, sevgi degan tuyg'uni o'zining shuuridan o'tkazib ko'radi. Demak, hayotdagi axloqiy-estetik tuyg'u, qadriyatlarga hurmat yoki humatsizlik mutolaa madaniyatini yuksakligi yoki odmilashishiga, yoshlarda badiiy madaniyat saviyasini yuqorililigi yoki pasayishi singari omillarga borib taqalar ekan.

Shuning uchun ham badiiy madaniyatga bo'lgan qiziqishni oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 yanvardagi “*Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida*”gi Farmoni aholi o'rtasida, ayniqsa, yoshlar orasida kitob o'qishni targ'ib etishga qaratilganligi ayni muddao bo'ldi [2]. Shuningdek, davlatimiz rahbari Yoshlar Ittifoqining IV qurultoyidagi o'z nutqida yoshlarimiz orasida kitobxonlikni yanada rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratdilar. Prezidentimiz hozirgi kunda mamlakatimizda kitobxonlik saviyasini oshirish mutolaa madaniyatini yuksaltirishga katta ahamiyat berilayotgan bo'lsa hamki, lekin ko'plab yoshlar kitobdan uzoqlashib ko'p vaqtlarini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazishayotganlari haqida kuyinib gapirdilar. Ularni hal etish zarurligini ta'kidlab o'tdilar. Shuningdek, Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan mamlakatimizda boshlangan kitobxonlik aksiyasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimidagi oly ta'lim muassasalarida tez yoyilib ketdi. Mazkur aksiya doirasida har bir rahbar xodim o'zi o'qigan maktabga kitoblar sovg'a qilib kelmoqdalar. Shu jumladan, Samarqand davlat universiteti rahbariyati tashabbusi bilan Samarqand viloyat Urgut tumanidagi 20 va 93-sonli umumta'lim maktablariga, Tayloq tumanidagi 29-maktabga, Samarqand shahridagi 14-maktabga universitet rektori va jamoasi tomonidan xalqimizning buyuk madaniyatini tarannum etuvchi adabiy va tarixiy, ilmiy-ma'rifiy kitoblar sovg'a qilindi, yoshlarni kamol topishlariga kitobning roli to'g'risida davra suhbatlari o'tkazildi, buyuk mutafakkirlarimizni kitob tufayli erishgan yutuqlari batafsil tahlil qilindi. Shu o'rinda yana bir muhim narsani alohida ta'kidlash lozimki, SamDU rahbariyatining tashabbusi bilan “Fizika-kimyo” o'quv binosida “Samarqand kitob olami”ning filiali ochilishi talabalarimizni uzoqqa bormasdan o'zlarini yoqtirgan badiiy va tarixiy asarlarni sotib olish imkoniyatini oshirdi. “Samarqand kitob olami” xodimlarining ma'lumotlariga ko'ra keyingi 1,5 oy ichida aholi tomonidan kitoblarni xarid qilish miqdori 2 martadan ham oshgan.

Bu holat shuni ko'rsatadiki, yoshlarimizni kitobga bo'lgan mehrini uyg'otish barcha ziyoli insonlarning burchidir. Ikkinci tomonidan esa shoirlar va yozuvchilarimiz yoshlarni dardini, qiziqishlarini hikoya qiladigan, ularning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yozishlari, hukumat darajasida ularni yuksak sifatli chop etish, ta'lim muassasalariga targ'ib qilish va yetkazish (maqbul narxlarda), jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, elektron kitob o'qish ko'nikmasini shakllantirish ishlarini yangicha shakl va mazmunda tashkil qilish choralarini ko'rishlari lozim bo'ladi. Agar buyuk bobomiz Amir Temur, keyinchalik Ulug'bek hukmronlik davrida, ta'lim, fan va umuman madaniyatni yuqori cho'qqilarga chiqishining asosini bilmoqchi bo'lsak “Amir Temur o'gitlari”dagi “*Kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir. Hayotni o'rgatuvchi murabbiyidir*”, degan purma'no so'zlarini eslashning o'zi kifoya.

Talaba yoshlarda mutolaa madaniyatini shakllantirishda, ilmiy-ommabop, badiiy, tarixiy asarlarni o'qish, mutolaa qilishga mehr uyg'otish va badiiy saviyani o'stirish borasida amal qilishi lozim bo'lган quyidagi mezonlarni taklif qilish mumkin [3]:

birinchidan, talaba yoshlar qanday kitoblarni o'qishga qiziqishi (ilmiy yoki badiiy) va tafakkuri (dunyoqarashi keng va tor) qay darajada ekanligini aniqlash;

ikkinchidan, taqdim etilayotgan badiiy va ilmiy adabiyotlarda talabaning tafakkur qilish faoliyatida pragmatik g'oya, hayot va xayolda konstruktivlik, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikmasini bera oladigan jihatlariga e'tibor qaratilishi;

uchinchidan, mutolaa madaniyati talabani o'zligi shakllantirish, qadriyatni his qildirishi, fikr qaramligidan chiqishga ko'maklashishi, falsafiy refleksiyani shakllantirishi, ravon, boy nutqni o'stirishi, voqyelikni erkin ifodalar olish ko'nikmasini shakllantirishi zarur;

to'rtinchidan, talabalarni qiziqishiga mos asarlarni monitoringini yurgizish, talabalar turar joylarida adabiyotshunos olimlarimiz kitobxonlik kunlarini, she'rxonlik tanlovlari va shu orqali kitob bilan rag'batlantirish kechalarini ommalashtirish, uni OAVlar orqali targ'ibot qilish maqsadga muvofiq;

beshinchidan, talaba yoshlar o'qigan badiiy asarlari doirasida diktant, insho tanlovini tashkil qilish, g'oliblarga imtiyoz beruvchi sertifikatlar berish, yozma nutq, og'zaki nutqni tekshirish, xat yozishda badiiy madaniyatni qo'llay olish bo'yicha bir yillik onlayn tanlovini yo'lga qo'yish muhim ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy-mafkuraviy ishlar sirasiga kiradi.

Faqatgina zamонавиyl bilimlarni egallagan, erkin va mustaqil fikr yurita oladigan, milliy tariximizni mukammal egallagan yoshlardagina badiy madaniyat va estetik immunitet shakllanadi, rivojlanadi. Bu ikkala holatga erishish uchun yoshlar yaxshi ta'lim-tarbiyani egallashlari, aniqrog'i ilg'or bilimlarni o'zlashtirishlari kerak bo'ladi. Davlatimiz rahbari tomonidan oliy ta'lim muassasalarida qabul kvotalarining keskin ko'paytirilishi, nafaqat yangi – yangi mutaxassisliklar, xususan, xorijiy hamkorlar bilan zamонавиyl universitet va institutlarning tashkil qilinishi, yoshlarimizni chet mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishi yuqorida ta'kidlangan salbiy holatlarning bartaraf etilishidagi jiddiy qadamlardan deyish mumkin. Bejiz buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib aytmagan: "*O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lur, Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lur*".

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, innovation ta'lim va rivojlanish yo'lini tanlagen Mustaqil O'zbekistonning yaqin yillarda rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rın olishi uchun barcha iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratilgan. Endi faqat sobitqadamlik bilan ishlash, ijod qilish, iqtidorli yoshlarimizni qo'llab-quvvatlash kabi ishlarni amalga oshirishda vaqtini boy bermasligimiz kerak.

Adabiyotlar

- Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. – T.: "O'zbekiston", 2017.-47b.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi PF -4789 – sonli farmoni, 2017 yil, 13 yanvar.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ -3271 – sonli qarori, 2017 yil, 13 sentyabr.

UDK: 314.7

YEVROPADA MIGRATSIYA SIYOSIY VOSITA SIFATIDA**D.N.Muydinov***O'zbekiston Milliy universiteti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yevropada migratsiyaning siyosiyashuvining sabablari, o'ta o'ng siyosiy partiyalarning hamda harakatlarning kuchayib borayotganligi tendensiyasi, liberal qadriyatlarning cho'kishi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: migratsiya, Germaniya, antimigratsiya, AfD.

Миграция как политический инструмент в Европе

Аннотация. В данной статье упоминаются причины politicизации миграции в Европе, тенденция правых политических партий и движений и падение либеральных ценностей.

Ключевые слова: миграция, Германия, антимиграция, AfD.


Migration as a political tool in Europe

Abstract. The article deals with the reasons for the politicization of migration in Europe, the tendency of far right political parties and movements, and the fall of liberal values.

Keywords: migration, Germany, antimigration, AfD.

Migratsiya dissiplinalararo fan bo'lganligi uchun u ko'plab yo'naliishlarda va sohalarda o'z aksini topadi. Lekin, bizningcha, bugungi kunda Yevropaning migratsiya borasidagi eng katta tashvishi – bu uning siyosiy ahamiyatidir. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yilda Yevropada 77,9 mln. immigrant bor bo'lgan. Bu dunyodagi barcha migrantlarning 33 foizini tashkil qiladi. Lekin, dunyoda eng ko'p migrant 2017 - yilgi ma'lumotga ko'ra, Osiyo qit'asida (79,6 mln. kishi) joylashgan va ko'plab ekspertchilar kelajakda ham Osiyo qit'asida migrantlarning o'sib borishini ta'kidlamoqda. Masalaning salbiy tomoni shundaki, YEI davlatlari bugun "migratsiya inqirozi"ni o'tkazayotganligini ta'kidlashmoqda. Vaholanki, 2017 - yil va 2015 - yilgi ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda eng ko'p migrantlarga uy egaligini qilayotgan top 20 talikda YEIga a'zo bor yo'g'i 5 ta davlat xususan, Germaniya (12,2 mln. migrant), Buyuk Britaniya (8,8 mln.), Fransiya (7,9 mln.), Ispaniya (5,9 mln.), Italiya (5,9 mln.) o'rinn olgan xolos. Bu ko'rsatgich 2015 - yilga qaraganda 2017 - yilda Germaniyadan tashqari boshqa 4 ta yuqoridagi davlatlarda migrantlar soni nisbatan kamayish kuzatilgan. Shuningdek, mazkur 5 davlatdan tashqari YEIning qolgan davlatlari ayniqsa, deyarli migrantlar yo'q mamlakatlar Polsha, Vengriya, Gretsya va boshqalarning, migratsiya inqirozida qochoqlarni qabul qilmaslik harakatlari ko'zga tashlanmoqda. Bu yerda bir tabiiy savol tug'iladi. Nega ushbu davlatlarda migrantsion muammolar yashamoqda? Bu faqat yuqoridagi nomi ko'rsatilgan davlatlar bilan bog'liq holat emas balki, YEIning qudratli davlatlari Germaniya, Fransiya, Avstriya, Shvetsariya va boshqa davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq muammo deb bilamiz. U ham bo'lsa, migratsiyaning siyosiyashib borayotganligidir deb o'ylaymiz.

Yevropa Ittifoqiga a'zo ko'plab davlatlarda o'ta o'ng (far right) siyosiy partiyalarning va harakatlarning kuchayib borayotganligi tendensiyasini kuzatishimiz mumkin. Bu kabi siyosiy partiyalar ayniqsa, Avstriya, Vengriya, Shvetsariya, Shvetsiya va Polshada kuchli bo'lib, oxirgi saylovlarda hukumatlarni shakllantirishda kuchli ta'sir kuchiga ega bo'ldi. Fransiyada ham Le Pen boshchiligidagi Front National (FN) partiyasi jamiyat orasida katta obro'ga ega. Ammo, Germaniyada oxirgi 2017-yilgi saylovlar natijasi tamoman jahon jamiyatining e'tiborini jalg etdi. Sababi, Germaniyada ikkinchi jahon urushidan keyin ilk marotaba o'ta o'ng hisoblanuvchi Alternative für Deutschland (AfD) partiyasi 12,6 foizga ega bo'lib, uchinchi partiya va muxolifat partiyaga aylandi. Yevropada muvafaqqiyat qozonayotgan o'ta o'ng va millatchi partiyalarning g'oyalarida bir-biriga o'xshash bir nuqta bor – bu ham bo'lsa migratsiyaga qarshi chiqishdir. Mazkur holatni o'zi immigratsiyaning naqadar siyosiyashib borayotganini ko'rsatadi. Albatta, Yevropada immigratsiyaning siyosiyashuvining bir qancha sabablari bor deb o'ylaymiz. Bizningcha, birinchi va asosiy sabab bu madaniy omildir. Ya'ni, migrantlarning boshqa madaniyatni olib kirishi. Bunga qarshi harakatlar YEIda juda katta va qaltis rezonansga aylanmoqda. Buni VVS tomonidan chiqarilgan quyidagi rasmdan ham ko'rishimiz mumkin:



Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, Yevropada millatchilik va irqchilikni o'z ichiga olgan harakatlar bugun paydo bo'lindi va bu uzoq tarixga borib taqaladi. Lekin, bugungi kunda millatchilik va o'ta o'ng ko'rinishdagi partiya va harakatlar shuningdek, ularning tashqarisidagi rasmiy doiralar asosan Yevropa madaniyatiga yod bo'lgan yoki xristian jamiyatiga taaluqli bo'limgan jamiyat vakillarining Yevropaga migratsiya qilishiga qarshi chiqishmoqda. Masalan, 2010 - yilda o'sha paytda Bavariya bosh vaziri bo'lgan Horst Seehofer FOCUS nashryotiga bergen intervyusida "Bizga boshqa madaniyatdan (Yaqin Sharq mamlakatlari nazarda tutilgan) migrantlar kerak emas", deb ta'kidlagandi. Chunki, ularning integratsiyasi qiyin kechishini bildirgandi. Bundan tashqari, AfD asoschilarini va yetakchilaridan biri bo'lgan Xans Olaf Xankel ham Germaniyaning ba'zi viloyatlarida hind, indonez va xitoy oshxonalarini har qadamda uchratish mumkin ammo, an'anaviy gissen yoki tyuringen oshxonasini juda kam uchratadigan bo'lganini va shu sabablardan ko'pmadaniyatlilikka qarshi chiqish kerakligini bildirib o'tgandi. Bu borada Shvetsiyalik yozuvchi Maks Frishning o'sha mashhur "Wir riefen Arbeitskräfte, es kamen Menschen" (Biz ishchi kuchi chaqirgandik, o'rniga odamlar keldi) iborasida ham aslida, boshqa bir madaniyatning kelganligini ifoda etgandi, deb o'ylaymiz. Bu kabi ibora va so'zlardan son-sanoqsiz keltirishimiz mumkin. Lekin, bu kabi so'z va iboralar bilan chiqishlar asosan mashhur yozuvchilar, olimlar va siyosiy yetakchilar tomonidan yangromoqda. Boshqacha qilib aytganda, bizningcha, migratsiyaga qarshi fikr va tushunchalar xalqning "xohish-istiklarini ifodalash" dan ko'ra ko'proq yetakchilarning o'z pozitsiyasini mustahkamlash va ushbu argument bilan amaldagi hukumatni tanqid qilish va o'z tarafdarlarini kengaytirishga qaratilgandek. Masalan, 2014 - yil Germaniyada PEGIDA nomli Yevropada islomga qarshi bir harakat vujudga keldi. Uni tashkil topishida avval muqaddam sudlangan va hech qayerda ishlamaydigan Lutsa Baxmanning so'zlarini va OAVda shov-shuvga (You Tube va Facebook) sabab bo'lgandi. Ammo, ushbu harakatni AfD qo'llab-quvvatlab chiqdi. Sababi AfD bo'lajak saylovlarida o'z tarafdarlarini ko'paytirishni o'yladi va shunday ham bo'ldi. AfDni kuchayib borayotganini ko'rib FN yetakchisi Le Pen AfD yetakchilari bilan uchrashdi. Shunday qilib, Yevropadagi o'ta o'nglar bir-biriga bo'lgan birdamligini (solidarnost) izhor qilishmoqda. Bunda ular migratsiyani vosita qilib olgan va shuningdek, milliy davlatchilikni kuchaytirish, an'ana va qadriyatlarni saqlab qolish kabi millatchilik g'oyalarining kuchli parametrlaridan foydalanishmoqda, deb o'ylaymiz.

Yevropada migratsiyaning siyosiyashuvidagi ikkinchi omil liberal qadriyatlarning cho'kishi bilan izohlanadi. Yanada to'g'riroq qilib aytadigan bo'lsak, migratsiya muammosi liberal qadriyatlarning cho'kish davriga to'g'ri kelib qoldi. Bizning nazarimizda, bugungi kunda Yevropada ikki bir-biriga qarama qarshi tendensiya hukm surmoqda. Birinchisi, liberal-demokratik qadriyatlarni rivojlantirish va globalizatsiya davrida uni yanada kuchaytirish va uchinchi dunyo davlatlariga yoyish. Ikkinchisi, ushbu harakatlarga qarshi milliy davlatchilikni kuchaytirish, konservativ va millatchilik qadriyatlarni qayta tiklash harakatlari hisoblanadi. Bugun dunyoda erkin tijorat prinsiplariga asoslangan liberal qarashlar kuchli qarshilikga uchramoqda. 2008 - yildagi moliviyyi inqirozlar Yevropada ijtimoiy farovonlikka o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ishsizlik ortdi va bir qator ijtimoiy-siyosiy muammolar o'rtaga chiqdi. Ushbu holatda migrantlar mahalliy aholining ko'zlariga "ortiqcha yuk"

bo‘lib ko‘rina boshlandi. Vaholanki, ushbu immigrantlarning aksariyati Ikkinchiji jahon urushidan keyin ishchi kuchi talabini qondirish uchun kelgandi va ko‘plab Yevropa davlatlarining iqtisodiy rivojlanishida muhim rol uynagandi. Bugungi kunda migrantlarning ishsizlikning sababchisi sifatida ko‘rishi ham asossizdir. Germaniyada masalan, 2017-yilda migratsiya inqirozi davri bo‘lishiga qaramay ishsizlik 3,6%ga tushgan. Muammo migrantlar emas, balki muammo liberal qadriyatlarning cho‘kishiga sabab bo‘layotgan kapitalistik dunyo tizimidagi o‘zgarishlar bo‘lib qolmoqda. Bu o‘zgarishlar Yevropa davlatlarida shaxsiy iste’molni ustun qo‘yuvchi postmodern jamiyatga o‘tish bilan belgilanmoqda. Shu bois ham, bir paytlar Yevropada integratsiyani ilgari surib chiqqanlar, bugun mobillikka qarshi chiqmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Yevropa bugun ko‘pmadaniyatli bir jamiyat oldida uni jamiyat bilan integratsiyalashuvini ta’minlashda katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ustiga ustak qochoqlar oqimi YEIda unga qarshi bo‘lgan harakatlarni kuchaytirmoqda. Amaldagi hukumatlarning migratsiya masalasidagi choraszliklari, hamda boshqa bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolar o‘ta o‘ng harakatlarning kuchlanishiga sabab bo‘lmoqda. YEIni migrantlar uchun ahamiyati faqat moddiy jihat bilan belgilanmaydi balki, yashash sharoitlarining yaxshiligi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va erkinlik hali ham migrantlar uchun jozibador bo‘lib qolmoqda. Biroq, YEIda bugungi kunda antimigrant harakatlarning kuchayishi, migrantlarga nisbatan bosimni ortishi YEIning jozibadorliklarini yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Bu albatta, bиргина migrantlarning kamayishiga emas, balki bir qancha gumanitar, iqtisodiy va siyosiy muammolarning kelib chiqishiga olib kelishi mumkin, deb o‘ylaymiz. Shu bois, migrantlar va qochoqlar borasida mukammal xalqaro huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga kiritish hamda, migrantlar bilan integratsiyaning turli shakllarini ishlab chiqish va tadbiq qilish kabi ilmiy va amaliy ishlarni ko‘paytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb fikr yuritamiz. Bu say-harakatlar migratsiyani siyosiyashmasligiga va o‘ta o‘ng ko‘rinishdagi partiya va harakatlarning vositasiga aylanmasligiga o‘z hissasini qo‘shtagan bo‘lar edi, deb o‘ylaymiz.

Adabiyotlar

1. International Migration Report . 2017. Op cit.
2. International Migration Report 2015. UN. http://www.un.org/en/_development/desa/population/migration/publications/migrationreport/docs/MigrationReport2015_HIGHLIGHTS.pdf.
3. Europe and nationalism: A country-by-country guide // <https://www.bbc.com/news/world-europe-36130006>
4. Пример Баварии предложил остановит миграцию с Ближнего Востока // Актуально в Германии: [хттп://www.rusverlag.de](http://www.rusverlag.de) 11.10.2010.
5. Germaniya: v chyom oshiblas Angela Merkel? // <http://alleuropalux.org/?p=13344>.
6. “Germany unemployment rate”, <https://countreconomy.com/unemployment/germany>

УДК: 316

ЭВРИСТИЧЕСКОЕ ПОНИМАНИЕ ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ В СОЦИОЛОГИЧЕСКОЙ НАУКЕ

А.С.Гонашвили

Санкт-Петербургский государственный университет

E-mail:gon.01.07.94@yandex.ru

Аннотация. Комплексные и противоречивые процессы общественного разделения труда, глобализация капитализма, рост социальной и профессиональной мобильности, а также технологическое и институциональное развитие стимулировали исследовательский интерес к ценностным ориентациям и их социальной структуре. По мере усиления социологических исследований в социологии растет внимание к рассмотрению и анализу сферы ценностей, ценностных установок и ценностных ориентаций. В результате автор пришел к выводу, что система ценностных ориентаций содержит в себе различные группы ценностей, которые в свою очередь образуют внутреннее ядро культуры личности и культуры общества. Таким образом, в социологическом ракурсе роль ценностных ориентаций выступает в жизнедеятельности человека одним из важных средств выбора поведения людей. В социологии при изучении

ценностных ориентаций личности упор делается на влияние социальных установок общества и внутренних мотивов поведения личности.

Ключевые слова: ценностные ориентации, ценностные установки, мотив жизнедеятельности, социальные установки, отечественный подход.

Sotsiologiya fanida qiymat yo'nalishlarining evristik tushunchasi

Annotasiya. Ijtimoiy mehnatni taqsimlash, kapitalizmning globallashuvi, ijtimoiy va kasbiy mobillikning o'sishi, shuningdek, texnologik va institutsional rivojlanish kompleks va ziddiyatlari jarayonlar qiymat yo'nalishlariga va ularning ijtimoiy tuzilishiga qiziqish uyg'otdi. Sotsiologiyada ijtimoiy tadqiqotlar kuchayib borayotganligi sababli, qadriyatlar, qadriyatlar va qiymat yo'nalishlarini ko'rib chiqish va tahlil qilishga e'tibor qaratilmoqda. Natijada, muallif, qiymat yo'nalishi tizimi turli xil qadriyatlar guruhlarini o'z ichiga olgan degan xulosaga keldi, bu esa o'znavbatida shaxsiyat va jamiyat madaniyatining ichki yadrosini tashkiletadi. Shunday qilib, ijtimoiy nuqtai nazardan, qiymat yo'nalishlarining roli inson hayotida odamlarning xulq-atvorini tanlashning muhim vositalaridan biridir. Sosyologiyada, shaxsning qiymat yo'nalishlarini o'rganishda, jamiyatning ijtimoiy munosabatlarining ta'siri va shaxsiy xatti-harakatlarning ichki sabablari e'tiborga olinadi.

Kalit so'zlar: qiymat yo'nalishlari, qiymat nuqtai nazarlari, hayotiy faoliyatning sabablari, ijtimoiy munosabatlar, mahalliy yondashuv

Heuristic understanding of value orientations in sociology

Abstract. The complex and contradictory processes of social division of labor, the globalization of capitalism, the growth of social and professional mobility, as well as technological and institutional development stimulated research interest in value orientations and their social structure. As a result, the author came to the conclusion that the system of value orientations contains various groups of values, which in turn form the inner core of the culture of the individual and the culture of society. Thus, in the sociological perspective, the role of value orientations appears to be one of the important means of choosing people's behavior in human life. In sociology, when studying the value orientations of an individual, emphasis is placed on the influence of social attitudes of society and the internal motives of a person's behavior.

Keywords: value orientations, values, motive of life, social attitudes, domestic approach.

Введение. Ценностное отношение есть одна из сторон человеческой жизнедеятельности наряду с познавательными и практическими отношениями. Это отношение существует объективно в том смысле, что оно содержится в человеческой природе независимо от того, хотим мы этого или нет. Но оно субъективно в том смысле, что средством осуществления этого отношения является человеческое сознание (точнее, его способность к оценке). Однако оценка не будет являться тождественной ценности. Оценка это умственный акт оценочного отношения, зависимого от свойства предмета. Ценность же в отличие от оценки всегда является положительной, отрицательной ценности нет как таковой в природе. Однако существуют разные культуры, разные мировоззрения. Отсюда скажем, что для некоторых велика ценность каннибализма, но есть те, для кого он не обладает ценностью. Ценность предполагает особое отношение к объекту, отличное от познавательного, ценность есть предмет оценки, однако в результате оценки предмет может быть отнесен либо к ценности, либо не к ценности.

Появление ценностей является продуктом общественной жизнедеятельности. Формирование ценностей личности напрямую связано с устройством общества, в котором проживает данная личность. Ценности, в первую очередь являются продуктом общественных отношений, продуктом взаимодействия и взаимовлияния людей друг на друга. Именно общество формирует набор ценностей, которыми руководствуется тот или иной индивид. Мышление человека таково (и в ценностно-оценочной части), что все его формы социально опосредованы. Никто не приобретает мышление без контакта с другими людьми, хотя, как способность мышление является врожденным качеством. Однако пользуются мышлением люди индивидуально, т.е. на основе опыта конкретной личности. Это касается всех функций и сторон мышления, в том числе и способности ценностного отношения к миру. Поэтому, ценности представляются как внешние (общественные) конструкции, которые осваиваются индивидами (по-разному).

Эксперимент. Определения ценностей тесно связано с категорией «ценностные ориентации» (Гегер, Гегер, 2015: 13-17; Власова, 2018: 54-57). Важно, что ценностные ориентации используются для анализа личности. Также ценностные ориентации являются мировоззренческими комплексами, они (ценностные ориентации) более устойчивы, чем отдельные ценности и играют более значимую роль в жизнедеятельности человека. Стоит подчеркнуть, что ценностные ориентации имеют эвристические преимущества, ввиду их большей определенности и верифицируемости. В социологии понятие «ценность», как правило, используется для изучения личности в контексте анализа социальных отношений и институтов (Брагина, 2018: 648-652; Гонашвили, 2015: 43-47). А.А. Максименко в статье «Социологическая интерпретация понятия «ценность»» отмечает, что система социальных отношений базируется на основании конвенциональных (договоренных) и легитимных (одобренных) социальных ценностей, которые служат для обеспечения интеграции и адаптации индивида или социальной группы, тем самым способствуя поддержанию социального порядка. А.А. Максименко отмечает, что: «*Ценности выступают как основа связей между социальной системой и системой личности, они влияют на формирование мотивации социального действия, имеют нормативную и регулятивную функцию*» (Максименко, 2011: 287). Социальные ценности с позиций социологии отражают социализирующую функцию, так как они передаются в культурных образцах в социальной системе того или иного общества.

Результаты и их обсуждение. Культурные образцы, через которые передаются ценности, являются исторически устоявшимися и социально легитимными. В них отражены одобренные ценности той или иной группы людей. Одобрение или легитимация ценностей рассматривается в виде одного из ключевых механизмов воспроизведения социальной системы и ее упорядочивания. Так, например, «*Институционализация ценностных ориентаций, по мнению Т. Парсонса, является наиболее оптимальным средством социальных изменений и, в частности, социального реформирования*» (Максименко, 2011: 287). Рассматривая функции ценностей в обществе, следует отметить, что ценности являются предпосылкой выбора действия из эталонных переменных, благодаря чему, формируется модель поведения. Другими словами, поведение детерминировано ценностями, хотя в обществе существует большое количество различных ценностных образцов. Индивид в процессе выбора модели своего поведения одновременно может придерживаться различного рода ценностей. Другими словами, при принятии конкретного решения внутри индивида сталкиваются различного рода ценности, например, общественные и личностные. Деятельность того или иного индивида есть результат выбора культурного образца, состоящего из типичных переменных.

Т. Парсонс выделяет пять типичных переменных: «*1. Аффективность – аффективная нейтральность. 2. Ориентация на себя – ориентация на колектив. 3. Универсализм – партикуляризм. 4. Специфичность – диффузность. 5. Первая переменная – применяется чтобы определить, имеет ли место оценивание в данной ситуации. Вторая – преобладают ли моральные эталоны в процессе оценивания. Третья – преобладают ли познавательные или катексические эталоны. Четвертая – подходит ли к объектам как комплексам качеств или деятельности. Пятая – степень значимости объекта*

Т. Парсонсом выделяется три вида ценностных ориентаций: «*а) когнитивная (познавательная) ориентация опирается на нормы, усвоенные индивидом в процессе социализации; б) эмоциональная ориентация предполагает эмоциональную оценку значимости того или иного объекта для удовлетворения потребности на основе оценочных стандартов; в) моральная ориентация осуществляет синтез ранее вынесенных суждений о способе действия. Она, по Парсонсу, является своего рода «высшим апелляционным судом», выносящим вердикт о направленности действия в контексте сложившихся моральных стандартов*» (Кравченко, 2014: 533).

Помимо личностного уровня Т. Парсонс рассматривает также ценности на общественном уровне теоретико-методологического осмыслиения. Он обособляет два вектора ориентаций социальных систем: 1. Внешний или внутренний; 2. Потребительский (консуматорный) или инструментальный. В процессе интерференции данных векторов Т. Парсонс выделяет четыре функциональных предварительных условия (пререквизитов), а

именно необходимые функции для воспроизведения социальной системы. У Т. Парсонса данная схема именуется: «AGIL» (адаптация, целеполагание, интеграция, латентный образ), «категория адаптации и целедостижения во внешней ориентации системы и интеграции и поддержания латентных образцов во внутренней» (Максименко, 2011: 288).

Т. Парсонс сочетает типовые ценностные ориентации и функциональные предварительные условия, что дает в итоге следующие характеристики: 1. В условиях специфичности и диффузности устанавливают потребность приспособление системы; 2. В условиях аффективности, аффективная нейтральность характеризуетсяteleологией (целедостижением) системы; 3. В условиях диффузности, разобщенность связана с законами интеграции; 4. В результативности проявляется связь с функциональным предварительным условием латентности, включающим в себя две обязательные необходимости: «1) поддержания стандартов – сохранение форм организации посредством поддержания культурных образцов; 2) управления напряжением, то есть, снятие напряжения разрядки» (Максименко, 2011: 288).

В рамках методологии структурно-функционального подхода, акцент делается на изучении детерминированности социального действия ценностно-нормативной системой общества. Сознание индивида и его поведение основывается на различных уровнях усвоения ценностей и норм, структурно ранжированных от макро- к мезо- и микроуровню социальной действительности. Ценности проходят отбор через процессы принятия или отвержения ценностей и норм предлагаемых окружающими структурами, а их верификация происходит посредством изучения ценностных ориентаций личности. Ценностные ориентации выступают результатом оценки индивидом того или иного объекта через призму общественно легитимных норм, также эмоционального окраса оценки личности для удовлетворения своих потребностей и моральной оценки личности, складывающейся через синтез легитимных норм и эмоционального составляющего индивида. Другими словами, общество предлагает индивидам определенные шаблоны поведения, включающие в себя различные нормы. Индивиду остается лишь выбрать из предлагаемых шаблонов подходящий к его жизнедеятельности образец.

Отечественные социологи советского периода внесли значительный вклад в изучение ценностных ориентаций личности на примере эмпирических исследований. Важнейшую роль в их теоретическом обосновании сыграли труды В.А. Ядова, А.Г. Здравомыслова, Г.М. Андреевой, В.П. Тугаринова, О.Г. Дробницкого и других. Им было характерно связывать изучение ценностных ориентаций с «исследованием потребностей личности, их типологизацией и изменением во времени, а также в среде разных социальных групп и общностей» (Здравомыслов, 1965: 199).

В работах отечественных авторов делается акцент на изучении ценностных ориентаций личности. Именно ценностные ориентации личности ставятся во главу угла при изучении общественной жизнедеятельности. «Под ценностными ориентациями В.А. Ядов и А.Г. Здравомыслов понимали установку личности на те или иные ценности материальной и духовной культуры общества... Это тот компонент структуры личности, который представляет собой некоторую ось сознания, вокруг которой врачаются помыслы и чувства человека и с точки зрения которой решаются многие жизненные вопросы» (Ядов, 1975: 95). По их мнению, ценностные ориентации личности должны быть вписаны в теоретико-методологические принципы изучения мотивационной структуры, в которой исходные мотивы деятельности выстраиваются в иерархическую последовательность: потребности – интересы – ценности. В процессе преобразования интересов в ценности происходит изменение предмета самих отношений. «В этом случае главным является представление о назначении человека, то есть то поведение, в котором происходит самоутверждение, самореализация личности» (Ядов, 1991: 154-167).

В.А. Ядов в процессе изучения ценностных ориентаций создал диспозиционную концепцию регуляции поведения личности. Главный тезис данной концепции состоит в том, что в личности содержится структура различных диспозиционных образований, регулирующих деятельность данной личности. «Диспозиции представляют собой различные состояния предрасположенности или предуготовленной человека к восприятию условий деятельности (ситуаций), его поведенческих готовностей, направляющих деятельность» (Ядов, 1975: 95). Данная диспозиция в процессе взаимодействия мотивов личности в условиях определенной внешней среды выступает формой социального регулирования поведения людей. В

социологическом ракурсе особый интерес представляет изучение поведения личности и ее установок в качестве предпосылки к деятельности. Последнее характеризуется ценностными ориентациями, а общая направленность ценностных ориентаций, следуя логике В.А. Ядова, «образуют «целостную подструктуру» диспозиционной системы личности; а «баланс» направленности интересов на труд и досуг выполняет роль внутреннего ядра ценностно-ориентированной системы личности и в этом качестве служит ведущей характеристикой ее общей жизненной позиции» (Ядов, 1991: 154-167). С позиции В.А. Ядова, социальные установки вплотную связаны с ценностными ориентациями, однако установки отличаются от ценностных ориентаций тем, что количество установок в разы больше чем ценностных ориентаций. Ценностные ориентации являются наиболее универсальными, в отличие от установок. Они выступают внутренним содержанием действий развивающейся личности, в которой, помимо ценностных ориентаций содержатся также интересы, намерения, склонности, идеалы, мировоззрение и т.п. Ценностные ориентации выступают определяющими для социальных установок личности.

Заключения. Подводя итог, следует отметить, что под ценностными ориентациями в отечественной социологии, как парило, понимается «сложный социально-психологический феномен, характеризующий направленность и содержание активности личности, являющейся составной частью системы отношений личности, определяющий общий подход человека к миру, к себе, придающий смысл и направление личностным позициям, поведению, поступкам. Система ценностных ориентаций выражает внутреннюю основу отношений личности с действительностью» (Нагоева, 2011: 289). Ценностные ориентации выступают как социальная система норм и мотивов поведения той или иной личности. Система ценностных ориентаций содержит в себе различные группы ценностей, которые, в свою очередь образуют внутреннее ядро культуры личности и культуры общества. Таким образом, в социологическом ракурсе роль ценностных ориентаций выступает в жизнедеятельности человека одним из важных качеств выбора поведения людей. В социологии при изучении ценностных ориентаций личности упор делается на влияние социальных установок общества и внутренних мотивов поведения индивидов. «Усвоение ценностей и норм, выработка системы ценностных ориентаций на уровне личности составляет необходимую основу формирования личности и поддержания нормативного порядка в обществе» (Сурина, 2005: 164). Таким образом, можно сказать, что ядро сложной структуры личности содержит в себе общественные нормы и личностные установки, которые определяют действия индивида в конкретных социальных ситуациях жизнедеятельности. Ценностные ориентации занимают промежуточное положение между социальной нормой и личностной установкой, так как они разделяют значимость того или иного объекта или явления для личности. Вместе с тем, ценностные ориентации являются общими и в тоже время конкретными социальными конструктами, которые могут быть четко сформулированы и исследованы посредством методов социологии. Система ценностных ориентаций содержит в себе различные группы ценностей, которые в свою очередь образуют внутреннее ядро культуры личности и культуры общества. Таким образом, в социологическом ракурсе роль ценностных ориентаций выступает в жизнедеятельности человека одним из важных средств выбора поведения людей. В социологии при изучении ценностных ориентаций личности упор делается на влияние социальных установок общества и внутренних мотивов поведения личности. В результате, можно сказать, что ядро сложной структуры личности содержит в себе общественные нормы и личностные установки, которые определяют действия индивида в конкретных социальных ситуациях жизнедеятельности.

Литература

- Брагина М.Л. (2018). Понятие "ценностные ориентации" в социологии. *Синергия наук № 26.* – 648-652 с.
- Власова И.Р. (2018). Характеристика подходов к ценностным ориентациям. *Академическая публицистика №9.* – 54-57 с.
- Гегер А. Э., Гегер С. А. (2015). Изучение ценностных ориентаций: специфика разных подходов. *Вестн. Том. гос. ун-та. №399.* С. 13-17.

4. Гонашвили А.С. (2015). Ценности профессионального спорта в представлениях жителей Санкт-Петербурга и Ленинградской области. *Общество: социология, психология, педагогика*. —43-47 с.
5. Здравомыслов А.Г., Ядов В.А. (1965). *Отношение к труду и ценностные ориентации личности*. В кн.: *Социология в СССР*. М.: Мысль Т.2. 1965. – 189-208 с.
6. Максименко А.А. (2011). Социологическая интерпретация понятия «Ценность». *Вестник КГУ им. Н.А. Некрасова*. №2. –284-291 с.
7. Нагоева Л. Х. (2011). Ценностные ориентации: понятие и феномен. *Новые технологии*. №4. – 286-289.
8. Парсонс Т. (2002). *О структуре социального действия*. – М.: Академический проект, 2002. – 880 с.
9. Сурина И.А. (2005). Ценностные ориентации. *Знание. Понимание. Умение*. №4. М. – 162-164 с.
10. Кравченко С. А. (2014). *Социология. В 2 т. Т. 1. Классические теории через призму социологического воображения* : учебник для академического бакалавриата / С. А. Кравченко. — М. : Издательство Юрайт.— 584 с.
11. Ядов В.А. (1991). Ценности в кризисном социуме. *Психолог. Журн.* – 1991. – №6. – С. 154-167.
12. Ядов В.А. (1975). О диспозиционной регуляции социального поведения личности. *Методолг. Проблемы соц. психологии*. – М., 1975. – С. 95.

UDK: 301.33(575.1)

**MADANIY MEROSNING TIKLANISH NEGIZIDA
MILLIY MENTALITET O'ZGARISHI
T.Qurbanov**

QarDU huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi

Annotatsiya. Maqlada mamlakatimizda insonparvar, demokratik jamiyat qurilishi avj olgan hozirgi sharoitda yoshlarda milliy g'ururni shakllantirish jarayonini jadallashtirish zarurligi va unda asosan milliy-madaniy merosning rolini oshirish masalalari, shuningdek, madaniy merosning tiklanish negizida milliy mentalitetdagi o'zgarishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: *madaniy meros, milliy ong, milliy g'urur, milliy mentalitet, milliy urf-odatlar, rasm-rusumlar, bayramu-sayillar, marosimlar, tarixiy ong, faxr, iftixon.*

Изменения национального менталитета на основе возрождения культурного наследия

Аннотация. В статье освещаются вопросы повышения роли национально-культурного наследия, рассматриваются изменения в национальном менталитете на основе возрождения культурного наследия, а также отмечается о необходимости ускорения процесса формирования национальной гордости у молодёжи в нынешних условиях построения гуманного, демократического общества.

Ключевые слова: культурное наследие, национальное сознание, национальная гордость, национальный менталитет, национальные традиции, обычаи, праздники - народные гулянья, церемония, историческое сознание, гордость, почёт

Changes of national mentality on the base of national heritage recreation

Abstract. In the article it is enlightened the need for hastening the process of formation national pride in youth in the current state of the highest point of constructing democratic and humanitarian society in our country and the problems of increasing mainly the role of national-cultural heritage in it, besides the changes in national mentality on the base of creating cultural heritage.

Keywords: cultural heritage, national intellect, national pride, national mentality, national customs and traditions, holidays, ceremonies, historical intellect, pride.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi “Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezu maqsadlarimizga yetishda

tayanchimiz va suyanchimizdir” nutqida ta’kidlaganidek, “... yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzARB ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi”. “Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib...” tarbiyalashda madaniy merosning o‘rni beqiyosdir. Mamlakatimiz modernizatsiya qilinayotgan, jamiyatimiz demokratlashtirilayotgan bir sharoitda yigit va qizlarimizda milliy g‘ururni shakllantirishda ajdodlar yaratgan madaniy merosdan oqilona foydalanish uchun real imkoniyat vujudga keldi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobida e’tirof etganidek, - “Tarix haqiqati shuni ko‘rsatadiki, tomirida milliy g‘urur, Vatan ishqisi jo‘sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi. Biz shunday ma’naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimiz-ning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko‘zimizni, qallbimizni yashnatib tursin”. Mamlakatimizda sodir bo‘layotgan yirik ijtimoiy o‘zgarishlarni yanada jadallashtirmoq, yoshlarning bunday inqilobi o‘zgarishlarga ishtiroklarini faollashtirmoq uchun, eng avvalo, ularning milliy ongida tub sifatiy burilish yasamoq zarur. Chunki milliy ong qancha tez rivojlansa, inson o‘zini o‘zi ko‘proq anglaydi, jamiyatda, jamoada, oilada tutgan o‘rnini yanada tiniqroq tasavvur qiladi. Bir ibora bilan aytganda, o‘zining qadr-qimmatini tushunib yetadi, ya’ni milliy g‘ururi uyg‘onadi. Bunday murakkab ijtimoiy jarayonlar haqida to‘laroq tasavvurga ega bo‘lmoq uchun milliy ong va milliy g‘urur orasidagi dialektik aloqadorlikni, unda asosan milliy-madaniy merosning rolini oshirish masalalari, shuningdek, madaniy merosning tiklanish negizida milliy mentalitetdagi o‘zgarishlarmexaniz-mini chuqur tahlil qilmoq darkor. Madaniy meros millatning tarixiy taraqqiyot jarayonini ifodalovchi murakkab ijtimoiy-madaniy uyushmadir. Madaniy meros har bir xalqning, har bir millatning o‘tmishini nafaqat bugun balki kelajak bilan ham bog‘laydigan, ularni bir butun yaxlit jarayon sifatida namoyon qiladigan eng muhim qudratdir. U xalqning, millatning o‘ziga xos milliy xususiyatlarini bilib olish uchun yirik manba vazifasini bajaradi. Madaniy meros millat ma’naviyatini to‘la tasavvur qilishda muhim ahamiyatga egadir. Madaniy merosning ajdodlardan avlodlarga o‘tib turishini ta‘minlovchi vositalar-dan biri milliy urf-odatlar, rasm-rusumlar, bayramu-sayillar, marosim-lar, ya’ni milliy-madaniy an‘analardir. Xuddi shu milliy-madaniy an‘analar yordamida bir avlod to‘plagan madaniy meros ikkinchi avlodga uzatiladi. Bu hodisa o‘z navbatida milliy vorislikni shakllantiradi. Shuning uchun ham madaniy meros ajdodlar bilan avlodlar o‘rtasida ishonchli ko‘prik vazifasini bajaradi. Shuningdek, madaniy meros xalqning, millatning tarixiy ongi, uning qadr-qimmati, umuminsoniy qadriyatlar xazinasiga qo‘sghan hissasidir. Insoniyat bosib o‘tgan tarixiy taraqqiyot tajribasidan bizga yaxshi ma’lumki, qaysi davlat, qaysi millat o‘z madaniy merosini qadrlasa, e’zozlasa, o‘zida mayjud bo‘lgan milliy-madaniy an‘analar, tarixiy obidalar, arxitektura yodgorliklarini ardoqlashga fuqarolarni da‘vat etsa, moddiy-ma’naviy boyliklarni yaratgan kishilarga nisbatan hurmat ruhini shakllantirsa, o‘sha davlat, o‘sha jamiyatda madaniy-ma’naviy, iqtisodiy-siyosiy barqarorlik hukm surgan. Ajdodlar va avlodlar mehnatini qadrlamagan, millatning faxri, iftixori bo‘lgan buyuk olimlar, shoirlar, yozuvchilar, rassomlar, san’atkorlarning say-harakati tufayli yaratilgan madaniy merosni unutgan mamlakat fuqarolari farovon yashay olmaydi. Bunday yurtda kishilar ijtimoiy qiyofasida ma’naviy qashshoqlik hukmron bo‘ladi. Milliy-madaniy merosni ulug‘lash, uni har tomonlama o‘rganish mamlakatimizning har bir fuqarosi, ayniqsa, jamiyatimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarda milliy ong, milliy g‘ururni shakllantirishga munosib hissa qo‘sadi. Yoshlarga ajdodlarimizdan qolgan madaniy merosga muhabbat, xususan, milliy urf-odatlarimiz, rasm-rusumlarimiz, bayramu-sayillarimizga sadoqat, yaratilgan buyuk arxitektura yodgorliklari, turli tarixiy obidalarga hurmat tuyg‘usini shakllantirmoq uchun bugungi yigit-qizlarga insonning o‘zi buyuk qadriyat ekanligini, insonparvar, demokratik jamiyat sharoitida butun jamiyat, butun davlat insonga xizmat qilishi zarurligini, har qanday qonun, har qanday qoida yoki nizom insonni e’zozlashga qaratilganligini ishonarli dalillar, ilmiy manbalar, o‘tmishning achchiq tajribasini har tomonlama tahlil qilish yordamida tushuntirib berilishi zarur. Sobiq sho‘ro davrida milliy-madaniy merosga bo‘lgan humatsizlikni tushuntirib berish, bu borada amalga oshirilgan siyosatni fosh etish insonparvar, demokratik jamiyat talabidir.

Sovet hokimiyati yillarida Markaziy Osiyoda oliy ta’limning asosi ToshDUdan boshlanadi, deb ayyuhannos solindi. Axir Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston hududida qadimda ilm o‘choqlari

bo‘lmasa, Al-Farg‘oniy, Al-Beruniy, Al-Farobi, Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk allomalar qayerdan paydo bo‘lar edi? Qadimgi Turonda oliv ta’lim 1200 yildan ortiq tarixga ega. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo‘qon, G‘ijduvon va boshqa shaharlarda saqlanib qolgan qadimiy madrasalarning xarobalari fikrimizning isbotidir. Fuqarolarni, ayniqsa, yoshlarni millat, xalq tarixidan yiroqroq tutish, unga nisbatan befarq, loqayd bo‘lish kayfiyatini shakllantirish uchun tarixiy haqiqat buzib ko‘rsatildi, soxtalashtirildi. Tarixiy shaxslarga, buyuk davlat arboblari, sarkardalarga nisbatan turli bo‘htonlar, ig‘volar uyushtirildi. Bunday holatni Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Husayn Boyqaro kabi buyuk davlat arbabolari, Spitamen, To‘maris, Jaloliddin Manguberdi, Muqanna kabi buyuk lashkarboshilar, so‘fizm va uning g‘oyaviy-nazariy asosi bo‘lgan tasavvufga, jadidchilik va “bosmachilik” deb nomlangan ijtimoiy-siyosiy harakatlarga berilgan baholarda, munosabatlarda yaqqol ko‘rish mumkin. Jahon falsafiy tafakkuri xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan G‘azzoliy, G‘ijduvoniy, Kubro, Yassaviy, Naqshbandiy, Aziziddin Nasafiy, Rumiy, Bedil, Olloyor kabi buyuk musulmon faylasuflarining falsafiy merosini o‘rganishga ko‘p yillar e’tibor berilmadi. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobida e’tirof etilganidek, “Sovet mafkurasi hukmron bo‘lgan zamonalarda bu haqda so‘z ochish, qo‘hna va boy tariximizga bunday munosabatda bo‘lish “tarixni ideallashtirish” deb tanqid qilinib, tazyiq o‘tkazib kelganini o‘sha davrlarni boshidan kechirgan, kommunis-tik mafkura jabrini tortgan yoshi ulug‘ adiblarimiz albatta yaxshi eslaydilar”. O‘zbek davlatchiligi tarixi ataylab soxtalashtirildi. Go‘yoki o‘zbek davlatchiligi XX asrning 20-yillarida paydo bo‘lgan emish. Aslida o‘zbek milliy davlatchiligi, xususan Xorazm davlati 2700 yillik tarixga egaligi tarixiy haqiqatdir. Tajribadan ma’lumki, tarixiy haqiqat bitta bo‘ladi, lekin uning talqini har xil bo‘lishi mumkin. Xuddi shuning uchun ham mamlakatimizda insonparvar, demokratik jamiyat qurilishi avj olgan hozirgi sharoitda yoshlarda milliy g‘ururni shakllantirish jarayonini jadallashtirishda milliy-madaniy merosning rolini oshirishning eng muhim sharti tarixiy haqiqatni tiklashdir. Boshqacha aytganimizda, biz haqqoni tarixni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ta‘kidlanganidek, “...o‘sib kelayotgan avlodga, uning ma’-naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi. Nega deganda, yoshtar xalq ma’naviyatining munosib egalari-dir. Shuning uchun har bir o‘g‘il-qizimiz dastlabki qadamlaridan boshlab madaniy boyliklarimizdan bahramand bo‘lishi kerak”.

Adabiyotlar

1. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi PF-4947 sonli Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshtar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir. “Kamolot” yoshtar ijtimoiy harakatining IV qurul-toyidagi nutqi. O‘zbekiston ovozi. 2017-yil. 1-iyul.
3. Mirziyoyev Sh.M. - O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiysi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagisi ma’ruzasi. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 48 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- Toshkent. //Xalq so‘zi. 2017-yil 23-dekabr. (2017-yil 22-dekabr).
5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 102b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
7. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008. –176 b.
8. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng olyi saodatdir. –T.: O‘zbekiston, 2015. – 302 b.
9. Xonazarov Q. Milliy mentalitet – taraqqiyot omili. // Muloqot.-2000-, №3.-,B.3.
10. Bekmurodov M. O‘zbek mentaliteti. – Toshkent, 2001. - 95 b.

UDK:434.3

**O'ZBEKCHA DINIY MATN: FUNKSIONAL-STILISTIK
TADQIQ MUAMMOLARI**
Sh.Omonturdiyeva
Termiz davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilining funksional uslubi va uning ko'rinishlari, o'zbek tilida diniy uslubning mavjudligini lingvostistik jihatdan tadqiq etishning ahamiyati, bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, mavjud muammolar, yechimi kutayotgan masalalar xususida ilmynazariy fikrlar bildirilgan. Diniy matnlarning lingvistik aspektida o'rganilishi, uning o'zbek tili funksional uslublari orasida tutgan o'rnini belgilashga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: matn, stilistika, funksional-stilistika, lingvostistik, diniy uslub, ekzotik leksika, podstil, semantik-stilistik, vaqf xujjatlari, tafsirlar.

Узбекский религиозный текст: проблемы функционально-стилистического исследования

Аннотация. В статье обсуждены научно-теоретические соображения о функциональных стилях и его видах, сущности исследования религиозного стиля в узбекском языке с лингводидактической точки зрения. В аспекте лингвистического изучения религиозных текстов, о роли среди функциональных стилях узбекского языка, даны научно-практические рекомендации.

Ключевые слова: текст, стилистика, функциональная стилистика, лингвостилистика, религиозный стиль, экзотическая лексика, подстиль, семантическая стилистика, рекомендации.

Uzbek religious text: problems of functional stylistics research

Abstract. The article outlines the functional style of the Uzbek language and its features, the importance of linguistic study of religious practices in Uzbek language, scientific research on this subject, current problems, and scientific and theoretical concepts about pending issues. Scientifically-practical recommendations on the study of religious texts in the linguistic aspect, the role of the Uzbek language among its functional methods are given.

Keywords: text, stylistics, functional-stylistics, linguistics, religious style, exotic lexicon, podstyle, semantic-stylistic, foundation documents, interpretations.

O'tgan chorak asrdan ziyod vaqt mobaynida mustaqillik sharoitida yashayotgan O'zbekiston Respublikasi suveren davlat sifatida ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda, ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni jalb etishda ulkan islohotlarni amalga oshirmoqda va erishligan yutuqlar dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda.

Ijtimoiy hayotimizda yuz berayotgan o'zgarishlar tilimizda aks etishi tabiiy bir hol bo'lgani kabi, keng ko'lamli o'zgarishlar tilimizning nafaqat ichki va tashqi manbalar hisobiga boyib borishiga, balki uning funksional differensiallashuviga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Til muammolarini tadqiq etish shu qadar murakkabki, uning ba'zi jihatlari haqida kuzatishlar olib borish, fikr-mulohazalar bayon etish, xohlaymizmi-xohlamaymizmi, mafkura va siyosatga borib taqaladi.

Ma'lumki, turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi ham necha asrlardan buyon islom dinini qabul qilib, unga e'tiqod qo'yib, o'z hayotlarini shu din ta'limoti va aqidalariga tayangan holda davom ettirib kelmoqdalar. Ammo o'tgan asrdagi mustabid davrning hukmron g'oyasi bo'lgan kommunistik qarash har qanday dinni, jumladan islom dinini ham qat'yan inkor qilgan edi. Faqat inkor qilgangina emas, balki uning faoliyatini sobiq Ittifoq hududida taqiqlagan, u kommunistik mafkuraning dushmani deb e'lon qilingan edi. Natijada o'zbek xalqi bu hududda yashaydigan boshqa musulmon xalqlari qatori o'tgan asrda deyarli diniy e'tiqoddan uzoq yashab keldilar. Bu esa, o'z navbatida, ushbu ta'limotga oid matnlarning lingvistik tadqiqiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi.

O'zbek tili keyingi o'n yilliklarda funksional aspektida keng ko'lamda o'rganildi. Nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi, bir necha monografiya va o'quv qo'llanmalari yozildi, xullas, o'zbek tilshunosligining bu yo'nalishini ta'lim jarayoniga tatbiq etish uchun anchagini xayrli ishlar amalga oshirildi. Funksional uslublardan beshtasi – ilmiy, rasmiy, ommabop, badiiy, so'zlashuv

uslublari va ularning me'yoriy xususiyatlari, til materiali sifatidagi hamda nutq jarayonidagi o'ziga xosliklari o'zbek tilshunosligida monografik yo'nalihsda o'rghanildi [14; 13; 11; 2; 9; 8].

"Har bir funksional uslub doirasidagi og'zaki yoki yozma ko'rinishlar, har bir uslub qamroviga kiramidan tarmoqlar va janrlar ham o'z navbatida alohida uslubiy xususiyatlarga ega bo'lsada, ularni ana shu beshta funksional uslub fonida o'rghanish maqsadga muvofiq bo'ladi. – deb yozadi S.Karimov. – Jamiyat taraqqiy etagani sari bu uslublar nafaqat sifat jihatdan takomillashib boradi, balki ularning miqdori ortishi ham ehtimoldan xoli emas" [7,11].

Agar o'zbek tilidagi funksional uslublarga doir qarashlar umumlashtiriladigan bo'lsa, uslublar dastlab og'zaki va yozma shakllarga, ularni yana, o'z navbatida, ilmiy, rasmiy, publisistik, badiiy, diniy va so'zlashuv kabi ko'rinishlarga ajratish haqida qarashlar mavjudligi ma'lum bo'ladi. Ammo diniy uslub o'zbek tilida haqiqatdan mavjudmi, agar mavjud bo'lsa, uning lingvostistik xususiyatlari nimalardan iborat, degan masala hozircha tadqiq etilgan emas [6,39-41].

Biz kelajagimizga va taraqqiyotimizga xizmat qiladigan har qanday umuminsoniy qadriyatlardan foydalanishga tayyormiz. Istiqlol g'oyasi shuni taqozo etadi. Shunday ekan, Sharq dunyosida juda katta mavqyege ega bo'lgan islom adabiyotini o'rghanish, ulardag'i umuminsoniy axloqiy qarashlarning mag'zini chaqish bugungi kunda nihoyatda muhim. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlagan edilarki, "eng avvalo, jamiyat, guruh, alohida shaxs ma'naviy hayotining muayyan sohasi bo'lgan din umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalari aylantirgan, madaniyatga katta ta'sir ko'rsatgan. Insonning odamlar bilan bahamjihat yashashiga ko'maklashgan va ko'maklashmoqda. Binobarin, din odamlarda ishonch hissini mustahkmlagan.Ularni poklab, yuksaltirgan. Hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni yengib o'tishlarida kuch bag'ishlagan. Umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan avlodga yetkazishga yordam berib kelgan". "...dunyodagi dirlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat va bag'rikenglikka da'vat etadi.

Hozirgi zamonda bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi" [4,35; 10,60-61].

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev esa ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizning ajralmas qismi bo'lgan islom dinining mazmun-mohiyatini xalqimiz ongiga chuqr singdirish masalasini dunyo miqyosiga olib chiqdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi minbaridan turib nutq so'zladilar va "Biz butun jahon jamoatchiligidagi islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi.

Bugungi sessiya ishtirokchilariga BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilmoqchiman. Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat", degan fikrini butun dunyoga ma'lum qildilar [1]. Mamlakatimizda diniy bag'rikenglik va islom ta'limotini o'rghanish borasida olib borilayotgan ishlar fikrning dasturiy g'oyaga aylanganligini tasdiqlaydi. Binobarin, islom dinining insonparvarlik va tarbiyaviy mohiyatini xalqimiz o'rtasidan keng targ'ib qilish lozim bo'ladi. Buning uchun esa diniy matnlar, u og'zaki yoki yozma bo'lishidan qat'i nazar, lingvistik jihatdan chuqr tadqiq etilishi, uning funksional-stistik o'ziga xosliklari o'rghanishi va boshqa funksional uslublar orasida tutgan o'rnini belgilashga ehtiyoj tug'iladi. Diniy matnlar ustida olib borilgan har bir kuzatish masalaning muayyan jihatiga aniqlik kiritishi tabiiy. Shu ma'noda mavzu doirasida olib boriladigan tadqiqotlar ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik davri tafakkuri shundan dalolat beradiki, sobiq Ittifoq davlat tuzumi qanchalik urinmasin o'z hududida yashaydigan musulmon xalqlarini bu e'tiqoddan butunlay mahrum qila olmagan ekan. Agar xalqning ma'lum qisminigina hisobga olmasak, u insonlarning qalb to'rida yashab kelayotgan ekan. Mustaqillik sharofati bilan diniy e'tiqod erkinligi konstitutsion yo'l bilan kafolatlangandan so'ng bu qadriyatlar qalbilarimzda yana qaytadan kurtak otdi. Bu e'tiqod bizga ozod va obod, erkin va farovon kelajagimizni yaratishimizda, mubolag'asiz aytish mumkinki, ko'maklashmoqda.

Xo'sh, diniy matnlarning lingvistik tahlili fanimiz va o'zbek tili iste'molchilar uchun nima beradi? Diniy matnlar ham o'zbek tilida shakllangan boshqa turdag'i matnlar kabi o'z lingvistik va ekstralngvistik xususiyatlari ega. Lingvistik xususiyatlari bu tipdagi matnlarning fonetik, leksik, grammatik va ularga bog'liq ravishda yuzaga keladigan stilistik jihatlarini namoyon etsa, ekstralngvistik omillar ushbu matnlarning shakllanishi jarayonida ishtirot etadigan nutq muallifi, nutqiy vaziyat va ijtimoiy muhit singarilarni qamrab oladi. Diniy matnlardagi bu xususiyatlarni tadqiq etish ularning boshqa funksional uslublar orasida tutgan o'rnini va ular bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini aniqlash imkonini berish barobarida til iste'molchilar uchun undan amalda foydalanish yo'llarini ham ko'rsatib beradi.

Diniy matnlarning lingvistik tadqiqida bir qator masalalar o'rtaga qo'yiladi. Jumladan: -diniy matn qanday fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va stilistik xususiyatlarga ega?

-bu xususiyatlari uni o'zbek tili funksional uslublari orasida alohida uslub sifatida qarashga imkon beradimi yoki podstil, ya'ni biron-bir, aytaylik, rasmiy uslubning bir tarmog'i deb qarashga to'g'ri keladimi?

-uning boshqa o'zbek tili funksional uslublari bilan o'xshash va farqli jihatlari nimalarda ko'rindi?

-diniy matnlarning bu jihatlarini ilmiy tadqiq etish uchun amalda qanday tahlil metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi?

Ushbu muammolarning ma'lum qismi o'zbek tilshunosligida tadqiqot ob'ekti bo'lgan. N.Uluqov 1997 yilda "O'zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Unda "tilimizda muqobili bo'lmaganligi uchun tarjima qilinmasdan asl holicha qo'llangan arab va fors tillariga xos lug'aviy birliklarni – ekzotizmlarni o'rganish" maqsad qilib olingan [12,4].

Ushbu dissertatsiya ishi o'zbekcha diniy matnlardagi ekzotizmlarning o'rganilishi ilmiytanqidiy tahlil etilganligi va tavsiflanganligi, ekzotik so'zlarning o'zbek tili leksik qatlamiyagi boshqa so'zlardan farqli jihatlarini aniqlashga harakat qilinganligi, ularning qo'llanishidagi lingvistik va ekstralngvistik omillar to'g'risidagi fikrlari o'zbek tilshunosligi uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki bu mazmundagi ish fanimizda birinchi marta amalga oshirilgan.

Biz qo'l urgan ish ham qaysidir ma'noda uning davomi bo'lishi mumkin. Chunki bizning kuzatishlarimizda ham lingvistik material diniy matnlar bo'lib hisoblanadi. Ammo yondashuvlarimiz semantik-stilistik va leksikografik-statistik tahlil metodlaridan foydalanishimizga ko'ra farq qiladi. Unda o'zbekcha diniy matnlarga xos bo'lgan funksional-stilistik jihatlarga ahamiyat beriladi. Ushbu turdag'i matnlarning orfoepik, leksik-grammatik o'ziga xosliklarini aniqlashga, yaxlit holda esa, bu matnlarni o'zbek tilining alohida uslubi sifatida qabul qilish kerakmi yoki mavjud uslublarning biri tarkibida qarash ma'qulmi, degan masalalarga e'tibor qaratiladi.

To'g'ri, o'tgan asrning 60-yillarda prof.N.A.Baskakov tomonidan musulmon olamida amalda bo'lgan tillarda, jumladan turkiy tillarda yana bir uslubning - diniy uslubning mavjudligi haqida fikr bildirilgan. Garchand hozirgi o'zbek adabiy tilida funksional uslublari soni beshta deb ko'rsatilgan bo'lsa-da, N.A.Baskakovning quyidagi fikrlari uning yana boshqa turlari mavjud bo'lganidan dalolat beradi: "Turkiyning har bir mahalliy varianti stilistik sistemalari, birinchidan, ham prozaik, ham poetik janr tiplari va ko'rinishlarining ulkan rivoji va murakkablashishi bilan, ikkinchidan, barcha funksional uslublarning: 1. ilmiy-publisistik (tarixiy, jug'rofiy, filologik xarakterdagi prozaik va poetik traktatlar, tabiiy va aniq fanlar bo'yicha prozaik hamda poetik asarlar va boshqalar; 2. badiiy (prozaik va ulkan darajadagi poetik asarlarning ko'plab poemalar, dostonlar, g'azallar-muhammaslar, soqynomalar, qit'alar, ruboilyar, tuyuqlar kabi har xil turlari va xillari); 3. xizmatga doir (farmonlar, taxxon yorliqlari, nomalar, turlicha diplomatik hamda xuquqiy hujjatlar va boshqalar); 4. diniy uslub (vaqf hujjatlar, diniy-falsafiy va hukuqiy asarlar, tafsirlar, imomlarning diniy murojaatlari kabi)larning ko'plab poetik va prozaik janr ko'rinishlarining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Funksional uslublarning bu barcha tiplari va ko'rinishlari o'rta va yangi davr yozma va og'zaki turkiy tillarda sezilarli darajada ko'pchilik turkiy xalqlar uchun rasmiy din bo'lgan islam ta'sirida, u orqali esa o'sha davrda amalda bo'lgan qoidalar – adabiy yozma, qisman og'zaki, arab va fors tillari ta'sirida shakllandi» [3,57]. Ammo shu paytga qadar mavzuga doir aniq ko'lami keng tadqiqotlar olib borilmaganligi muammoni jiddiy tadqiq etishni taqozo etadi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 19 сентябрь куни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси 72-сессиясида сўзлаган нутқи.
2. Бабаханова Д.Официально-деловой стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис. ...канд филол.наук. – Ташкент, 1987.
3. Баскаков Н.А. Структурные и функциональные стилистические модификации в современных тюркских языках// Развитие стилистических систем литературных языков народов СССР. – Ашхабад, 1968.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: ҳафсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент, 1997.
5. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. – Самарқанд: «Зарафшон», 1992.
6. Каримов С. Ўзбек тилининг диний услуби ҳақида баъзи мулоҳазалар // Истиқлол йиллари: миллий-диний қадриятларнинг халққа қайтиши. Ўзбекистон Республикаси Имом ал-Бухорий халқаро жамғармасининг ЎзР. Мустақиллигининг 10 йиллигига бағишлиланган илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2001, 39-41.
7. Каримов С. Ўзбек тилининг функционал стилистикаси. – Самарқанд, 2010.
8. Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадий услуби: Филол.фан.д-ри ...дис. автореф. – Тошкент, 1994.
9. Курбанов Т.И. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис. ...канд филол.наук. – Ташкент, 1987.
10. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т.:Ўзбекистон, 2000.
11. Мукаррамов М. Научный стиль современного узбекского литературного языка в семантика-функциональном аспекте: Автореф. дис. ...д-ра филол.наук. – Ташкент, 1985.
12. Улуқов Н. Ўзбеча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол.фан. номз. ..дис. автореф. – Тошкент, 1997.
13. Уринбаев Б. Вопросы синтаксис узбекской разговорной речи: Автореф. дис. ...д-ра филол.наук. – Ташкент, 1974.
14. Шомаксадов А. ва бошқ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

UDK: 891.709**POETIK OBRAZ YARATISH: AN'ANA VA MAHORAT****G.Rahimova***Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya. Alisher Navoiy va Erkin Vohidovning poetik obraz yaratishdagi mahorati qiyosiy tahlil etilgan

Kalit so‘zlar: poetika, obraz, an’ana, mahorat, ko‘z, ko‘ngil

Поэтический образ: традиция и мастерство

Аннотация. Сравнительный анализ мастерства Алишера Навои и Эркина Вахидова создавать поэтические образы

Ключевые слова: поэтика, образ, традиция, мастерство, глаз, страсть

Poetic image: tradition and skill

Abstract. Comparative analysis of the ability of Alisher Navoi and Erkin Vakhidov to create poetic images

Keywords: poetics, images, traditions, workmanship, eyes, hearts

Alisher Navoiyning she’riyat olamini sayr etar ekanmz, bu olam ichra ajib jozibali, rangin ramzlarga burkangan, tashbeh, istiora, tajnis, tanosib va shu kabi badiiy so‘z vositalari bilan inkishof etilgan hayratomuz poetik olamga duch kelamiz. Illo bu olam, shu qadar go‘zal, teran va bepoyonki, muxlisni beixtiyor o‘z quvvai hofizasiga chorlayveradi. O‘zbek adabiyotida ulug‘ shoirning poetik xazinasidan bahra olib, o‘z she’rlarida uning an’alarini davom ettirigan ijodkorlar anchagini.

Shulardan biri hozirgi zamon o'zbek she'riyati rivojiga munosib hissa qo'shgan, taniqli davlat va jamoat arbobi, O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovdir. Shoir o'zining nafaqat g'azal, balkim barmoq vaznida yaratgan she'rлarida ham Hazrat Navoiyning poetik obraz yaratishdagi badiyatini yuksak mahorat bilan aks ettira oldi. So'zimizning isboti o'laroq quyida ko'z va ko'ngil poetik obrazlari vositasida lirik qahramonga tegishli lahzalik kechinma, oniy ruhiy holatning navoiyyona tasvirini ko'rib chiqaylik.

**Ko'z ko'rар yuzingniyu ko'nglim meni rasvo qilur,
Zor etar ko'nglimni ko'z, bag'rimni qon aylar ko'ngil.**

Nogahon oshiq ko'zi birlinchi bo'lib ma'shuqa jamolini ko'rib qoldiyu, bechora oshiq ko'ngilning malomatlaridan baloga qoldi. Chunki g'olib bo'lgan ko'z ko'ngilni g'arib va notavon holatga solib qo'ydi. Bundan qahrlangan, g'azabga tushgan ko'ngil oshiqning bag'rini qonga aylantirdi.

Erkin Vohidovning mazkur she'ri xuddi shu holatning mantiqiy davomiday taassurot uyg'otadi. Ko'z va ko'ngil poetik obrazlarining talashishi shu darajaga etdiki, natijada ular o'rtasida ma'shuqani qizg'anish, rashk va hasad paydo bo'ldi. O'z-o'zidan ayonki, rashk va hasad bor joyda, albatta, janjal, xunrezlik bo'ladi. Buning oqibatida esa, jonning tinkasi qurib, halovati buziladi. Kurashda yaralangan, majruh bo'lgan dil go'yo anorning donasidek qip-qizil qonga aylanadi. Har ikkala shoirda ham ko'z, ko'ngil, jon poetik obrazlari vositasida haqiqiy oshiqqagini xos bo'lgan vafo, sadoqat tuyg'ulari tajassum etilgan.

**Jonu dil xunrezlik aylab
Bo'ldi oxir tilka jon,
Dil esa majruh, anorning
Donasidek qontalosh**

Aslida kun bilan tunning o'rin almashinishi tabiat qonunlaridan biridir. Bu jarayonni hamma ham alohida e'tibor berib kuzatib o'tirmaydi. Biroq Hazrat Alisher Navoiyning ushbu mashhur shohbaytini o'qiganidan so'ng, muxlis lirik qahramonning kechinmalarini tuyish barobarida bu ajib tabiat hodisotini shunday osongina anglab oladi.

**Orazin yopqach, ko'zimdan sochilur har lahma yosh,
Bo'yakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh.**

Ma'shuqa yuzini berkitgach, oshiqning ko'zlaridan har lahzada sochilayotgan yoshlari, quyosh botib, osmon uzra qarong'ulik o'z sepini yoygach, paydo bo'lgan yulduzlarning har tarafga patirlab yoyilib ketishiga o'xshatiladi. Bu yerda quyosh atmosfera ma'nosidan tashqari shaffoflik, nur, yog'du, mehr va ilqlikni o'zida jamlagan badiiy timsol, ya'ni ma'shuqaning yuzi sifatida talqin etilmoqda. Baytdan anglashilgan asl ma'no ham shunda-da. Tilimizda "yuzidan nur yog'iladi", "chehrasi ochiq" kabi iboralarining tez-tez ishlatilishi bejiz emas. Bu obrazning Erkin Vohidov she'rлarida qanday talqin etilganligini quyidagi misralar misolida ko'ramiz.

**Parda ichra oftobim,
Yonida men nurga zor,
Tashnaman, qirg'oqdadurman –
Bunda daryo bir qadam.**

Shoir she'rni o'qiyotgan muxlisning ko'z oldida oqayotgan daryo, poyonsiz osmon uzra quyoshning bulutlar orasiga berkinishi kabi tabiat peyzajini chizish bilan bir vaqtida muhabbat nurining taftidan bebahra, ishq sharobidan ichishga tashna oshiqning nochor ahvolini ham namoyon etadi. Shoirlarning tabiat qonuniyatları asosida yuksak badiyat yaratib inson holatini ana shunday poetik obrazlarda ifodalab berishi bu chinakam topilma, chinakam mahorat.

**Yuzing visolig'a etsun desang ko'ngullarni,
Sochingdin boshdin oyoq chin ila shikan qilg'il.**

Ayriliq azobidan qiyalib, ma'shuqaga bo'lgan muhabbat yo'lida ranj chekayotgan oshiqning ko'ngli aftodahol, xokisor. Ma'shuqaning muhabbat esa etishib bo'lmash darajada yuksak. Oshiqning nazdida ma'shuqaning "chin" – o'ram-o'ram, "shikan" – ilgakli, zanjirsimon o'rim sochi oshiqni vasliga etkazuvchi bir vositadir. Azal-azaldan soch go'zallikning badiiy timsoli bo'lish bilan birga uning aksi, ya'ni bu go'zallikka giriftor bo'lgan oshiqning "qora kun"lari, har tarafga to'zg'ib ketgan, yig'ib bo'lmaydigan parishon o'ylari, ma'lum bir vaqtlardagi qiyognog'i, azoblarining ramzi sifatida ham talqin etiladi. Erkin Vohidov she'ridagi lirik qahramon, oshiq hayron, u ma'shuqaning muhabbat domiga qanday qilib tushib qoldi? Mustahkam, pishiq qilib o'rilgan ma'shuqa sochining har bir tolasi

go‘yo oshiq jonini fath etish uchun band, qilib qo‘yilgan. Nahotki, bechora oshiqning shirin joni arqonday chayir, zanjirday mustahkam o‘rim sochiga emas, uning birgina tolasiga bog‘lanib, qimirlayolmay tuzoqqa tushsa. Biroq oshiq bundan xafa emas, u bundan xursand.

**Ayt, bu soching tolasimu,
Jon ipin bir bandimu,
Yoki soching tolasiga
Jon ipim bog‘landimu?**

Quyidagi baytda oshiq ma‘shuqaga seni juda yaxshi ko‘raman, senga bo‘lgan muhabbatimning chek-chegarasi yo‘q, sadoqatimi qanday isbotlasam ekan, qasam ichaman. Bilaks, sening menga bo‘lgan vafodorliging chinmi? Yolg‘onmi? deb so‘rab o‘tirmaydi. Bu sadoqatini begonaning yuziga qaramaslik, o‘z yoriga ham begona ko‘zning nazari tushmasligi bayonida ishor etadi. Badiyatning Navoiy qalami chizishi mumkin bo‘lgan jilvasi ana shunday hayratlanarli.

**O‘zgalar husnin tamosho aylasam chiqsun ko‘zim,
O‘zga bir ko‘z hamki husningni tamosho aylasa.**

Erkin Vohidovning misralaridagi ishori ishq yanada hayratlanarli. Qizig‘i shundaki, endi lirik qahramon o‘z yorini begona ko‘z, begona nazar tugul hatto o‘z-o‘zidan ham qizg‘onadi. Yorning go‘zal chehrasiga nogoh ko‘proq tikilib qolgan ko‘zining bu holatidan ham ko‘ngli bezovtalanadi.

**Seni yotlar tugul hatto –
Qilurman rashk o‘zimdan ham,
Uzoqroq termulib qolsam
Bo‘lurman g‘ash ko‘zimdan ham.**

Mana ikki yuksak qalb egasi bo‘lgan shoirlarning yashagan davri orasida besh asrdan ko‘proq vaqt o‘tibdi. Biroq ularni bir-biriga yaqinlashtirgan, bir-biriga bog‘lab turuvchi shunday mustahkam zanjir borki, bu ularning poetik mahoratidir. Garchand o‘zini Alisher Navoiyning yonida turishga haqli emas deb kamtarinlik qilgan bo‘lsada, o‘zbek xalqining zabardast shoiri Erkin Vohidov Navoiy kezgan she’riyat bo‘stonini sayr eta olgan, bu bo‘stonga o‘zining sara gullarini ekib, undan chinakam go‘zallik yarata olgan shoir edi.

**Istadim sayr aylamoqni
Men g‘azal bo‘stonida.
Kulmangiz, ne bor senga deb
Mir Alisher yonida.**

Biz g‘azal mulkining sultonи hazrat Alisher Navoiy bilan hozirgi zamon she’riyatining porloq quyoshi bo‘lgan Erkin Vohidovning poetik obraz yaratishdagi mahoratini imkon darajasida o‘rganishga harakat qildik. Bu mavzu g‘oyaviy funksiyasi va ko‘lami jihatidan bittagina maqola doirasidagina emas, balki bugungi kunda o‘zbek adabiyotida yirik ilmiy tadqiqotlar doirasida o‘rganilishi zarur bo‘lgan dolzARB mavzudir deb o‘ylaymiz.

Adabiyotlar

1. Алишер Навоий. МАТ, 20 жилдлик. – Т.: “Фан”, 1997. - 541 б.
2. Алишер Навоий. Асарлар. 15 жилдлик.– Т.: F.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1966. 256 б.
3. Вохидов Э. Ёшлигим. – Т.: F.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 449 бет.

УДК:413.19

**НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ О ФРАЗЕОЛОГИИ В НОВОМ АКАДЕМИЧЕСКОМ
«СЛОВАРЕ СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА»
(в 20-ти томах)**

Е.А.Малиновский, Н.Юнусова
Самаркандинский государственный университет

Аннотация. В статье рассматриваются особенности кодификации фразеологических оборотов в «Словаре современного русского литературного языка» в 20-ти томах: отбор, расположение и толкование фразеологизмов, использование иллюстративного материала.

Ключевые слова: фразеологический оборот, устойчивые сочетания слов, идиомы, пословицы, поговорки, крылатые фразы.

“Zamonaviy rus adabiyoti akademik lug‘ati”dagi uchraydigan so‘z birikmalariga ba’zi mulohazalar

Annotatsiya. Ushbu maqolada frazeologik aynalmalar kodifikatsiya xususiyatlari «Rus adabiy tili zamonaviy lug‘atiga» 20 tomda tanlov, frazeologizmlari talqin qilish va ularni joylashishi, illyustrativ material kullash, kurib chiqilmoqda.

Kalit so`zlar: frazeologik aynalma, idiomalar, maqolar, qanot so`zlar.

**Some notes about phraseology in new academic dictionary of Russian literature language
(in 20 chapters)**

Abstract. In this article is given special features of codification phraseological complex in dictionary of modern Russian literature language in 20 chapters: collection, location and definition of phraseologics, usage of visual material.

Keywords: phraseologic complex, fixed-unit of words, idiom, proverbs, quotes, stortements.

Как известно, с 1991 года в издательстве «Русский язык» (Москва) стал выходить в свет двадцатитомный Словарь современного русского литературного языка (в дальнейшем ССРЛЯ-20). К настоящему времени издано только шесть томов этого лексикографического труда и поэтому анализировать фразеологический состав еще преждевременно, но сделать отдельные предварительные замечания уже можно.

Данный словарь является дополненным и переработанным изданием «Словаря современного русского литературного языка» в 17-ти томах (М., 1950-1965), содержащего более 120 тысяч слов и свыше 30 тысяч фразеологических оборотов. Словарный состав нового словаря (ССРЛЯ-20) характеризуется большим и все возрастающим количеством слов и оборотов из самых различных сфер человеческой деятельности.

Во «Введении» составители пишут: «Во втором издании «Словаря» устранина алфавитно-гнездовая система расположения слов, принятая в новых трех томах первого издания. Слова располагаются теперь строго в алфавитном порядке» (с.8). Что касается фразеологического материала, то описательное толкование оборотов здесь приводится в словарной статье, как правило, на первое (по порядку) знаменательное слово фразеологизма, если оно не является вариантом или факультативным компонентом. В словарных статьях на остальные слова фразеологического оборота вместо толкования содержится ссылка (это не касается служебных частей речи и местоимений). При неустойчивом составе фразеологического оборота варианты компоненты приводятся через запятую, а факультативные заключаются в скобки. Толкование в этом случаедается при наиболее устойчивом компоненте. Сравните: Знать... ~ Аллах, бес, Бог, дьявол, черт, шут (его, их и т.п.). знает, ведает. Бальзам... ~ Пролить (целебный, целительный и т.п.) бальзам на сердце, душу и т.п.

В данном словаре информация о фразеологии, ее предмете и статусе фразеологического оборота очень скучная. Прежде всего, у составителей 2-го издания словаря изменился подход к фразеологии – он стал еще более узким: за собственно фразеологизмами они признают лишь выражения идиоматического характера (т.е. фразеологические сращения и единства). По происхождению они различные: связанные с историей, мифологией (авгиеевы конюшни, яблоко раздора, мамаево побоище и т.д.), крылатые выражения, почерпнутые из библейской и светской литературы (авилонское столпотворение, человек в футляре, у разбитого корыта и т.п.), идиоматика разговорного и книжного характера (быть баклуши, тянуть канитель, кот наплакал, своя рука владыка, ставить точки над «и», закодированный круг и т.п.), «инные устойчивые семантически немотивированные словосочетания», которые обладают экспрессивной и стилистической окрашенностью. Вводным словосочетаниям (так сказать, короче говоря) и сочетаниям служебных слов (*a ne to, a to, что ж*) в статусе фразеологизмов (в отличие от первого издания) неоправданно, на наш взгляд, отказано. Устойчивые сочетания слов номинативного характера (железная дорога, белый гриб, белый билет, заработка плата и т.п.) рассматриваются не как фразеологизмы, а как составные термины или наименования.

Пословно-поговорочный материал - и как единицы словаря, и как иллюстративно-подтверждительный материал, стал значительно сокращаться еще со «Словаря русского языка» под ред. акад. Я.К.Грота (СПб, 1891-1895) и к изданию ССРЛЯ-20 исчез почти полностью.

Такое узкое понимание фразеологии представляется совершенно неприемлемым. Оказывается, что идиомы (фразеологические сращения и единства – по классификации В.В.Виноградова) – это фразеологизмы, а устойчивые сочетания слов номинативного характера, составные термины (фразеологические сочетания), а также пословицы, поговорки (по терминологии Н.М.Шанского «фразеологические выражения») таковыми не являются.

Такое понимание статуса фразеологической единицы расходится как с теоретическими достижениями отечественной фразеологической мысли 19-20вв., так и с практикой лексикографических разработок фразеологического материала прошлых столетий.

Сравните на конкретных фактах. Акад. Ф.Ф.Фортунатов в своем труде «Сравнительное языкознание» (Литографированный курс лекций. 1890-1900гг.) разработал учение о слитных словах и слитных речениях. Отличительная особенность слитных слов заключается в том, что они являются семантически единым словом. Общее значение такого «непростого» слова несоизмеримо со значением его составляющих элементов. Последние при слиянии утрачивают в той или иной степени свои отдельные лексические значения (к таким языковым единицам Фортунатов относит, например, слова и сочетания «неприятель» (в значении «враг»), «так как», «Москва-река»). Именно в силу таких семантических особенностей, как неадекватность общего значения со значениями отдельных компонентов, Фортунатов признает схожими, «однородными» со слитными словами другие образования русского языка – слитные речения. Они представляют собой уже не сложные слова, а устойчивые сочетания слов, отличительные от первых лишь по своему формообразованию. Он пишет: «...Например, в русском языке такое сочетание слов, как «железная дорога», однородно по значению со слитным словом, ибо по значению это сочетание слов не разлагается на слова «железная» и «дорога» в их сочетании без изменения значения (мы можем знать значение слов «железная» и «дорога» и тем не менее значение, принадлежащее сочетанию слов «железная дорога», может оставаться нам не известным). Это сочетание слов «железная дорога» не образует, однако, собою одно слово, так как в первой части заключается такое слово, которое по форме слово изменения является само отдельным словом как частью словосочетания («железнную дорогу», «железнной дорогой» и т.д.). Такого рода сочетания слов, однородные по значению со слитными словами, но представляющие собою не одно простое слово, а словосочетание, по отношению именно к словоизменению в их первой части, как части словосочетания, мы можем назвать *слитым речением*. Таким же слитным речением, как «железная дорога», является в русском языке, например, и сочетание слов «великий пост» (с.256-257).

Другой лингвист проф. А.И.Томсон в работе «Общее языкознание» (Одесса, 1906), рассматривая явления, относящиеся к фразеологии, и указывая на ряд принципов формирования фразеологических значений (роль тропов, особенно метафор, иронии, рифмы, ритмов и др.), в частности, замечает, что смысловая целостность может быть организована на основе принципа прямого называния, когда весь «многочисленный знак» относится к одному предмету реальной действительности (например, Царское село). Фразеологическое значение возникает и в силу специализации синтаксического сочетания (*железная дорога, водяные знаки* и т.п.).

Акад. А.А.Шахматов, автор труда «Синтаксис русского языка» (М., 1925-27, 2 изд. 1941), сыгравший значительную роль в разработке истории фразеологии, разработал самобытную теорию о неразложимых словосочетаниях. Их он подразделяет на две разновидности: грамматически неразложимые, непонятные с точки зрения современных синтаксических отношений (*испортить шуба, шутка сказать*) и лексически (по значению) неразложимые словосочетания, которые, в свою очередь, могут быть грамматически разложимыми (*игральные карты*) и грамматически неразложимыми (*спустя рукава, очертя голову*).

Шахматов дает следующую дефиницию неразложимых словосочетаний: «Неразложимым словосочетанием называется такое словосочетание, которое состоит из двух или нескольких слов, представляющих одно грамматическое целое, но являющихся в такой форме, которая исключает возможность признать их взаимную зависимость и не дает также возможности признать которое-нибудь из них самостоятельным членом предложения; таковыми являются

словосочетания в их совокупности» (с.418). Мысли Шахматова о синтаксической роли устойчивых словосочетаний, их отношении к различным частям речи, о связи грамматической неразложимости с собственно фразеологической неразложимостью нашли свое плодотворное развитие в фразеологических исследованиях 50-70-х годов XX столетия, когда фразеология уже вышла, по словам проф. Б.А.Ларина, «из своего скрытого развития».

Мы специально привели взгляды на объем фразеологии русских лингвистов старшой поры, которые уже тогда понимали его в широком смысле слова, относя к этой области языкоznания все сверхсловные единицы языка, какими бы они по размеру и структуре не были, если они воспроизводимы в речи. Именно того же мнения придерживались и все крупнейшие фразеологи второй половины 20 века, которые сыграли решающую роль в выделении фразеологии в самостоятельный раздел лингвистики: В.В.Виноградов, А.А.Архангельский, Н.М.Шанский, Л.И.Ройзензон, А.В.Кунин, ЮЮ.Авалиани, М.М.Копыленко, В.П.Жуков и нек. др.

Даже проф. С.И.Ожегов, который собственно и разграничил узкое и широкое понимание объема фразеологии, в конце пятидесятых годов прошлого столетия писал: «Однако с уверенностью можно сказать, что многие сложные термины могут рассматриваться как фразеологические единицы» (1). К ним он рекомендует относить такие сложные термины, которые вышли и стали достоянием общеупотребительного языка (*железная дорога*), а также термины, приобретшие переносное значение (*до белого каления (довести)*). Прежде всего, думается, что последние типы уже не являются терминами, т.к. связь со своей терминологической сферой потеряна; они входят в общенародную фразеологию языка.

Из вышеизложенного следует, что составители нового лексикографического труда ССРЛЯ-20 совершенно не придерживаются сложившихся в современном языкоznании взглядов на статус фразеологической единицы, что представляется нам неаргументированным.

Что же касается различительных знаков фразеологичности устойчивых оборотов, используемых в словаре, то знак *тильда* (~) сохраняется за идиомами (в ССРЛЯ-20-фразеологизмами), тогда как за устойчивыми сочетаниями слов закрепляется *ромб* (◊). Они, как правило, приводятся при первом (по порядку) компоненте. Сравните: Блезира и Блезиру. ~ Для блезиру, блезира. Для виду, напоказ. Бык ... ~ Брать, взять, хватать, схватить и т.п. быка за рога. Браться смело за самое главное в трудном деле. Авансцена ... ◊ Выйти, выдвинуться на авансцену чего-либо, какую-либо. Стать главным, ведущим. Ассирийский... ◊ Ассирийская борода. (шутл.) О густой черной бороде.

Однако этот принцип использования знаков фразеологичности составителями словаря не всегда выдерживается. Бальзаковский. Бальзаковский возраст. О возрасте женщины от 30 до 40 лет. Балтийский. Связанный с Балтийским морем. Балтийский флот. Балтийские моряки. Как видим, ни тильды (в первом случае), ни ромба (во втором случае) авторы при показе фразеологичности не используют.

Однако справедливо здесь будет отметить, что общее число фразеологических оборотов в ССРЛЯ-20 значительно возросло по сравнению с ССРЛЯ-17 за счет включения новых устойчивых образований русского языка (в основном общественно-политического характера), которые стали особенно широкоупотребительными в последние три десятилетия. Например: *голое администрирование*, *административно-командная система*, *военная администрация*, *административным порядком*, *в административном порядке* (в ССРЛЯ-17 приведены всего лишь два варианта ФЕ, данные в более полной форме: *сослать* *выслать* *административным порядком* или *в административном порядке*.

Значительно изменился в ССРЛЯ-20 и иллюстративный материал за счет исключения из него примеров из произведений писателей и поэтов XVIII в. (Г.Р.Державина, М.В.Ломоносова, А.Н.Радищева и нек. др.) и исключения цитат из художественной литературы некоторых современных русских писателей (Ф.Абрамов, В.Белов, В.Распутин и др.).

Подводя итоги, можно сказать, что несмотря на весьма длительное изучение фразеологического материала русского языка и большие достижения в области его кодификации, приходится констатировать, что лексикографическая интерпретация ФЕ не достигла еще необходимого научного уровня.

Литература

1. С.И.Ожегов. О структуре фразеологии (в связи с проектом фразеологического словаря русского языка). – Лексикографический сборник. – М., 1957. – с.31-53

UDK:891.709**ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA TASAVVUFIY DUNYOQARASH****M.I.Davronova***Samarqand davlat universiteti*E-mail: Mahfuza74@inbox.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abduvali Qutbiddin she'riyati xususida fikr yuritilib, uning tasavvuf bilan yo'g'rilgan she'riyati tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: she'r, shoir, lirik qahramon, tasavvuf, dunyoqarash, tahlil, uslub

Суфийские мировоззрения в творчестве Абдувалли Кутбиддин

Аннотация. В статье речь идёт о поэзии Абдували Кутбиддин, исследуется его лирика смешанная с идеями суфизма.

Ключевые слова: стихотворение, поэт, лирический герой, суфизм, мировоззрение, анализ, стиль.

Ideology of sufism in the work of Abduvali Kutbiddin

Abstract. The article deals with the poetry of Abduvali Qutbiddin, researches his mixed lyrics with the ideas of Sufism.

Keywords: poem, poet, lyrical hero, Sufism, worldview, analysis, style.

Bir necha asrlardan buyon inson va din, jamiyat va din, madaniyat va din hamda adabiyot va din o'rtasidagi munosabat insoniyatni o'ylantirib, mushohadaga undab kelayotgan masalalar sirasiga kiradi. "Mustaqillik yillarida adabiyot bilan islom dini o'rtasidagi munosabatlarda ham keskin burilish yuz berdi. O'zbek adabiyotining islom falsafasidan va islom ta'lomitidan ilhomlanib, undan ta'sirlanib, o'rni kelganda o'zi ham unga muayyan ta'sir ko'rsatib rivojlanishi endi rasman tan olindi. Shu sababdan bu masalaga bag'ishlangan katta-kichik ilmiy asarlar paydo bo'la boshladi. Ular din va adabiyot aloqalarining qadimiyligi va ko'lamdorligini ko'rsatish bilan birga, bu sohada qilinishi darkor bo'lgan ishlarni aniqlashga ham yordam bermoqda" [9-181]. Din insonni fikrlashga, fikrlash orqali o'zligini anglashga, anglash orqali Haqni tanishga undaydi. Albatta, bunda tasavvuf ilmining o'rni beqiyos. "Tasavvuf ibodat, riyozat, sevgi, ma'rifat bilan qalbni tasfiya etish, o'z borlig'ini haqiqiy ishqqa bag'ishlash, dilni mosivodan qutqazish, Ollohning barcha amrlarini bajarish, ta'qiqlangan ishlardan qochishdir. Tasavvuf xudbinlik, manmanlik, zohiri yutuq va muvaffaqiyatlarga taslim bo'lishni engib, himmat va shafqat, marhamat va sadoqat yo'lidagi xizmatdir. Tasavvuf lof to'qish, so'zbozlik qilish, o'zni ko'z-ko'z etish o'rnida samimiyat, ixlos, hikmat va irfonni barqaror aylash malakasi" [5-34]. Demak, islom dinida tasavvuf insonni illatlardan tozalab, yaxshi xulq bilan hayot kechirishga undaydi. Bu borada u inson va jamiyat o'rtasidagi ko'prikkay aylanadi. Nafaqat inson va jamiyat o'rtasidagi, balki adabiyot o'rtasidagi ko'prikkay ham sanaladi. Shu sabab tasavvufga bag'ishlangan asarlar talaygina[2;3;4;5;7]. Tasavvufda asosan to'rt bosqich muhim sanaladi. Bu shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqatdir. Adabiyot inson dilini poklagan sari u quvvatlanib boraveradi. Tasavvuf to'g'risida ham xuddi shunday fikrlar yuritish mumkin. Adabiyotshunos olim Najmiddin Komilovning tasavvuf haqidagi fikrlari ham qimmatlidir: "Hayot murakkab. Aslini olganda, tabiatning o'zi ham g'oyat murakkabdir. Tabiatning gultoji bo'lgan inson esa undan-da murakkabroqdir. Bu murakkablik insonlarning o'zaro munosabatida yorqin aks etadi. Chunki har bir shaxsning o'zi bir olamdir. Shu ma'noda Gyote: "Bir shaxsning vafoti bilan bir olam yo'q bo'ldi", - deganida benihoya haq edi. Har bir insonning orzu-armonlari, ilmi, tafakkuri, kechinmalari, his-tuyg'ulari behisob. Ana shularning hammasi jam bo'lib bir ta'limotni vujudga keltirgan. Bu ajoyib ta'limot yurakka suyanadigan, insonning qalbini ezbilik bilan to'ldirish niyatida paydo bo'lgan ta'limotdir. Ana shuning uchun u shoirlarga, she'riyatga juda katta ta'sir qilgan. Uning ta'sirida ajoyib, dunyoda eng go'zal, eng jo'shqin she'riyat vujudga kelgandir. Tasavvuf ta'siridagi shoirlar, adabiyotchilar hozir ham mavjud. Ular yangicha talqin qilib, badiiy asarlar yozmoqdalar. Bu uning o'lmasligidan dalolat

beradi”[8-448]. Bu borada o‘zbek adabiyotida o‘z uslubi va ovoziga ega bo‘lgan ijodkor Abduvali Qutbiddin she’riyatiga nazar tashlaymiz:

Sazoyi qildilar bizlarni sevgim,
To‘qqizta falakda topmadik makon.
Samoviy chodirda jon saqlagandik,
Ammo qaychisi-la qirqib qo‘ydi tong.
Armon musiqadir,
G‘amgin musiqa.[1-25]

Shoir ushbu she’rida tasavvufni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bermay balki yashirin holatda berishga intiladi. Ya’ni olam ibtido va intihosi xususida so‘z yuritadi. U insonning yaralishi va keyinchalik gunoh sabab koinotdan yerga tushishgacha bo‘lgan jarayonni qamrab olishga harakat qiladi. Buning natijasida uning Odam Atoga ham murojaati ham kuzatiladi. Murojaat ham oddiy holatda berilmaydi. Balki gunohlari uchun yerda hayot kechirishga mahkum bo‘lgan lirik qahramon yuzaga keladi. Hatto u Odam Ato bo‘lib ham bo‘y ko‘rsatadi. Abduvali Qutbiddinning ushbu she’rida o‘ziga xos uslubiy izlanishlarga duch kelish mumkin. Shoir original yo‘ldan borib Odam Atoning Arshdan haydalishini “Samoviy chodirda jon saqlagandik, “Ammo qaychisi-la qirqib qo‘ydi tong. “Armon musiqadir”, “G‘amgin musiqa” misralarida o‘z ifodasini topgan.

Bebaho matoga tomgan dog‘dayin
O‘chmaydi shafaqlar ming yuvilsa ham.
Sarsari, shaqillab o‘tsa-da, yillar
Sen o‘sha, o‘sha...
Tomchi-la tasvirlab bo‘lmaydi seni,
Hatto anglatolmas, bilsa-da qo‘rshab.
Tap-tarang tasmaday kokillaringni,
Taragan isyonlar bermas izohlab.
Sen o‘sha, o‘sha...
Behuda da‘volar qilaman goho,
Xobgohing qo‘riqlar falak lashkari.
Oshkor etmoqqa tutinaman goh,
Aqldan tashqari,
Fikratdan tashqari...
Vo ajab ingichka qildan ham nozik
Iplar chuvaguvchi balogir sarhad
Aro, ming yillik butxona yanglig‘
Toqatni toqat-la tilguvchi qahat –
O‘sha, o‘sha...[1-25]

Abduvali Qutbiddin ishq tushunchasini majoziy ma’noda ifodalaydi. Majoziy ma’nodagi ishq Arshdan boshlanib erdan qaror topadi. Ishqqa mubtalo bo‘lgan shaxs esa mana shu oraliqda yashashga mahkum. Asl muhabbatga evrilgan qalbni ishq hech qachon tark etmaydi. Uningchun ishq hayotidagi tamom bo‘lmas jarayon. Shu sabab uni qancha chorlasa-da, u yaqinlasha olmaydi, vaslga eta olmaydi. U yor go‘zalligini tasvirlashni o‘z oldiga maqsad qo‘yib (Tomchi-la tasvirlab bo‘lmaydi seni) bu maqsadga erisha olmagan oshiq sifatida namoyon bo‘ladi. Shoirning ushbu lirik qahramoni avtopsixologik xarakterga ega. U yor vaslidan orzumand oshiq sifatida namoyon bo‘libgina qolmay, o‘zining o‘zligidan darak topgan va bu o‘zlik o‘zining naqadar yor oldida notavon hamda behuda da‘vo qilayotgan inson sifatida gavdalantirgan. Shu sabab o‘zining behuda da‘vosini tan olgan holda “Aqldan tashqari, Fikratdan tashqari” deya yozg‘irinadi. “Toqatni toqat-la tilguvchi qahat” misrasi esa shoirning tasavvuf tushunchalariga original yondashganligini ko‘rsatib turadi. Abduvali Qutbiddin yaratgan ko‘pgina she’rlarida Ollohga atalgan muhabbat o‘z ifodasini topgan. Shoir, tasavvufda ta’kidlab o‘tilganidek, hayotni elga sovurishni istamaydi. U barcha ijodkorlar singari o‘quvchini ogohlilikka da‘vat etib inson o‘zidagi qusurlarni yo‘qotishi, hoyu-havaslardan voz kechishi, sabr-qanoatli bo‘lishi, nafs ketidan quvmasdan, unga ergashmasdan balki sabr ila ezgu martabaga ergashishini o‘z burchi deb sanaydi. Shu bois she’rlarida Haqqa bo‘lgan ishonch, unga bo‘lgan muhabbat, shoirni Ollohning vositachisiga aylantiradi. Har narsani idrok etish uchun Olloh insonga idrok ato etgan. Shu sabab foyda-ziyonni ajrata oladi. Dunyoning makr-hiylasiga aldanmasligi, qurban

bo‘lmasligi uchun aldamchilik, makr, hiyla, xiyonat kabi illatlarni o‘zining she’rlarida ohib tashlaydi. Shoirga bu og‘ir yukni bajarish uchun albatta tasavvuf yordamga keladi.

Yo‘lida telba g‘am ko‘rdim,
Yo‘p-yo‘g‘on chig‘ir sham ko‘rdim,
Qabog‘in pirpirak ko‘rdim.
Firoqning g‘amzasida - nish.
Xushchaqchaq elpi shod ko‘rdim,
Ani men benajot ko‘rdim,
Lisonsiz chirpirak ko‘rdim.
Firoqning g‘amzasida – nish.[1-43]

Tasavvuf tariqatida ma’naviy yetuklikka erishish o‘zligini anglash borabarida yuzaga chiqadi. Shoirning lirik qahramoni o‘zligini anglagan sayin dunyo, hayot tushunchalariga teranroq nazar tashlaydi. U fonyi va boqiy tushunchalarni kontrast holatda qo‘yar ekan, undan kerakli xulosalarini chiqara oladi. Uning xulosalarida tasavvuf tushunchalari omuxtalashib, uning buguni hamda o‘zligidan darak beruvchi jihatga aylanadi. Shu sabab shoir yaratgan lirik qahramonni biz bemalol ma’naviy etuklikka erishgan shaxs deya e’tirof eta olamiz. Abduvali Qutbiddin “nafs” tushunchasiga ham alohida ahamiyat qaratgan ijodkor. U nafs iskanjasini dunyoning ko‘rinishlari bilan bog‘laydi. Go‘yo bu npfs barchaga tegishlidek. U dunyo lazzatlariga, hoyu havaslariga mast bo‘lishni ham nafs deb biladi. Bu iskanjadan qutilish esa oson ish emas. Shoir o‘zlikni anglatuvchi Ollohamda nafsga qo‘l bo‘lgan insonni gavdalantirar ekan, uto‘g‘ri yo‘lni chizib bergandek tasavvur uyg‘otadi. Bu to‘g‘ri yo‘l tasavvuf nurlari bilan sug‘orilgan hamda o‘zligimizdan darak berguvchi yo‘ldir:

Tilla mo‘jizalar tikuvchisini,
Tong bilan kechaning bichuvchisini,
Qidirib topmagan mashoyix kabi,
Mirrihni izlagan so‘qir tig‘ kabi –
Qayg‘uga talpindik.
Oyoqsiz yillarning uvullahiday,
Hayvonsiz o‘rmonning guvullahiday,
Qartaygan kuzakning bog‘larni siltab,
Qushlarga matonat tilashi kabi
Qayg‘uga talpindik.[1-44]

Inson ruhiy-axloqiy yetuklikka erishish uchun ma’lum bosqichlarni o‘z hayotida bosib o‘tishi zarur. Asosiysi, u ma’naviy jihatdan tarbiyalanmog‘i lozim. Ma’naviy etuklik aqliy etuklik bilan qo‘shilsagina, axloqi pok inson qarashlari yuzaga chiqqa boshaydi. U hayotini ezgu ishlarga safarbar etadi. Tasavvuf adabiyotida ham axloqiy etuklik xususida so‘z boradi. Unda aytishicha axloqiy etuklik barcha ijobiy xislat va fazilatlarning asosidir. Ushbu she’rdagi lirik qahramon o‘zidan o‘zligini izlagan va Haqni tanigan shaxssdir. Lrik qahramon e’tirof etgan “qayg‘uga talpinish” bu nafsning bir ko‘rinishi, jihat. Shoir dunyo hoyu havaslaridan voz kechgan hamda tasavvufni anglagan lirik qahramonni yaratar ekan, undagi qayg‘u o‘quvchi yuragidan joy oladi. Nafs botqog‘idan, o‘tkinchi dunyoning hoyu havaslaridan qutilishni istaydi. O‘quvchi ham ko‘nglida mana shu “qayg‘uga botish” ozorini sezal boshlaydi. Demak, shoir o‘quvchi sezimlariga ta’sir etuvchi qudratni tasavvufdan oladi. Asosiysi, axloqiy etuklikka erishgan lirik qahramonni o‘quvchiga taqdim etadi. “So‘fiyona adabiyotning tasvir mavzui (ob‘ekti) tariqat yo‘li bilan poklanayotgan va tinmay komillik sari taraqqiy etayotgan Inson bo‘lgani uchun ana shu solik – yo‘lovchi Insonning dunyoqarashi, estetikasi, kechinmalar olami muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Tasavvufiy adabiyotning barcha ko‘rinishlari, janrlarida ana shu solik Insonning tuyg‘ulari, tushunchasi tasvirga olinadi, uni tarbiyalash, unga Haqni va o‘zligini tushuntirish, turli rivoyat va hikoyatlar keltirish, o‘git-nasihatlar qilish bilan uning ongi va qalbiga yo‘l topish bosh masala qilib olinadi”.[8-141]

Abduvali Qutbiddin she’riyatida avtopsixologik xarakterga ega bo‘lgan lirik qahramonga duch kelish mumkin. Unda ko‘proq muallif “men”i shoir uslubidan darak beradi. Chunki she’riyatining asosini mana shu shoirning “men”i tashkil etadi. Shoir o‘z dunyoqarashini lirik qahramonga singdiradi. Buning natijasida o‘zi his qilgan butun jarayon lirik qahramon tuyg‘usi sifatida jaranglaydi. E’tibor qaratilsa, Abduvali Qutbiddin ijodida dingga bo‘lgan munosabat alohida ahamiyat kasb etadi. U yaratgan lirik qahramon ham islom dinidan xabardor bo‘lgan shaxs sifatida gavdalananadi. “Abduvali Qutbiddin ham islomiy yo‘lida talay she’r yozgan. Uning she’rlarini maxsus tayyorgarliksiz mag‘zini

chaqish qiyin. Buning uchun ma'lum darajada islomiy bilimga ega bo'lmog'i darkor. Masalan, Qur'onda oxirat hayoti –bu dunyo hayotidan yaxshiroq deyiladi. Lekin unga bu dunyoda yaxshi ishlar bilan tayyorgarlik ko'rmasa, etishib bo'lmaydi... Qur'onning "Naxl" surasining 30-oyatida esa shunday deyiladi: "Taqvodorlarga parvardigoringiz nima tushirdi, deb aytilsa, yaxshilik tushirdi, deyidilar. Bu dunyoda yaxshilik qilganlar yaxshilikka erishadilar va, albatta, oxiratda bundan ham yaxshiroq bo'ladilar, taqvodorlarning oxiratidagi joylari juda ham yaxshidir".

Abduvali Qutbiddinning "Baliqning tishi-la tilimni tildim" misrasi bilan boshlanadigan she'rnинг mohiyatini shu fikr tashkil qiladi:

Baliqning tishi-la tilimni tildim,
Yuragimni urchuqday uch aylantirdim,
Ko'zimni qiynadim,
Qiynog'im qiziq...
Yayradim

Bu misrani o'qigan she'rxonda "Kishi qyinoqdanam yayrashi mumkinmi?" – degan fikr tug'ilishi muqarrar. Bu erda qyinoq jismoniy azoblanish ma'nosida emas, balki poklanish yo'lidagi ruhiy azoblanish, ruhiy qyinoqdir. Kishi ko'p gunohni tili orqali sodir qiladi. Shuning uchun baliq tishi bilan tiladi. Ma'lumki, baliq har jihatdan pok va begunoh. Shoир gunohlarga yo'l qo'ygan o'z a'zolarini jazolash orqali poklanadi, tavba qilish bilan gunohlaridan forig' bo'ladi. Shundan keyin pok bo'lgan ruhga ergashadi. Undan keyingi ishlari ezgulikdir. Oqibatda oxirati hayotga, ya'ni jannatga (Majnuntol darchasini ochdi, kiritdi) tuyassar bo'ladi. Oxirati hayotni shunday tasvirlaydi:

Majnuntol darchasini ochdi, kiritdi,
Yuz bitta qizidan birni tanladim.
Xivich qasrlarda
Barglandim biram...
Yayradim.
Dunyoni tark etdim, hur safar etdim,
Yorim-la tuyg'usi bexabar etdim.
O'n besh kun to'y berdim
Dorulbaqoda...
Yayradim,
Yayradim,
Yayradim...aaa!"[6-38-40]

Ushbu she'rlarda ham lirik qahramon tushunchasi bilan avtopsixologik xususiyat bog'lanmoqda. Demak, shoир uslubini yuzaga keltiruvchi xususiyat lirik qahramonning avtopsixologik xarakterga ega ekanligidir. Shoирning "Diagramma", "Pam-par-ey-ra", "Uzun jumla", "Ranj" singari she'rlari ham xuddi shunday she'rlar sirasiga kiradi.

Abduvali Qutbiddin ijodida turli poetik obrazlar mavjud. Ulardan eng ko'p uchraydigan poetik obraz bu – Osima. Shoир bu obrazga qayta-qayta ijroviy lirika orqali murojaat etadi. Bundan tashqari xalq og'zaki ijodi hamda mumtoz adabiyotda uchraydigan obrazlarni ham she'riyatiga singdirib yuboradi. Buning natijasida u yaratgan obrazlar turli tumanlik kasb etadi. Pari, Bahodir, Afrosiyob, Rustam, Bahrom, Dilorom, Hotam kabi obrazlar shular jumlasidandir.

Adabiyotlar

1. Abduvali Qutbiddin. Bor. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011, 25-bet.
2. Boltaboyev H. Islom tasavvufi manbalari. Tasavvuf nazariyasi va tarixi. –Toshkent: O'qituvchi, 2005.
3. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. Manba va talqinlar. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
4. Bo'ronov Q. Tasavvuf falsafasi xususida – Toshkent: Yozuvchi, 2000,
5. Valixo'jayev B. Buyuk ma'naviy murshid. – Toshkent: Fan, 2004
6. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf: tarix, mohiyat va tadqiqi talablari // O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2017 yil, 4-son, 34-bet.
7. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. -Toshkent: Yangi nashr nashriyoti, 2010, 38-40 bet.
8. Komilov N. Xizr chashmasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005;

9. Muhiddinov M. Komil inson – adabiyot ideali. – Toshkent: Ma’naviyat, 2005
 10. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr nashriyoti, 2009, -448 b.
 11. Haqqulov I. Tasavvuf saboqlari. – Buxoro: “Buxoro”, 2000 va bosh.

UDK42:494.3:379

АНАЛИЗ ЗНАЧЕНИЙ КОНЦЕПТА «СЕМЬЯ» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

С.А.Рузиева

Самаркандинский государственный университет

Аннотация. В статье проводится сравнение концепта “family” в английском языке и концепта «семья» в узбекском. Проведен анализ коннотативного содержания английских слов и устойчивых словосочетаний, составляющих семантическое поле «родственные отношения». Также рассматривается лингвокогнитивные сущности родственных отношений в рамках концепта «семья».

Ключевые слова: концепт, лингвокультурология, семья, семейство, общность происхождения, значение - в системе языка.

Ingliz va o‘zbek tillarida "oila" tushunchasining tahlili usullari

Annotatsiya. Maqola ingliz tilida "oila" konsepsiyasini va o‘zbek tilidagi "oila" tushunchasini taqqoslash, inglizcha so‘zlarning kontseptual mazmunini va semantik sohani "bog‘liq munosabatlarni" tashkil etuvchi barqaror ifodalarni solishtirishga bag‘ishlangan. Maqolada "oila" tushunchasi doirasida qarindoshlar tilining mohiyatini aniqlash masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: konsepsiylar, madaniy lingvistika, oila, umumiy kelib chiqish, ma’no - til tizimida.

Meaning analysis of the concept "family" in the english and uzbek languages

Abstract. The article is devoted to the comparison of the concept "family" in English and the concept of "family" in Uzbek, the analysis of the connotative content of English words and stable phrases that make up the semantic field "family relations". The article deals with linguocognitive essences of family relations within the framework of the concept "family".

Keywords: concept, linguoculturology, family, common origin, meaning - in the system of language.

Выбор концепта «семья» в качестве объекта исследования был обусловлен тем, что семья и семейный быт были и остаются важнейшей частью культуры народа, вне связи с которой не возможно представлять его историко-культурный облик в целом. Следовательно, сравнительное исследование образов семьи и дома в разных культурах и выявление общих и специфических черт является важным аспектом в изучении национально-культурной специфики образов мира носителей разных культур. С момента рождения каждому ребенку, независимо от национальности, необходимы дом и семья, прежде всего как структура, формирующая и адаптирующая его к будущей самостоятельной жизнедеятельности. В семье усваиваются основные социальные знания, приобретаются нравственные умения и навыки, закладываются определенные ценности и идеалы, формируются обычаи и традиции – происходит социализация человека. Эти концепты находятся в иной плоскости, нежели, например, философские концепты правда истина, добро и благо, долг и обязанность, счастье, значимые для русской культуры такие концепты, как судьба, душа, жалость, или уникальные русские концепты тоска, удача, воля и др. Они соотносятся с важными сферами человеческой жизни: хозяйственно-экономической, сексуальной, репродуктивной, образовательно-воспитательной, психологической, эмоциональной и культурно-духовной. Несмотря на значимость данных явлений в этнокультурной социализации человека, их место в «метазыке культуры» пока полностью не определено. Концепт «семья» является одной из основных категорий этического характера, определяющего духовные ценности какой-либо национальной культуры. Концепт «семьи» представляет собой сложный, с одной стороны, но интересный, с другой стороны, объект исследования в сопоставительном аспекте. Этот концепт имеет свои

слоты: ментальные, моральные, этические, духовные и т.д., а «при сопоставлении формируется набор семантических признаков, совокупность которых образует «эталон сравнения» [2, с.21].

Изучение концепта ««семья»» является одним из наиболее важных неисчерпаемых источников социальной, национально-культурной информации о носителях определенного языка. На современном этапе развития науки этот аспект, несомненно, становится актуальным и объясняется необходимостью его изучения для глубинного понимания культуры определенной нации или этноса.

Предметом нашего анализа послужили языковые средства обозначения понятия «семья» в английской и узбекской лингвокультурах. Прежде всего, была рассмотрена система значений существительного «семья»- «оила» По данным «Словаря современного узбекского литературного языка» в 2-х томах, это слово имеет пять значений [2, с.637-638]:

1. бола-чақа, хонадон. - Эр-хотин, уларнинг бола-чакалари ва энг якин туғишилардан иборат бирга яшовчи кишилар мажмуми. (группа близких родственников (муж, жена, родители, дети и т.п.), живущих вместе) в переносном значении «семья»-«оила» - Бир мақсад, маслак билан бирлашган кўп кишилар, халқлар (группа, организация людей, спаянных дружбой и объединенных общими интересами) (*школьная семья-мактабда бир оила, семья друзей-дустлар билан бир оила*)

2. Ўсимликлар ва хайвонлар систематикасида тузилиш жиҳатидан бир-бирига ўхшаш, келиб чиқиши жиҳатидан ҳам ўзаро якин бир неча гурӯхни ўз ичига олган гурӯх(группа животных, растений птиц, состоящая из самца, одной или нескольких самок и детенышей (ўрдак тумшуклилар оиласи, семья воробьев)

3. Қардош тиллар оиласи (группа родственных языков, объединенных общностью происхождения (Олтой тиллар оиласи ,семья славянских языков)

4. Авлод -поколение (Ахадовлар оиласи (*семья Романовых*).

5. Рафиқа, хотин. (Оилам мактабда ўқитувчи)

По аналогии с анализом системы значений существительных «семья» и «семейство» в узбекском языке был проведен анализ значений существительного «family» («семья») в английском языке.

«The American Heritage Dictionary» (1987) дает следующее толкование слова «family» [The American Heritage Dictionary [4, с. 254]]:

1. parents and their children (родители и их дети, здесь и далее пер.);
2. a group of persons related by blood or marriage (группа лиц, связанных родством или браком);
3. the members of the household (родственники, живущие вместе);
4. a group of things with common characteristics (группа вещей, связанных общими характеристиками);
5. biol. A group of related plants or animals ranking between a genus and an order (биол. группа родственных растений или животных, занимающая место между родом и отрядом).

Проведенный анализ словарных толкований лексических единиц со значением «family» («семья») показал, что они совпадают в следующих определениях:

1. a group of people who are related to each other, especially parents and their children (группа лиц, находящихся в родственных отношениях, особенно родители и их дети);

2. a group of related animals, plants, languages etc (группа родственных животных, растений, языков и т.д.).

Если рассмотреть метафорические стратегии, они являются универсальными и находят регулярное отражение в конкретных метафорических выражениях. Они отражают культурные традиции выбора средств осмыслиения абстрактных категорий, существование которых обусловлено различными экстралингвистическими факторами, типичными для конкретного языкового коллектива. При этом метафора родства по-прежнему используется в повседневной речи и продолжает отличаться высоким эмотивным потенциалом. Метафорическое представление реалий и процессов, происходящих в семье — один из наиболее традиционных образов.

Для выделения ключевых образов, связанных с процессом создания семьи и функционирования базовых отношений внутри семьи, был рассмотрен корпус метафорических

выражений, представляющих социальное явление «семья» в различных его аспектах по наличию тех или иных признаков:

1. семья - как здание, строение(бино,хонадон): achipofftheoldblock; Оила — қўш устунли айвон
2. семья = кровь(кондош): one's own flesh and blood; Конга қон жонга жон
3. семья — как дерево с плодами(мевали дарахт): asthetree, sothefruit; Болали уй мевали дарахтдир
4. семья — какколлектив(бир жамоа): one scabbed sheep is enough to spoil a flock. Бир оила бир жамоа

В итоге, можно выявить определенное семантическое расслоение концепта «семья» по названным аспектам: в научном аспекте превалирует сема «похожесть», «идентичность по составу», «родственность по происхождению»; в политическом аспекте - «единство», «общность идей», а также -«иерархичность», «структурированность». В целом, семья - это такая групп-па, которая характеризуется какими-то общими фундаментальными чертами, часто генетическим родством.

Сопоставляя словарные толкования лексических единиц со значением «семья» в английском и узбекском языках рассматривая метафорические стратегии можно сделать вывод, что в узбекском языке существительное семья имеет гораздо большее количество толкований, чем в английском языке, и обладает таким значением, которое не присуще данному слову в английском языке: Рафиқа, хотин, и использование таких метафорических значений как Оила — қўш устунли айвон. Конга қон жонга жон. Болали уй мевали дарахтдир

Литература

1. Карасик, В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. - Волгоград: Перемена, 2002.
2. Словарь современного узбекского литературного языка т.2 637-638
3. Степанов, Ю.С. Константы: Словарь русской культуры.- М, 2004, с. 42-67.
4. The American Heritage Dictionary 1987: 254

UDK: 809:398.9

LATIFALARDA BADIY-TASVIRIY VOSITALAR

B.M.Suvankulov

Jizzax davlat pedagogika instituti

E-mail: Baxt19@mail.ru

Annotatsiy. Maqolada o‘xshatishning latifada ko‘p uchraydigan ikki xili – tashbehi sareh (ochiq o‘xshatish) va tashbehi kinoyat (kinoyaviy o‘xshatish) bo‘yicha muallifning xulosalari bayon qilinib, **kinoya** va uning inson tafakkurini yuksaltirishdagi, janrning kitobxonni o‘ziga tortishidagi roli o‘rganilgan hamda latifalarda **mubolag‘aning** o‘rni, personaj va predmetlarni tasvirlashdagi vazifikasi raqib ustidan kulish ekanligi ishonarli dalillangan.

Kalit so‘zlar: obrazlilik, badiiylik, o‘xshatish, sifatlash, tashbehi sareh, tashbehi kinoyat, kinoya, fosh etuvchi, qochiriq, tashqi shakl, ichki mazmun, mubolag‘a.

Поэтико-изобразительные средства в латифах

Аннотация. В статье были изложены выводы автора по поводу двух часто встречающихся **сравнений**, открытого сравнения и иронического сравнения и изучена **ирония** и её роль в возвышении мышления человека и роль притяжения жанра читателя, а также убедительно доказано место **гиперболы** в изображении персонажей и предметов в латифах, роль гиперболы в смехе над соперником.

Ключевые слова: образность, художественность, сравнение, характеризовать, открытое сравнение, ироническое сравнение, ирония, разоблачающий, намёк, внешняя форма, внутреннее содержание, гипербола.

Poetic and imagery in latifs

Abstract. The article summarized the author's conclusions about two frequent comparisons, open comparisons, and ironical comparisons, and studied irony and its role as an elevation of human thinking and the role of the reader's genre attraction, and also convincingly demonstrated the place of hyperbole in depicting characters and objects in latifs, the role of hyperbole in laughter over the opponent.

Keywords: imagery, artistic quality, comparison, characterize, open comparison, ironical comparison, irony, exposing, hint, external form, internal content, hyperbole.

Ta'sirchanlik va tasviriylik latifa janrida har xil usullar yordamida maromiga yetkaziladi. Bular kompozitsion elementlar (murojaat, savol, undov, dialog yoki monolog), tilning leksik vositalari, stilistik figuralar va, nihoyat, ko'chimlar, shular qatorida o'xshatish ham. O'xshatish badiiy vosita sifatida hamma folklor janrlarga xos, lekin uning alohida salmog'i, tarkibi va vazifasi hammasida ham bir xil emas.

Latifalarda o'xshatish

O'xshatish latifa sujetida ko'proq obrazlilikni kuchaytirib, badiiylikni quyuqlashtiradi. U ko'chimlarning boshlang'ich sodda turiga kiradi. U ma'lum bir sifatda o'xshash bo'lgan ikki narsani bir-biriga qiyoslaydi. Tasviriy vosita orqali asosan qahramonlarning belgi, xususiyatlari, harakat va holatlari qiyos qilinadi. A.Fitrat o'xshatish haqida mulohaza yuritib, uning bir butun shaklini tashkil etuvchi to'rt xil elementini shunday misol bilan ko'rsatgan:

“ Ahmad arslon kabi boturdir...

Har o'xshatish aytimida to'rt narsa bor: o'xshag'an (Ahmad), o'xhatilg'an (Arslon), o'xshatish qaydi (kabi), o'xshash (boturdir)”.

O'xshatish predmetlarning to'g'ridan – to'g'ri o'xshash tomonlarini ko'rsatish orqali yoki – dek (-day) qo'shimchasi hamda o'xshash, xuddi, go'yo, misli, singari, kabi, yanglig', bamisoli kabi ko'makchilar yordamida yuzaga keladi. Klassik adabiyotda tashbeh deb ataluvchi bu vositaning N.Hotamov va B.Sarimsoqovlar to'qqiz xil ko'rinishini aytib o'tishgan. Ulardan ikki xili tashbehi sareh (ochiq o'xshatish) va tashbehi kinoyat (kinoya yo'li bilan o'xshatish) latifada ko'proq uchraydi. Masalan:

“- Endi bilsam, sen haqiqiy eshak ekansan!- dedi.

- Men eshak bo'lsam, sen xo'tik bo'lasan, ahmoq!- dedi ikkinchisi”.

“Bir kuni podsho Afandining o'g'lini huzuriga chaqirdi. Bolaning qaddi-qomati, qoshi-ko'zi xuddi otasinikiga o'xshar edi. Uning aqlini ham otasinikiga o'xshash-o'xshamasligini sinash uchun bolaga bir tilla bergen edi, u pulni sira olmadi”.

“- Istambuldag'i urush shundoq qattiq bo'ldiki, o'q bamisoli yomg'ir bo'lib yog'ar edi...”

Kinoya yo'li bilan o'xshatishga “Ko'r” latifasini misol keltiramiz.

“Afandining yoshligidan birga o'sgan bir do'sti bor edi. Yillar o'tib, shu do'sti katta mansabga mindi. Afandi uni amaldorlik lavozimi bilan tabriklash uchun idorasiga kirib bordi. Do'sti Afandi bilan ko'rishish o'rniga:

- Sen kimsan, nima ish bilan kelding?- deb do'q urdi.

- Meni tanimaysanmi, yoshlikdan yong'oq o'ynab o'sgan do'sting bo'lamani. Seni ko'r bo'libdi deb eshitib, ko'ngil so'ragani keluvdim,-dedi Afandi”.

Yana “Ot ustiga minganday” latifasini ham bu yerda tahlil qilib o'tsak xato qilmagan bo'lamiz.

“Afandi eshagini minib bozorga borar ekan, uning orqasidan yetib kelgan otliq bir boy, unga piching otdi:

- Afandi, eshagingiz qalay?

- Ot ustiga minganday,- deb javob berdi Afandi”.

Boy Afandidan “eshagingiz qalay?” deb so'raganda ataylab Afandini masxaralab, o'zining yuqori mavqeい bilan gerdymoqda. “Ot ustiga minganday”,- deb Afandi javob beradi va shunday qilib o'ziga yetkazilgan harakatni teskari yo'naliшga, ya'ni boyning o'ziga qaytaradi. Bu javobni ikki ma'noda tushunish mumkin. Birinchisi: “Yomon emas, xuddi ot ustida ketayotgandekman” degan ifoda bo'lsa, ikkinchisi “ eshagim ot ustiga mingandek – boydek” ma'nosini anglatadi. YA'ni Afandi

boyni eshakka qiyoslayapti. Chunki ot ustida boy o'tiribdi. Afandi ham boyning pichingiga javoban eshagini boyga o'xshatadi.

Latifalarda o'xshatish doston va ertaklardagidan farqli ravishda nihoyatda kam qo'llanganligini kuzatdik. Shunga qaramay u latifada o'z o'rni va vazifasiga ega. Latifalarda sifatlash va o'xshatish bir-birini to'ldirib keladi. Har ikkalasi predmet yoki shaxsga tegishli biron belgi, harakatni ajratib ko'rsatadi. Sifatlash mavjud belgini aynan ko'rsatsa, o'xshatish shu belgini o'xshash sifat, subyekt orqali aniqlaydi. Sifatlashda aniqlik kuchli bo'lsa, o'xshatishda bir oz mubolag'a ko'zga tashlanadi.

Doston va ertaklarda o'xshatilmishning birdan ortiq o'xshovchisi bo'lishi mumkin. Latifalarda esa har bir o'xshatilmish o'zining bitta o'xshovchisiga ega. Har bir o'xshatish mantiqiy badiiy qonuniyat asosida yuzaga chiqadi.

Latifalarda kinoya

Adabiyotlarda kinoya haqida shunday ma'lumotlar bor:

“Kinoya shunday bir so‘z yo bir gapdirkim, yozuvdan yaqin onglashilg‘on ma’no yo fikrdan boshqa yana bir ma’no va fikrni onglatadir-da, maqsad ham shul ikkinchi onglatg‘ani ma’no va fikr bo‘ladir”.

“Ironiya (gr. Eironeia – bilib bilmaganga olish so‘zidan) kinoya, qochiriq, kesatish, piching. Badiiy asardagi inkor etish usullaridan biri bo‘lib, biror shaxs yoki narsa ustidan kesatish, qochiriq vositasida yashirin kulinadi. Shuning uchun ham kinoyaning muhim belgisi so‘z yoki gapning hamma vaqt ikki ma’noli bo‘lishida, haqiqiy ma’no aytilgan so‘z yoki gapning teskari ma’nosи orqali anglashilishida namoyon bo‘ladi. Kinoya o‘zining ta’sir darajasiga qarab fosh etuvchi yoki shunchaki qochiriqdan iborat bo‘ladi”.

“Ironiya kulgini ifodalash usullaridan biri bo‘lib, u ifodaning tashqi shakli ichki mazmuniga zid bo‘ladi. Ironiyada sirtdan qaraganda muayyan bir ma’noni anglatuvchi so‘z va ibora chuqurroq o‘ylab ko‘rilganda, kitobxonda kulgi ham uyg‘otuvchi ichki mazmunga ega bo‘ladi”.

Latifalarda esa xuddi mana shunday tagdor qilib gapirish Afandining doim g‘olib bo‘lishini ta‘minlaydi va janrning ta’sirchanligini oshiradi. Latifa kinoyasining qiziqligi, o‘ziga jalb qila bilishi shundaki, uni bir eshitib kulibgina qo‘yish, lekin bir daqiqadan so‘ng kishini sergaklantirishga, fikrni bir nuqtaga jamlashga undashidadir. Latifa kinoyasi inson tafakkurini o‘tkirlashtiradi va janrning yanada zavqli bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘sadi.

Masalan “Eshak qozi” latifasida qozining qanday odam ekanligi ta’riflab beriladi.

“Afandidan so‘radilar:

- Falonchi shahar hokimiga eshak pora berib, qozilik amalini sotib oldi, siz shunga nima deysiz?

- Nima der edim,- deb javob berdi Afandi,- eshak bo‘lmasa, qozi bo‘lmas edi”.

Bu ikki shaxs o‘rtasidagi dialog g‘oyat qisqa. Lekin uning negizida Afandining o‘tkir so‘zligi, kinoyasi orqali qozining xarakteri ochib berilayapti. “Eshak bo‘lmasa, qozi bo‘lmas edi” degan gapning zamiridan ikki ma’noni uqish mumkin: birinchisi – falonching eshagi bo‘lmasa, ya’ni pora uchun eshak bermaganda u qozi bo‘la olmas edi, degan ma’no bo‘lsa, ikkinchisi – agar o‘sha falonchi eshak bo‘lmasa, qozilikni sotib olarmidi, degan ma’nodir. Latifada qozining eshakdan ham ahmoqligini Afandi chiroyli shaklda fosh etadi.

“Nasiba” latifasida “nasiba” so‘zi kesatiq ma’nosida ishlatilishi orqali kulgili holat namoyon bo‘ladi.

“Imom Afandining qo‘shnisi bo‘lib, u har kuni tushlik va kechqurunlik ovqat vaqtlarida Afandining uyiga kirib kelaverar edi. Bir kuni u osh damlanib turgan vaqtida kirib kelgan edi, Afandi “Yaxshi mehmon osh ustida, keling”, deb oshni yedirib jo‘natdi. Ertasiga ham xuddi o‘sha vaqtida Afandi osh damlab turgan edi, imom kirib keldi-da, “nasiba” deb oshni oxirigacha yeishib, chiqib ketdi.

To‘rtinchi – beshinchi kunlari ham osh damlangan vaqtida domla imom kirib “nasiba” deb oshni yeb chiqib ketaverdi.

Kunlardan birida yana Afandi oshni damlab turgan edi, domla imom kirib qoldi, u qo‘liga kaltak olib imomni savalay ketdi.

Domla:

- Bu nima qilganingiz? – degan edi.

- Nasiba- deb javob berdi Afandi”.

Kinoyaga boy nutq, birinchidan, tasvirlanayotgan narsa – hodisalarning, shaxslarning mohiyatini ochishga yordam beradi, ikkinchidan, aytuvchining ularga munosabatini oydinlashtiradi. Yuqoridagi misollarda biz kinoya vositasida qozi va imomning qiyofasini, qanday shaxs ekanligini aniq bilib olamiz. Ikkinchidan, xuddi shu kinoya tinglovchi ko‘z o‘ngida aytuvchining qozi va imomga salbiy munosabatda ekanligini, ularni kulgi yo‘li bilan qoralashga, fosh etishga intilganligini aniq – ravshan gavdalantiradi.

Xulosa qilib aytganda badiiy – tasviriy vositalar so‘zning nafosatlilagini ta’minlaydi, mantiqiy tovlanishlar va chuqur mazmundorlik baxsh etadi, ularni takomillashtiradi. Ravshanki o‘zbek xalq latifalarida tasviriy vositalar katta ahamiyatga ega. Latifalarda sifatlash, o‘xshatish, istiora, mubolag‘a, kinoyalar keng qo‘llaniladi.

Latifalarda mubolag‘a

Adabiyotshunoslikda mubolag‘aga ikki xil qarash bor – biri badiiy ko‘chim, uslubiy vosita sifatida bo‘lsa, ikkinchisi esa har xil obraz yaratuvchi vosita, badiiy kompozitsion usul.

Folklorshunoslar, aksincha, mubolag‘ani ma‘lum bir janr chegarasida qarab chiqishadi, ko‘pincha dostonlar yoki ertaklarda, lekin latifalardagi o‘ziga xos va rang-barang vazifalarini ko‘rsatishmagan. Ravshanki, janrning o‘ziga xosligi, uning vazifasi, badiiy o‘zgachaligi va unda badiiy vositalarning, jumladan mubolag‘aning qo‘llanishini aniqlashimiz zarur.

Latifalarda uydirmanning o‘zgachaligi unda badiiy usullar va uslubiy vositalarning xususiyatlarini belgilaydi. Latifaning badiiy usullarini belgilovchi muhim xususiyati uning mazmunida, konflikt xarakterida. Ko‘pgina latifalarning konflikti asosini ijtimoiy yoki axloqiy zid munosabatlar belgilaydi. Latifalar konfliktining o‘ziga xosligi shundaki, ular hayotdan olinib aql bovar qilmaydigan holatlarda reallashtiriladi, tugallama asar g‘oyaviy fikri ochilishi, raqibni xijolat qilish yoki fosh qilish bilan aniqlanadi.

Ijtimoiy – maishiy latifalarning asosiy vazifasi – raqibni fosh qilish va xalq qahramonining kuch va imkoniyatlarini tasdiqlash – hajviy tasvir yordamida amalga oshiriladi. Ularning mana shu xususiyatlari hajviy obraz yaratishda nutqiy xarakterlar bilan birga muhim vositalardan bo‘lgan mubolag‘a kabi badiiy usul ahamiyatini belgilaydi.

Latifalarda asosan qahramonning xususiyatlari, ayyorligi yoki go‘lligi, harakati mubolag‘alashtiriladi. Olimlarimizning yozishicha klassik adabiyotshunosligimizda mubolag‘aning o‘zi uch turga ajratilib, har bir tur alohida nom bilan yuritiladi. Ulardan birinchisi latifalarda uchraydi:

- 1) Tasvirning bo‘rttirilishi aqlga muvofiq kelsa ham, biroq real hayotda bunday bo‘rttirishning uchrashi qiyin. Mubolag‘aning bu turi tablig‘ deb yuritiladi. Bunga bir necha latifani misol qilib keltiramiz.

Ijtimoiy – siyosiy mazmundagi “Eshak boshi” latifasida podshohning nomi aniq aytilmaydi. Bu xil latifalarda ko‘pchilik podshohlarga xos eng xarakterli tomonlar fosh etilayotgani uchun ham ularda konkret shoh nomi tilga olinmay, umuman podshohlarga xos xususiyatlarni ochishga intilish kuchli.

“Podsho Afandini mulzam qilish maqsadida farmoni oliy o‘qiydi:

- Biz bugundan boshlab Nasriddinni eshak boshilik martabasiga loyiq va muvofiq ko‘rdik...

Afandi o‘rnidan turib podshoga ta’zim qildi va borib taxtdan yuqoriroq bir joyga o‘tirdi.

- Ha, Afandi, - dedi podsho, - nima mendan ham yuqoriga o‘tirdingiz?

Afandi qo‘lini ko‘tardi:

- Jim, men o‘z vazifamning ijrosiga kirishdim”.

O‘z o‘rnida ustalik bilan ishlatalgan harakat vositasi bilan chuqur sotsial mazmundagi shartli hodisa aks ettirilgan. Bu o‘rinda “jim, men o‘z vazifamning ijrosiga kirishdim” javobi bilan asta-sekin qilingan harakat orqali podshohdan ham yuqoriroqqa o‘tirib, podshoning “Eshak boshi” likka loyiq va muvofiq ko‘rganligini, bugundan boshlab esa Afandi o‘zining shu “eshaklarga boshliq” bo‘lganligini kulgili harakati bilan ifodalashi o‘ta mubolag‘alashtirilib tasvirlangan.

Ba’zi latifalarda turli bid’at, mo‘jizakorlik, karomat qilish, chorasiz qolganda o‘zini tabib sifatida ko‘rsatish hollari ham Nasriddin obrazi orqali juda bo‘rttirilib aks ettirilgan. Masalan “O‘lik” latifasida oddiy qamchini mo‘jizakor deb tushunish bilan odamlar tabiatidagi befarqlik, oddiy tajribadan chiqib aytilgan maslahatni “karomat” deb ixlos qo‘yuvchi shaxslar ko‘rsatilgan.

Bu latifada qamchini mo‘jizakor deb tushungan, eshagi uch marta qoqilgach, o‘lishiga ishongan, o‘tkinchi shaxsni xizir deb bilgan, oddiy narsalarga karomat deb qarovchi Afandi obrazi orqali nihoyatda sodda, go‘l va anqov shaxslarning xususiyatlari bo‘rttirilgan.

“Ichimga ketib qolmasin” latifasida Afandining so‘zga chechanligi bilan tanishamiz:

“Afandinikiga hazilkash o‘rtoqlaridan biri mehmon bo‘lib keldi. Afandi rosa ziyofat qildi, hatto choyni ham kosada uzatdi.

- Afandi, menga arqon bersangiz, dedi mehmon.

- Ha, arqonni nima qilasiz?

- O‘zimni bog‘lab qo‘yaman. Tag‘in kosaning ichiga tushib ketmay...

Oradan bir necha kun o‘tgach, Afandi ham unikiga mehmon bo‘lib bordi. Do‘sti jo‘rttaga unga kichkinagina piyolada choy uzatdi.

- Menga bir arqon bering,- dedi Afandi.

- Ha, siz ham o‘zingizni bog‘lab qo‘ymoqchimisiz?

- Yo‘q, o‘zimni emas piyolani bog‘lab qo‘ymoqchiman, tag‘in ichimga tushib ketib qolmasin...”

Latifa janrida turmushda uchrab turadigan voqeа – hodisa, buyumlarga munosabatning odatdagi ma‘lum meyordan chiqish hollari ham uchrab turishini bu latifa yaqqol ko‘rsatib turibdi. Afandi o‘rtog‘idan piyolani yutib yubormaslikka chora sifatida, arqon so‘rab, o‘z o‘rtog‘iga o‘rinli hazil qiladi.

“Yolg‘on va yolg‘onchilik” latifasi ham mubolag‘aga yaqqol misol bo‘la oladi.

“- Biz juda boy edik, otamning hisobsiz yilqilar bor edi. Ular uchun shunday katta otxona qurgan edikki, yangi qochirilgan biyalar uning bir boshidan kirsa, ikkinchi boshiga yetguncha qulunlar edi.

Odamlar orasida jimgina o‘tirgan Afandi gap shu yerga kelganda dedi:

- U to‘g‘ri aytadi, men ham o‘sha otxonani ko‘rganman, otam bularnikida ot boqardi. Otamning ot haydaydigan shunday uzun kaltagi bor ediki, hatto yilqilar dalaga chiqqanda havo bulutlanib qolsa, yomg‘ir yog‘ib qolmasin deb, o‘sha kaltak bilan bulutlarni ham haydab yuborar edi.

Afandining masxara qilayotganini sezgan yolg‘onchi unga piching qildi:

- Afandi yolg‘on ham evi bilan - da, otangizda o‘shanday kaltak bo‘lgan deb faraz qilaylik, aying - chi, uni qayerda saqlar edi?

- Iye, qayerda emish – a, otangizning o‘sha siz aytgan otxonasida saqlar edi – da!- deb javob berdi afandi”.

Shu qatorda “Hur” latifasini ham keltirib o‘taylik.

“Machitda namozshomdan keyin imom namozxonlarni to‘plab, jannatdagi hurlarning husnini maqtay ketdi:

- Jannat hurlarining sochi shunday uzunki, sochini buklab-buklab qo‘ltiqlab yuradi.

Afandi ko‘zini yumib turib so‘radi:

- Hurning bo‘yi ham sochiga yarashami?

- Albatta, albatta! – dedi imom.

- Unday bo‘lsa u dunyoda ham tashvishdan chiqmas ekanmiz-da, hurni o‘pmoqchi bo‘lsak narvon kerak ekan-da”.

Bu latifada hurning husni, sochi, bo‘yi mubolag‘ali tasvirlanganidan Afandi kutilmagan xulosaga keladi.

O‘zbek xalq latifalarini qarab chiqish shunday xulosaga olib keladiki, mubolag‘a ularda katta o‘ringa ega. U – hajviy obraz yaratishda asosiy vosita va latifalarning kompozitsiyasi va syujeti tuzilishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Janr xususiyatiga binoan mubolag‘alashtirish personajlarning va predmetlarning har xil xususiyatlarini tasvirlash uchun ishlataladi. Bu yerda mubolag‘aning asosiy vazifasi so‘ngi hisobda – raqib ustidan kulish.

Adabiyotlar

1. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. – Т.: Ўқитувчи, 1995.
2. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1979.
3. Афанди латифалари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990.
4. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 128.

5. Латифалар. – Т.: Бадиий адабиёт, 1968.
 6. Насриддин Афанди латифалари. – Т.: Ўздавадабий нашр, 1960.

UDK: 491.5

SAMARQAND TOJIKLARI ETNOGRAFIK LEKSIKASIGA OID BA`ZI MULOHAZALAR
A.Xonxo'jayeva

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada Samarqand tojik etnik qatlaming tarixiy va ijtimoiy etnik an'analari masalasi hamda oilaviy, diniy jarayonlari etnografik leksikasi, Samarqand xalqining an'anaviy tarixiy qadriyatlar etnograf va tarixchi olimlar tomonidan tadqiq etilish tarixi yoritilgan.

Kalit so'zlar: etnografik, etnik, lahja, sheva, govohan, xonai tobistonй, quda-yu anda, rais, kotib, sadir, ziyorat, azakushoyon, ma'raka.

Некоторые вопросы лексикологии этнографии самарканских таджиков

Аннотация: В статье освещается история исследования учеными этнографами и историками традиционных исторических ценностей народа Самарканда, этнографическая лексика религиозных, семейных процессов, а также вопрос исторических и социальных этнических традиций этнического слоя таджиков города Самарканда.

Ключевые слова: этнография, говор, диалектология, сватья, председатель, секретарь, садир, паломничество, традиция, мероприятия, траур.

Some issues of lexicology of the ethnography of Samarkand Tajik's

Abstract. The article reveals the problems of historical of historical and ethnic traditions of ethnic level of Samarkand tajiks, as well as ethnographic vocabulary of family, religious process, historical ethnographic values of Samarkand people was learned in the works of ethnographs and scientists-historians.

Keywords: ethnographic, ethnical, dialect, summer house, relatives – in – law, chairman, Secretary, clothing, pilgrimage, mourning, ceremony.

Ma'lumki, dunyodagi barcha xalqlarning tarixiy va ijtimoiy etnik kelib chiqishi jihatidan, turmush tarzi, urf-odatlari mavjud bo'lganidek, Samarqand tojik etnik qatlamlarning ham o`ziga xos an'anaviy urf-odatlari, diniy marosimlari, tantanalari juda ko'p. Etnografiya, ya'ni xalqshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda bir qancha qadimiy Urf-odat va ananalar saqlangan bo'lsada, ayrimlari iste'moldan chiqqan yoki, o'zining mazmun-mohiyatini o'zgartirgan.

So'z va ayrim mafhumlar va yo atamalar ma'nolarini leksik jihatdan ikki guruhga taqsimlash maqsadga muvofiq. Birinchi guruhga tojik tili barcha shevalarida ishlatalidigan so'z va atamalarni kiritish mumkin. Ikkinci guruhga esa muayyan aholi qatlamida qo'llanadigan alohida so'zlar kiradi. Bu guruhdagi so'zlar u yoki bu mahalliy aholi shevasiga xos bo'lib, moddiy-maishiy, madaniy va xo'jalik sohalarini bildiradi. Asrlar davomida o'zining tarixiy qadriyatlarini, an'ana va urf-odatlarini yo'qotmagan ushbu milliy an'ana marosimlariga bo'lgan e'tiqodlarini saqlagan holda yashab kelmoqda. Natijada yuzlab so'zlar va atamalar, ularning ma'no jilolari vujudga kelib, mazkur tilning tarkibiy zaxirasini shakllantirishda muhim o'rinn egallagan.

Shuni alohida ta'kitlash joizri, tojik lahjalari tadqiqi Oktyabr inqilobidan oldin boshlanganligini korish mumkin.

Tojik tilshunosligida Samarqand tojiklari etnografiyasining leksikasi alohida tadqiqot sifatida o'rjanilmagan. Bu borada ayrim olimlar tadqiqotlarida alohida etnografik atamalar, so'zlar va istilohlarning leksik xususiyatlari haqida fikr va mulohazalar mavjud. Xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, Samarqand xalqining an'anaviy tarixiy qadriyatlar etnograflar va tarixchi olimlar tomonidan muayyan darajada yoritilgan. Bundan tashqari folklorshunos olimlar tomonidan ham mazkur masala yuzasidan ayrim fikrlar bildirilgan.

Shuningdek, Samarqand tojik tili leksikasini tadqiq etishda suhbat yo'li bilan, balki yozma ma'lumot to'plash, muayyan maishiy-madaniy turmush hodisalari, oila-nikoh munosabatlari, marosim xalq sayillari va o'yinlari kuzatishda uyushqoqlik bilan ish olib borish maqsadga muvofiqli. O'zbekiston hududida istiqomat qilgan qabila va elatlar to'g'risidagi eng qadimiy etnografik

ma'lumotlar, folklorshunoslikdagi tadqiqotlar ilk yozma manbalarda, yunon-rim mualliflari Gerodot, Arrian, Prolomey, sitsiliyalik Diodor, Pompey, Troch, Tatsit asarlarida uchraydi. Mazkur tadqiqotlarda Samarqand tojik xalqining qadimgi ajdodlari va ularning turmush tarzi urf-odat va marosimlari to'g'risida qimmatli ma'lumotni uchratish mumkin.

Tojik tili lug'ati va leksik etnografiyasini yuksalishida Samarqand tojiklari lahjasining ham muayyan mavqega ega ekanligini alohida ta'kidlash zarur. Shu bois, Samarqand tojiklari etnografizmi boshqa millat va elatlар leksikasidan tubdan farq qilib turadi. Har bir hudud va mahal aholisi (shu jumladan, shahar, tuman, tog'lik va boshqalar) shevasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularda leksik qatlarning eng muhim tarkibiy qismi o'z aksini topgan. Mazkur leksik qatlamda nafaqat asl, balki boshqa millat va elatlarga xos bo`lgan til belgilari, alohida so`zlar, urf va odat unsurlari va kamchiliklari uchraydi. Jumladan, leksik qismlarning ayrimlarida umumeroniylar va tillarga xos bo`lgan so`zlar qatorida arab, o'zbek va ruscha leksik belgililar mavjudligini ham kuzatish mumkin. Qadimgi Samarqand tojiklari leksik etnografiyasini qatlamlarida umumeroniylar va tillarga xos bo`lgan so`zlardan foydalanganligining guvohi bo`lamiz: jumladan posa, **govohan**(bachkam), **xonai tobiston**- yozgi uy, **quda-yu anda** qiz berib, kelin qilish asosida vujudga kelgan atamalarni shular sirasiga kiritish mumkin.

Etnografik leksik qatlamlarda shunday so`zlar ham uchraydiki, ular so`zning ma'no jihatidan shakllanish bosqichlari zamirida yuzaga kelgan. Bunga:

Ko'k kiyish (qora kunda), **uchinchchi oqshom**, **yettilik**, **yigirmalik**, **qirq**, **yil** va boshqalar son so`z turkumiga taalluqli emas, balki shakllanish jarayonida asl ma'nosidan ko`chma ma'no kasb etgan. Bu atamalar etnografiyada motam marosimlarda ishlataligan va an'anaga aylangan leksik qatlamlardir.

Shuni ham alohida qayd etish kerakki, Samarqand marosim leksikasida o'zbekcha so`zlar va gaplar ham uchraydi: kelin, suyunchi, to'y, saylxarji, uloq tortish, ko'pkari, irtish - yirtish, sovchi (zavchi) va boshqalar bunga misol bo'la oladi.

Samarqand tojik xalqining ba'zi bir milliy an'ana va marosimalari borki, ularda ishlataladigan atamalar arab leksik qatlamanidan olingenini bilish mumkin. Ularning ishlatalishi ham o`ziga xos bo'lib, yangi ma'nolar talqinida ham va yo eskicha qarashlar negizida ham asl ma'nosida to'y va ta'ziya marosimlarda qo'llaniladi. Misol uchun: ma'raka, sadir, ziyyarat, **rais**, **kotib yoki kotiba** va b.

Samarqand tojik xalqi etnografiyasining ko`plab qismi sun'iy ravishda so`z yasash va so`z o'zlashtirish yo`li bilan yaratilganligini ta'kidlash lozim. Masalan talbon(so'rog'lash), chilla, xostgorzavchi, safedi - oqlik berish, xonadomod - ichkuyov, **navro'**z va boshqa so`zlar bunga misol bo'la oladi. Jalloblik, dallollik, azodor, qabulidoram, azokushoyon, (aza ochish), kelintalbon – (chorlash) va shunga o`xshash so`zлarni ham bunga misol keltirish mumkin.

Urf-odat nomlarini bildiruvchi atamalar mantiqan bir necha guro'hga bo'linadi. Ular urf-odat nomlari, bunga: farzandning tug'ilishi, nikoh to'y, mehmondorchilik, ziyofat berish; bazmlar qaydi: tantana kechasi, xalqona marosimlar, bahor marosimi, hosilot marosimi, xalq o'yinlari nomlari, dehqonchilik, chorvachilik, tikuvchilik sohalari marosimlari nomi va boshqa hunarmandchiliklarni o'z ichiga oladi.

Jamiyatning taraqqiy etishitining evolyutsion shakllanishi va tadrijiy takomuli natijasida tarkibida arabcha unsurlar va elementlar bo`lgan etnografizmlar iste'moldan chiqib, ularning o'rnini yangi tipdag'i atamalar va so`zlar egallamoqda. Gapning indalosini aytganda, xalqlarni o'rganishda etnografiya fani nihoyatda keng va xilma-xil manbalardan hamda usullardan foydalananmoqda. Bu sohada bir joyda uzoq yashab, kuzatish yo`li bilan o'tkazilgan tadqiqotlar eng samarali ekanligini etnografizmlar qayd etib o'tishgan.

Qisqa muddatda, ayrim mavsumlarda o'tkaziladigan tadqiqot ishlari ekspeditsiya usuli bo'lib, hozir keng tarqalgan va mavsumiy usul deyiladi.

Ana shu tadqiqotlar asnosida Samarqand tojik tili lahjasida baynalmilal so`zlar, leksik etnografiyalar paydo bo'lganligi aniqlandi. Bu so`zlar jamiyatning bosqichma-bosqich taraqiyot etishi, ularning dunyoqarashi kengayishi tufayli yuzaga kelib, asosan, odamlarning urf-odati, to'y-ma'raka kabi har xil tadbir larga aloqamanddir. Mazkur etnografizmlar va ularga xos leksikaning paydo bo'lishida birlamchi yaratuvchi va ijodor xalqning o'zi hisoblanadi. Bunga tungi gashtak, yangi yil, bahor bayrami, gul bayrami, hukumat mukofotlari olish payti, harbiy xizmatdan qaytganlarga xos tadbirlar va marosimlar misol bo'la oladi.

Bu borada xalqlar, etnik guruuhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va tarixiy rejadagi geografik muhit yetakchi rol o'ynaydi. Xullas, dunyodagi barcha xalqlarning etnografiyasini o'rganilib, har bir

millat urf-odati, milliy turmush tarzi, o`ziga xos madanaiyat darajasi va hokazolar ohib beriladi. Etnografizmlar leksik qabatlariga oid so`zlar va tarkiblar bevosita xalqning har kunlik turmush tarziga bog`liq bo`lib, ular alohida tarzda ham muayyan semantik ma`nolar kasb etgan. Shuning uchun ular qo`yidagicha bo`linadi:

a) To`y ana` analari bildiruvchi aforizmlar: nikoh to`yi, qizlar bazmi- debocha, sunnat - o`fil bolalar to`yi,sovchi (xostgor), dugonalar gashtagi, yuz ko`rish (ro`binon), baranda to`y olib boruvchi, nonshikanon - nonsindirish, kiyish kiydirish va boshqalar.

b) Milliy sport o`yinlariga xos etnografizmlar: chaqaloqning qulog`iga azon o`qish, aqiba to`yi, boz barak o`ynash, kurash, echki tortish, uloq, chillak o`ynash, qilich o`ynash va b.

v) Tug`ilgan farzand tarbiyasiga bog`liq etnografizmlar: beshinch kecha,yettinchi kecha,chillani ochish tadbiri,beshikka boylash,tug`ilgan tunni nishonlash,tishi chiqqanini nishonlash,soch oldirish to`yi, muchal to`yi va h.k.

g) Motam marosimiga xos etnografizmlar: yigirma,qirq,yil ta`ziya kunlari,ko`k kiyish,aza ochish va b.

Mansab vazifalarini bildiruvchi etnografik so`zlar quyidagilarga bo`linadi:

1.Amaliy ishlarni bajaruvchi shaxslarning etnografik so`zları: bakavul, hasharchi, sovchi, (so`rovchi), dastarxonchi, rais, (to`y raisi) oqsoqol, (sardor ma`nosida, tajribali kishi), xodim (xodima), paykol (xabar beruvchi, aholini marosimlarga da`vat qiluvchi).

2.Kelin va uning yaqinlariga sovg`a beruvchining so`z va mansabini bildiruvchi leksik qatlamlar: holva berish, yuborish tadbiri, somsa yuborish, kiyim-kechak berish, la`li yuborish, to`n kiydirish, dastarxon yuborish va b.

3.To`y boshlanishidan oldin ishlataladigan so`z va iboralar: maslihat oshi, (osh maslihati), sabzi to`g`rash, oshi ord kesish, libos kiyish, dugonalarni chorlash va h.k.

4.To`ydan keyingi ahvolni bildiruvchi so`z va iboralar: kuyov chorlash, kelin ko`rish, kelin chorlash va b.

5. Eng muhim an`ana va odatlarni bildiruvchi so`z va iboralar. Ushbu etnografizmlar voqealar holati,amali va tafsilotini bildiradi: non sindirish, yuz ko`rish, oyna ko`rish, layli tortish, to`yona berish, poyandoz tashlash, kiyim kesish, FHDYO qaydidan o`tish (ZAGS) va b.

6. Ba`zi mavhum marosimlarni bildiruvchi etnografizmlar: uchinchi oqshom, ettinchi oqshom, yigirma, qirq, yil va b.

7. Marosimlarda iste`mol qilinadigan ichimlik va ovqatlar so`z va iboralar: yil oshi, halvoytar, hadisa berish, sumalak pishirish, somsa berish va b.

Etnografik leksikada shunday holatlarni uchratish mumkinkim, voqealar undan ortiq so`zlardan tashkil topgan. Ushbu so`zlar uslub va ma`nolariga binoan leksik dubletlar, yo`ki ikkilanma qo`shma leksika deya nomlanadi. Bunga: kiyimkesish (parchaburron), xostgor (sovchi), chovandoz (ko`pkaritox) so`zları misol bo`la oladi.

Bunday ikkilanma leksika an`ana va marosimlarda ko`proq uchraydi va ma`no jihatidan quyidagi guruhlarga bo`linadi.

1. To`y nomini bildiruvchi so`zlar.
2. To`y kuni o`tkaziladigan milliy odat va marosimlar.
3. To`y kuni amal qiluvchi milliy urf-odatlar.
4. To`y kuni o`tkaziladigan milliy odat va o`yinlar.

Uylanish to`yi kuni bo`lib o`tadigan urf-odatlar leksikasini tematik xususiyatiga ko`ra qo`yidagicha tasniflash mumkin.

1. Nikoh to`yigacha o`tkaziladigan urf-odatlar nomlari.
2. Nikoh to`yi kuni amal qiluvchi urf-odatlar nomlari.
3. To`y kuni o`tkaziladigan uyinlar nomi.
4. To`y jarayoni bilan bog`liq bo`lgan so`z va atamalar.
5. Yangi to`ylardagi urf-odatlarni bildiruvchi istilohlar.

Hayot shunday go`zalki uning tarovati, insonning yashashga bo`lgan cheksiz ishtiyoqini so`z bilan ta`riflash qiyin. Hamma to`y-tamoshlo qilishni, baxtli hayot kechirishni, farovonlikda yashashni istaydi. To`y marosimlardagi urf-odatlar azaldan shunday bo`lib, bizgacha turli nomlarda kelgan. Uylanish, qizni erga berish (turmushga chiqarish) ham bir qancha guruhlarga bo`linadi va ularning har biri o`zgacha atamalar va atamalar bilan ataladi.

Ba'zi etnografizmlar Samarqand hududi doirasida o'zgacha lahja bilan ataladi va o`ziga xos xususiyatlarga ega. (bakavul, oqlik, beshinchi oqshom, non sindirish, chilladan chiqarish). Boshqa qismlari umumxalq tilida ma'lum va mashhurdir: chorlov, ko'k kiyish, sayl, gashtak, yuz ko'rish va boshqalar. Ushbu so'zlarning bir qismi adabiy til lug'aviy boyligiga kiritilgan va kiritilish arafasidadir. Shuning uchun adabiy tojik tili leksikasi, mahalliy xalq shevalari, xususan, etnografizmlar tufayli ham boyib bormoqda.

1. Shu nuqtai nazardan Samarqand tojiklari lahjasida etnografik leksika qo'shimcha ma'nolar kasb etganligining guvohi bo`lamiz. Masalan: ko'k, oqlik, yigirma, qirq, qoralik, qizillik, non sindirish, layli tortish, layli olib borish, osh berish, o'ylanish va g'ayra. Ushbu so'zlar nafaqat o'zining asl ma'nosida, balki aytuvchining maqsad va muddaosi nuqtai nazaridan qo'shimcha ma'nolar yo tamomila yangicha talqinlarda jaranglamoqda hamda iste'molga kiritilgan. Xususan ko'k va qora aslida o'z ma'nosida, ya'ni ranglarni anglatsada, Samarqand tojik lahjasida mazkur so'zlar iborlar va frazeologik birikmalar shaklida majoziy va ramziy ma'no kasb etgan holda, ta'ziya va motam marosimlarida ishlatiladigan o'ziga xos leksik qatlamlarni tashkil etadi. Natijada ko'k kiyish, qora kiyish kabi yangicha talqinlar yuzaga kelganligining guvohi bo`lishimz mumkin. Bu holatda so'zlar ikki yo'l bilan yangicha semantik ma'no kasb etadi. Dastlab ular asl ma'nosida ishlatilsa, ikkinchi holatda yangi ma'no talqiniga mutanosib ravishda omonim xususiyatiga ega bo`ladi. Xuddi shunga o'xshash misollarni Samarqand tojiklari lahjalaridan ko`plab keltirish mumkin. Masalan, *layli* so'zi aslida lug'atlarda ham; 1. Ro'zg'orda ishlatiladigan buyum. 2. To'hfa, sovg'a ma'nolarini; *ko'k*; 1. ko'k rangi, 2. motam libosi; ikkinchi asl ma'nosini yo'qotib etnografik leksikaga aylanadi. Masalan, *bakovul* (ovul begi) va ikkilamchi ma'noda ma'raka begi, maraka o'tkazuvchi, davraboshi ma'nolarida qo'llaniladi.

2. Samarqand tojik tili lahjalarida etnografik leksika so'zlarning yangicha va mazmun kasb etishi hamda ularningiboralar tarkibida majoziy ma'no kasb etishi natijasida shakllangan. Ular grammatik kategoriylar nuqtai nazaridan ot, sifat, son, fe'lga mansubdirlar. Tarkib jihatidan sodda, yasama, tarkibiy va murakkab so'zlar hisoblanishadi. Etnografizmlarning shakllanishida "affiks" larning o'rni beqiyosdir. Tahllilar shundan dalolat bermoqdakim, mazkur tipdagi so'zliklar bir so'z turkumidan boshqa so'z turkumlariga o'tganligining ham guvohi bo`lishimiz mumkin.

3. Samarqand tojik xalqining etnografik so'z va iboralar shakllanishi o'ziga xos ta'rixiy jarayondan iborat. Ularning yaratilishi xalqning boy madaniy merosi va tarixiy yuksalish bosqichlariga bog'liqidir. Ularning asosiy qismi umummilliyl til sistemasiga kiritilgan bo'lib, turli lahjalarda turli shakllarda qo'llanilib kelinmoqda.

4. Samarqand tojik xalqining etnografiyasining leksiksikasida o'zbekcha, ruscha, arabcha va baynalmillal so'zlarni ham o'chrashish mumkin.

5. Mazkur tipdagi o'ziga xos leksik qatlam jamiyatning rivojlanishi, davrning tarixiy yuksalishi tufayli ayrim urf-odat, rasm-rusmlar, an'ana va qadimiy e'tiqodlardan kelib chiqqan.

6. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, ko`plab sohalardagi islohotlar barcha xalqlar va elatlар qatori tojik millatiga mansub etnik qatlaming milliy urf-odat, marosimlar, an'analarining takomillashuviga ham o'zining samarali ta'sirini o'tkazdi. Bu hodisa ayniqsa lahja leksikasi, leksik-etnografiyada o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur lahjada etnografizmlarning shakllanishida so'z yasovchi vositalarning o'rni beqiyosdir. Bu borada affiksatsiya, kompozitsiya, leksik sintaksis va leksik smemantik hodisalarining ham o'rnini alohida ta'kidlash zarur.

7. Samarqandlik tojik xalqi etnografizm lahjalarida sheva leksikasi o'z in'ikosini topgan bo'lsada, ularning ayrimlari adabiy tilda o'ziga xos shakllarga ega va ular o'zining tarkibiy qismlari hamda tuzilishi jihatidan - sodda, yasama, tarkibiy va murakkab turlarga bo`linadi. Bu jarayonlarni o'rganish uchun tilning luo'aviy boyliklarini izchil tarzda o'rganish, yangi tipdagi sheva lug'attalarini yaratish va tuzish, lahjalarning tarixiy ildizlarini o'rganish va ularning rivojlanish bosqichlarini hozirgi kunga qadar sinchiklab tadqiq etish zarur va har bir sohada ilmiy va amaliy yondashish lozim. Shundagina kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Xulosa qilib aysak, mustaqillikning so'nggi yillarda tojik tili shevalari leksikasi bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lib, mazkur sohada yozilgan ilmiy maqolalar fikrimizni tasdiqlaydi. Ammo, ma'naviy-siyosiy sohalarda fa'oliyat ko'rsatayotgan Samarqand viloyati aholisining leksikasi hali to'liq o'rganilgan emas. Birgina urf-odat, milliy an'analar, marosim va mavsumiy, mehnat hamda oilaviy, diniy, jarayonlarini o'zida mujassam etgan muayyan xalq va elatlarning etnografik leksikasi hali to'liq o'rganilmaganligini anglash mumkin. Etnografik leksika

tilning qadimiy qatlamlaridan biri bo`lib, mustaqiltardza o`rganilmagan. Shuning uchun mazkur masalalarni o`rganish, ularning lingvistik jihatdan tadqiq va tahlil etish shevashunoslik, til tarixi va lug`atlar yaratish, xususan tafsiriy lug`atlar va shevalarga oid lug`atlarni tuzish bobidagi qator muammolarni bartaraf etishda muhim omil bo`lib xizmat qiladi. Etnografik leksika, tilshunoslikdagi eng boy qatlamlardan biri bo`lib, mazkur qatlamda moddiy va ma`naviy sohalarga oid so`z va birikmalar, urf-odalar, xalqning qadimiy an`analariga xos milliy qadriyatlarning alohida atamalarini qamrab oladi. Bu soha murakkab va ayni damda izchil izlanishlarni taqozo etadi.

Adabiyotlar

1. Григорьев В.В. Обозрение диалектических особенностей употребительного у бухарских таджиков персидского языка. (О некоторых событиях в Бухре, Коканде и Кашгаре). – Казан, 1861.
2. Сухаревой О.А. К Истории костюма населения Самарканда-Бюл. – Тошкент, 1945.
3. Растворгueva B.C. Очерки по таджикской диалектологии. – Москва, 1952.
4. Маҳмудов М., Чўраев F. Лугати шеваҳои забони тоҷикӣ. Ҷилди 1. – Душанбе, 1997.
5. Фарҳанги забони тоҷикӣ. Ҷилди 1. – Москва, 1969.
6. Фарҳанги забони тоҷикӣ. Ҷилди 2. – Москва, 1969.
7. Фаффоров Р. Шеваи ҷанубии забони тоҷикӣ. Ҷилди 3. – Душанбе, 1979.

UDK: 4IR-33

VON PREDLOGINING LEKSIK, SEMANTIK XUSUSIYATIGA KO`RA MAZMUN MOHIYATINING YORITILISHI

M.Rahimov

Samarqand davlat universiteti

E-mail: umidalolik@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis tilida ko`p qo`llaniladigan von predlogi haqida hikoya qilinadi. Von predlogining leksik va semantik xususiyatlari haqida ma`lumot beriladi. Shu bilan birga von predlogining grammatikaga oid ilmiy manbalarda berilgan ma`lumotlar misollar yordamida tushuntirib berilgan.

Kalit so`zlar: semantika, predlog, leksika, grammatika.

Раскрытие сущности лексико-семантических особенностей предлога «von»

Аннотация. В данной статье рассматривается часто употребляемый в немецком языке предлог “von”. Приводятся сведения о его лексико-семантических особенностях. При этом, приводимый в грамматической литературе теоретический материал раскрывается на примерах.

Ключевые слова: семантика, предлог, лексика, грамматика.

The description of the preposition “von” according to lexical and semantical features

Abstract. This article is about the preposition “von” which is mostly used in German language. There are some information about lexical and semantic features of the preposition “von”. The data given in scientific sources on preposition “von” in grammar is explained by several examples.

Keywords: semantics, preposition, lexics, grammar.

Hozirgi zamon nemis tili fanida von predlogining asosiy vazifasi narsa-predmetning o`rniga joyiga nisbatan, holati predmet haqida tegishlilik yoki masofaga nisbatan ma`nolarini ifodalaydi. Grammatik adabiyotlarda von predlogi haqida quyidagi ma`nolarni bildirishi keltiriladi: von predlogi ish harakatning boshlanish o`rnini, chiqish nuqtasini bildirib ... dan, paytni ifodalab...dan boshlab, qaratqich kelishigi ma`nosini bildirib...ning va haqida, to`g`risida, ...dan beri kabi ma`nolarni anglatadi va o`z navbatida masofani ham bildiradi. Bu jarayonlarni quyidagi misollar yordamida ko`rish mumkin.

Ich habe von meinem Freund einen Brief bekommen. Men do'stimdan xat oldim. Die Arbeiter kommen von der Arbeit nach ihren Häusern. Ishchilar ishdan uylariga kelayaptilar. Von der fünften Klasse an werden in unseren Schulen die Fremdsprachen unterrichtet. Bizning maktablarimizda chet tillar 5-sinfdan o'qitiladi. Die Jahresarbeiten von Studenten. Talabaning yillik ishi. Einer von den

Studenten. Talabalarning bittasi. Er spricht von dir. U sen haqingda gapiroayapti. Das neue Schulgebäude liegt unweit von der alten Schmiede. Yangi maktab binosi eski temirchilik ustaxonasiga yaqin joylashgan.

Von predlogi leksik jihatdan zarur bo'lgan bilim, ko'nigmaga, narsa, qurol olish mumkin bo'lgan shaxsga ya'ni «manba» vazifasini bajaruvchi, o'tovchi kishiga insonga nisbatan ishorani ifodalaydi. Ko'p hollarda bunday vazifani shuningdek bei predlogi ham ifodalashi mumkin. Masalan:

a) fordern, ferlagen, begehrn – требовать от кого - biror kishidan talab qilmoq, ervarten, hoffen – ожидать от чего-либо - biror kishidan kutmoq.

b) bekommen, erhalten, emfangen, kriegen – получать от кого либо(что либо)- biror narsadan (biror narsani) olmoq: beziehen – получать(зарплату, пенсию) - (ish haqi, pensiyani olmoq).

v) (er) erben, zum Erbe bekommen – получать в наследства, наследовать от кого либо - biror kishidan meros olmoq.

g) sich (D) ihr verschaffen - добиться чего либо, от чего либо - biror narsani biror kishidan undirib olmoq: erverben, erlangen – приобретать - biror narsa – biror kasb hunarga ega bo'lmoq: leihen, bergen – брать взайм (в дале) – qarzga pul olmoq.

d) entlehn – замметовать – qabul qilmoq, nehmen – брать – olmoq, kaufen – покупать – sotib olmoq.

ye) lernen – научиться от (у) кого либо – biror kishidan o'rganmoq, erfahren – узнавать – bilib olmoq, eine Nachricht (Mitteilung) bekommen – получать сведения – ma'lumot olmoq.

j) ausgeben – получать от чего либо – biror narsadan namuna olmoq. Zum Verfugung Zeiten – получать в распоряжение - biror imkoniyatni ixtiyoriga olmoq, tushmoq.

Diese Arbeit hat von ihm viele Ofter gefordert. Эта работа требовала от него много заботы. Bu ish undan ko'p talofatlarni talab qildi. Es hat schon einige Briche von seinem Freund erhalten. U allaqachon do'stidan bir qancha xatlar olgan.

Von predlogi ko'rsatib ifodalab turadigan «manba» tushunchasining yana bir turi - bu yashash manbai, narsa va materiallardan foydalanish, turli tadbirdan foyda olish kabi ma'nolarni ifodalash hisoblanadi. Masalan,

a) leben – жит чем – л за счет чего либо – biror narsa hisobiga yashamoq; sich füttern – кормиться, питаться чем л. – biror narsa bilan oziqlanmoq; atmen – дышать – nafas olmoq va h .k.

b) verdienen – заработать на чем л. – biror narsa hisobidan mablag' ishlamoq; profituren – получать барниш, извлекать выдачу из чего л. – biror narsadlan foyda olmoq; Profit - прибыль – foyda; Einkommen – доход – daromad; Hilfe – помошь – yordam. Der gierige Mensch sucht numer von dem Umgang mit anderen Gebrauch zu machen – Жадный человек всегда ищет выгоду от общения с другими. Ochko'z odam hamisha boshqalar bilan munosabatlar (suhbatlar)dan foyda olishni ko'zlaydi.

Ham son, ham sifat jihatidan predmetlarning dastlabki, boshlang'ich holatining o'zgarishi, shuningdek, narsa va odamlarning bir-biridan farqlari ham von predlogi vositasida hosil bo'lgan so'birikmalari, iboralari bilan ifodalaniishi, berilishi mumkin. Masalan: (sich) unterscheiden – различать(ся), отличать(ся) от кого либо, от чего либо - biror kishi yoki narsa nuqtai nazaridan farq qilmoq, farqlanmoq; zum Unterschied von ... в отличие от – farqli o'laroq, farqli ravishda.

Bunday hollarda zu predlogi bilan bir qatorda von ham qo'llaniladi. Zu predlogi o'zgarish etsa, von predlogi o'zgarishning chegarasini aniq chizib beradi. Masalan: Der Mensch unterscheidet sich von Tier durch das Bewußtsein . Человек отличается от животного сознанием – Inson hayvondan aqlo farosati bilan farq qiladi.

Ma'lum bo'lganidek, von predlogi ifodalaydigan dastlabki tushuncha ajratish (отделение) bo'lgan. Mazkur ma'no ta'sirida bu predlogga xos turli ma'nolarning o'zaro munosabatlar majmui o'zaro tarkib topgan, taraqqiy etgan (отношение портитивности). Masalan:

a) Tiel – часть (от целого)– qism, bo'lak (butundan); Bestandteil – составная часть чего л. – biror narsani tarkibiy qismi, Rest – остаток – qoldiq; Spur – след от чего л. – biror narsaning izi.

b) einer (eine, ein(es)) von – bir xil predmetlardan bittasi; die meisten, Majorität – меньшинство (из ного-л, чего-л) – biror kishgilarning, narsalarning ko'pligi, kamligi(ko'p qismi, kam qismi).

v) gemand- кто-то, некто, ктонибудь (из нас, вас)– (bizdan, sizdan) kimdir.

g) der (die, das) bestye, größte, stärkste ... von (unter) allen – самый лучший, большой, сильный из всех – hammamizdan eng yaxshi, eng katta, eng kuchli.

d) viel (wenig) von etwas haben, hören, verstehen – иметь (слышать, понимать) много (мало чуть-чуть) от (из) чего – либо – biror narsa haqida, to‘g‘risida ko‘p (oz) ma’lumotga ega bo‘lmoq, eshitmoq, tushunmoq.

Ein Ziel von Touristen besshritt den Tag ins Gebirge der andere schlug das Zeltlager auf - часть туристов пошли в горы, другая (часть) разбила палату -Sayohatchilarning bir qismi toqqa ketishdi, boshqalari esa palatka tiklashdi(qurishdi). Ich kenne niemand von diesen Menschen - Мне незнала никого из этих людей – Men bu odamlarning birortasini ham tanimayman.

«Boshlanish» tushunchasining turlari, ko‘rinishlaridan biri «kopiya, nusxa, original – asl nusxa, asliyat, первоисточник – birinchi manba» tushunchalari hisoblanadi. Ularni ifodalashda ham odatda von predlogi qo‘llaniladi. Masalan: (ab) stamen – происходит – kelib chiqmoq; entstehen – возникать – paydo bo‘lmoq; ableiten – производит (слова) от чего-либо – biror narsadan (so‘zlar) yasamoq; Ableitung – производное слово – yasama so‘z.

Semantik xususiyatiga ko‘ra von predloggingen asosiy vazifasi narsa-predmet, joy, holatdan uzoqlashishi ma’nosini ifodalaydi shu bilan birga von predloggingen grammatischen nuqtai nazardagi leksik ma’nolarini o‘zgartirmaydi. Ya’ni u yopiq maydon, makon chegaralaridan boshlanuvchi, sodir bo‘ladigan harakatni ko‘rsatuvchi aus predlogidam farqli o‘laroq, harakat sodir bo‘ladigan dastlabki nuqtani ko‘rsatadi. Masalan: abkommen, abgehen – отходить от чего-либо; biror narsadan uzoqlashmoq (ketmoq): aufstehen – подниматься (с места) – o‘tni (joyi)dan ko‘tarilmoq, turmoq; vom Lande abstößen (abstechen)- отчаливать от берега – qirg‘oqdan jo‘namoq, uzoqlashmoq; abhängen – зависеть от кого –либо, biror kishiga bog‘liq bo‘lmoq; sich abwenden – отворачиваться – yuzini burmoq; sich absondern обособляться – ajralmoq; von Thema abbringen - отвлекать от темы – mavzudan diqqatni uzmoq, burmoq; chalg‘itmoq. Misollardan ko‘rinadiki, ko‘p hollarda von predlogi ajraladigan ab – prefiksi vositasida hosil bo‘lgan yasama fe’llar ishtirok etgan so‘z birikmalari, iboralar, gaplarda qo‘llangani ko‘zga tashlanadi. Biroq, biz von predloggingen boshqa holatlarda qo‘llanmaydi degan fikrdan uzoqdamiz. Masalan: Sein Sohn kam von der Arbeit. Ero сын вернулся (пришел) с работы. Uning o‘g‘li ishdan qaytdi (keldi). Langsam verschwindet das Lächeln von ihrem Gesicht. Медленно исчезала улыбка с её лица. Sekin-asta uning yuzidan kulgu yo‘qola bordi.

Dastlabki nuqtadan boshlangan harakat ajratish, bo‘lish, uzoqlashtirish, predmet haqidagi fikr va qarashlardan voz kechish, mansabdan, lavozimdan chetlashtirish, o‘z rejalarini bajarishda betaraflik tushunchalarini ifodalash ham von predlogi vositasida berilishi mumkin. Masalan: scheiden - отделять, отстранять от чего – либо, biror narsadan ajratmoq, chetlashtirmoq; sich verabschieden, Abschied nehmen – прощаться - xayrlashmoq; entheben, absetzen – освобождать (от должности)–mansab, lavozimdan ozod etmoq; von der Wahrheit abgehen – отклоняться от истины, haqiqatdan, to‘g‘rilikdan o‘zini olib qochmoq; von seinem Vorhaben abgehen- отказываться от своего намерения - o‘z maqsadidan voz kechmoq. Er verabschiedete sich von seinen Verwandten – Он прщался со своими родственниками. - U o‘z qarindoshlari bilan xayrlashdi.

Von predlogi yuqorida qayd etilgan funksiyalarni bajarish darajasida, shuningdek, istamagan va xavfli narsalardan qutilish, xalos bo‘lish, ozod bo‘lish, burchni bajarishdan bosh tortish, xolatini o‘zgartirish ma’nolarini ifodalashga yordam berishi mumkin. Masalan: (sich) befreien, (sich) freimachen - освобождаться(ся) от кого -либо, от чего - либо - biror kishi yoki biror narsadan ozod qilmoq, ozod bo‘lmoq; vom Winde abkommen - укрываться от ветера - shamoldan yashirinmoq; freisprechen – оправдывать (от обвинения)– oqlamoq, jazodan ozod etmoq; losmachen, losösen- откреплять (с прописки) – го‘yxatdan chiqarmoq.

Turli xastaliklardan qutilib shifo topish, dardlardan xolos bo‘lish, tashvishlardan dam olish kabi ma’nolarni ifodalovchi fe’llar odatda von predlogi bilan qo‘llaniladi. Masalan: gesund wyerden, genesen, heilen – выzdorować, исцелиться, излечится (от недуга); xastaliklardan davo topib, sog‘ayib ketmoq; sich erholen, ausrahen, ausrasten – отдохнуть, оправиться (от болезни, забор) – kasallik, tashvishlardan qutulmoq, dam olmoq.

Vaqt nuqtai nazaridan von predlogi biror harakat boshlangan dastlabki nuqtani ko‘rsatadi. Bunday harakat albatta nutq momentigacha tugallangan bo‘ladi. Boshqa holatlarda seit predlogi qo‘llaniladi. Masalan: anfangen, beginnen – начинать(ся) с наночал времени, biror vaqtdan boshlamoq (boshlanmoq); von der Zeit an – с этого времени – shu paytdan boshlab; von Kindheit auf - bolalikdan; von heute an (ab)- bugundan boshlab; von Zeit zu Zeit- vaqt-vaqt bilan, dam –badam; von Jahr zu Jahr – из года в год – yilma-yil, yil sayin; von Tag zu Tag – из дня в день – kun sayin;

vom 10 April bis zum 10 Mai – с 10 апреля до 10 мая, 10 –апрельдан 10-maygacha; Ihre Freundschaft datiert von diesen Treffen – Ich sage von jetzt ab nichts mehr (A.S.) – Их дружба начиналась с этой встречи с этого момента. Ularning do'stligi shu uchrashuvdan boshlandi. Я больше ничего не скажу. Shu tobdan boshlab men hyech narsa demayman.

Von predlogi funksiyasining keyingi taraqqiyoti «ajralish» munosabatlarining susayishi va «kelib chiqish» munosabatlarining kuchayishi yo'lidan ketadi. «Harakat» tushunchasining makonda kengayishi va uning nisbatan abstrakt harakatlar turiga o'tishi yo'lidan boradi. «Kelib chiqish» tushunchasi asta-sekin taraqqiy etib, ish –harakat kelib chiqadigan «tomon va yo'naliш»lar tushunchasiga o'tadi. Masalan: von der Seite – с боку, со сторонни – yon tomondan; von der linken, rechten Seite – с левой, правой стороны; von links, von rechts – слева, справа – chap, o'ng tomondan; chapdan, o'ngdan; von oben – сверху - yuqoridan; von unten – снизу - quyidan; von innen – изнутри, ichkaridan; von außen – извне – tashqaridan va shu kabilar.

Von predlogi vositasida anglashiladigan «kelib chiqish» va «abstakt» tushunchalar quyidagi misollarda yaqqol ko'rindi:

Von der Mutter – по матери, с материнской стороны – ona(si) tomonidan, von dem Vater – по отцу, с отцовской стороны – ota(si) tomonidan; von Stamm zu Stamm – из рода в род – avloddan-avlodga; von Herzen, von ganzem Herzen – от всего сердца – chin dildan, yurakdan; von ganzer Seele – chin qalbdan; von (diesem) Stence – punkt (Gesichtspunkt) aus – с (этой) точки зрения – bu (ushbu) nuqtai nazardan. Wir freuen uns von ganzem Surzen – мы разумеся со всего сердца – biz chin yurakdan xursandmiz.

Ushbu predlog atrofdagi (odam)larga ma'lum ta'sir o'tkazuvchi kishiga ishorani anglatganda unga xos «xususiyat», fazilat» tushunchalarini fiodalaydi. Bu rus tilidagi «это любезно с твоей стороны» ya'ni o'zbek tilidagi «bu sen tomondan (ko'rsatilgan) marhamat, iltifot» mazmuniga ega bo'lgan gapda o'z ifodasini topadi. Masalan: Das ist ein schönes Verhakten von Seiten deines Freundes – Это любезное отношение со стороны твоего друга. Bu sening do'sting(do'st tomonidan) ishq munosabat ifodasi(dir).

Boshlang'ich nuqtadan chiqib keladigan harakat faqat tasavvur qilinishi yoki umuman bo'lmasligi mumkin. Bunday holda von predlogi faqat harakatning boshlanishini ko'rsatishi mumkin. Harakat xotimasi esa zu predlogi vositasida ifodalanadi. Masalan: a) anfangen, beginnen – начинать(ся) счего – либо, boshlamoq, boshlanmoq (biror narsadan); anheben, anleiten – начинать, затевать, вступать откуда – либо- biror joydan boshlamoq, kirishmoq; b) von Anfang an, von vornherein – с самого начала, eng boshidan, avvaldan boshlab; von Anfang bis zu Ende (zum) Schluß – с начала до конца (окончания) – boshidan oxirigacha (tugaguncha).

«Boshlanish» tushunchasining turlari, ko'rinishlaridan biri «копия, нусха, оригинал – asl nusxa, asliyat, первоисточник – birinchi manba» tushunchalari hisoblanadi. Ularni ifodalashda ham odatda von predlogi qo'llaniladi. Masalan: (ab) stamen – проходит – kelib chiqmoq; entstehen – возникать – paydo bo'lmoq; ableiten – производит (слова) от чего-либо – biror narsadan (so'zlar) yasamoq; Ableitung – производное слово – yasama so'z.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yuqoridagi keltirilgan misollardan ko'rindaniki, nemis tilidagi har bir predlog, shu jumladan, von predlogi ham qo'llanilish ahamiyatiga ko'ra nemis tilining ma'lum darajadagi bir bo'g'ini, ma'lum bir qismi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Biz bu fikrlerimizni keyingi maqlolarimizda batafsil ma'lumot berishni va von predlogi haqidagi izlanishlarni davom ettirishni joiz topdik.

Adabiyotlar

- Немецко-русский словарь. Под редакцией Е.И.Лепинг и А.П.Страхова и др. 80 000 слов. Изд. Четвертых изд. ва советская. Энциклопедия. Москва 1969 г. ст. 550-551.
- Съеден В.Н. «Предлоги немецкого языка издательства «Высшая школа» Москва 1963 г. ст. 320-323.
- Deutsche Grammatik in Übungen. Saidov S. Toshkent 2003 y. 279-283 bb.

UDK: 42

THE TRADITIONAL INSTRUCTION OF THE CLASSICAL LANGUAGES**M.R.Khalikova, D.Norqobilov***Tashkent Institute of Information Technology Karshi branch*

Abstract. The article focuses on the use of traditional and interactive techniques for learning English.

Keywords: instruction, translation, acknowledge, gradually, traditional, method, teaching, language, classic

Klassik tillarning an'anaviy tuzilishi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilini o'rganishda an'anaviy va interaktiv metodlar yordamida o'rganish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: mundarija, tarjima, ilm, fan, bosqichma-bosqich, iqror bo'lmoq, an'ana.

Традиционные образование классический языков

Аннотация: Это статья посвящена использованию традиционных и интерактивных методов для изучения английского языка.

Ключевые слова: Инструкция, перевод, знания, традиция, язык, предмет, классик, образование.

There are many methods of teaching languages. Some have had their heyday and have fallen into relative obscurity; others are widely used now; still others have a small following, but contribute insights that may be absorbed into the generally accepted mix.

The grammar translation method instructs students in grammar, and provides vocabulary with direct translations to memorize. It was the predominant method in Europe in the 19th century. Most instructors now acknowledge that this method is ineffective by itself. It is now most commonly used in the traditional instruction of the classical languages.

At school, the teaching of grammar consists of a process of training in the rules of a language which must make it possible to all the students to correctly express their opinion, to understand the remarks which are addressed to them and to analyze the texts which they read. The objective is that by the time they leave college, the pupil controls the tools of the language which are the vocabulary, grammar and the orthography, to be able to read, understand and write texts in various contexts. The teaching of grammar examines the texts, and develops awareness that language constitutes a system which can be analyzed. This knowledge is acquired gradually, by traversing the facts of language and the syntactic mechanisms, going from simplest to the most complex. The exercises according to the program of the course must untiringly be practised to allow the assimilation of the rules stated in the course. That supposes that the teacher corrects the exercises. The pupil can follow his progress in practicing the language by comparing his results. Thus can he adapt the grammatical rules and control little by little the internal logic of the syntactic system. The grammatical analysis of sentences constitutes the objective of the teaching of grammar at the school. Its practice makes it possible to recognize a text as a coherent whole and conditions the training of a foreign language. Grammatical terminology serves this objective. Grammar makes it possible for each one to understand how the mother tongue functions, in order to give him the capacity to communicate its thought.

The direct method, sometimes also called natural method, is a method that refrains from using the learners' native language and just uses the target language. It was established in Germany and France around 1900. The direct method operates on the idea that second language learning must be an imitation of first language learning, as this is the natural way humans learn any language - a child never relies on another language to learn its first language, and thus the mother tongue is not necessary to learn a foreign language. This method places great stress on correct pronunciation and the target language from outset. It advocates teaching of oral skills at the expense of every traditional aim of language teaching.

According to this method, printed language and text must be kept away from second language learner for as long as possible, just as a first language learner does not use printed word until he has good grasp of speech.

Learning of writing and spelling should be delayed until after the printed word has been introduced, and grammar and translation should also be avoided because this would involve the application of the learner's first language. All above items must be avoided because they hinder the acquisition of a good oral proficiency.

The audio-lingual method has students listen to or view recordings of language models acting in situations. Students practice with a variety of drills, and the instructor emphasizes the use of the target language at all times. The audio-lingual method was used by the United States Army for "crash" instruction in foreign languages during World War II. Due to weaknesses in performance, audio-lingual methods are rarely the primary method of instruction today.

Communicative language teaching (CLT) is an approach to the teaching of languages that emphasizes interaction as both the means and the ultimate goal of learning a language. Despite a number of criticisms, it continues to be popular, particularly in Europe, where constructivist views on language learning and education in general dominate academic discourse.

In recent years, Task-based language learning (TBLL), also known as task-based language teaching (TBLT) or task-based instruction (TBI), has grown steadily in popularity. TBLL is a further refinement of the CLT approach, emphasizing the successful completion of tasks as both the organizing feature and the basis for assessment of language instruction.

Language immersion puts students in a situation where they must use a foreign language, whether or not they know it. This creates fluency, but not accuracy of usage. French-language immersion programs are common in Canada in the state school system as part of the drive towards bilingualism.

Paul Rowe's minimalist/methodist approach. This new approach is underpinned with Paul Nation's three actions of successful ESL teachers.[citation needed] Initially it was written specifically for unqualified, inexperienced people teaching in EFL situations. However, experienced language teachers are also responding positively to its simplicity.

Language items are usually provided using flashcards. There is a focus on language-in-context and multi-functional practices.

Directed practice has students repeat phrases. This method is used by U.S. diplomatic courses. It can quickly provide a phrasebook-type knowledge of the language. Within these limits, the student's usage is accurate and precise. However the student's choice of what to say is not flexible.

«Помню, в первые месяцы нашего знакомства Хамид как-то спросил меня, много ли я читала книг русских писателей? – рассказывала Зульфия. - Я ответила, что прочитала почти всё переведённое и назвала несколько книг. Х.Алимджан улыбнулся и покачал головой: «Нет, дорогая Зульфия, этого очень мало. Во-первых, само количество переводов даёт нам ограниченное представление. А во-вторых, русскую литературу, и, в особенности поэзию, надо читать в подлиннике...»

На следующий день он принёс ей русское издание стихов Некрасова. Хотя в то время Зульфия ещё не очень хорошо владела русским языком, стихи Н. Некрасова, прочитанные в подлиннике, потрясли её. Вскоре она прочитала в подлиннике и Пушкина, Лермонтова, Тютчева, Маяковского, Есенина.

Восхищённая творчеством Некрасова, покорённая строками Пушкина, Зульфия решается отчасти передать это и узбекскому читателю. Переводами поэтесса начала заниматься в начале 40-х годов. В то время, как считает сама Зульфия, она по-настоящему родилась как поэт. Переводя произведения русских гениев, Зульфия чувствовала большую ответственность перед своим народом.

Мало быть хорошим поэтом, мало даже блестяще владеть искусством перевода (хотя эти моменты, безусловно, очень важны), но надо ещё любить поэта, произведение которого вы переводите, сердцем постигнуть мир его дум и чувств. Только овладев миром чувств переводимого поэта, можно избежать скованности, обрести необходимую для творчества свободу, адекватно передать пафос произведения и его поэтику родному читателю.

На протяжении своей деятельности поэтесса перевела более ста стихотворений разных авторов. Из поэзии Пушкина она перевела те, которые стали столь близкими её сердцу: «Мне вас не жаль, года весны моей» («Мен сизга ачинмайман...»), «Гречанка верная! Не плачь,- он пал героем!», («Садоқатли грек кизи»), «Простишь ли мне ревнивые мечты» («Кечиармикансан»), «Если тебя жизнь обманет» («Агар сени алдаса ҳаёт»), “Я помню чудное мгновенье” (“Эсимдадир”), “В крови горит огонь желанья” (“Қономдиёнади...”), “Разлука” (“Видолашув”), “Нет, нет, не должен я, не смею, не смогу” (“Йўқ, йўқ, муҳаббатнинг...”), “Я думал, сердце позабыло” (“Уйладимки...”).

Весьма характерным для переводческой манеры Зульфии мне представляется её перевод одного из малоизвестных стихотворений Пушкина, созданного им незадолго до своей кончины:

Я думал сердце позабыло
Способность лёгкую страдать,
Я говорил: тому, что было,
Уж не бывать! Уж не бывать!
Прошли восторги и печали!
И легковерные мечты...
Но вот опять затрепетали
Пред мощной власти красоты! [6]

Стихотворение это отнюдь не шедевр, оно просто и непритязательно по сравнению с классическими творениями Пушкина. Сам поэт даже не решился вынести его на суд зрителей, - восьмистишие было опубликовано лишь после его смерти. Однако можно утверждать, что Пушкин сумел и здесь выразить свою душу. В начале он как бы сознательно побеждает в своём сердце чувства к любимой:

Я думал сердце позабыло
Способность лёгкую страдать...

Но всякий раз, когда поэт говорит о любви, душа его просветляется, ибо чувства вовсе не угасли, они ещё живут в его сердце. Хотя он и убеждает себя:

Я говорил: тому, что было
Уж не бывать! Уж не бывать!
Но стоит только затронуть их, как сердце начинает биться быстрее:
Но вот опять затрепетали
Пред мощной власти красоты!

Чувства, окрашенные светлой и тонкой грустью, выражены просто, непосредственно, тепло и, как всегда у Пушкина, чарующе музыкально.

Теперь рассмотрим, как всё это могла передать Зульфия нашему читателю. Читая Пушкина, она восприняла всё обояние его поэзии, всю щедрость звуков и красок. И чувства, которые были отражены в этом стихотворении, не чужды ей. Любовь, разлука, тоска по любимому человеку, верность... – всё это было отражено в поэзии Зульфии. Поэтому, переводя стихотворение Пушкина, она поддаётся стаку своего собственного сердца, своим чувствам и создаёт как бы собственное произведение на узбекском языке:

Уйладимки, юрак унудти,
Мухаббатнинг эзгу азобин.
Дедим: ўтган бариси ўтди,
Ўтди: қайтиб келмайди тагин.
Ўтиб кетди завқда, қайғуда
Ва ҳавои енгил умидлар...
Аммо ўтқир хусн олдида
Тушди яна ларзага улар... [2]

В первом четверостишии начальная строка переведена абсолютно точно: //Я думал, сердце позабыло...- Уйладимки, юрак унудти...

Вторая строка Зульфии является собой вольный перевод, и это её право. Но когда читаешь пушкинский оригинал, ощущаешь несколько иную мысль: Способность лёгкую страдать...

Здесь Пушкин отмечает, что чувства его сердце легки и мимолётны. Зульфия же переводит эту строку так: «Мухаббатнинг эзгу азобин», что в переводе означает «доброе страдание любви». Легко страдать и испытывать доброе страдание – это не совсем одно и тоже. Но стоило бы отметить, что в слове «эзгу» любовь проявляется сильнее, она манит своими чистыми и нежными порывами. Поэтому это чувство в переводе Зульфии зазвучало глубоко, мощно.

Нужно также отметить, что слово «легко» у Пушкина встречается дважды, а Зульфия ограничивается разом. Если бы и вторую строку она перевела с помощью слова «енгил», то получилось бы то, что и нужно. У Пушкина эти два «легко» взаимосвязаны. Они говорят о чувствах мимолётных, быстрых. У Зульфии же, наоборот, чувства эти сильные. Видимо, судьба самой поэтессы, потеря друга, верность мужу, незабываемые чувства – всё это оставил след в её творчестве:

Я говорил: тому, что было//
Уж не бывать! Уж не бывать! // Прошли восторги и печали! //
И легковерные мечты... Перевод: Дедим: ўтган бариси ўтди,//
Ўтди: қайтиб келмайди тагин.///Ўтиб кетди завқда, қайғуда//
Ва ҳавои енгил умидлар...

Здесь перевод снова вполне адекватен оригиналу. И только предпоследняя строка перевода привлекла моё внимание: у Пушкина... «Пред мощной власти красоты!» в переводе узбекской поэтессы... «Аммо ўтқир хусн олдида». «Хусн» - «красота», «олдида» - «перед», а «мощная власть» передаётся словом «ўтқир». Слово «ўтқир» в переводе на русский означает

«острый, зоркий». Зульфия имеет в виду острую, яркую красоту. Видимо, речевой стиль узбекского языка дал ей право выбрать именно это слово. У Пушкина же это красота, имеющая сильную, мощную власть над человеком. Однако «огрехи» эти вовсе не снижают достоинств перевода. С помощью Зульфии Пушкин для узбекского читателя заговорил на его родном языке.

Зульфия перевела немало стихотворений Некрасова, и каждое из них – литературное достижение, литературный факт. «Русские женщины», подвиг которых прославил Некрасов, имеют особое значение в переводческом творчестве Зульфии. Некрасов воспел Женщину, подвиг, самоотверженность. Именно это увидела Зульфия, и это стало движущим рычагом её мастерства воссоздания. Очень ярко переданы чувства и переживания лирических героев, образ природы и общества в «Русских женщинах». Особое внимание привлекает тот факт, что наличие строк оригинала первой поэмы и её перевода совпадает с точностью, т.е. 872 строки. Это свидетельство о том, что процесс проходил с трудом, но итог вызывает только чувства уважения и благодарности великой поэтессе. Основной образ поэмы Екатерина Ивановна Трубецкая – настоящая русская женщина, самоотверженная, мужественная, патриотка своей страны. Эти качества присущие ей (русской женщине), конечно же, отделяют её от восточной (узбекской) женщины. Несмотря на это, Зульфия смогла передать всю энергию, духовный мир и психологическое состояние Екатерины Ивановной Трубецкой. Она воспела женщину, которой движет не только высокое чувство любви, но высокое чувство долга, верности.

Да, рвём мы сердце пополам
 Друг другу, но, родной,
 Скажи, что ж больше делать нам?
 Поможешь ли тоской!
 Один, кто мог бы нам помочь
 Теперь...Прости, прости!
 Благослови родную дочь
 И с миром отпусти!... [6]
 Далёк мой путь тяжёл мой путь,
 Страшна судьба моя,
 Но сталю я одела грудь...
 Гордись - я дочь твоя. [2]

Не о точности слова, а о великой точности чувства можно говорить, исследуя её творческую манеру переводчика. Зульфия - поэт и переводчик, которого привлекают, прежде всего, мужественная энергия слова, твердость и уверенность поэтического почерка, неповторимое своеобразие стиля. Перевод удался, это стало чудом, которое безупречно оживило оригинал:

Кону қардош бир бутун қалбни
 Бўлмоқдамиз икки тенг пора.
 Не қиласиз ота, бу дардни,
 Қайғунг жонга бўларми ора?
 Бизнинг танҳо кўмакдошимиз
 Энди узок... хуш қол, отажон,
 Қизингга сен фотиҳа бер тез,
 Сафаримга жўнайин шодон!...
 Йўлим олис, йўлим серзаҳмат,
 Даҳшатлидир тақдирим менинг,
 Лекин кўксим мисоли пўлат...
 Фаҳрлангин – мен сенинг қизинг! [5]

Вторая часть поэмы написана в форме диалога между губернатором и Княгиней. Автор соблюдает этому приёму до конца, что сумел сохранить и передать это и переводчик. Диалог позволил глубоко расскрыть душевное состояние Княгини. Особенно чувство долга перед мужем замужней женщины не знает никакий преград. Это же чувство не чуждо самой поэтессе и в итоге перевод удался на славу.

Нет, что однажды решено-
 Исполню до конца!

Мне вам рассказывать смешно,
Как я люблю отца,
Как любит он. Но долг другой,
И выше и святей,
Меня зовёт. Мучитель мой!
Давайте лошадей! [6]

В переводе:

Йўқ, йўқ, бир йўл қилдимми қарор,
Бажармайин тинмайман зинхор.
Отамни мен, мени нақадар
Отам севар, барини изхор
Этмоқлигим сизга не даркор?..
Яна юксак, яна муқаддас
Бурч чорлайди, қилмасдан абгор
Отлар беринг менга шу нафас... [2]

Видно, как все строки, рифмы перевода вполне адекватны подлиннику. Таких примеров можно привести немало. Талант и мастерство, своеобразный стиль поэтессы проявляется в её отношении к поэтическому языку. Миниатюризм в использовании материала - это выражение художественного мастерства поэтессы. Она умеет правильно использовать ритм, строку, рифму... Стихия слов, выбранных ею, воедино создают тональность и придают эстетическую и художественную ценность. Богатое наследие Зульфии, которым гордится узбекский народ, будет волновать, и восхищать ещё не одно поколение.

Литература

1. Владимирова, Н. Зулфия – таржимон. // – Тошкент: Ўзбек тили ва адабиёти. 1987, №2. – Б. 61.
2. Зулфия. Асарлар. Мушоира, – Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985, 281, – Б. 300-301.
3. Зульфия. Такое сердце у меня. – Ташкент: Изд-во литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1978. – С. 78.
4. Зульфия. Избранное. – Москва. 1985. – С. 130.
5. Некрасов, Н.А. Сочинения в 2-томах. Том 2. – М.: Художественная литература, 1976, – С. 90-91, 105.
6. Пушкин, А.С. Собрание сочинений в десяти томах. Том 1. – Москва: изд-во «Правда», 1981, – С. 282.

UD: 809

KASBIY MULOQOTDA EVFEMIZMLARNING XUSUSIYATLARI

N.I.G‘ayullaeva

Buxoro davlat universiteti

E-mail: nafisa.ped@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola evfemizm, evfemizatsiya usullari, evfemaning funksional turlari, kasbiy evfemaning professional nutqdagi ahamiyati, evfemizmning odob-axloq me'yorlariga munosabati, tibbiyat xodimlari nutqi evfemizmlarining qo'llanish omillari, evfemik birlikni noevfemik birlikdan farqlashda evfemaning keng tarqalganligi (keng tarqalganmi yoki epizodik mavqedami); uslubiy xoslanishi (qo'llanish sohasi); nominatsiyaning metaforikligi, xushohang va yoqimiligi; evfemik xarakterga egaligi; evfemizmlarning til hodisalari bilan o'zaro bog'liqligi kabi masalalar tadqiqiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: evfemizm, kasbiy evfema, evfemizatsiya usullari, evfemaning funksional turlari, etiket, paralimpiya, okkazionalizm.

Особенности эфемизмы в профессиональные коммуникации

Аннотация. В статье рассматриваются эфемизмы, методы эфемизма функциональные типы эфемизмов и значение в речи профессионального эфемизма, отношение эфемизмов принципы моральных норм, факторы, влияющие на использование речи речевых врачей; сосредоточинь последовательные вопросы: методическая спецификация, метафорическая номинация, приятность и предпочтения, взаимозависимость эфемизмов с языковыми явлениями.

Ключевые слова: эфемизм, профессиональные эфемизмы, методы эфемизма, функциональные типы эфемизмов, этикет, паралимпия, окказионализмы.

Features of euphemisms in professional communication

Abstract. In the article we tried to clarify euphemism, types of euphemisation, functional types of euphemisation, importance of job euphemisms in professional speech, the attitude of euphemisms towards measures of etiquette, means of using euphemisms of doctors' speech. Besides, in distinguishing euphemic units from uneuphemic units widespread position of euphemisms (is it widespread or in episodic position); stylistic use (using field); metaphoric use of nomination, harmony and consonance, having euphemic characteristics, connection between euphemisms and linguistic occasions are defined in the article.

Keywords: euphemism, professional euphemism, types of euphemisation, functional types of euphemisation, etiquette, paralympics, occasional.

Evfemizmning nutqdagi ijtimoiy, psixologik va estetik ahamiyati. Ilmiy adabiyotlarda evfemizm hodisasiiga turlicha ta'rif berilgan. Evfemizmning ko‘p aspektli, o‘zgaruvchan tabiatli ekanligining asosiy sababi leksik-grammatik shaklining xilma-xilligi, hissiy bo‘yoqsizlik, uslubiy betaraflik hamda variantlilik xususiyatlarining mavjudligida bo‘lib, O.S.Axmanova tahriri ostida nashr qilingan lingvistik lug‘atda evfemizmga “so‘zlovchiga beadab, qo‘pol, nazokatsiz ko‘ringan, o‘z sinonimi o‘rnida qo‘llanila oluvchi hissiy bo‘yoqsiz so‘z va ibora” [9] degan izoh keltirilgan. D.N.Shmelev ham shu mazmunga hamohang “evfemizm – so‘zlovchiga ma’lum sharoitda noma’qul ko‘ringan, niroyatda o‘tkir, aytlishi odobdan sanalmagan, ayni bir ma’noni ifodalashga xizmat qiladigan, nomunosib so‘zdan saqlanish maqsadida yumshatilgan ifoda”, – deb ta’riflaydi. D.E.Rozental evfemizmni “qo‘pol ifodaga ega bo‘lgan predmet, voqe-a-hodisaning nomini yoqimli, yumshoq ifodalagan mo‘tadil ma’no” sifatida izohlaydi, I.R.Galperin esa uni “yoqimsiz so‘z yoki ibora o‘rnida ishlatilgan nisbatan maqbulroq ifoda” [3], A.Katsev “ma’naviy-ma’rifiy motiv asosida yuzaga chiqadigan qo‘rinchli, uyatli, yoqimsiz nomlarning ko‘chma ma’noli yumshoq ifoda bilan almashinish” [6], E.Tyurina “biror sabab bilan ijtimoiy qo‘pol antetsedent o‘rnida qo‘llanuvchi, yumshoq, qo‘llanilishi ruxsat etilgan, meliorativ-kinoyali, ba’zan nisbatan qulayroq, so‘zlovchiga taqilangan va adabsiz tuyulgan, ma’naviy me’yor nuqtai nazaridan noloyiq sanalgan yoki shunchaki qo‘pol ifoda o‘rnida qo‘llanuvchi so‘z yoki ibora” sifatida ta’riflaydi. A.A.Evgeneva tahriri ostidagi lug‘atda evfemizm “ma’lum bir sabab bilan qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lmagan yoki noqulay sanalgan ifodaning o‘rnida qo‘llanuvchi so‘z/ibora” sifatida baholanadi [4]. Rus tili ensiklopediyasida nisbatan kengroq tavsif keltiriladi: evfemizm – (grekcha euphemia – noma’qul so‘zlardan saqlanish, yumshatilgan ifoda) so‘zlovchiga qo‘pol, beadab, uyat, beandisha tuyulgan, ifodalamoqchi bo‘lgan fikriga sinonim sanalgan neytral so‘z yoki ifoda. Masalan, *qari o‘rniga yoshi ulug‘; yolg‘on gapirmoq* o‘rniga *haqiqatdan chetlashmoq; kechikmoq* o‘rniga *ushlanib qolmoq; semirmoq* o‘rniga *to‘lishmoq*. Evfemizm yuqori darajadagi harakatchanlik bilan xarakterlanadi. U tabulashtirilgan so‘zni almashtirishga ham xizmat qiladi. Masalan: *o‘lim* o‘rnida *ketmoq*; *o‘simta* o‘rnida *shish* kabi. Tilda evfemizmning qo‘llanishi tabu hodisasi bilan bog‘liq holda tarixiy etnografik hodisa sifatida shakllangan. Evfemizmlar xalqlardagi urf-odat, madaniy saviyaning darajasi, estetik did va etnik me’yorlarning rivojlanishi bilan bog‘liq sanaladi. Tilning taraqqiyoti bilan uning evfemistik qatlami ham rivojlanib boradi. Yangicha axloq-odob, yangicha dunyoqarash me’yorlari asosida uning yangi shakllari yuzaga keladi.

Evfemizatsiya usullari. Dastlab tabuni niqoblash maqsadida paydo bo‘lib, keyinchalik lug‘aviy birlikka aylanadi. Ayrimlari nutqda yoqimsiz, salbiy voqelikni yopish uchun okkozional ifoda sifatida yuzaga chiqadi. Bu okkozional ifodalar sinonimiyaga asoslangan bo‘lmaydi. Ularning maqsadi haqiqiy mohiyatni “yashirish”dan iborat. Evfemizatsiya jarayoni leksikografiya va

sotsiolingvistikating predmetidir. Lingvistik atamalar lug‘atida ham xuddi shunday ta’rif keltiriladi [9]. Boshqa adabiyotlarda evfemizmlarning ma’lum qismi tabu bilan bog‘liq bo‘lishi ta’kidlanadi. Ularning ko‘pchilik qismi axloqiy, madaniy jihatdan aytlishi noqulay deb topilgan so‘zlar o‘rnida qo‘llaniladi. Masalan, *qizamiq* o‘rnida *oymoma* (Samarqand viloyatining ayrim tumanlarida), *chechak* o‘rnida *gul*; *sil* (tuberkulyoz) o‘rnida *uzunog‘riq*; *pes* o‘rnida *oq*; *kal* o‘rnida *siyqabosh*; *xotin* o‘rnida *umr yo‘ldoshi*, *rafiqa*, *qalliq*, *oila*; *xotin olmoq* o‘rnida *uyylanmoq*; *qizimni erga beraman* o‘rnida *qizimni uzataman*, *qizimni turmushga chiqaraman* *lozim* kabi. Demak, yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqib aytish mumkinki, evfemizm – so‘zlovchi uchun qo‘llash noqulay, noo‘rin, qo‘pol tuyulgan so‘z va iboralarning sinomimi sifatida paydo bo‘lgan so‘z yoki ibora. Ular salbiy voqelikni atashdan qochish, shunday voqelikning salbiy ta’sirini yumshatish uchun xizmat qilib, kishining izzat-nafsiga tegadigan, malol keladigan, humatsizlik ifodalaydigan, axloqiy me’yorlarga zid keladigan holat yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytish mumkin bo‘lman maxfiy voqelikning salbiy ta’sirini kamaytirish, ularni yashirish, berkitish; noxush xabarni beozorroq, yumshoqroq shaklda yetkazish, ifodalash uchun ishlatiladi: *o‘ldi o‘rniga olamdan o‘tdi*, *ko‘z yundi*, *vafot etdi*, *qazo qildi*, *jonini egasiga topshirdi*; *tug‘di o‘rniga ko‘zi yordi*, *yengillashdi* kabi iboralardan foydalanish yuqoridagi fikrimiz dalili.

Ba’zi xalqlar jin va arvohlarga yaqin bo‘lgan shaxs yoki predmetning nomi tilga olinmasa, ulardan saqlanish mumkin, deb o‘ylashgan. Qadimgi, shuningdek, hozir ham qabila bo‘lib yashayotgan xalqlarda qabila boshlig‘i o‘lgandan keyin uning narsalariga tegish, nomini tilga olish man etilgan. Agar ularning narsalariga tegilsa yoki bu narsalarning nomi tilga olinsa, arvoj yoki jinlar urib ketadi, biror zarar yetkazadi, deb tasavvur qilishgan. Xuddi shuningdek, ayrim yirtqich, zaharli hayvonlarning nomlarini aytish ham man etilgan. Tabu qoldiqlarini hozir ham uchratish mumkin. Masalan, musulmon ayollar orasida erni o‘z ismi bilan chaqirish holati erga nisbatan humatsizlik sanaladi. Oqibatda, man etilgan so‘zlar o‘rniga mazkur tushunchani ifodalovchi boshqa so‘zni ishlatish zaruriyati tug‘iladi. Ana shunday man etilgan so‘zlarining ishlatilishi ham evfemiya hodisasidir. Masalan: *qizamiq* so‘zi o‘rniga *gul* so‘zi, *chayon* so‘zi o‘rniga *eshak*, *otiyोq* so‘zlarining ishlatilishi evfemik ifodadir. Jamiyat taraqqiyotining keyingi davrlarida dag‘al, qo‘pol, noqulay so‘zlar o‘rniga yoqimliroq, silliqroq so‘zlarni ishlatish hodisasi ham evfemizm ko‘rinishlaridan. Masalan, *bo‘g‘oz xotin* o‘rniga *ikkiqat*, *og‘iroyoq*, *yuki bor*, *yukli xotin*, *homilador* kabi so‘z yoki birikmalar ishlatiladi.

Tilda muayyan nutq vaziyati talabi bilan vujudga kelgan evfemizm ham mavjud, ularning ma’nosini ko‘pincha matn orqali oydinlashadi. Masalan, *Ra’noni egasiga topshirmagunimizcha*, – *dedi Nigor oyim*, – *quyilmaydigan-ga o‘xshaydi* (A.Qodiriy) jumlasida nutq odobi nuqtai nazaridan *erga bermoq* iborasi o‘rnida *egasiga topshirmoq* evfemizmi qo‘llangan.

Evfemizm atamasi antik mualliflari davridayoq qo‘llangan. Atama grekcha *yaxshi mishmish*, *dovruq* (*nutq*) kabi so‘zlardan kelib chiqqan. Evfemizm dastlab qo‘pol ifodali so‘zlardan saqlanish (asosan, qurbanlik qilish vaqtida), yaxshi belgiga ega so‘z, izzat-hurmatni ifodalaydigan jimlik, ya’ni sukut saqlashni ifodalovchi so‘z sifatida izohlangan. Keyinchalik “izzat-hurmatni ifodalaydigan jimlik, ya’ni sukut saqlash” ma’nosini yo‘qolgan.

Taraqqiyot va jamiyatdagi munosabatlar insoniyat tomonidan bir qancha maxsus qonun-qoida, taqiqlarning o‘ylab topilishiga asos bo‘lgan. Kishilik faoliyatining barcha sohalarida (davlat boshqaruvi, avtomobil boshqarish yoki kundalik muloqot) odob-axloq qoidalari mavjud. Qadimdan taqiqlarning biri tabu hisoblangan. Tabu – insonning taqozosi yoki turli sabablar (suhbatdoshni haqorat qilmaslik, yoqimsiz assotsiatsiyalarni keltirib chiqaruvchi tushunchalar) bilan lug‘at boyligida mavjud bo‘lgan so‘zni aytishdan cheklanishi. Tabulanyaptimi, demak, o‘sha predmet-hodisa mavjud. Shu sababli u haqida qanday bo‘lmisin gapirish lozim. Bu esa evfemizmlarning qo‘llanilishini taqozo etadi. Tibbiyot xodimlari nutqida ham u yoki bu kasallikni atash (*soch to‘kilishi* o‘rniga *alopetsiya*) yoki insonning fiziologik holatini atash uchun (*siydirik* o‘rniga *mochevina/urina*) evfemizmdan keng foydalilanadi.

Umuman olganda, tilshunoslar evfemizm atamasi ostida taqiqlangan so‘z va iboralar o‘rnida qo‘llaniluvchi birlikni birlashtirar ekan, evfemik birlikni noevfemik birlikdan farqlashning yagona tamoyilini ishlab chiqishda birdam fikrga kelishmagan. Evfemik birlikni noevfemik birlikdan farqlashda evfemaning keng tarqalganligi (keng tarqalganmi yoki epizodik mavqedami); uslubiy xoslanishi (qo‘llanish sohasi); nominatsiyaning metaforikligi, xushohang va yoqimliligi; evfemik xarakterga egaligi; evfemizmlarning til hodisalari bilan o‘zarbo‘liqligi kabi belgilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq. Bu borada V.P.Moskvinni evfemizmni boshqa birlikdan farqlash lozimligi

haqidagi fikriga qo'shilamiz. Xususan, evfemizmni tasviriy ifoda hamda "yashirin so'z" kabi ikki batamom differensial mustaqil birliklardan farqlash lozim. Yuqorida evfemizmnning belgisi haqida bir necha tilshunoslarning ta'riflari keltirilganligini inobatga olib, faqat "yashirin so'z"(o'zbek tili xususiyatidan kelib chiqsak, masalan, argo)ning ta'rifini keltiramiz. Faqat ma'lum ijtimoiy guruh a'zolari tomonidan ishlatiladigan va faqat shu guruh a'zolariga tushunarli bo'lgan, jamiyatning shu guruhga kirmaydigan boshqa qatlami uchun tushunarsiz bo'lgan til – "yashirin so'z" (argo). Harbiylar nutqida ma'lumot maxfiyligini saqlash maqsadida shunday birliklardan foydalaniadi. Shifokor nutqida ham bemordan nutq mazmunini yashirish maqsadida tibbiy atamalarning lotin tilidagi ekvivalentining ishlatilishi kuzatiladi. Bunday birliklar evfemizmlar sirasiga kirmaydi.

A.V.Osipov biror-bir birliking evfemizm yoki argoga daxldorligini aniqlash uchun uning qo'llanilish konteksti va vaziyatini inobatga olish muhimligini aytadi. Ayni bir so'z shifokor nutqida evfemizm va argoga birdek taalluqli bo'lishi ham mumkin. Quyidagi ikki vaziyatni solishtiramiz. 1-vaziyat: shifokor bemorga pedikulyoz bilan kasallanganligini aytdi, bemor buni tushundi. 2-vaziyat: bir shifokor hamkasbiga bemorning tashxisi pedikulyoz ekanligini aytdi. Birinchi vaziyatda shifokor bu birlidjan nutqni yumshatish maqsadida evfemizm sifatida foydalangan bo'lsa, ikkinchi vaziyatda berilayotgan axborotning maxfiyligini ta'minlash maqsad qilingan edi.

Professional nutqda evfemaning o'rni. Evfemizmlarning amal qilish sohalarini aniqlash muammoli masala. Ular faqat kasbiy muloqotda emas, kundalik hayotning boshqa jabhalarida ham qo'llanadi. A.P.Moskvin evfemizmlarning faqat uslubiy betaraf birlik ekanligini uqtirsa, A.A.Reformatskiy, A.M.Katsev, L.P.Krisin, G.Mankovskaya, T.L.Pavlenko kabi olimlar tilning barcha uslublariga birdek daxldorligini ta'kidlashadi. Ikkinchi qarash fanda ko'proq e'tirof etilgan. E.P.Senichkina ham A.A.Reformatskiy, L.P.Krisin fikrlarini qo'llab-quvvatlaydi – evfemizmlar tilning barcha uslublariga tegishli ekanligini, kundalik hayotning hamma jabhalarida qo'llanilishini ta'kidlaydi. V.P.Moskvin evfemizmnning qo'llanishini quyidagicha guruhlaydi:

- 1) diplomatiya: "o'zaro do'stlik prinsipi";
- 2) hukmronlikning jazo tariqasidagi harakati: *qamoqqa olmoq o'rniga ushlab olmoq; o'lim jazosi o'rniga oliy hukm;*
- 3) davlat va harbiy sirlar: *noodatiy turdag'i qurollarni ishlatish* (bakteriologik qurol nazarda tutilyapti);
- 4) armiya, razvedka, militsiya, jinoiy-qidiruv va ba'zi hokimiyat ishlari [12]. Bu turdag'i evfemik xususiyatl so'z va iboralar umumiyl ma'noda o'sha nutqiy vaziyatda aniq harakat-holatga nisbatan qo'llaniladi: *vazifa operatsiya ma'nosida, obyekt evfemasi maxfiy ravishda kuzatilishi kerak bo'lgan shaxs ma'nosida keladi;*
- 5)taqsimlash va xizmat ko'rsatish muhiti: *ehtiyoji o'sgan mollar defitsit ma'nosida, maishiy va so'zlashuv nutqida tashkillashirmoq, tuzmoq biror-bir molni qo'lga kiritishga yordam bermoq ma'nosida qo'llaniladigan iboralar keng tarqalgan;*
- 6) har xil millat, sotsial guruh o'rtasidagi munosabat hamda bu guruhning holati: *mahalliy bo'lmagan aholi, etnik tozalash; xayf ko'tarilgan guruhlar;*
- 7) ba'zi kasb turlarida biror maqsad bildiruvchi, shu kasbning mavqeini oshirish yoki ba'zi kamchiliklarini yopish uchun qo'llaniladigan evfemizmlar: *tozalash ishlari operatori, bajaruvchi-ijrochi (o'lim jazolarini bajaruvchi shaxs).*

Evfemizm lingistik jihatdan ham tasniflagan va bu hodisaning tasnifi o'zbek tilshunoslarning e'tiboridan ham chetda qolmagan. N.Ismatullayev evfemizmlarni tabu bilan bog'liq evfemizm, bid'at, irim qilish bilan bog'liq evfemizm, ma'nosi qo'pol, aytish noqulay bo'lgan so'z va iboralar o'rnida qo'llanadigan evfemizm, nutqiy bezamatlik, ko'tarinkilik va diniy maqsadlar uchun qo'llanadigan jargon evfemizmlar kabi guruhlarga ajratgan [5].

Tibbiyotda evfemizmlardan foydalanish an'ana tusiga kirib qolgan, chunki qadimdan kasallik va o'lim bilan bog'liq holatlar tabulashtirilgan. Bundan tashqari tibbiyotda ko'pincha inson fiziologiyasi bilan bog'liq qo'llash noqulay bo'lgan yoki tinglovchi uchun yoqimsiz hislarni paydo qiladigan hodisalar haqida ko'p gapiriladi. Odatda, tibbiyotda til birliklarining evfemalashishi o'zlashma so'zlar hisobiga amalga oshadi va, ko'pincha, kasallikning lotinchay nomini yoki maxsus tibbiy atamalarni qo'llash kuzatiladi. Masalan, kasalliklar nomini atashda shu usuldan foydalaniadi: *bachardon shilliq qavatining yallig'lanishi o'rnida endometrit; bosh va orqa miya pardasining yallig'lanishi o'rnida meningit va hk.* Demak, kasbiy evfemizmlarni ularga o'xshash fenomenlardan farqlash lozim.

K.M.Mamedova, T.Y.Xaustovalar nutqda evfemizm qo'llashdan maqsad kommunikativ to'qnashuv, ixtilof va omadsizlikdan qochish, suhbatdoshda kommunikativ noqulaylik hissini paydo qilmaslik ekanligi ta'kidlaydi[11]. Evfemizmlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qo'llanilishi mumkin. Kundalik muloqot nutqidan ham bunday birliklarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, *invalidlar imkoniyati cheklanganlar, invalidlar olipniyadasi esa paralimpiya o'yinlari* kabi birliklar bilan evfemalashtiriladi. Kundalik muloqotda ishlatiladigan evfemizmlarning katta qismi kasallik nomi va o'lim holati bilan bog'liq. O'lim va ko'mish marosimi bilan bog'liq tushunchalar ham evfemizm vositasida verballashadi: *bizning oramizda yo'q, bandalikni bajo keltirdi* kabi.

Evfemizmning asosiy funksional turlari ham mayjud bo'lib, quyidagi ko'rinishlari tibbiyot xodimlari nutqida ko'proq uchraydi:

1.L.A.Bulaxovskiy evfemizmning "qo'rqinchli predmet va hodisalarning nomini yashirish va almashtirish" maqsadida qo'llanilishini aytgan [2]. Masalan, o'lim bilan bog'liq tushunchalar nutqimizda juda ko'p evfemik birliklariga ega: *olamdan o'tdi, ko'z yumdi, vafot etdi, narigi olamga rixlat qildi, narigi dunyoga yo'l oldi, abadiy uyquga ketdi, dunyon tark etdi, so'nggi yo'lga ketdi, omonatini topshirdi, bu dunyoni tark etdi, qazo qildi, joni uzildi, o'tib qolmoq kabi*.

2.Aytlishi yoqimsiz bo'lgan vogelikni nomlash maqsadida *klimaks* o'rnida *hayzning to'xtash davri* birikmasi qo'llanadi. Masalan, *Menopauza ayollarda hayz to'xtash davri osteoporoz rivojlanishini kuchaytiradi* [13, 21b].

3. Davr va jamiyat uchun nomaqbtlar sanalgan birlikni evfemalashtirish. Bunday birliklarni B.A.Larin maishiy evfemizmlar deb ataydi. Tilshunos haqli ravishda ta'kidlaganidek, bu evfemalarda "inson anotomiysi va fiziologiyasi sohasidagi tushunchalarni cheklash" xususiyati ustunlik qiladi hamda og'zaki nutqda keng qo'llanilishi bilan xarakterlanadi [8]. Masalan: *hezalak* o'rnida *erkakning jinsiy ojizligi, jinsiy faollikning pasayishi, erkaklik quvvatining yo'qolishi* birikmalari qo'llaniladi: *Erkaklar jinsiy ojizligi (mijoz sustligi) tibbiyotda erektil disfunksiya deb ataladi; Jinsiy faollik pasayishiga turli xil omillar ta'sir qilar ekan, bunday bemorlarni faqatgina mutaxassislar yordamida to'g'ri tashxislash va davolash tavsiya etiladi.* [13,47b].

4. Evfemizm qo'llashning keyingi ko'rinishi odob-axloq normalari (etiket) bilan bog'liq. Evfemaning bu turidan so'zlovchi tinglovchi yoki o'zga(uchinchchi shaxs)ni xafa qilib qo'yish, noqulay ahvolga solishdan saqlanish uchun foydalanadi hamda ifodalananayotgan birlikka nisbatan yumshoq va chiroyliroq so'z yoki iborani tanlaydi. Tibbiy evfemizmlar orasida kasallik nomi, patologiyasining qo'pol ko'rinishini ifodalashda ishlatiladi. Masalan: *sassiq hid* o'rnida *noxush hid taralishi* birikma(evfema)si qo'llanadi: *Vaginoz(qin yallig'lanishi)dan ozor chekadigan ayollarning qov sohasidan noxush hid taraladi.* [13,4b].

5. N.S.Arapova mohiyatning aslini yashirish maqsadida qo'llanuvchi evfemizmlarni ham farqlaydi [1]. Tibbiyotda kasalning ahvolini uning yaqinlariga yetkazishda evfemizmning shu ko'rinishidan foydalanimadi. Masalan: *tayyorgarligingizni ko'ring, bu yog'iga xudodan so'rang, Allah sabr bersin* kabi.

Zamonaviy tilshunoslikda evfemiya o'zaro chambarchas bog'liq uchta – ijtimoiy, psixologik va maxsus lingvistik aspektga ega. Ijtimoiy aspekt – bu evfemiya asosida yotadigan ijtimoiy, xususan, ma'naviy, diniy-ma'rifiy va siyosiy motivlar. Aynan shu omillar ta'sirida predmet, voqeahodisalarning asl nomlanishi salbiy baho kasb etadi, taqiqlanadi, maqbul ifodalar bilan almashtiriladi. Psixologik aspekt omili ostida evfemistik o'rindosh talab qiluvchi tushunchani fikr-mulohazani yumshatuvchi effekt bilan ifodalash tushuniladi. Predmet, voqeahodisaning asl nomi qo'rquv, uyat, noqulaylik, nafrat kabi salbiy hissiyotlar tug'diradi. Yangi, ko'chma ma'noli nom shu hisni me'yorlashtiradi. Evfemiya hodisasini o'rganishga lingvistik yondashuv evfemizm qo'llashning belgi, ishora va shart-sharoitlarini aniqlaydi.

Kasbiy muloqotda evfemizmlarning bir yoki barcha aspekti birato'la vogelanishi mumkin. Xususan, tibbiyot xodimlari nutqida o'rni bilan, vaziyat, nutq talabiga asosan ijtimoiy, psixologik, lingvistik aspektlar namoyon bo'ladi. Inson fiziologiyasi va anotomiysi bilan bog'liq holatlar nutqda ifodalananayotganda ijtimoiy aspekt voqelashadi. Masalan: *ko'r o'rnida ko'zi ojiz* birikmasi ishlatiladi: *Bepul foydalanish huquqi ko'zi ojiz nogironlar va ko'zi ojiz nogironlarga hamrohlik qiluvchi shaxslarga beriladi*[13,32b]. *Kar* o'rnida *qulordan qolish, eshitish qobiliyatining yomonlashishi, tevarak-atrofdagi ovoz, so'zlardan mosuvolik, muloqot qilish imkoniyatining cheklanganligi* kabi birikmalar qo'llanadi: *Tevarak-atrofdagi ovozlardan, so'zlardan mosuvolik... Eshitish qobiliyatini yo'qotgan odam holati* [13,33b]. Insonning jismoniy nuqsonini o'ziga o'z nomi aytish so'zlovchi va

tinglovchiga birdek noqulaylik, yoqimsiz his bag‘ishlaydi hamda muloqotning bunday ko‘rinishi madaniyatsizlik belgisi sanaladi. Yuqorida misollarda ijtimoiy, psixologik aspekt hosilasining bir vaqtida namoyon bo‘lishi kuzatilyapti.

Tibbiyot xodimlari nutqida psixologik aspekt boshqa aspektlarga nisbatan yetakchi sanaladi, chunki bunday mazmundagi evfemalarning qo‘llanish chastotasi baland. Tibbiy amaliytda nomi qo‘rquv, uyat, noqulaylik, nafrat kabi salbiy hissiyot tug‘diradigan fiziologiya, kasallik nomi va u bilan bog‘liq voqeа-hodisalar bo‘ladi. Mana shunday birliklar nutqda evfemalashadi. Masalan, **bod chiqarmoq** o‘rnida **yel ajralmoq** birikmasi qo‘llanadi: *Og‘riq ovqat iste’mol qilingandan keyin kuchayadi, najas va yel chiqargandan so‘ng esa kamayadi* [13,39b]. **Emizmoq** so‘zi kundalik muloqotda ayollarning o‘zaro nutqida uchrab tursa-da, tibbiyot xodimlari nutqida shu ma‘noni ifodalash, odatda, **oziqlantirmoq** so‘zi yoki **ona suti bilan parvarishlamoq** birikmasiga yuklanadi: *Go‘dakni o‘z vaqtida ko‘krak suti bilan oziqlantirmaslik sababli ayolda laktostaz kelib chiqadi*[13,16b].

Nutq evfemizatsiyasiga lingvistik yondashuv evfemizm qo‘llashning belgi, ishora va shart-sharoitlarini aniqlaydi. Bunda so‘zlovchi (shifokor) evfemik birlikni tanlar ekan, qanday sharoitda qaysi birlikni tanlashi bemor yoki uning yaqinlariga yetkazayotgan axborotini o‘z maqsadiga muvofiq ravishda tinglovchiga noqulaylik, og‘riq hissini paydo qilmay yetkazishni ko‘zlaydi. Masalan, uyat a‘zolar **orqa chiqaruv yo‘li, jiddiy a‘zolar, nozik sohalar, qorinning pastki qismi, peshob chiqarish kanali** kabi so‘z birikmalari bilan almashtiriladi: *Orqa chiqaruv yo‘li gigienasida maxsus yuvish vositalardan foydalanish tavsiya qilinmaydi. Jiddiy a‘zolarni mikroblardan tozalash(dezinfeksiya)da ishqorli sovunlardan foydalangan ma‘qul*[13,22b].

Demak, kasbiy muloqotda evfemik birliklardan foydalanish vaziyat, sharoit, muhit, auditoriya omillari bilan bog‘liq bo‘ladi. Nutqning evfemalashishi – so‘zlovchining nutq madaniyatini, kasb egasining professional mahoratini ko‘rsatib beruvchi omillardan biri. Kasbiy mahorat talab qilinadigan vaziyatda har bir xodim inson omilini birinchi o‘ringa qo‘yishi, nutqini nazorat qilishi, fikrini nazokatli, latofatli ifodalashi uning ma‘naviy olami ko‘zgusidir. Zero, bir og‘iz shirin so‘z tushkunlikka tushgan har qanday insonning ruhiyatini ko‘tarib, unga xush kayfiyat baxsh etadi. Dono xalqimiz bejizga “Kasal ko‘rsang, ko‘ngil ko‘tar” demagan.

Adabiyotlar

1. Арапова Н.С. Эвфемизмы // Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н. Ярцева. – М.: Сов.энциклопедия, 1990. – 683 с.
2. Булаховский Л.А. Табу и эвфемизмы // Булаховский Л.А. Введение в языкознание. Ч.2. – М., 1953. – С. 50.
3. Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. – М.: Высшая школа, 1981. – 340 с. – С.79.
4. Евгеньева, А. П. Словарь русского языка в четырех томах (Текст)/ А. П. Евгеньева. – Т. 4. – М.: Русский язык, 1988. – 800 с. – С.746.
5. Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Т., 1963. –19 с.
6. Кацев А. М. Языковое табу и эвфемия: учеб. пособие к спецкурсу. – Л.: ЛГПИ им. А.И.Герцена, 1988. – 80 с.
7. Крысин Л.П. Эвфемизмы в современной русской речи // Русский язык конца XX столетия. – М.: Языки рус.культуры, 1996. – С. 65-72.
8. Ларин Б. А. Об эвфемизмах // Ларин Б. А. Проблемы языкознания: сб. статей, посвящ. 75-летию акад. И.И.Мещанинова. – Л.: ЛГУ, 1961.
9. Лингвистический энциклопедический словарь. Гл. ред. В.Н.Ярцева. – Москва: “Советская энциклопедия”, 1990. – 685 с. – с.590.
- 10.Лингвистический энциклопедический словарь. / О.С.Ахмановой. – 2-е изд., стер. – М : УРСС : Едиториал УРСС, 2004. – 571 с.
- 11.Мамедова К.М., Хаустова Т.Ю. Эвфемизмы в современном русском языке и врачебной практике// Bulletin of Medical Internet Conferences, 2013. – Volume 3. Issue 11.
- 12.Москвин В.П. Эвфемизмы. – Москва, 1999.
13. Шифо-инфо”, 2017, №39, 50-б.

UDK: 398.2

ERTAK JANRIDA KUMULYATIV STRUKTURA – RUS, INGLIZ XALQ ERTAKLARI**MISOLIDA****O.A Xolmurodova***Jizzax davlat pedagogika instituti*

Annotatsiya. Muallif maqolada kumulyativ ertaklar o‘rganilish masalalarini yoritgan. Rus, ingliz xalq ertaklari misolida kumulyativ struktura va kumulyativ ertaklar kompozitsiya tuzilishini tahlil qilgan. Zanjirli bog‘lanish, sof kumulyatsiyaga ega bo‘lgan ertaklar qiyosiy tadqiq qilingan. Kumulyativ ertaklardagi takroriylik xususiyatlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: rus xalq kumulyativ ertaklari, ingliz xalq kumulyativ ertaklari, kumulyativ struktura, kompozitsiya, zanjirli bog‘lanish, personaj.

Кумулятивная структура в жанре сказка-в примере русских, английских народных сказок.

Аннотация. В статье автор освещает вопросы изучения кумулятивных сказок. Русские, английские народные сказки анализируют состав кумулятивного строения и кумулятивных композиций сказок. Цепная связь сказки с чистой кумуляцией были сравнительно изучены. Изучены повторяющиеся особенности кумулятивной сказки.

Ключевые слова: Русские народные кумулятивные сказки, английские кумулятивные сказки, кумулятивная структура, композиция, цепная связь, персонаж.

The cumulative structure in the fairy tale genre-in the example of Russian, English folk tales.

Abstract. The author of the article deals with the issues of cumulative fairy tales. The cumulative structure and the composition of the cumulative fairy tales were analyzed in Russian, English fairy tales. The chain links and pure cumulative structure of the fairy tales were investigated comparatively. Repetitive features of the cumulative fairy tales were studied.

Keywords: Russian cumulative folk tales, English cumulative fairytales, cumulative structure, composition, chain link, character.

Folkloarning eng qiziqarli shu bilan birga barcha yosh vakillari auditoriyasini o‘ziga jalg‘ eti olgan janr - bu ertak janridir. Ertaklarni o‘rganish bir asrdan ziyod vaqtidan beri davom etib kelayotgan jarayon hisoblanib, shuning katta ulushi rus olimlari va rus xalq ertaklarini o‘rganishga tegishli desak xato bo‘lmaydi. Rus xalq og‘zaki ijodi tadqiqotlarining asosini strukturaviy tipologik o‘rganish usuli tashkil etadi. XIX asrning oxirida rus olimi A.N.Veselovskiy tomonidan ilk tadqiqotlar boshlandi, keyinchalik xalq ertaklari manbalarini o‘rganish A.I Nikiforov, R.M. Volkovlar tomonidan davom ettirildi. XX asr boshlarida olimlar V.P.Anikin, V.M. Jirmunsk rus xalq og‘zaki ijodini shu jumladan ertaklarni o‘rganish borasida ko‘pgina ilmiy ishlarni yaratdilar. Folklor sohasidagi tadqiqotlari va ayniqsa rus xalq ertaklari borasida o‘ziga xos maktab asoschisi va ko‘pgina yirik tadqiqotlar muallifi sifatida Vladimir Yakovlevich Proppni ko‘rsatish mumkin. Uning “Морфология сказки” (1928-birinchi nashri, 1969-ikkinchi nashri), “Исторические корни волшебной сказки” (1946), “Русский героический эпос” (1955- birinchi nashr, 1958-ikkinchi nashri), “Русские аграрные праздники” (1963) kitoblari va ko‘pgina ilmiy risolalari rus xalq og‘zaki ijodini o‘rganishdagi ahamiyati beqiyos. Shu asnoda kumulyativ ertaklarni o‘rganishda V.Y.Propp tomonidan ilgari surilgan nazariyalar muhim bo‘lib, boshqa xalq kumulyativ ertaklarini strukturaviy jihatdan o‘rganishda shu bilan bir qatorda rus kumulyativ ertaklarini o‘rganishda olimlar V.Y.Propp tadqiqotlariga suyanadilar. “*Har bir fan sohasida kichik masalalar bo‘ladi, ammo ular katta ahamiyat kasb etadi. Folklorshunoslikda shunday kichik masalalardan biri bu kumulyativ ertaklar masalasidir.*” [18; 241] Demak olim kichik ko‘rinsada o‘rganish ko‘lami keng hisoblangan kumulyativ ertaklar rus xalqida ham salmoqli ko‘rsatkichga ega ekanligini ta‘kidlagan. Ushbu tur ertaklari tuzilishi turli munozaralga sabab bo‘lishiga qaramasdan ertaklar tasnifi asoschisi Annti Aarne ushbu atamani qabul qilmaydi. [3]

V.Y.Propp fikriga ko‘ra ertaklar tasnifi ertak strukturasiga asoslangan pritsiplar asosida turlarga ajratilishi kerak va u rus xalq ertaklarini strukturaviy pritsip asosida tasniflaydi. Shunga qaramasdan “Aarne-Tompson” tasnifi aynan kumulyativ ertaklarni tur sifatida ajratishda ularning strukturaviy tuzilishiga tayangan. “*Biroq, mavhum formulalar uchun harakat qilmayman, lekin bir milliy*

madaniyat doirasida ushbu janrni kamroq yoki aniqroq tafsiflashga harakat qilaman. Agar bu tajriba muvaffaqiyatli bo‘ladigan bo‘lsa, u boshqa xalqlarning ijodini o‘rganish uchun qo‘llanilishi mumkin, bu esa ushbu janrning keng qamrovli qiyosiy tarixiy o‘rganilishiga zamin yaratadi va ertaklarni ilmiy tasniflash va kataloglash masalasini biroz kengaytiradi.” kabi fikrlari va ertaklar borasidagi tadqiqotlari V.Y. Proppning qay darajada uzoqni ko‘ra bilganligi, keying ilmiy izlanishlar uchun asos yaratganini, muhimmi olim folklor tadqiqotlari uchun bu muammoni hal qilishning muhimligini ta’kidlaydi.

Ertaklarda kumulyativ strukturaga oid manbalarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, strukturani shakllantiruvchi takrorlanish tamoyiliga asoslangan kompozitsiya ko‘p hollarda bolalar folklorida uchraydi.[4,5,6,7,10,15,16] Zamnaviy ilm fan bolalar folklorida atamalar ko‘lamaning aniq chegarasini haligacha belgilanmagan, bolalar uchun kattalar tomonidan yaratilgan asarlar asta-sekin o‘zlarini assimilyasiya qilishdi. Bolalar folklori xalq pedagogikasi bilan chambarchas bog‘liq, buning nafaqat estetik zavq olish balki uning amaliy ahamiyati ham muhim. Biz uchun bu kabi ertak matnlarining funksional tabiatini ahamiyatli bo‘lib, zanjirsimon matn tuzulishini qabul qilishning ahamiyatini oshib beradi. V.Y. Propp kumulyativlilikni tushunish maqsadida nafaqat bolalar ertaklari, balki hayvonlar to‘g‘risidagi va sehrli ertaklarga ham murojaat qiladi. Bu ertaklarning badiiy uslubi biror bir harakatning yoki elementning takrorlanishi asosida zanjir hosil bo‘lishi va bu zanjir uzilmasligi yoki teskari holatda ajralib (tarqalib) ketmasligiga alohida o‘rg‘u beradi. Olimning fikriga ko‘ra Kettenmärchen-zanjirli ertaklar atamasi qo‘llash mumkin bo‘lgan “Repka-Sholg‘om” ertagini misol keltiradi, lekin bu kumulyativlilik uchun juda tor yo‘nalish sifatida izohlaydi. Olimning fikriga ko‘ra kumulyativ ertak faqat zanjirli tuzilishga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, turli xil bog‘lanishlar, uchrashishlar, hammasi bir ajoyib va quvnoq yakunga ega bo‘lgan syujetlardan iborat bo‘lishi kerak. Kumulyativ ertaklarni ikki turga bo‘ladi, ya’ni formula va epik. Ammo bu raqamni hal qiluvchi deb hisoblash mumkin emas edi. Shu sababli, olim turli xil yondashuvni taklif qiladi: birinchi navbatda, u ta’sirni tanlaydi, ya’ni zanjirning boshlanishi, undan keyin kumulyasiya va finalga ergashish. Kumulyatsiya ta’sirida qatorlar bog‘lanishinng ikki yo‘lini tushuntiradi, bog‘lanishlar ba’zan navbatma navbat, boshqalarida esa yangi qo‘silsa oldingilari takrorlanadi. Ertaklarning turlari o‘zlarining kumulyativ qismlarida mavjud bo‘lgan ma’noga qarab belgilanadi. Olimning kumulyativ ertaklar to‘g‘risidagi maqolasi nashr etilgandan keyin ham ko‘pchilik ertakshunoslarning tadqiqotlari sehrli ertaklar o‘rganishga yo‘naltirildi.

1980-yillar oxirlariga kelib, E.A.Kostyuxin va I.I. Kruk kumulyativ ertaklar borasida, ularning pritsiplari haqida izlanishlar olib borishdi. I.I.Kruk "Восточнославянские сказки о животных. Образы. Композиция. Hayvonlar haqida Sharqiy slavyan ertaklari. Obrazlar. Kompozitsiya" nomli tadqiqotida kumulyatsiyani hayvonlarga oid sharqiyslavyan ertaklari qurilishiga xos kompozitsion prinsiplardan biri sifatida qaraydi. Uning fikriga ko‘ra kumulyatsiya takroriylikning bir turi va uni takroriylik o‘sishi, ko‘payishi prinsipi sifatida aniqlaydi. Proppdan farqli o‘laroq, u yana bu kontsepsiyanı qisqartiradi va "parallel ravishda chiziqli takrorlash prinsipi (bir xil turdag'i takrorlash)" ni ta’kidlaydi. [14; 77]

Aslida, kumulyasiya tushunchasini mazmunini aniqlash uchun bunday yondashuv rus folklor tadqiqotlari uchun yangi emas. Misol uchun, 30-yillardagi tadqiqotlarda O.I.Kapitsa xuddi shunday fikrni ifoda etgan. [10;165] U quyidagi sxemani taklif etadi;

A, A+B, A+B+C, A+B+C+D+.....

Shu texnika asosida qurilgan kompozitsiyali ertaklar guruhini kumulyativ ertaklar guruhiga kiritish mumkin degan fikrni ilgari so‘radi. Shunga ko‘ra "Коза с орехами" yoki "Смерть петушки" kumulyativ tur ertaklari hisoblanib, "Колобок" yoki "Заюшкина избушка" ertaklarini ba’zi o‘xshashliklarga qaramasdan bu turga kiritmaydi.

Biroq, I.I. Kruk ilk marotaba bunday fikrning to‘g‘riligini isbotlashga o‘rinib ko‘rdi va shu maqsadda uchta sharqiyslavyan xalqining ajoyib materiallarini shu asosda o‘rganib chiqdi. Muallifning fikricha, chiziqli takrorlanish prinsipi "tarkibining asosi bir xil turdag'i takroriy iboralardan iborat bo‘lib, u yerda keyingi har bir leksik va sintaktik qo‘llash bo‘yicha oldingi darajaga yaqin bo‘lgan"

Kompozitsiyani chiziqli takrorlash prinsipiga asoslanadigan kumulyativ tuzilishdan farqli o‘laroq, "axborot hajmi ko‘payadi, uning leksik hajmi oshadi" va ayni paytda takroriy bloklarning zanjirband tarzda chiziqlari paydo bo‘ladi.

I.I. Kruk V.Y. Proppning kumulyativ ertaklar formulali va epik turlarga bo'linish fikriga qo'shilmagan holda, sehrli, hayvonlar to'g'risidagi va novelistik ertaklarning kompozitsion tuzilishi kumulyasiya prinsiplari asosida shakllangan bo'lsa kumulyativ ertaklar deyish mumkin degan fikrga keladi. Shu bilan birga kumulyativ zanjirlarda har qanday aloqaning mantiqiy shartliligini aniqlashga yo'naltirilgan, nomantiqiy bog'lanishlarning paydo bo'lishi juda kam holatlarda uchraydi, buning sababi esa jamoaviy mualliflilikdir. Zamonaviy tadqiqotchilar masalan, N. Roshiyanu, [19] N.M Gerasimov [8, 9] va boshqalar ertakka nisbatan turli xil turdag'i stereotiplarni aniqlaydilar, ularni formulalar deb ataydilar. Formuladan farqli ravishda, bog'lanish, faqat kamida ikkita qatorlar mavjud bo'lganda, ya'ni takroriylik bo'lsa, qaytarilish sodir bo'ladi. Muayyan semantik butun segmentning bir matni ichida takroriy takrorlash bizni "ichki mazmun" bir turdag'i stereotip ko'rinishining paydo bo'lishiga imkon beradi, agar u ushbu segmentning ichki tuzilishi yoki uning bir qismi bo'lgan individual sintaktik tuzilmalarni takrorlash bilan birga bo'lsa, yanada aniqroq bo'ladi. Repriza-bu butun takrorlanuvchi so'zli semantika bo'lib, strukturaviy jihatdan matnni hosil qiladi. Repriza yakka bo'lishi bu repriza leksema, ko'p bo'lishi- repriza sintagma, repriza-gap, repriza-bloklangan gap. Repriza tuzilishi qanchalik rivojlangan bo'lsa, takrorlanadigan bog'lanishlar stereotipi aniq belgilanadi, ishning umumiyligi tuzilishi - uning zanjir o'xshashligi yanada aniqroq bo'ladi. Shunga ko'ra, matinning bir qismining umumiyligi mohiyati, masalan, episodni takrorlashni davom ettirayotgan reprizalarning yo'qligi, ishning umumiyligi tuzilishining buzilishiga olib keladi, zanjirga o'xshash kompozitsiyani kuchsizlantiradi.

Zanjirli yoki kumulyativ ertaklarni asosiy tamoyilga muvofiq tasniflash 1934-yilda ingliz olimi A.Teylor tomonidan taklif qilingan. U o'z tadqiqotida kumulyativ yoki zanjirli ertaklar atamasi o'rniga "Formelmärchen" - "formulali ertaklar" atamasi ishlatgan.

A.Teylor birinchilardan bo'lib, formula ertaklarning ichki besh mihim turini taqdim etadi. [21] Unga ko'ra; zanjirli ertaklar, savol javobli ertaklar, yakuni yo'q ertaklar, tuganmas (davomli) ertaklar, takroriyligi halqasimon ertaklar.

I.F.Amroyan A.Teylor tomonidan taklif qilingan formula ertaklar to'g'ri yo'nalishda emasligini tanqid qiladi va bunga nisbatan o'z fikrini bayon etadi. "Bizning fikrimizcha, bu tashabbus muvaffaqiyatsizlikka uchradi, chunki A. Teylor o'zi belgilagan ertak turiga bunday turli xil xususiyatlarga ega bo'lgan belgilarni aniqlay olmadi, lekin u oddiy ertaklarga xos xususiyatlarning yo'qligini aniqlash yo'liga ergashdi. A.Teylording katta hajmdagi ishi tavsiflovchi hususiyatga ega edi. Muallif taklif etilgan tasnifni asoslash muammosiga qaraganda, ertaklarda formulali ko'rinishdagi syujetlarga va ularning dunyo bo'ylab tarqalishiga ko'proq e'tibor qaratgan." [1; 1-45]

I.F.Amroyan takroriylik prinsipi va kumulyatsiyani takrorlanish tuzilishiga ega prinsip sifatida qo'llanilish masalalarini o'zining tadqiqotlarida keng ko'lamda aks ettirgan. U ertak materiallarni tahlil qilgan holda takroriylik to'rt turini yoritadi

1.Bog'langan 2.Kumulyativ 3.Xalqasimon takrorlanish 4.Beqaror takrorlanish.

I.F.Amroyan fikriga ko'ra bog'langan takroriylik bu qachonki yangi satr eskisi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langsana faqat u orgali butun bir zanjir hosil bo'lsa sodir bo'ladi. Zanjirga o'xshash strukturaning asosiy takrorlanuvchi elementining tabiatini va tarkibi o'zgarib turadi. Shuningdek "so'z qatlami" miqdori sezilarli darajada farqlanib turadi. U takroriylikni amalga oshirish darajasini hisobga olgan holda quyidagi subtiplarni ajratadi:

1. Sof strukturaviy tuzilishga ega bo'ladi, qachonki matnning barcha bo'laklari faqat ma'no jihatdan takrorlanadigan bo'lsa;

2. Syujet kompozitsion tuzilishda matnning segmentlari butun semantik tarzda takrorlanadi, (qoidaga muvofiq repriza bilan birga keladi);

3. Og'zaki-matnli (yoki tematik chiziqli) bog'lanish;

Bog'lanishning to'laqonliliginu hisobga olsak, bog'lanishni quyidagi prinsiplarga ajratilish mumkin: chiziqli, chiqarib tashlash, kamayib boruvchi va o'sib boruvchi

Bog'lanishning o'sib boruvchi prinsipiga asoslanib qurilgan ushbu matn bunga yaqqol misol bo'la oladi:

"Едем-едем, ей спрему заяц:

- Пусти, бабка, на передок.

- Садись.

Едем-едем, спрему лиса:

- Пусти, бабка, на передок.

- Садись.

Едем-едем, стрему волк... медведь.

Сел медведь, оглобля и лопнула..." [11]

Yuqoridagi misolda to'rtta bo'lakdan iborat zanjirli bog'lanish bor. Har bir keyingi personaj oldingisidan kattaroq o'lchamga ega. Bu hikoyalarda bog'lanishlarni yanada rivojlantirishga nisbatan, zanjirning so'nggi aloqasi muhimdir, chunki uning xarakterini aks ettiradi, natijasi keyingi voqeanning markazida joylashadi.

A.A.Kretov o'zining "Типология и генезис рекурсивных текстов" [13; 219-245] maqolasida takroriylik bog'lanish strukturasining uch asosiy xilini ajratadi va ularni shu asosda o'rghanishni taklif etadi.

1. Zinama-zina ustunli bog'lanish 2. Zanjirli bog'lanish 3. Kumulyativ bog'lanish

A.A.Kretovning o'rghanish tizimi orqali I.F.Amroyan [2; 21] "Колобок" [17; 46-47] ertagining matni kumulyativ emas balki zinama-zina ustunli strukruraga asoslangan degan fikrni ilgari so'radi.

"Колобок полежал-полежал, да вдруг и покатился — с окна на лавку, с лавки на пол, по полу да к дверям, перепрыгнул через порог в сени, из сеней на крыльцо, с крыльца на двор, со двора за ворота, дальше и дальше."

Bo'g'irsoqning uydan qochishi zanjirli bog'lanishga asoslangan tarzda bayon etilgan. Ushbu ertakning asosiy personaji Bo'g'irsoq turli personajlar bilan uchrashadi, va ular bilan uchrashuvi yana ajrashish bilan tugaydi, yani uchrashgan personajlari unga ergashib birgalikda xatti-harakat qilmaydi, syujet rivoji faqat bo'g'irsoq bilan bog'lanib boradi. Bo'g'irsoq quyonni, bo'rini, ayiqni, tulkini uchratadi, ammo ular birgalashib ortib bormaydi.

A+B → A+C → A+D → A+E → A+F

Bo'g'irsoq+quyon → Bo'g'irsoq+bo'ri → Bo'g'irsoq+ayiq → Bo'g'irsoq+tulki

yildan ortiqroq vaqt o'tibdiki, Gyote ijodi va ilmiy merosi dunyoning turli mintaqalarida, turli yoshdag'i, turli kasbdagi gyoteshunoslarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Rassomlar, haykaltaroshlar, kompozitorlar, shoiru yozuvchilar, adabiyotshunosu tilshunoslari, tabiatshunosu ququqshunoslari bot-bot mashhur nemis yozuvchisining ijodiga murojaat qilib, uning serqirra faoliyatiga hos yangi jihatlarni kashf qilib kelmoqdalar. Professor Akmal Saidovning "Gyote-yurist" nomli kitobi ham dunyo gyoteshunosligiga qo'shilgan ulkan qissadir. U orqali o'zbek kitobhonlari nemis shoirining yana bir noyob fazilati-inson haq-ququqlari borasidagi o'lmas g`oyalari bilan tanishishga muvaffaq bo'ldilar. Yohan Vol'fgang Gyotening "G`arbu SHarq Devoni" yaratilganiga 200 yilcha vaqt o'tgan bo'lsada, uning insonparvarlik g`oyalari bugungi kun bilan hamohangdir. Zero, unda ilgari surilgan dunyo halqlarining bir-birini anglash, bir-biriga yaqinlashtirish, do'stlikda, tinch-totuvlikda yashash, muammolarni quroq bilan emas, ma'rifat, aql-idrok vaadolat bilan hal qilish g`oyasi nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi mafkuraviy kurash tobora keskinlashib borayotgan kunda yoshlarni yovuz ta'sirlardan himoya qilish uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Y.V. Gyotening "G`arbu SHarq Devoni" hamda Akmal Saidovning "Gyote - yurist" kitobiga hos ushbu hususiyatlarni yoshlar tarbiyasidagi ma'naviy-ma'rifiy jihatlarini yuqori baholaydilar. O'ylaymizki, Gyotening "G`arbu SHarq Devoni" tarjimasi va Akmal Saidovning "Gyote - yurist" kitobi yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhidagi tarbiyalashga hizmat qiladi". [156].

Demak, mazkur maqolada biz o'zbek adabiyotshunoslida "G`arbu Sharq Devoni"ga oid ma'lumotlar ya'ni, bu borada aytib o'tilgan tanqidiy va ijobili fikrlar bilan tanishib chiqdik.

Adabiyotlar

1. Azimov S. Y.V. Gyotening sharqqa ehtiromi. Jahon adabiyoti durdonalari. № 42. 26.05.2010.
2. Gyote I.V. Faust [Tarj. va kirish so'zi E. Vohidovniki]. - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. - 377 b.
3. Salomov G`. Adabiy an'ana va badiiy tarjima. - T.: Fan, 1980. - 160 b.
4. Salomov G`. Tarjima nazariyasi asoslari. - T.: O'qituvchi, 1983. - 118 b.
5. Rahimov H. Deutsch - nemismi, olmonmiq Olmonshunoslilik va tarjimashunoslirkdan ocherklar. - T., 2006. - 134 b.

UDK: 371.128.3

**CHET TILINI O'QITISHDA MULTIMEDIYAVIY O'QUV MANBALARIDAN
FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI**

I.J.Mambetova

Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada chet tilini o'qitishda multimediyaviy o'quv manbalardan foydalanishning pedagogik afzalliklari ilmiy manbalarga asoslangan fikrlar bilan tahlil qilingan. Muallifning ta'kidlashicha, agarda til o'rjanuvchi ona tilining imkoniyatlarini anglasa, individual tafakkur tizimida milliy tilning funksiyasini o'zlashtirgan bo'lsa, chet tilini o'rjanish jarayoni samarali-barqaror kechadi.

Kalit so'zlar: til, chet tili, multimediyaviy manba, multimediyaviy prezentsiya, ta'lim, ta'lim oluvchi.

**Эффективность использования мультимедийных источников в преподавании
иностранных языка**

Аннотация. В статье анализируются педагогические преимущества использования мультимедийных образовательных ресурсов в преподавании иностранных языков на основе научных источников. Автор утверждает, что, если учащийся языка понимает возможности своего родного языка, усвоил функцию национального языка в индивидуальной системе мышления, процесс изучения иностранного языка будет эффективным и устойчивым.

Ключевые слова: язык, иностранный язык, мультимедийный ресурс, мультимедийная презентация, образование, обучающиеся.

The effectiveness of using multimedia sources in teaching foreign language

Abstract. The article analyzes the pedagogical advantages of using multimedia educational resources in the teaching of foreign languages on the basis of scientific sources. The author asserts that if a student of the language understands the possibilities of his native language, has learned the function of the national language in the individual system of thinking, the process of learning a foreign language will be effective and sustainable.

Keywords: language, foreign language, multimedia resource, multimedia presentation, education.

Bugungi kunda faoliyatning barcha turlarida axborot texnologiyalarining qizg'in kirib kelish jarayoni kuzatilmogda [1]. Natijada ijtimoiy munosabatlarda hamda ma'naviy va moddiy ishlab chiqarishda turli ko'rinishdagi siljish holati vujudga kelmoqda. Ulardan biri bu ma'rifiy siljish hisoblanadi. Ma'rifiy siljish holati, ma'lumotlarni tez sur'atlar bilan iste'molchiga (talabaga) uzatish, uning sharhini amalga oshrish va saqlash, mustaqil tarzda savodxonlikni oshirish, ishlab chiqarish jarayoniga ijodiy yondashishni ta'minlash, kasbiy munosabatlarni madaniylashganligi kabilarda ifodalanadi. Chet tilini o'qitish (o'rjanish) ham bundan mustasno emas.

Har qanday ta'lim, aniq madaniy muhit doirasida kechib, bunda madaniyatning asosiy belgisi tabiiy til muhim rol o'ynaydi. Negaki, "Dunyoning til manzarasi reallikni, dunyoning madaniy manzarasi orqali in'ikos etadi. Til, insonning dunyo haqidagi bilimini yaratuvchi va mavjudligini ta'minlovchi muhim vosita hisoblanib, faoliyati jarayonida obyektiv dunyonni in'ikos etib, bilihni so'zlar orqali tasvirlab beradi. Bularning majmuasi "dunyoning til manzarasi"ni tashkil etadi"[2]. Har bir tabiiy til (masalan, o'zbek tili, qoraqalpoq tili, qirg'iz tili, tojik tili va b.) ma'lum belgilovchi majmuaviy yaxlitlikni (konseptualizatsiya) in'ikos etadi. Unda ifodalanadigan ma'no esa, yaxlit qarashlarni ifodalab beradi. Unda, jamoaviy, aniqrog'i milliy falsafa ifodalangan bo'ladiki, o'sha tilning tashuvchisi uchun shart hisoblanadi. Shu tariqa, dunyoning til manzarasi, murakkab strukturaga ega bo'lib, uning kognitiv vazifasi real dunyoni, atrof-muhitni, insonlar orasidagi o'zaro aloqadorlikning holatini belgilab beradi. Uni, madaniyatlararo muloqot deb ko'rsatish ham mumkinki, Ye.F.Tarasovning ta'kidlashicha: "madaniyatlararo muloqotda (shu jumladan chet tili vositasida), asosiy e'tibor tafovutlarga, birinchi navbatda kommunikantlarning milliy ongiga qaratiladi"[3]. Madaniyatlararo muloqot, nafaqat turli ong, balki ijtimoiy ong doirasida turli madaniyatlarning

muloqotini o‘zida mujassam etadi. Etpopsixologik ta’limotlardan ma’lumki, boshqa madaniyatni o‘zlashtirish, inson o‘zining madaniyatida mavjud o‘xhash obrazlarni topib, ularni qiyoslab, umumiy va xususiy jihatlarini ajratib oladi. Buning natijasida oldin ma’lum bo‘lmagan holatning tasnifi keltiriladiki, uni yangi bilimlarning vujudga kelishi deb ko‘rsatish mumkin. Shu sababli, chet tillarni o‘qitishda til o‘rganuvchilarning etnomadaniy mansubligini inobatga olgan holda, chet tilini o‘qitishda tizimli yondashish maqsadga muvofiqdir. Masalan, qoraqalpoq tilida tahsil olayotgan talabalarga ingliz tilini o‘qitishda, ingliz va qoraqalpoq tillaridagi o‘xhashlikka[4] alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan misol tarzida keltirish tilni o‘rganish jarayonini samarali kechishini ta’mindaydi.

Texnik imkoniyatlariga ko‘ra axborot texnologiyalari ishlab chiqarish jarayoniga yangiliklarni tadbiq etishni, motivatsiyani inobatga olishni, kommunikativlikni ta’minalashni, umumlashtirish va differensiyalash kabi metodik tamoyillarni joriy etish uchun qulaydir. Mazkur jarayon Qoraqalpoq tilida ta’lim beriladigan muassasalarda integrativ tarzda kechishini ta’minalashni taqozo etadi. Ilmiy manbalarning[5] tahlili asosida ta’kidlash mumkinki, axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tadbiq etish bir qator vazifalarni yechish uchun xizmat qiladi:

- ta’lim jarayonining nazoratini (ta’limiy mashqlarni bajarish, o‘zlashtirish va b.) amalga oshirishni;
- ta’limning individualligini va qulayligini;
- turli xil tusiqlarni (masalan, yosh ko‘rsatkichi bo‘yicha ta’lim oluvchilar orasidagi tafovutni) vujudga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- ta’lim oluvchining erkinligini va mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishini;
- ta’limni ta’lim oluvchilarning qiziqishini inobatga olgan tarzda tashkil etishni;
- ta’lim jarayoniga madaniyatlararo elementlarni tatbiq etish kabilarni.

Axborot texnologiyalari ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minalash bilan birga, ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi shaxsiga axborot texnologiyalaridan foydalana olish uquviga ega bo‘lishni talab etadi. Negaki so‘nggi vaqtarda axborot texnologiyalari masalalariga ta’lim beruvchilar va tadqiqotchilarning diqqat-e’tibori ortib bormoqda. N.Klevsovaning ta’kidlashicha “bu yo‘sinda multimediyaviy prezentatsiya alohida mazmun kasb etib, ta’lim jarayonida undan foydalanish ko‘p kanallikka, ko‘rgazmalilikka, integrallikka, o‘rganilayotgan jarayon yoki holatni modellashtirishga, interfaollikka hamda o‘quv-o‘yin shakllariga ega ekanligi bilan, ta’limda (shu jumladan chet tili ta’limida) afzalligi bilan ajralib turadi”[6]. Bu o‘z navbatida pedagogik faoliyatni takomillashtirishni, ta’limda innovatsiyalarni tatbiq etishni taqozo etadiki, chet tilini o‘qitish faoliyati bundan mustasno emas. Aynan shu yo‘nalish, ya’ni ta’limiy elektron manbalarni ishlab chiqish industriya darajasida rivojlanib bormoqda. Jumladan CBT – Computer Based Training (kompyuterga asoslangan ta’lim), CAI – Computer Aided Instruction (kompyuter ta’lim olishga yordam beradi), CAL – Computer Assisted Learning (kompyuter yordamida o‘rganish), CALL – Computer Assisted Language Learning (kompyuter yordamida til o‘rganish), TELL – Technology Enhanced Language Learning (texnologiya yordamida til o‘rganishni kengaytirish) kabi dasturlarning ommaviylashib borilayotganligi misol bo‘la oladi[6]. Ilmiy manbalarning tahlilining xulosaviy ko‘rsatkichi shundan dalolat beradiki[7], ta’lim tizimida multimediyaviy manbalarni joriy etish quyidagi tarzda amalga oshirilgan:

- ta’lim tizimida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish (Moras S., Erofeeva I. V., Begimkulov U.Sh. va boshqalar);
- chet tilini o‘rganishda “kompyuter (repetitor) – til o‘rganuvchi” (Warschauer M., Bakanova M. V., Anisimova N.S. va boshqalar);
- ijod namunasi misolida kommunikativ ko‘nikmalarini o‘rganish (Zubova I.I., Yermolitskaya A.G., Xlizova N.Yu. va boshqalar);
- lingvistika axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash (Potapova R.K., Marchuk Yu.N., Alekseeva T.E., Aleksandrov K.V., Harrington M. va boshqalar);
- axborot kompetensiyasini shakllantirishda (rivojlantirishda) axborot kommunikatsiya vositalari (Tolstix O.M., Sisoyev P.V. va boshqalar);
- chet tilini o‘qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik va didaktik masalalari (Klevsova N.I., Svetkova T.K., Bugayeva T.I. va boshqalar).

Fikrimizcha, multimediyaviy manbalardan chet tilini o‘qitishda foydalanish, ovoz, tasvir hamda matnning kombinatsiyaviy tarzda ifodalanishi, o‘qitish samaradorligini ta’mindaydi. D. Ruening

“Искусство презентации” nomli asarida yozishicha “insonlar 1 % axborotni ta’m, 2 % sezish, 4 % hid bilish, 10 % eshitish va 83 % vizual tarzda idrok etishadi [8]. Bu o‘z navbatida ta’limiy axborotlarni vizuallashtirish masalasiga e’tibor qaratishni talab etadi. N.N.Topolnikovaning fikricha, pedagogik mehnat bilan shug‘ullanish davomida, ta’lim oluvchilarning faoliyat turining yetakchiliginini inobatga oлган holda yondashish lozim. Chunki faoliyatning turlari, jumladan anglash, xotirlash, tadqiq etish, muloqot (shu jumladan kommunikatsiya), o‘yin, o‘qish, refleksiya kabilarni inobatga olib, ta’lim texnologiyasini tanlash samarali hisoblanadi. Jumladan, anglash faoliyati ustunlik qilsa, sharhlovchi-tasviriy va xotirlash faoliyati uchun reproduktiv texnologiyalardan foydalanish lozim. Tadqiq etish faoliyati ustunlik qilsa muammoviy-izlanuvchi, muloqot faoliyati uchun kommunikativ, o‘yin faoliyati uchun imitatsiyaviy-rolli va refleksiya faoliyati uchun ta’limiy texnologiyalarni tanlash, pedagogik faoliyatning manfaati jihatidan maqsadli hisoblanadi [9]. Bunda, tizimli yondashuvning ayrim elementlari kuzatiladi, jumladan, dekompozitsiya va elementlarning aloqadorligi bo‘yicha differensiyasini amalga oshirish[10].

N.N.Topolnikovaning bildirgan munosabati D.Ruening “insonlar, odatda 10 % o‘qiganlarini, 20 % etishganlarini, 30 % ko‘rganlarini, 50 % ko‘rgan va eshitganlarini, 70 % aytgan va yozganlarini, 90 % biron vazifani bajarish davomida munosabat bildirib, gapirganlarini eslab qoladi, [8] deb ta’kidlagani bilan mantiqan hamohang. Shu sababli, AKT vositalaridan chet tilini o‘qitish jarayonida o‘quv faoliyatini mustaqil ta’lim olish va bilim olish jarayonini boshqarish kabi namunalarini amaliyigini ta’minlaydi. Shu sababli, kompyuterli dasturlardan ko‘pfunksiyali vosita sifatida foydalanish mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Ahmad K., Corbett G., Rogers, M., & Sussex R. Computers, language learning and language teaching. - Cambridge: Cambridge University Press. - 1985.,
2. Жаров В.К., Таратухина Ю.В. Педагогический конструктивизм в кросс - культурной среде. – М.: Янус-К, 2015. – С. 72.
3. Тарасов Е.Ф. К построению теории межкультурного общения // Языковое сознание: формирование и функционирование.–М., 1998. – С. 42.
4. Багинская И.Н. К проблеме ассимиляции заимствований. – М.: Эдиториал, 2001. – С. 141., Урысон У.В. Проблемы исследования языковой картины мира: Аналогия в семантике. – М.: Языки славянской культуры. 2003 – 224 с.,
5. Клевцова Н.И. Мультимедийная учебная презентация Curiosites de l’Ile de la Cite - программа справочно-информационной поддержки по страноведению // Педагогический поиск: региональный научно-педагогический журнал. - Курск: Учитель, 2002. № 1-2. - С. 28-37.,
6. Клевцова Н.И. Методико-дидактические принципы создания и использования мультимедийных учебных презентаций в обучении иностранному языку // Автореф..к.. пед...наук. – Курск: Курский государственный педагогический университет, 2003. – С.3.
7. Кедрова Т.Е., Егоров А.М. Акустический модуль компьютерной обучающей среды по русской фонетике для систем дистанционного образования // X-сессия Российского акустического общества. Т. 2. - М., 2000. - С. 299 – 302.,
8. Руэ Д. Искусство презентации: Пер. с англ. М., 2006. – С. 83.
9. Топольникова Н.Н. Обучение взрослых на основе дидактической многомерной технологии // Коммуникативные и образовательные возможности современных технологий: сборник материалов и докладов III всерос. науч.-практ. конф. (с междунар. участием), Екатеринбург, 8 мая 2016 г. // ИОЦ «Инфометод». - Екатеринбург, 2016. - С.116.
10. Самаров Р. ва бошқалар. Тизимли таҳлил: назария ва амалиёт масалалари. Монография . – Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2017. – 208 б.

UDK 796.1(575.1)

**MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA
MASHG`ULOTLARIDA BOLALARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH**

B.T.Haydarov, G.X.Ibroimova
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maktabgacha ta`lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg`ulotlarida bolalarning jismoniy sifatlarini jismoniy mashqlar orqali shakllantirish, rivojlanirish usullari, bolalarni yoshiga, jinsiga asosan ko`nikma malakalar orqali o`rgatishning asoslari ularda sog`lomlashtirish, kun tartibini harakatli o`yinlar asosida tashkil etish, bolalarda hayotiy zarur harakat ko`nikma va malakalarni shakllantirish.

Kalit so`zlar: sifat, harakat, ko`nikma, rivojlanish, jismoniy mashq.

Развитие физических качеств детей на занятиях физического воспитания в дошкольных образовательных учреждениях

Аннотация. В данной статье приводятся методы развития физических на уроках качеств физического воспитание в дошкольных образовательных. Целью обучения физических и практических упражнений является оздоровление учащихся, развитие и формирование жизненно важных умений и навыков движения.

Ключевые слова: качество, движение, умение, развитие, физическое упражнение.

The development of physical qualities of children the in preschool thrift institutions

Abstract. The aim of the development of the children's physical features is to make them healthier with the help of developed methods of training, the physical exercises, practical and physical exercises themselves and to create the experience and skills which is necessary for their healthy life process.

Keywords: quality, movement, smart, development, physical exercises.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan, o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy sog`lom hamda aqlan yetuk bo`lib voyaga etishi uchun barcha shart sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan jismoniy tarbiya va sport davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlari doirasida yanada rivojlanmoqda. Sh.Mirziyoyevning "Maktabgacha ta`lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi PQ-3261-sonli qarori va bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida "2017-2021-yillarda maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi PQ-2707-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning 4-bandida "Maktabgacha ta`lim muassasalarida – boshlang`ich gimnastika va harakatli o`yinlar bo`yicha mashg`ulotlar olib borish orqali jismoniy rivojlanirish hamda salomatlikni mustahkamlash uchun tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya sport mashg`ulotlariga qiziqishni shakllantirish" qaror ijrosini ta`minlash hamda ushbu qaror va farmonlar hamda "O'zbekiston bolalar sportini rivojlanirish jamg`armasini tuzish haqidagi" farmoni va qarorlar bilan uyg`unlashib ketadi. Uning tub mazmuni va mohiyati haqida shunchaki sportni rivojlanirish emas, millat kelajagi, yurtning ertasi bilan bevosita bog`liq. Bolalarda jismoniy tarbiyaga mehr uyg`otish, ularni sportning sehrli olamiga olib kirish har birimizning kundalik vazifamiz bo`lmog`i kerak. Mana shu jihatga e'tibor qaratmay turib **sog`lom** millat, **sog`lom** jamiyat haqida gapirish qiyin. Ota-onalardan tortib barcha soha xodimlariga, ayniqsa, jismoniy tarbiya mutaxassislari zimmasiga millat kelajagini yanada sog`lomlashtirishga qaratilgan mas`uliyatni yuklaydi.

Yosh avlodni sog`lom va barkamol, jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, ularning jismoniy sifatlarini rivojlanirishga qaratilgan milliy jismoniy tarbiya tizimini yartish zarur. Shu bois jismoniy sifatlarni ilmiy jihatdan asoslash va ularni maktabgacha ta`lim muassasalarini jismoniy tarbiya dasturiga kiritish jismoniy tarbiya fani oldidagi eng dolzarb muammolardan biridir.

Jismoniy tarbiya mashg`uloti maktabgacha ta`lim muassasalarida jismoniy tarbiyaning asosiy shakli hisoblanadi. Masalan, bolalarning jismoniy tarbiya, sport sog`lomlashtirish jarayonlarini tashkil etishda jismoniy tarbiya vositalaridan keng foydalilanadi. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari

jismoniy mashqlar hisoblanadi. Jismoniy mashqlar bir shaklga keltirilgan va maqsadga yo‘naltirilgan ongли ravishda bajariladigan jismoniy harakatlardir.

Bolalarda jismoniy sifatlarni har tomonlama rivojlantirish, ularning milliy qadriyatlariga e’tiborini oshirish, ma’naviy, axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish uchun maktabgacha tarbiya yoshi eng qulay davr hisoblanadi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, bolaning jismoniy shakllanishi va jismoniy tayyorgarlik dinamikasi bolalarning mehnat qilish layoqati va izchil bajariladigan jismoniy mashqlarning xususiyatiga bog‘liq. Maktabgacha tarbiya yoshi jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun milliy va harakatli o‘yinlarga asoslangan mashg`ulot, mashqlarni to‘g‘ri tashkil etish va o‘tkazish eng muhim masaladir.

Jismoniy mashqlar bolalarni jismoniy harakatlarga o‘rgatish bilan birga ularning jismoniy sifatlari bo‘lib hisoblangan kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, tezkorlik va chaqqonlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bolalarni jismoniy mashqlar va amaliy jismoniy harakatlarga o‘rgatishning maqsadi ularni sog‘lomlashtirish, bolalar qaddi-qomatini to‘g‘ri rivojlantirish jismoniy rivojlantirish va hayotiy zarur harakat, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Maktabgacha ta`lim muassasalari tarbiyalanuvchilari bilan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari mutaxassis tarbiyachi va jismoniy tarbiya yo‘riqchilari rahbarligida olib borilishi kerak. Chunki harakat ko`nikma va jismoniy sifatlarini rivojlantirishda yoshi, jinsi va jismoniy rivojlanish darajalariga e’tibor berish kerak. Agar noto‘g‘ri mashqlar berilsa bola organizmiga bilmagan holda zarar yetkazish mumkin. Chidamlilik bir maromdag, uzlusiz, takroriy, tanaffusli mashqlar, o‘yinli va musobaqali usullar orqali rivojlantiriladi. Chaqqonlik maxsus mashqlar mushakli sa’y-harakatlarning qobiliyatni va muvozanatni saqlash funksiyalarini takomillashtirish, taqsimlangan zo‘riqishlar va bo‘sashishlar uyg‘unligi yordamida rivojlanadi. Chunki yugurish, harakatli o‘yinlar, to‘p otish, tepaga ko‘tarilish, chaqqonlikni talab etuvchi estafeta mashqlari ham yaxshi foyda beradi. Chaqqonlik fazilatini rivojlantirish, o‘zini boshqara olish va muvozanat saqlay olish qobiliyatilarini tarbiyalash mashg‘ulotlariga bolalar 4-5 yoshdan jaib etilishi kerak. Chidamlilik fazilati qiyin rivojlantiriladigan fazilat hasoblanib, bu mashg‘ulotlarga bolalar 6 yoshdan yuqori bo‘lganda jaib etiladi. Mashg‘ulotlar asosan o‘rta masofaga yurishlar, yugurishlar va harakatlarni uzoq vaqt va ko‘p marta takrorlashdan iborat bo‘ladi. Egiluvchanlik mahalliy ya’ni mashqlar alohida olingan bo‘g‘inlarning harakatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, integralli mashqlar, o‘yinli va musobaqali usullar orqali rivojlanadi. Egiluvchanlik fazilatini erta, 5-6 yoshdan rivojlantirish mumkin bo‘lsada, muntazam egiluvchanlik mashqlarini bajarib turishni talab etadi, aksincha, bo‘g‘imlar harakatchanligi tez yo‘qolishi mumkin. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish orqali bolada jismoniy sifatlarini rivojlantirish mumkin. Kuchni rivojlantirish uchun mashqni ikki turidan foydalaniadi. Birinchi turi – bu o‘zining shaxsiy og‘irligini cho‘zish bilan bajariladigan mashq, masalan, gimnastika narvonida tortilish, qo‘llarga tayanib yotgan holda bukish va yozish, cho‘qqayib o‘tirish, sakrash. Ikkinci turi – har xil mushak guruhlarini rivojlantirishda qo‘srimcha cho‘zilish bilan bajariladigan mashqlar, masalan, cho‘qqayib o‘tirish, engashish va burilishlar. Tezlikni rivojlantirish uchun imkoniboricha o‘rta tezlik bilan bajariladigan mashqlar qo‘llaniladi, masalan, qisqa masofaga yugurish, tez me’yorda koptokni otish va olib kelish mashqlari kiradi. Egiluvchanlikni rivojlantirish uchun bo‘g‘imlardi har xil harakatlar, mushak va bo‘g‘imlar cho‘zilishini talab qiladigan mashqlardan foydalaniadi; oldinga chuqurroq engashish, qo‘l va oyoqlar bilan keng harakat qilish, siltash, osilish. bolada chidamlilikni rivojlantirish uchun unga katta tezlikda bo‘lmagan, biroq uzoq vaqt davomida bajariladigan mashqlar qo‘llaniladi, masalan, bir me’yorda yugurish yoki 200 metrga yugurishni misol keltirish mumkin. Chaqqonlik sifatini kompleks rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar qoida bo‘yicha yuqorida qayd qilingan sifatlarni namoyon qilishni talab qiladi. Bolalarda asosiy harakatlar va jismoniy sifatlarni rivojlantirish doimiy shug‘ullanishni talab etadigan jarayon hisoblanadi.

Kuch sifatini sodda tuzilgan mashqlar yordamida, masalan 1 kg dan og‘ir bo‘lmagan to‘ldirma koptoklarni ko‘tarish orqali rivojlantirish mashg‘ulotlari bilan 6-7 yoshdan shug‘ullanish mumkin bo‘ladi. Jumladan, kuch imkoniyatlarini tarbiyalash uchun murakkablashgan ko‘plab mashqlarni takrorlash orqali, musobaqali va o‘yinli uslublarga kuch xarakterdagi mashqlarni kiritgan holda qo‘llash maqsadga muvofiqli. Tezkorlik – takroriy, rivojlantiruvchi mashqlar, o‘yinlar va musobaqali usullar orqali rivojlantirilishi mumkin. Tezkorlik fazilati qisqa masofaga yugurishlar, harakatlarni tez bajarish hisobiga rivojlantirilib boriladi, bunday mashg‘ulotlarda bolalar 5-7 yoshdan ishtiroy etishlari mumkin. Chidamlilik bir maromdag, uzlusiz, takroriy, tanaffusli mashqlar, o‘yinli va musobaqali usullar orqali rivojlantiriladi. Chaqqonlik maxsus mashqlar mushakli sa’y-harakatlarning qibiliyatni

takomillashtirish, muvozanatni saqlash funksiyalarini takomillashtirish, taqsimlangan zo‘riqishlar va bo‘shashishlar uyg‘unligi yordamida rivojlanadi. Chunki yugurish, harakatli o`yinlar, to‘p otish, tepaga ko‘tarilish, chaqqonlikni talab etuvchi estafeta mashqlari ham yaxshi foyda beradi. Chaqqonlik fazilatini rivojlantirish, o‘zini boshqara olish va muvozanat saqlay olish qobiliyatilarini tarbiyalash mashg‘ulotlariga bolalar 6 yoshdan jalb etilishi kerak. Asosiy harakatlarni mustaqil egallashning muhim qoidalari, oddiydan murakkabgacha, yangi harakatlantiruvchi harakatni tez va to‘g‘ri egallash uchun ma’lum uslubiy qoidalarga rioya qilish lozim[1].

Birinchi qoidasi – «oddiydan murakkabgacha». O‘rganilayotgan mashq har xil koordinatsion murakkablikda bo‘lishi mumkin. Agarda mashq juda murakkab bo‘lsa, uni yaxshisi qismlarga bo‘lib o‘rgatish yaxshi bo‘ladi. Masalan, gimnastika mashg‘ulotlari turkumiga kiruvchi umbaloq oshish mashqini bajarish qiyin bo‘ladi. Buning uchun birinchi qo‘llarga tayanib boshni egib gavda holatini yuqoriga ko‘tarishda tashqi kuch yordamida yoki tarbiyachining yordami zarur bo‘ladi yoki “Qaldirg‘och” holatida turish mashqini bajarishda birinchi engashish mashqini bajarish ikkinchi boshni oyoq uchi bilan bir xil balandlikda ushslash va uchinchisi bir qo‘lni yozgan holda ikkinchisi bilan gimnastika narvonchasidan ushlab, to‘rtinchi ikki qo‘lni ikki tomoniga yozib, bir oyoqda mashqni mustaqil bajarishga o‘rgatish zarur[2].

Ikkinchi qoidasi – «ma’lumdan noma’lumgacha». Bola harakatlantiruvchi harakatni har xil maqsadlar uchun foydalanishi mumkin. Masalan, tennis koptogini nishonga va uzoqqa uloqtirish, yugurish vaqtida koptokni olib yurish va to`sqliordan oshib oshib o‘tishi mumkin. Agarda barchasini birdaniga o‘rgatishga harakat qilinsa, bu samarali yo‘l bo‘lmaydi. Shuning uchun dastlab standart harakatlantiruvchi harakatni o‘rgatish kerak, uni bitta maqsadni hal etish uchun foydalaniladi, ya’ni uni o‘rgatish muammolari bo‘limganda bajariladi. Masalan, dastlab turgan joyda ma’lum masofadan va ma’lum uslubda savatga to‘p otish o‘rgatiladi. Shundan so‘ng bu harakat sakrash bilan to‘pni olib yurganda har xil masofadan bajarishni o‘rgatiladi. Qaysiki, sharoit va shu bilan birga savatga to‘p tashlashni aniq amalga oshirish imkoniyatlari o‘zgarib turishi inobatga olinadi, shundan keyingina to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘yin vaqtida qo‘llaniladi.

Uchinchi qoida - «o‘rganib olingandan o‘ganib olinmagangacha» yoki «o‘zlashtirib olingandan o‘zlashtirib olinmagangacha».[3]

Turli harakat faolligi darajasiga ega bo‘lga bolalar jismoniy tayyorgarligining yosh dinamikasi.

Yoshi	Yugurish tezligi		Turgan joydan uzunlikka sakrash		Chidamlilik (chopib o‘tiladigan masofa)	
	Qo‘shimcha shug‘ullanmaydiganlar	Shug‘ulanmaydiganlar	Qo‘shimcha shug‘ullanmaydiganlar	Shug‘ullanmaydiganlar	Qo‘shimcha shug‘ullanmaydiganlar	Shug‘ullanmaydiganlar
5-yosh o‘g‘il bola	2,1	2,4	95,9	83,0	1501,0	601,3
Qiz bola	2,2	2,4	93,3	73,9	1146,0	453,0
6-yosh o‘g‘il bola	2,2	2,3	104,0	87,8	1765,7	680,7
Qiz bola	2,3	2,5	95,6	79,7	1249,3	659,1
7-o‘g‘il bola	1,9	2,1	122,5	105,6	2386,2	937,3
Qiz bola	1,9	2,2	121,9	103,7	1836,0	715,1

Ko‘proq murakkab vazifalarni oshirishga o‘tishda shoshilmaslik zarur. Buni faqat shu paytda, qachonki, bolalar oldingi topshiriqni yengil va to‘g‘ri, shu bilan birga, ko‘p marta bajargandagina amalga oshirish mumkin.

Demak, qo‘shimcha shug‘ullanuvchi 5-6-7 yoshli o‘g‘il va qiz bolalar va shug‘ullanmaydigan 5-6-7 o‘g‘il va qiz bolalardan olingan natijalarga ko‘ra, mashg‘ulot bilan doimiy shug‘ullangan bolalar yaxshi natijaga erishdi. Yugurishda tezkorlik sifati, turgan joyda uzunlikka sakrashda muvozanat saqlash, chaqqonlik sifati, 200-300 metrga masofaga yugurish orqali chidamlilik sifatlari namoyon bo‘ldi. Xulosadan kelib chiqib doimiy mashg‘ulotlarga qatnashuvchi bolalar bilan qatnashmaydigan

bolalar o`rtasida tafovut natija hosil bo`lmoqda. Demak, bolalarni jismoniy sifatlar, harakat ko`nikmalarini rivojlanishida sport mashg`ulotlari bilan muntazam shug`ullanishini ta`minlash talab etiladi.

Adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-senyabrda qabul qilingan «Jismoniy tarbiya va sport to`g`risida»gi qonuni.
2. O`zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-iyunda qabul qilingan 30–31-sonli qarori.
3. O`zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabr qabul qilingan № Jismoniy tarbiya va sport to`g`risidagi qonuni Xalq so`zi gazetasi.
4. 2016-yil 9-fevralda birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan “Sog`lom ona va bola yili” Davlat dasturi.
5. Achilov A.M. Akramov J.A. Goncharova O.V. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash.. –T.: O`zbekiston, 2004. – 5 b.
6. A.I.Ikramov, D.I.Ahmedova Barkamol avlodni shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning tibbiy asoslari. Uslubiy qo`lanma. –T.: O`zbekiston, 2011. – 7b.
7. B.T.Haydarov. Fiziolgiya va sport fiziologiyasi. 105-106 b.
8. Salijonov X. Jismoniy mashqlar fiziologiyasi asoslari fanidan ma`ruzalar matni. – Farg`ona, 2001.
9. Goncharova O.V. Yosh sportchilarining jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. – T.: O`zbekiston, 2004. – 27 b
10. Atoev A.K., Belov B. V., Sermeev A.B. Sportivno massovaya rabota po mestu jitelstva. T.: O`qituvchi , 1992 y. 178 b.
11. Nasriddinov F.N., Saternikov E.K. Inson omilini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sport. – T.: O`qituvchi, 1999. – 140 b.
12. A.B.Xuxlayeva D.B. Keneman. Makatabgacha tarbiya yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi. 1988.
13. Tadjieva M. X. Xusanxodjayeva S.I. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi: Toshkent “IQTISOD-MOLIYA” 2017. – 18. b.

UDK: 374.3:377

BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARINI KASBLAR OLAMI BILAN TANISHTIRISH MAVZUSINING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI

Ch.Tursunova

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so`ng respublikamizda umumiy o`rta ta`lim muassasalariga qaratilayotgan e`tibor, xususan, ularda ta`lim sifatini oshirish, ijodkor, mustaqil o`z hayot yo`lini tanlay biladigan barkamol insonlarni tayyorlash muammosini o`rganishga nisbatan ilmiy ehtiyoj doimo mavjud. Shunday ekan, bugungi kunda zamonaviy pedagog mutaxassislarni tayyorlash masalasi ustuvor yo`nalishi sifatida belgilanib, uning samaradorligiga bevosita kasbga bo`lgan qiziqish tadbirlarini tashkil etish bilan asoslanadi. Tom ma`noda aytadigan bo`lsak o`qituvchilar, murabbiylar shaxsning kasblar olamiga qiziqishlarini oshirib va ming yillardan, azal-azaldan e`tibor qaratib kelishgan, shu bilan birga, har bir zamon talabidan kelib chiqib, bu borada qo`yiladigan talablar shakllantirilgan, ular takomillashib murakkablashib borilavergan. Biz ushbu maqolada kasbga bo`lgan qiziqishlar, qolaversa har bir zamon talabidan kelib chiqib, bu borada qo`yiladigan talablar shakllantirilgan, ular takomillashib murakkablashib borilavergan. Biz ushbu maqolada kasbga bo`lgan qiziqishlar, qolaversa har bir kasbga lozim bo`lgan milliy qadriyatlar, insoniylik xislatlarining ayrimlarini ta`riflashga, to`xtalib o`tishga harakat qildik.

Kalit so`zlar: aqlilik, odoblilik, odobsizlik, bilimlilik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, milliy g`urur.

Научно-педагогические основы внедрения учеников начальной школы в профессиональный мир

Аннотация. После обретения Узбекистаном независимости основное внимание уделяется обучению и обучению людей, которые всегда находятся в хорошем положении. Таким образом, современный педагогический персонал определяется как «приоритет»

обучения, а его эффективность напрямую связана с профессией. Учителя, которые в буквальном смысле слова. Тренеры были заинтересованы в профессиональном мире и сосредоточились на тысячелетиях и столетиях, в то же время, в зависимости от требований каждого раза, требования стали все более сложными. В этой статье мы должны взглянуть на интересы профессии, и требования в этом отношении будут усилены. В этой статье мы попытались разъяснить интересы профессии, а также описать некоторые национальные ценности, гуманистические отношения каждой профессии.

Ключевые слова: интеллект, скромность, морал, знание, трудолюбие, гуманизм, национальная гордость.

Scientific-pedagogical bases of introducing primary school students to the professional world

Abstract. After Uzbekistan gained independence, the attention paid to general secondary education in our country, in particular, has always a scientific need to study the problem of raising the quality of education and training of competent people who can choose independently their own way of life. Thus, modern pedagogical pedagogical personnel is defined as the priority direction of training, and its effectiveness is based on organizing interest events directly into the profession. Teachers who are literally speaking. The trainers have been interested in the professional world and have been focusing on the millenniums and centuries, at the same time, depending on the requirements of each and every time, the requirements that are being made have become more and more complicated. In this article, we have to look at the interests of the profession, as well as the demands of each and every moment, and the demands that are being made in this regard will be enhanced. In this article, we tried to clarify the interests of the profession, as well as to describe some of the national values, humanistic attitudes of each profession.

Keywords: intelligence, modesty, morality, knowledge, diligence, humanism, national pride.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lif muassasalariga qaratilayotgan e'tibor, xususan, ularda ta'lif sifatini oshirish, ijodkor, mustaqil o'z hayot yo'llini tanlay biladigan barkamol insonlarni tayyorlash muammosini o'rganishga nisbatan ilmiy ehtiyoj doimo mavjud.

Bugungi kunda zamonaviy pedagog mutaxassislarni tayyorlash masalasi ustuvor yo'naliish sifatida belgilanib, uning samaradorligi bevosita kasbga bo'lgan qiziqish tadbirlarini tashkil etish bilan asoslanadi. O'qituvchilar shaxsning kasblari olamiga azal-azaldan e'tibor qaratib kelishgan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, o'qituvchiga bu borada qo'yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan.

Tarixda ta'lif-tarbiya jarayoni maxsus faoliyat sifatida shakllanib borishi barobarida, uning yakunida tarbiyalanuvchilarning sifatlari, ya'ni ta'limiy maqsadlariga ham aniqlik kiritilgan. Biz quyida kasblarga bo'lgan qiziqishlar, qolaversa har bir kasbda lozim bo'lgan milliy insoniylik xislatlarining ba'zilariga ta'rif berishga harakat qildik.

Aqlilik – bu tushunchaning lug'aviy ma'nosи fikr yuritmoq, bilmoq degan mazmunni bildiradi. Shunday ekan, ma'lum kasb egasi qanchalik ko'p fikr yuritib, ko'p bilimga ega bo'lsa, shunchalik aqli hisoblanadi. Lekin odam chuqr fikr yuritmay boshqalardan ko'rgan, eshitganlarini, kitoblardan o'qiganlarini hamda ustoz muallimlar aytganini esda saqlab qolib, shu yo'llar bilan olingan bilimlarga amal qilib yurishi ham mumkin.

Odoblik – ayrim kasblarda inson fazilatining muhim ko'rsatgichi bo'lib hisoblanadi. Odobli kishi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy qadriyatlarni yaxshi bilgan va ularni e'zozlagan hamda jamiyat ichida qabul qilingan barcha axloq normalariga rioya qiladigan odamdir.

Odobsizlik – butun insoniyat yoki bir millat qadriyat deb qabul qilgan narsa va voqealiklarga behurmatlik ko'rsatish, muayyan jamiyatda qabul qilingan urf-odat va an'analarga rioya qilmay, ularni mensimaslikdir. Ta'lif-tarbiya bilan shug'ullanuvchi kishilar, bolalarga odob nima ekanini, uning mohiyatini tushuntirib berib, ularda umuminsoniy va milliy qadriyatlarni hurmat qilish, ularni o'rgatish va hayotda amal qilishga o'rgatishlari kerak.

Bilimlilik – bilimli kishi ko'p bilim sohibi hisoblanadi. Ba'zan "bilimli" tushunchasi "aqli" tushunchasi bilan sinonim sifatida qo'llaniladi. Yana qaytarib aytamizki, aqli odam mustaqil fikr yurita oladi, bilimli odam esa, mustaqil fikr yuritib yoki kitob va ustozlardan olgan bilimlarni yod olish natijasida, yetarlicha bilimga ega bo'lgan kishi hisoblanadi.

Mehnatsevarlik – har bir kasbda yoshlarning erishishi zarur bo‘lgan omillardan biridir. Mehnatsevarlik deb, mehnatning turidan – og‘ir mehnatmi yo engilmi; aqliymi yo jismoniyimi, bundan qat’iy nazar, kishi uni bajarishga jon-jahdi bilan kirishishligiga aytildi.

Salomatlik – har bir kasb egasi uchun zarur bo‘lgan omil, biror kasb bilan shug‘ullanishda zarur talab. Mutloq sog‘lom kishi deb, ham jismonan, ham aqlan, ham ruhan salomat bo‘lgan kishiga nisbatan aytildi.

Milliy g‘urur – Milliy g‘ururi yo‘q odam har bir ishda loqayd bo‘lib, uning qilgan ishining unumi bo‘lmaydi. Milliy g‘ururga ega inson esa, oldiga biron-bir maqsad qo‘ydimi, butun vujudini ishga solib, shu maqsadga erishish uchun g‘ayrat qiladi va tezlikda unga etadi.

Vatanparvarlik xislati – milliy g‘ururning taraqqiy etgan varianti bo‘lib, vatan ravnaqi uchun rag‘bat paydo qiluvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Milliy g‘urur negizida odamlarda vatanini sevish kayfiyati paydo bo‘lib, millati uchun, yurti uchun, ya‘ni vatani uchun fidoyilarcha mehnat qilib, zarur bo‘lganda jonini ham fido qilishga tayyor bo‘ladi. Buni haqiqiy vatanparvarlik deyiladi. Vatanga sodiqlik, vatanparvarlik, o‘zining qudratl ildizlari bilan o‘z oilasining avlod-ajdodlarining nomus-origa chuqur ehtiromga, insonning shaxsiy vijdoniga, burchga va o‘z so‘ziga sodiqlikka borib taqaladi. Kishilarimizning vatanparvarligi hamma vaqt sevimli xalqning shon-sharafi, qadr-qimmati, madaniyati va an‘analariga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda o‘z ifodasini topib keldi. Vatanparvarlik fuqarolar yakdilligi yosh va mustaqil O‘zbekiston davlati barpo etilayotgan negizdir. Ayni shu narsa jamiyatni qayta o‘zgartirish yo‘lidagi qiyinchiliklarni engib o‘tishga, hamjihatlik va hamkorlikka erishishga yordam beradi.

Baynalminallik – har bir kasbda muhim omil. Odam millatini va vatanini sevish bilan birga boshqa millat tarixini, ma’naviyat va qadriyatlarini o‘rgana boshlaydi. Odam boshqa xalqlar madaniyatini o‘rganish jarayonida, ularda ham juda ko‘p qadriyatlar, adabiyot va san’atlari bor ekanini bilib oladi. Shundan keyin yaqin va uzoq xorijdagи xalqlar ma’naviyatni va madaniyatini chucherroq o‘rgana boshlaydi. O‘rganish jarayonida, ularga mehri oshib, sekin-asta ularni ham o‘z millati qatorida yaxshi ko‘radigan bo‘ladi. Baynalminal tuyg‘uga ega odam komillikka etishgan hisoblanadi. Bu er yuzida haqiqiy tinchlik va totuvlikni o‘rnatish, umumjahon iqtisodiyotini taraqqiy ettirish, pirovard natijada dunyoda farovon hayot o‘rnatalishining asosiy omili va garovi bo‘lib xizmat qiladi.

Insonparvarlik (gumanizm) – bu xislati mayjud kasb egasi umuminsoniy qadriyatlarini tan olibgina qolmay, ularni bor kuchi bilan muhofaza qiladi. Umuminsoniy qadriyatlarga: har bir insonni shaxs sifatida tan olishlik, yashash, mehnat qilish, sevish va sevilish, o‘z iqtidorlarini istalganicha namoyon qilish huquqlari kiradi. Insonparvar kishi odamdagи ushbu insoniy huquqlarni tan olib, ularning buzilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Ushbu ta’riflarga xulosa qiladigan bo‘lsak, yuqorida sanab o‘tilgan shaxsning ijobiyl fazilatlari uning kasbiy xislatlarini shakllantirishda muhim omillar bo‘lib hisoblanadi. Shunday ekan, yoshlarni turli kasblarga tayyorlashda ularni hisobga olishimiz zarurdir.

Umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarini o‘quvchilariga ta’lim berishda ham zamonaviy pedagogikaning asosiy prinsiplaridan biri - shaxsni jamiyat hayotiga tayyorligini ta’minalashga yo‘naltirilgan (ijtimoiy integratsiya va sotsiokorreksiya) tamoyilini ta’minalashga e’tibor qaratilishidir.

Bosqichlar orasida mantiqiy izchillik, davomiylik va uzlusiz bo‘lishini ta’minalashga katta e’tibor berilgan. Shuning uchun quyi bosqichlarda o‘quvchilar egallagan bilimlarini yuqori bosqichlarda davom ettirishlari uchun zamin yaratiladi.

Biz har bir kasb egasida bo‘lishi lozim bo‘lgan shaxsiy fazilatlarning ma’lum qismini aniqlashga va ro‘yxat asosida tartiblashga harakat qildik:

- | | | | | | | | |
|-------------------|--------------------|-------------------------------|---------------|----|--|--|--|
| 1. Haqqoniylit | 2. Vatanparvarlik | | | | | | |
| 3. Olijanoblik | 4. Tashabbuskorlik | 5. O‘ziga tanqidiy yondashish | 6. Samimiylit | 7. | | | |
| Xushmuomalalik | 8. Pokizalik | | | | | | |
| 9. Qat’iyatlilik | 10. Talabchanlik | 11. Insonparvarlik | | | | | |
| 12. Sabr-toqat | 13. Kamtarlik | 14. Faollik | | | | | |
| 15. Kechirimlilik | 16. Saxovatlilik | 17. Poklik | | | | | |
- Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlarini anglashlari o‘qish, o‘yin va sport faoliyatlarini bilan namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda ta’lim muassasalaridagi odatlanilmagan vaziyatlarning shaxslararo munosabat va muloqot ko‘lami endilikda kengaydi. Bu hol yoshlarning aqliy, irodaviy xususiyatlarini oqilona baholash, qo‘yilayotgan talablarga javob tariqasida yondashishni jadallashtiradi.

Albatta, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zini anglashga aloqador xususiyatlari mavjud. Ular o‘zlarining yutuq va kamchiliklarini, kuchli va zaif jihatlarini, ijobiy va salbiy qiliqlarini aniqroq baholash imkoniyatiga doim ham ega bo‘lmaydilar. Ularda shaxsiy fazilatlarni, xulq-atvorni, aqliy va jismoni hamda o‘quv faoliyatni tahlil qilish, qiyosiy baholash masalasi dolzarb emas. SHuni ta’kidlash lozimki, ayrim hollarda o‘quvchilar o‘z xatolarini baholashga urinmaydilar. Pedagogik tashxislash natijalaridan shu narsa aniqlandiki, ular o‘z xususiyatlariga ortiqcha baho berib, yosh bolalikka xos bo‘lgan kibrlanish, maqtanchoqlik, manmanlik kabi odatlari ham mavjuddir. SHuningdek, ayrim bolalar aksincha o‘z shaxsiy fazilatlarini umuman baholay olmaydilar.

O‘tkazilgan anketa so‘rovnomalimizda aksariyat boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kasb va burchni fahmlashga moyilliklarini bildirdilar. Masalan, so‘rovda qatnashgan 36 ta qiz boladan 19 tasi muayyan kasb deganda “ishga borib kelish”, “boshqalarga yordam qilish” bo‘yicha harakat qilishni tushunadilar. 33 nafar o‘g‘il bolaning 14 tasi kasb deganda “kattalarning band bo‘lishini” tushunadilar. Yoshlarning aksariyati “Mustaqil O‘zbekistonning ravnaqiga o‘z hissamni qo‘sha olamanmi?” va “Kelajakda o‘sim tanlaydigan kasb haqida nimani bilaman?” kabi savollarga javob qidirishda juda jiddiylik, mas’uliyat, ayrim hollarda bir oz hazil bilan yondashganliklarining guvohi bo‘ldik.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘zlarining bo‘lajak kasb fazilatlari haqida yaqqol tasavvur hosil qilish uchun o‘qituvchi, pedagoglar jamoasi juda ustalik, bilimdonlik, mohirlik bilan faoliyat ko‘rsatishi lozim. Ular o‘zlarining do‘stona, iliq munosabati bilan guruh jamoasi bilan birqalikda harakat va mehnat qilish hissini paydo qilishga zamin yaratadi.

1. O‘zbekistondagi zamonaviy pedagogik qarashlarda, masalan, pedagog olimlar I.Tursunov va U.Nishonaliyevlarning «Pedagogika» nomli asarida shaxsning kasbiy va umuminsoniy xislatlarini olti jihatga bo‘lib o‘rganish taklif etiladi.

Umuman olganda, shaxsning kasbga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishda muhim bo‘lgan juda ko‘p insoniy xislatlar mavjudligi qayd qilinadi.

I. Shaxsning kasbiy-umumiylar xislatlari

1. Madaniyatilik. 2. Bilimlilik. 3. So‘zamollik. 4. Kamtarlilik kabi xislatlar.

II. Axloqiy xislatlar:

1. Odamiylik. 2. Do‘stonalik. 3. Oliyjanoblik. 7. Xushmuomalalik kabi axloqiy xislatlar ta’riflangan.

III. Ishchanlik, uddaburonlik xislatlari:

1. Quntlilik. 2. Halollik. 3. Tirishqoqlik. 4. Ijro etuvchilik. 5. CHaqqonlik. 6.Saranjom-sarishtalik kabi xislatlar.

IV. Zakovatlilik, zukkolik xislatlari:

1. Zehnlilik. 2. Xotirjamlik. 3. Topag‘onlik. 4. Savodxonlik. 5. Sinchkovlik kabilar ko‘rsatilgan.

V. Irodaviylik, chidamlilik xislatlari:

Serg‘ayratlik, intizomlilik kabi xislatlar.

VI. Ehtirosli xislatlar:

Hazilkashlik, ishonuvchanlik, kek saqlamaslik, ozodalik kabi xislatlar o‘z ifodasini topgan.

Shaxsning tuzilishi, uning xislatlarining ta’riflanishi, shaxs yashayotgan jamiyat vazifalarini hal etishdan kelib chiqib, ta’riflanadi. Shaxsning jamiyatda o‘zini tutishini namoyon qiladigan va jamiyat a’zolari bilan munosabatlarda bo‘ladigan xislatlar - fazilatlar majmui - ijtimoiy fazilatlar sifatida mujassamlanadi. Ijtimoiy fazilatlar - shaxsning dunyoqarashi, axloqi, xulq-atvori, madaniyati, nafosati, ichki va tashqi go‘zalligi munosabatlarda yuzaga chiqadi. Bu munosabatlar salbiy va ijobiy bo‘lishi mumkin. Masalan, jamiyatda shaxsning mehnat xislatlari mehnatsevarlik - mehnat jarayoniga, buyumlariga kishilarga hurmat hissida, yoki aksincha, ishyoqmaslik, dangasalik ko‘rinishlarida ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Shaxsning hayotiy tajribasi unda kasbiy sifatlarning shakllanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Hayotiy tajriba turli ma‘lumotlardan, bilimlardan xabardorligi darajasi ham ushbu omilning, qanday darajada taraqqiy etganligining belgilardan hisoblanadi. Bu belgilardan shaxsning o‘qimishliligi, bilimdonliligiga uning o‘z harakat usullarini qanchalik to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajara olishida, ko‘nikma va mahorat darajasida ko‘rinadi. Albatta, ushbu holatni o‘quvchilarning muassasadagi o‘quv-o‘rganish faoliyatiga taqqoslasak, uning onglilik darajasi turli fanlardan ma‘lumotlarni o‘zlashtirish (xotiraga ko‘chirib olish), og‘zaki aytib bera olish, turli ko‘nikma va malakalari misollar va mashqlarni echish, bajarish, mehnat jarayonida ishtirot etishida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Pedagogika kursi. Tursunov I., Nishonaliev U. – T.: O‘qituvchi, 1997. - 232 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning madaniyat va san’at sohasi vakillari ishtirokidagi yig‘ilishidagi nutqidan. 2017-yil 3-avgust
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. 2017-yil 19-sentyabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunning 25 yilligi munosabati bilan bo‘lib o‘tgan tantanali marosimdagи nutqi. 2017-yil 7-dekabr.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017-yil 22-dekabr.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi. 2017-yil.
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2008. – 40 b.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 1997, 20-bet.
9. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa kotserni, 1997, 31-bet.
10. Abdullaeva Sh.A. O‘quvchilarni pedagogik tashxislashda qo‘llaniladigan metodlar // Xalq ta’limi, 2003, №3. 40-45 betlar.
11. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии в подготовке учителя. Ташкент, 2000.
12. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: Педагогика, 1989.
13. Бордовская Н. Педагогика, 1995.
14. Галперин П.К. К теории программированного обучения. – М., 1967.
15. Djuraev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2006. – 263 b.

УДК: 42:004.9

**ПРОЕКТИРОВАНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ НА ЗАНЯТИЯХ
АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА**

Г.Г.Азизова

Соискатель Самарканского государственного института иностранных языков

Аннотация: В статье раскрываются современные методологические подходы в области педагогического проектирования технологии обучения на занятиях английского языка с учетом особенностей профессионального образования, а также представлены данные социологического опроса, которые отражают состояние обучение иностранному языку.

Ключевые слова: технология обучения, методологические подходы, педагогическое проектирование, профессиональное образование.

Ingliz tili darslarida zamonaviy o‘qitish texnologiyalari bilan loyilashtirish

Annotatsiya. Maqola professional ta’limning xususiyatlarini hisobga olgan holda, ingliz tili darslarida o‘qitish texnologiyasini pedagogik loyilahalash bo‘yicha zamonaviy uslubiy yondashuvlarni ochib beradi. Shuningdek, chet tillarini o‘qitish holatini aks ettiruvchi ijtimoiy tadqiqotlar ma’lumotlarini taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: o‘qitish texnologiyasi, metodologik yondashuv, pedagogik loyilahalash, professional ta’lim.

The design of modern learning technologies in the classroom english language

Abstract. the article reveals the modern methodological approaches in the field of pedagogical design of teaching technology in English classes, taking into account the features of

professional education, and presents the data of a sociological survey that reflect the state of foreign language teaching.

Keywords: learning technology, methodological approaches, pedagogical design, professional education.

Одной из основных задач указа Президента Республики Узбекистан “О дальнейшем совершенствовании системы непрерывного образования в 2017-2021 гг.” Заявлено, что создание и распространение структурных и технологических инноваций в профессиональном образовании, которые способствовали бы разработке и распространению в системах высшего образования инновационных образовательных технологий [1]; модернизации содержания и технологий обучения для достижения соответствия требованиям современной экономики и изменяющимся запросам населения [2]; увеличению доли онлайн-курсов с возможностью формирования цифрового портфолио в образовательных организациях [4, 87]. В современном мире потребность в специалистах нового формата обусловлена сегодня рядом факторов:

- особенности отечественной и мировой экономики, проявляющиеся в развитии малого и среднего бизнеса, росте числа малых предприятий; - выпускники высшего образования должны составить ядро передовых наукоемких отраслей инновационной экономики нашей страны;

- устойчивая тенденция роста профессиональных и личностных требований работодателей к специалистам в сфере производства связана с притоком иностранных инвестиций и управлеченческих кадров;

модернизацией отечественных промышленных предприятий; совершенствованием старых и созданием новых форм и способов управления сообразно специфике отечественного рынка.

Как известно, обучение английскому языку преследует две основные цели [7, 91]:

